

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA TA'LIM MAKTABGACHA
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYASI
KAFEDRASI**

o'qit.SH.DONIYOROVA

**MAKTABGACHA PEDAGOGIKA
FANIDAN**

O'QUV USLUBIY MAJMUA

SAMARQAND- 2019

MUNDARIJA:

Fanlar bo'yicha o'quv –metodik kompleks tuzilmasi		
	1. Titul varag'i. 2. Mundarija	
I-qism. Oliy o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlangan o'quv-metodik hujjatlar va adabiyotlar		
1.1. O'quv – me'yoriy xujjatlar		
1.1.1.	Davlat ta'lim standarti	
1.1.2.	O'quv rejasi.	
1.1.3.	O'quv dasturi	
1.1.4.	Moddiy –texnik va o'quv –metodik ta'minotga qo'yiladigan talablar	
1.1.5.	Malakaviy amaliyot dasturi	
1.2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi grafini olgan o'quv adabiyotlari		
1.2.1.	Darslik	
1.2.2.	O'quv qo'llanmasi	
1.2.3.	Metodik qo'llanmalari.	
II qism. Joriy o'quv –metodik ta'minot		
2.1.	Joriy o'quv –metodik ta'minot	
2.1.1.	Ishchi o'quv rejasi	
2.1.2.	Ishchi o'quv dasturi.	
2.1.3.	Kalendar –tematik reja.	
2.2.	Joriy o'quv –metodik ta'minot.	
2.2.1.	Lekusiyalar matni.	
2.2.2.	Laboratoriya, amaliyot va seminar mashg'ulotlarning ishlanmalari, tarqatma materiallar, ularni o'tkazish va qo'llash bo'yicha metodik tavsiyanomalari.	
2.2.3.	JN, ON, YaN bo'yicha ballar taqsimoti va topshiriqlar mazmuni, baholash mezonlari ON va YaN savolnomalari (intellektual tizim, testlar, yozma ish va og'zaki so'rov variantlari).	
2.2.4.	Mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha metodik tavsiyanomalariyu	
2.2.5.	Mashg'ulotlarning pedagogik texnologiyasi va texnologik xaritalari.	
2.2.6.	Kurs ishlari mavzulari, ularni baholash mezonlari.	
2.2.7.	Bitiruv malakaviy ishi mavzulari banki va uni bajarish bo'yicha metodik tavsiyanoma.	
2.2.8.	Malakaviy (pedagogik) amaliyotini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyanoma.	
2.2.9.	Fan bo'yicha ma'naviy –ma'rifiy ishlari va ularni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyanoma	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA USLUBIYATI KAFEDRASI

**MAKTABGACHA PEDAGOGIKA
FANINING**

MA'RUZA MATNI

1-MAVZU: KIRISH. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MAKTABGACHA TA'LIM KONSEPSIYASI . 2 SOAT.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida islohatlar va O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasi haqida bilim ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

Asosiy savollar:

1. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasining yaratilishi va dolzarbligi.
2. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasining asosiy mazmuni va vazifalari
3. Maktabgacha ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagilar ta'lim va tarbiyasining shaxsiy yo'nalganlik modeli mazmuni
4. O'zbekiston Respublikasida islohotlar davrida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadi, vazifasi va tamoyillari.

Tayanch so'zlar va iboralar: Konsepsiya, maktabgacha ta'lim, uzluksiz ta'lim, ijtimoiy-pedagogik yondoshuv, gnoseologik yondoshuv, psixologik yondoshuv, akmeologik yondoshuv.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Konsepsiyasi. Toshkent 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «Ukituvchi», 1997.
4. B.Ziyamuxdmedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
5. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
6. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
7. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni. Ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy davri – maktabgacha birinchi bosqichida quyidagilarda namoyon bo'luvchi o'zgarishlar yuz bermoqda: maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashib bormoqda; muassasalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi shakllariga o'tmoqda; nodavlat tashkilotlar tarmoqlari kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari tatbiq yetilmoqda; kadrlar malakasini oshirish tizimi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim muassasalarining alternativ shakllari tatbiq yetilmoqda. Moliya institutlari ishtirokida investision loyihalar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarining innovasion va yeksperimental faoliyati kengaymoqda.

YuNESKO qarori bilan 1997 yilda “maktabgacha ta'lim” termini kiritilgan. Bu yesa maktabgacha ta'limning nazariy asosini qaytadan ko'rib chiqish zarurligini belgilaydi. Shunga ko'ra, mazkur maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi 2017 yilgacha bo'lgan vazifalar, strategiyasi, maqsadi, tamoyillari, rivojlanish vazifalarini aniqlaydi.

Konsepsiyada davlatimizda, chet yelda maktabgacha ta'lim rivojlanishining zamonaviy g'oyalari aks ettirilib, shuningdek, psixolog-olimlar, pedagoglar, defektologlar, ota-onalar jamoatchiligi fikrlari inobatga olingan.

Konsepsiyaning huquqiy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasining quyidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlari hisoblanadi: O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Ta'lim to'g'risidagi” Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va ta'lim sohasidagi boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlaridir.

Davlat bo'lajak fuqaro shaxsi shakllanishida bola ilk rivojlanishini muhim ahamiyatini his qilgan holda uzluksiz ta'lim tizimining birinchi davrida bolalarni tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishga kuch-qudrat sarflamoqda.

Asosiy mazmun. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich halqasi bo'lib hisoblanadi. U sog'lom va har tomonlama yetuk bola shaxsi shakllanishini ta'minlashga, uni muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlab, uni o'qishga bo'lgan havasini uyg'otishga qaratilgan bo'lib, bu 6-7 yoshgacha bo'lgan davrda davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini

amalga oshirishda jamoatchilik va xayriya tashkilotlari, mahalliy uyushmalar (mahalla), xalqaro fondlar faol ishtirok yetadilar.

Maktabgacha ta'lim – bolaning individual, yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini, uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi – maktabga o'z vaqtida va to'laqonli o'tishini ta'minlovchi har tomonlama, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir.

Maktabgacha ta'lim olishning shakl va usullaridan qat'iy nazar quyidagi **vazifalarni** hal qilish lozim:

bolalarning jismoniy va psixik salomatligini mustahkamlash;

bolalarni milliy, umuminsoniy, ahloqiy va madaniy qadriyatlarga o'rgatish;

bolaning aqliy qobiliyatini rivojlantirish;

milliy an'analar va urf-odatlar asosida yuqori ma'naviyat va ahloq asoslarini shakllantirish;

maqsadga yo'naltirilgan va muntazam ravishda bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iste'dodini rivojlantirish.

Yuqorida ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim maktabgacha yoshdagi bolaning individual xususiyatlariga, davlat va jamiyat yehtiyojlariga bog'liq holda har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi lozim.

Maktabgacha yosh davrining xususiyati shundan iboratki, aynan shu davrda turli xil ijtimoiy bilimlar, ko'nikma, malakalar va faoliyatning turli turlarini yegallashda zamin bo'lib xizmat qiluvchi umumiy rivojlanish ta'minlanadi.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagilar ta'lim va tarbiyasi shaxs shakllanishida insonparvarlik tamoyili va ijodiy yondashuvga asoslangan tarbiyaning metod va yo'llari tizimidan iborat bo'lgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga asosan amalga oshirilishi zarur.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy qoidalari – tarbiyachi va bolaning ijodiy o'zaro ta'siri sifatida ta'limga munosabat; ixtiyoriy ravishda o'qitish; mushkul maqsad g'oyasi (bola oldida murakkab maqsad qo'yiladi va uni yengib o'tish ishonchi singdiriladi); tayanchdan foydalanish (tayanch signallar); o'z-o'zini tahlil qilish (bolalar faoliyatini individual va jamoaviy xulosalash); yerkin tanlash (o'quv materialini bolalar tomonidan yaxshiroq o'zlashtirilishi maqsadida tarbiyachining o'quv vaqtidan o'z ixtiyoricha foydalanishi); guruhning intellektual foni (ta'limning mazkur davrida zaruriy hayotiy maqsadlarni qo'yish va o'quvchilarni dasturga nisbatan ko'proq bilimlarni olishi); tarbiyaga shaxsiy yondashuv, tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligi.

Ta'lim natijasi bo'lib, bolaning shaxsiy sifatlari: mehribonlik, xayrixohlik, dilkashlik, vijdonlilik, to'g'rilik, maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, uyushqoqlik, mehnasevarlik, mas'uliyatlilik, ziyraklik, vazminlik, dovyuraklik, mustaqillilik, ishchanlik, kuzatuvchanlik, bilimdonlik va shu kabilar mazmunini o'zgartirish hisoblanadi.

Ta'lim tomonidan zamonaviy jamiyatga integrasiyalashgan (qo'shilgan) va uni takomillashtirishga yo'nalgan odam va fuqaroning vujudga kelishi, bilimlarning zamonaviy darajasiga mos keluvchi olam tasvirining shakllanishi; shaxsning milliy va jahon madaniyatiga integrasiyasi uchun shart-sharoit yaratuvchi jamiyatning umumiy va professional madaniyatining jahon darajasiga teng kelishi; jamiyatning milliy kadrlar imkoniyatini takror ishlab chiqarish va rivojlantirish ta'minlanadi.

Uzluksiz ta'lim jarayonining yakunlanish muvaffaqiyati ta'limning normativ belgilangan bosqichi sifatida ta'lim darajasi haqida dalolat beradi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun bilim darajasi – bu shaxs sifatlari va xususiyatlarining rivojlanish darajasi, ta'lim standartiga asoslangan yoshga va dastur talablariga bog'liq holda yerishilgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir.

Maktabgacha ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagilar ta'lim va tarbiyasining **shaxsiy yo'nalganlik modeli ustuvor** bo'lib hisoblanadi. Shaxsiy yondashuvning maqsadi – bu shaxsning shakllanishi bo'lib, belgilangan standart bo'yicha uni o'zgartirish yemas, balki uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishdir. Shaxsiy yondashuv ta'lim jarayoni subyekting shaxsiy vazifalari (funktsiyalari) rivojlanishining to'laqonli namoyon bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Shaxsiy vazifalar – “shaxs bo'lish” ijtimoiy buyurtmasini amalga oshiruvchi ma'lum bir sifatlarni shaxs tomonidan namoyon bo'lishidir.

Ta'lim jarayonini tashkil qilishning asosi sifatida shaxsiy yondashuv shaxsning jamoada ye'tirof yetilishi, unda insonparvarlik o'zaro munosabatlarini yaratishni bildiradi. Mazkur munosabatlar sababli bola o'zini shaxs sifatida anglab, boshqa insonlar (kattalar va tengdoshlar)da ham shaxsni ko'ra olishga o'rganadi. Tengdoshlar, bolalar jamoasi har bir bolaning imkoniyatlari amalga oshirilishi kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlari amalga oshirilishining yo'llari pedagogning qadriyatlar yo'nalganligiga, ya'ni uning moddiy va ma'naviy qadriyatlarga, hulq-atvorda namoyon bo'luvchi ustanovkalar tizimi, ye'tiqod, afzalliklarga tanlab munosabatda bo'lishiga bog'liq.

Pedagogning qadriyatlari yo'nalganligi uning kasbiy faoliyat yo'nalishini belgilaydi. Shaxsiy yondashuv pedagog va bolaga o'zini shaxs deb anglashiga yordam berishni, ular imkoniyatlarini aniqlash va ochishni, o'z-o'zini anglash shakllanishini, o'z o'rnini belgilashning shaxsiy muhim va ijtimoiy maqbul usullarini amalga oshirishni, o'z-o'zini namoyon qilishni va o'z mavqeyini tasdiqlashni nazarda tutadi.

Ta'lim muassasasida bola shakllanish muammosida oilaviy tarbiya sharoitlarini xisobga oluvchi va bolaning shaxsiy salohiyati va qobiliyatini ochishga qaratilgan tarbiya haqidagi zamonaviy ilmiy ma'lumotlarni amalda qo'llovchi pedagogning o'rni masalasini ko'rib chiqish talab yetiladi.

Pedagogga shaxsiy yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda pedagogik o'zaro ta'sirni davrma-davr rejalashtirishdan "pedagog faoliyatining vositasi sifatida yemas", balki pedagog va bola "shaxsining namoyon bo'lish usuli" sifatida foydalanish zarur (P.Blonskiy, A.Leontev).

Pedagogik o'zaro ta'sirning birinchi davrida pedagog bola bilan psixologik aloqani o'rnatish maqsadida birgalikda xatti-harakatlarni shakllantirib rivojlantiradi (qabul qilish va yoqtirish xissi, bir-biriga ishonch, yemosional hamdardlik, o'zaro xatti-harakatlarni tushunish va kelishilganlik), pedagogik aloqani yemosional- shaxsiy aloqaga "o'tkazadi". Kattalar va bolalar o'zaro ta'sir xarakteriga javobgarlik o'zaro munosabatlarni o'rnatishni biluvchi kattalar zimmasida qoladi.

Ikkinchi davrda bolani psixologik qo'llab-quvvatlash, kattalar bilan muloqotda konkret-yemosional, amaliy ta'sir qiluvchi va odob-ahloq aloqasiga yerishish maqsadlarida namoyon bo'ladi.

Bola shaxsi shakllanishini psixologik qo'llab-quvvatlash – bu kattalar tomonidan bola muammosini tushunish, qabul qilish, tan olish va ularni hal qilishda yordam berishdir. Uning asosiy maqsadi pedagogik muloqotning kundalik vaziyatlarida kattalar va bolalar yemosional-shaxsiy munosabatlari shakllanishidan iborat. Tarbiyachi shaxsiy-rivojlanuvchi o'zaro ta'sir sharoiti sifatida psixologik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda:

pedagogga va o'z-o'ziga ishonish imkoniyatini berib, bolaga nisbatan mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, samimiylilik bildiradi;

o'z-o'ziga baho berish va u uchun o'zining ahamiyatga yegalligini mustahkamlash maqsadida bolaning fazilatlarini ongli ravishda ta'kidlaydi;

xatolarga yo'l qo'yish qo'rquvini ketkazib, bola uchun ijobiy yemosional makon yaratadi;

bolaning muvaffaqiyasizligini tushungan holda qabul qilib, u bilan birga ularni yengib o'tish yo'llarini aniqlaydi. Bunday yondashuv asosida "kattalar-bolalar" o'zaro ta'sir tizimining shaxsiy yo'naltirilgan qoidalaridan biri yotadi. Bunga ko'ra har bir inson, xususan ta'lim oluvchi xato qilish va uni tuzatish huquqiga yega;

bolani tarbiyalamasdan, balki muammoni bola tomonidan hal qilinishiga yo'l boshchilik qiladi.

Shunday qilib, pedagog (katta odam) psixologik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirib, maktabgacha davrdagi bola shaxsi shakllanishini ta'minlovchi, taraqqiyotning shart-sharoiti, xarakteri va kelajagi uchun majburiyatni o'z zimmasiga olib, asosiy omil sifatida ishtirok yetadi. Bola yesa o'z navbatida ijtimoiy hulq-atvor namunasi sifatida kattalarning munosabatini kuzatib (tahlil qilib), ijtimoiy maqbul va adekvat hulq-atvor normalarini o'zlashtiradi.

Psixologik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish pedagog va bola yemosional-shaxsiy munosabatlarining rivojlanishiga olib keladi. Yemosional-shaxsiy qo'llab-quvvatlanishni qidirish maqsadida pedagog bilan o'zaro munosabatga kirishib, muloqot davomida namoyon bo'lgan sifatlar (diqqat-ye'tibor, xayrixohlik va b.) orqali uni bilib oladi. Keyingi galda bola aynan shu

xususiyatga ishongan holda aloqaga kirishib, unda yemosional-ijobiy o'z-o'zini his qilish, atrofdagilar uchun keraklilik xissi shakllanadi.

Pedagogik o'zaro ta'sirning uchinchi davrida o'zaro ta'sirning uslubi sifatida "pedagogik his qilish" ning shakllanishiga, pedagog va bolaning bir-biriga ta'sir ko'rsatishning tuzilishi sifatida o'zaro munosabatlar ma'lum bir turining yuzaga kelishiga olib keluvchi yemosional-shaxsiy munosabatlarning rivojlanishi yuz beradi.

Hamkorlik pedagogikasi kattalarga (tarbiyachilar, ota-onalar va b.) ta'lim va tarbiya jarayonida muloqotning altruistik uslubidan foydalanish zarurligini uqtiradi. Pedagog bolaga bunday ta'sirni amalga oshirishda unga hukmronlik qilib, nazorat, majburlash kabi ta'sirlardan voz kechib, tarbiyalanuvchiga yerkin tanlash huquqini beradi. Bola muloqotning mazkur uslubida chegarasiz, so'zsiz o'z-o'ziga, shaxsiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonch vaziyatiga tushadi. Bunday vaziyat natijasi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarda ahloqiy o'z-o'ziga baho berish: o'zganing ishonchini his qilgan holda o'zining imkoniyatlariga ishona boshlaydi. Pedagogning bolaga nisbatan beg'arazligi uni ham beg'araz harakat qilishga undaydi.

Shunday qilib, pedagogik o'zaro ta'sirning uchinchi yakunlovchi davrida uyg'un munosabatlar tizimi sifatida ikki tomonlama muloqotga kirishuvchilarning bir-biriga ta'sir tizimi shakllanadi. Bunda kattalar va bolalar faolligi, o'zaro munosabatlarining ishonchliligi, bolani psixologik himoya qilish darajasi va o'zaro tushunishga yerishish ortadi.

O'zaro ta'sir tomonlarning (pedagog va bola) vakilligi kattalar pozitsiyasi tomonidan "pedagogik his qilish"ni yegallash, tarbiyachi o'z shaxsini o'zgartirishi, shaxsiy ziddiyatni kamaytirish, tarbiyalanuvchi "pozitsiya"sini yegallash ko'nikmasini o'zlashtirish, bolani yemosional qabul qilish, unga ruhiy jarohat yetkazish imkoniyatini yo'q qilish va uning shaxsiy taraqqiyotiga ishonch bildirishni taxmin qiladi.

Bola pozitsiyasi tomonidan o'zaro ta'sir tomonlarining vakilligi uning kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro ta'sir va muloqotda bo'lish yehtiyojlarida; tarbiyachiga yordam berishda shaxsiy va tarbiyachining unga nisbatan munosabat xatti-harakatlarini anglashda; tengdoshlarining o'z shaxsiy muammolarini tushunib yetish (refleksiya)da namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, tarbiyachining pedagogik o'zaro ta'sir davrlari yemosional-shaxsiy aloqani o'rnatish va yaratishga (I davr); pedagog va o'quvchi o'rtasidagi yemosional-shaxsiy munosabatlarni rivojlantirishga (II davr); munosabatlarning uyg'unlik tizimini shakllantirishga (III davr) yo'naltirilgan.

Shuni ta'kidlash mumkinki, bolaning kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlari tizimining uyg'unligi turli xil shaxslararo munosabatlarda "Men" mezonini bo'yicha shaxsiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari sifatida bola ijtimoiy faolligi rivojlanishining manbasi va sharti bo'lib hisoblanadi.

Bola ijtimoiy faolligining rivojlanishi davrma-davr yuz beradi va buni uning ijtimoiy faolligi namoyon bo'lishining bir darajadan ikkinchi darajaga o'tishi deb ifodalash kerak.

I-davr – ijtimoiy faollikning boshlang'ich darajasi ("oiladagi voqyelik") bolaning tevarak-atrofdagi haqiqat bilan aloqasining amaliy xarakteri va uni kattalar (ota-ona, yena va b.)ga to'liq qaramligi bilan belgilanadi. Bolaning faolligi turmush yehtiyojlarini qoniqtirishga qaratilgan. Bola uchun uning ota-onasi (ular o'rnini bosuvchilar) qadr-qimmatga yegadir.

II-davr – ijtimoiy faollikning birinchi darajasi ("vaziyatdagi voqyelik") bolani bo'lib o'tayotgan hodisalardan ajrala olmasligi va uni vaziyatga to'liq qaramligi bilan tavsiflanadi. Bu darajada bola uchun uning xatti-harakatlari xarakteri va yo'nalganligini belgilovchi vaziyat muhim ahamiyatga yegadir.

III-davr – ijtimoiy faollikning ikkinchi darajasi ("vaziyat ustidagi voqyelik") bolani vaziyatlar oqimi ta'siridan chiqishi va o'zining "qimmatli kompasini" yordamida vaziyatni tushunib ish tutishi bilan xarakterlanadi. Uning uchun vaziyatdan chiqishning usul va vositalari, ya'ni "qurollar", ularning psixologik turlari ham muhim ahamiyatga yega.

IV-davr – ijtimoiy faollikning uchinchi darajasida ("o'zidagi voqyelik") bola o'z vaziyatlari modelini tayyorlab, atrofidagi kattalar va tengdoshlari bilan "ish yuzasidan" munosabatlar o'rnatishga urinadi. Shu yo'l bilan o'z "Men"ini namoyish qilib, o'z "makoni"ni himoya qiladi va uning yegosentrizmi, ya'ni olamga bo'lgan munosabati va o'zining shu olamda namoyon yetishi aniqlanadi.

V-davr – ijtimoiy faollikning to'rtinchi darajasi ("boshqadagi voqyelik") bolaning yegosentrizmini yengishga va o'zganing qadr-qimmatini tan olishga intilishi bilan belgilanadi.

Bola uchun tevarak-atrofdagi barcha tirik jonzorlar: o'simlik va hayvonot dunyosi, odam qadri-qimmatga yegadir.

Ijtimoiy faollik qayd yetilgan darajalar bolani ijtimoiy haqiqat bilan o'zaro munosabat xarakterini va turli shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy-shaxsiy rivojlanish yo'llarini aniqlaydi.

Yuqorida ta'kidlanganlar bola ijtimoiy rivojlanish jarayonining qanchalik murakkabligini ko'rsatib turibdi. Maktabgacha yosh davri shaxs shakllanishi va ijtimoiylashuvda muhim ahamiyatga ega bo'lgan davr hisoblanadi. Shaxs rivojlanishi uning yehtiyoji oxir oqibat albatta iste'molchilik yemas, balki yaratuvchilik sohasida ro'y berishini taxmin qiladi.

O'zbekiston Respublikasida islohotlar davrida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadi:

- maktabgacha ta'lim nufuzini oshirish, ta'lim sohasining jamiyatdagi ustuvorlik mavqeyini mustahkamlash;

- asosiy buyurtmachi va iste'molchi bo'lgan ota-onalarga yo'naltirilgan holda turli xildagi maktabgacha tarbiya muassasalari rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish.

Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni yechish zarur:

- maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimini (byudjet va idoralar) saqlash;

- maktabgacha ta'lim standartini aniqlash;

- maktabgacha ta'limni yangi mazmun va texnologiyalarga o'tkazish;

- maktabgacha ta'lim muassasasining turli xil tamoyillariga, ochiqlik, qulaylik, oila bilan hamkorlik, maktab, mahalla va boshqa jamoatchilik tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlariga bog'liq holda maktabgacha ta'lim muassasalari tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari rivojlanishini o'zib o'tuvchi jamiyatga nisbatan (avvalambor, oila va maktabga) o'zgaruvchan sharoitlar, talablarga mos ravishda va o'z vaqtida javob qaytarish;

- maktabgacha ta'lim muassasalarining o'zgaruvchan tuzilishida tez mo'ljal olishga imkon beruvchi mazkur muassasalar uchun kadrlarni ilmiy-uslubiy tayyorlashni takomillashtirish.

Maktabgacha ta'limni yangilashda asosiy pozitsiyalar quyidagicha: pedagogik ish yo'nalganligini insonparvarlashtirish; differensiasiyalashtirish va individuallashtirish; demokratlashtirish; bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini taqdim yetish; dinamiklashtirish va variativlikdir.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalarini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarni inobatga olish zarur:

- bolaning turli xildagi faoliyatini tashkil yetish orqali bola shaxsining ishtiyoqini to'la ochilishiga, qiziqishlari, qobiliyatlariga yo'naltirilgan pedagogik ish;

- shaxs shakllanishida maktabgacha yosh davrining ahamiyati haqidagi zamonaviy ilmiy bilimlardan foydalanish;

- predmetli-makonli nutqiy va ijtimoiy rivojlantiruvchi muhit yaratish;

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ustuvorligini tan olish;

- har bir bolani har tomonlama rivojlanishida teng huquqligini tan olish;

- maktabgacha ta'limni hammabopligi;

- bolaning hayoti va sog'lig'i, jismoniy va ruhiy rivojlanishi, sog'lom turmush tarzi asoslari shakllanishini himoya qilish kabi maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini bunday yo'nalishining ahamiyati;

- maktabgacha ta'lim muassasalari ish mazmuni bolaning ijtimoiylashuviga yo'naltirilishi, bolada munosabat malakasini rivojlantirish, jamoada yashashni bilish, ta'limning keyingi bosqichiga oson o'tish;

- o'quv-tarbiyaviy ishning mazmuni, shakli va usullarida umuminsoniy va milliy qadriyatlar birligi;

- tarbiyaviy, o'quv va rivojlantiruvchi vazifalarning birligi;

- bolalarni o'qitish va rivojlantirishga maktabgacha ta'lim muassasalari va oilani o'ziga xos imkoniyatlarini birgalikda amalga oshirishga ota-onalarni jalb yetish;

- bosh buyurtmachi va iste'molchi – oila yehtiyojlariga mos holda maktabgacha tarbiyani turli ko'rinishda, mutaxassislik turlarida, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati tartibining variativligi;

- maktabgacha va boshlang'ich ta'limning izchilligi, jamoatchilik va oilaviy maktabgacha ta'limning o'zaro bog'liqligi;

- hududiy xususiyatlarni hisobga olish;
- maktabgacha ta'lim tizimida ro'y beruvchi o'zgarishlarga pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining o'z vaqtida javob berishi.

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasining yaratilish tarixi to'g'risida nimalarni bilib oldingiz?
2. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasining asosiy mazmuni haqida ma'lumot bering?
3. O'zbekiston Respublikasida islohotlar davrida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadini tushuntirib bering?

2-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MAKTABGACHA TA'LIM KONSEPSIYASI . 2 SOAT.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida islohatlar va O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasi haqida bilim ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

Asosiy savollar:

1. Pedagog va bolaning hamkorlikdagi islohot faoliyati jarayoning yondashuvlari mazmuni.
2. Isloh qilingan ta'lim texnologiyasining didaktik modeli.
3. Bolaning rivojlanganlik va maktabga tayyorgarlik ko'rsatkichlari
4. Maktabgacha ta'lim tizimining tuzilish tavsifi.
5. Maktabgacha ta'lim muassasalarini dasturiy-uslubiy ta'minlash

Tayanch so'zlar va iboralar: Konsepsiya, maktabgacha ta'lim, uzluksiz ta'lim, ijtimoiy-pedagogik yondoshuv, gnoseologik yondoshuv, psixologik yondoshuv, akmeologik yondoshuv.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Konsepsiyasi. Toshkent 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «Ukituvchi», 1997.
4. B.Ziyamuxdmedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
5. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
6. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
7. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000

Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim jarayonini shunday tuzish kerakki, bir butun subyekt sifatida ham bola, ham pedagogga yoqishi kerak va ular uyg'unlashuvining rivojlanishiga yordam berish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bola predmetlarni alohida tashqi xossalarini idrok qilish, ko'rgazmali-obrazli shaklda berilgan amaliy va bilish topshiriqlarini yechishning yuqori darajasiga yerishadi. Biroq, bola predmetlarni yuzaki ko'radi. Bu tabiiy, chunki predmetlar uni faqat amaliy va bilish jarayoni obyekti sifatida qiziqtiradi. Maktabgacha yoshdagi bola predmetlarni mohiyati bilan yemas, balki alohida turlari, tashqi xossalari va xususiyatlari bilan ish ko'radi. Narsalarning mohiyati va ular bizga qanday ko'rinishi o'rtasida katta farq mavjud. Mazmun-mohiyat ustki ko'rinishga yemas, u to'g'ri idrok qilinmaydi. U olamni ilmiy bilish – ijtimoiy uyushgan ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi.

Fanni o'rganishga o'tish – bu olamni bilishga o'tish bo'lib, inson ongi uchun obyektiv bo'lib hisoblanadi (D.B.Yelkonin, 1995. 249b.).

Maktabgacha ta'lim muammosi yempirik bilimlardan (tajribaga asoslangan “hayotiy bilimlar”) nazariy ilmiy bilimlarga o'tish mexanizmini aniqlashdan iborat. Bunday mexanizm sifatida ta'lim islohoti (N.A.Gorlova) bo'lib, bolaning tabiiy qobiliyatlarini tashqi olam bilan munosabati va mazmunini aniqlovchi madaniy salohiyatni o'zgartirishga qaratilgan. O'zaro ta'sir tizimini shakllanishiga yordam beruvchi “Men-Sen-Biz-Ular” obrazini yaratish; pedagog va bola ongida “olam obrazi” va olamni bolalarcha ko'rishni yaratish va takrorlanmas olamda o'ziga xoslikka yega va unda o'z o'rnini aniqlovchi refleksiya – o'zini aks yettirishga qaratilgan.

Ta'lim islohoti – bu pedagog va bolaning hamkorlikdagi islohot faoliyat jarayoni bo'lib, pedagogni o'z-o'zini va bola shaxsini tarbiyalashga, hayotiy qadriyatlar yo'nalganlik tizimi sifatida shaxsiy mazmunni shakllanishiga, pedagog va bolani universallashtirishga yo'naltirilgan.

Ta'lim islohoti quyidagi yondashuvlarni nazarda tutadi:

Ijtimoiy-pedagogik yondashuv. Uning mohiyati bola rivojlanishini boshqara olinadigan jarayon qilib, insoniyat tajribasini o'zlashtirishni ta'minlashdan iborat. Mazkur yondashuv o'qitish jarayonining pirovard natijasiga – bola shaxsi ijtimoiylashuviga qaratilgan. Uning mazmuni – bola jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini yegallashi, ularni qayta tuzish va o'zgartirishdan iborat. Bunday yondashuvda o'qitish tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Gnoseologik (bilishga qaratilgan) yondashuv o'qitish jarayoni mohiyatini bilish jarayonidan olib chiqishga yordam berib, tabiiy vujudga kelgan bilish faoliyatining o'zgargan ko'rinishi – modifikasiyasidir. O'qitish ijtimoiy qonuniyatlarga bo'ysunib, inson individual rivojlanishining tezlashuviga yordam beradi. Shunday qilib, u inson individual rivojlanish qonuniyatlari bilan bir qatorda inson ongining ijtimoiy tarixiy rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim bilishning ijtimoiy va individual shakllarini, individual faoliyatni ijtimoiy bilish tuzilishiga yaqinlashtirib, bolani o'qitishgacha bo'lgan shaxsiy tajribasi bilan ta'lim jarayonida paydo bo'lgan anglash o'rtasida qarama-qarshilikni tug'diradi.

Gnoseologik yondashuvda ta'lim mohiyati – o'quvchida individuallashtirish jarayonini amalga oshirish va o'qitish jarayonini tatbiq yetish.

Psixologik yondashuv. Unga o'qitish jarayoni mohiyatini bilimlarni yegallash va inson rivojlanishining psixologiya nazariyalaridan ajratib olish xarakterlidir.

Aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllanish nazariyasiga (P.Ya.Galperin, N.F.Talizina) asosan ta'lim birinchi moddiylashgan bosqichdan tashqi nutqiy harakatga tayangan holda ikkinchisiga o'tish asosida ro'y beradi. Bundan so'ng, uchinchi bosqichda xatti-harakatlar to'raligicha ichki rejada bajariladigan oliy darajaga o'tadi. Bunday yondashuvda ta'lim mazmuni bilimlarni yegallash bosqichlariga bog'liq holda aqliy xatti-harakatlar shakllanish bosqichlariga muvofiqlikdan iborat. Mazkur yondashuvda ta'lim o'quvchining shaxsiga yo'naltirilib, rivojlanuvchi funksiyani amalga oishradi.


Akmeologik yondashuv ta'limning shaxsiy yo'nalgan xususiyatlarini ochib beradi. Uning mohiyati shundaki, ta'lim shaxs hayotiy olami, pedagog va bolaning mazmuniy reallik yuzasiga o'tadi. Ta'lim pedagog va bolaning nafaqat fikr va munosabatlarini o'zgartirishga, balki o'zaro ta'sir subyektlarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi. Bunday yondashuv ta'limni o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini o'qitishga, ya'ni hamkorlikka, birgalikda ijod qilishga aylanishiga xizmat qiladi. Bunda ta'lim jarayonida asosiy qarama-qarshilik, ta'limni ideal shaklga olib kelish uchun ta'lim mazmunida mavjud pedagog va bolaning real hayotiy pozitsiyasi amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv ta'limning yakuniy natijasiga yerlashishiga – pedagog va bolani universallashtirish (takrorlanmaslik, noyoblik) va amaliy funksiyani bajarilishiga yo'naltiradi.

Fan va jamiyat tomonidan maktabgacha ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni inobatga olgan holda bugungi kunda ta'limda barcha yondashuvlardan birgalikda foydalanish ma'qul. Chunki, ularning har biri alohida bitta funksiyani, ta'limning bitta maqsadini amalga oshiradi.

Ta'lim islohoti texnologiyasini didaktika va metodika pozitsiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish zarur. Maktabgacha yosh davrida bolaning nutqiy rivojlanish uslubi asosiy ahamiyatga ega (nutqiy faoliyatning rivojlanishi). Bolaning nutqiy hulqi asosida "uning dolzarb rivojlanish darajasi"ni, "yaqin kelajak taraqqiyot darajasi"ni aniqlash mumkin. Binobarin, gap bolaning nutqiy faoliyatini rivojlantirish uslubi haqida borishi kerak.

Isloh qilingan ta'lim texnologiyasining didaktik modeli shunday omillarni qamrab olishi kerakki, pedagog ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni amalga oshirishi, ta'lim shartiga bog'liq ravishda o'z qoidalarini ishlab chiqishi mumkin bo'lsin. Bular quyidagicha: pedagog va bola o'zaro ta'sirining didaktik tamoyillari, vositalari, bosqichlari, turi va yo'llari (1-chizma).

1-Chizma



Didaktik tamoyillar:

- faollik tamoyili bola xususiyatlarini bilish faoliyati subyekti sifatida hisobga olishga asoslanadi;
- ko'rgazmalilik tamoyili bolalar tomonidan tevarak olamni idrok yetish xususiyatlariga asoslanadi;

- tushunarlilik tamoyili bolalar bilish faoliyatining rivojlanish qonuniyatlari bilan bog'liq;
- amalga oshiriluvchi tamoyil ta'lim jarayonida bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olishni taxmin qiladi;
- tizimlilik tamoyili bolaning tevarak-atrofnı anglashi orqali muloqot darajasini hisobga olish bilan bog'liq.

Ta'lim vositalari: nutqiy, faoliyatli, moddiy, texnik. Bosqichlari: tanishtiruvchi, differensiasiya, integrasiya.

O'zaro ta'sir turlari:

I-tur – yemosional-shaxsiy munosabatlar tajribasi. Vazifasi - yemosional-shaxsiy munosabatlar tajribasi bilan almashish, kelgusi birgalikdagi faoliyat uchun yemosional kayfiyat va motivasiyani yaratish.

II-tur – ijodiy faoliyat tajribasini o'zgartirish. O'zaro ta'sirning mazkur turi ta'limning bilish jihatini, ta'lim maqsadini amalga oshirib, bolani individuallashtirishga qaratilgan.


III-tur – o'quv vazifalarini yechish mumkin bo'lgan vositalarni mustahkamlash uchun faoliyat usullarini amalga oshirish tajribasi bilan almashish. O'zaro ta'sirning bu turi ta'limning psixologik jihatiga asoslanib, rivojlanuvchi maqsadni amalga oshiradi va bola shaxsi shakllanishiga yordam beradi.

IV-tur – ta'limning akmeologik jihatini amalga oshirish. Pedagog notanish sharoitlarda yo'nalish olishni yaratadi. O'zaro ta'sir mazkur turining vazifasi – mazmun va munosabatlarni anglash jarayonida bola tomonidan tizimli bilimlarni yegallash, bola shaxsi fikrlash sohasida “olam obrazi”ning, ya'ni “olamni bolalarcha ko'rish”ning shakllanishidan iborat.

Isloh qilingan ta'lim texnologiyasini amalga oshiruvchi o'zaro ta'sirning 4 ta turi faqatgina pedagog va bolalarning hamkorlikdagi faoliyat vositasi va xarakterini aniqlabgina qolmasdan, balki bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ham belgilaydi. Bu yesa shaxsiy faoliyat metodida asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Isloh qilingan ta'lim texnologiyasining uslubiy modeli ta'lim jarayonining yaxlit subyekti sifatida pedagog va bolalar fikrlarini shakllantirish va munosabatlarini boshqarishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Uslubiy model uslubiy tamoyillarni, vositalar, bosqichlar, metod va yo'llarini o'z ichiga oladi (2-chizma).

2-Chizma



Uslubiy tamoyillar:

- ta'lim maqsadlarining o'zaro bog'liqlik va o'zaro shartlanganlik tamoyili;
- tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi va isloh qiluvchi ta'lim tamoyili;
- ta'limni hissiy-amaliy yo'nalganlik tamoyili;
- ta'limni syujetli-vaziyatli shartlanganlik tamoyili.

Ta'lim jarayonida uslubiy tamoyillarni amalga oshirish.

Ta'lim maqsadlari: tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi, amaliy.

Ta'limning tarbiyaviy maqsadi – bola yehtiyojlarini tarbiyalash, pedagogik jihatni amalga oshirish (kattalar tomonidan boshqariladigan jamoa faoliyatida bola o'z xatti-harakatlarining kechinmalari orqali “ahloqiy bosqichlar”ni yegallash yo'li).

Tarbiyaviy maqsadni mazmuni shundaki, bolada ahloqiy qadriyatlar tizimi, dunyoga yemosional baholovchi munosabat shakllanadi.

Ta'lim maqsadi shundaki, bola ta'lim jarayonida uni o'rab turgan haqiqatni anglab, bilish yehtiyojini qondiradi.

Bilish yehtiyojlarining mazmuni maktabgacha yosh davrining turli bosqichlarida: ilk bolalik davrida (1 yoshdan 3 yoshgacha) bilish yehtiyojlarini qondirish “Men predmetlar olamida”; kichik maktabgacha yosh davrida (3 yoshdan 5 yoshgacha) “Men tabiat olamida”; o'rta va katta yoshlarda (5 yoshdan 7 yoshgacha) “Men odamlar olamida” kabi munosabatlarda o'zgaradi.

Bilish yehtiyojlarini qondirish jarayonida, bola hayotiy vaziyat munosabatlarida til vositalaridan, shu bilan bir qatorda faoliyatning turli turlarida foydalanishni o'rganadi (o'yin, tasviriy, musiqa va b.). Namoyon bo'lishni mos (adekvat) vositalarini qidirish bilish faolligini, qiziquvchanlikni, tashabbuskorlikni oshishiga turtki beradi va bilishga qiziqishni rivojlantiradi.

O'qitishning tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi, amaliy maqsadi – uslubiy tamoyillarni mos kelgan usul va uslublarini aniqlovchi bosh omildir.

Har bir xususiy metodika o'z mashqlar tizimini taklif yetishi mumkin. Misol sifatida mashqlarni lingvistik tizimi keltirilgan. Bu tizim quyidagi tavsiflar bilan aniqlanadi:

- **belgilangan vazifasigako'ra** mashqlar kommunikativ, nutqiy va tilga oid bo'lishi mumkin. Kommunikativ – yehtiyojlar xarakteriga ko'ra maishiy faoliyatga qaratilgan. Og'zaki-nutqiy yeshitishda va gapirishda (dialog va monolog). Tilga oid – fonetik, leksik, grammatik yoki leksik-grammatik;

- **o'yin harakatlarining xarakteri** bo'yicha – predmetli, tabiiy, syujetli-rolli, harakatchan va kam harakatli, ijodiy va qoidali;

- **harakatlarni bajarish usuli** bo'yicha – tanishuv-imitativ, qidiruv (taqlid qiluvchi va loyiha bo'yicha tuzuvchi), reproduktiv (qayta tiklovchi), produktiv (ijodiy);

- **bajarish usullarining xarakteri** bo'yicha – taxmin bo'yicha harakat, biror hodisani vaqtidan avval bo'lishi (aktivizasiya), idrok qilish, taqlid qilish (imitasiya), tashkil yetish, o'zgarishi (transformasiya), modellashirish.

Aniq vazifani bajarish uchun mashq tanlaganda pedagog yuqorida keltirilgan barcha tavsiflarni hisobga olishi kerak.

Shunday qilib, turli vosita, uslublar va uslubiy tamoyillar asosida qurilgan o'qitishning uslubiy modeli ta'lim islohoti texnologiyasini tashkil yetish usulidir. Didaktik va uslubiy modellar birligi maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonini tashkil yetishga yo'naltirilgan asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagog isloh qilingan ta'lim texnologiyasini yegallab, “bolaning dolzarb rivojlanish darajasi”ni, “yaqin kelajak taraqqiyot darajasi”ni aniqlashi mumkin. O'zlashtirilgan ma'no va munosabatlar yerkin, o'qishdan tashqari faoliyatda qo'llanilgandagina o'qitishning amaliy maqsadi to'liq amalga oshirilgan hisoblanadi.

Pedagog bola shaxsining rivojlanish ko'rsatkichlari va shaxsiy yondashuvni amalga oshirishga o'zining tayyorgarlik darajasini hisobga olsagina ta'lim-tarbiya jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tadi.

Bolaning rivojlanganlik va maktabga tayyorgarlik ko'rsatkichlari quyidagicha:

- jismoniy tayyorgarlik (bola fikrlash sohasi rivojlanishining fiziologik darajasi);
- psixologik tayyorgarlik (bola shaxsining yemosional, mental (aqliy), irodaviy rivojlanish darajasi);
- ijtimoiy tayyorgarlik (bola fikrlash sohasining ijtimoiy rivojlanish darajasi).

Pedagogni maktabgacha ta'limda shaxsiy yondashuvni amalga oshirishga tayyorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda uch jihatni hisobga olish kerak: shaxsiy, kasbiy va refleksiv.

Shaxsiy tayyorgarlik - bu pedagogik fikrlash (gnostik, ya'ni bilish qobiliyati – ilmiy ma'lumotlardan to'g'ri foydalanishni bilish, ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish, pedagogik vazifalarni ixtisosiga yarasha yechish); pedagogik maqsad belgilanishi (tashkilotchilik xususiyatlari – o'qish va mashq qilish uchun qulay sharoit yaratish qobiliyati, mashg'ulotlarning kerakli shakllarini tanlab olish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'qish jarayonini kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlash; o'z mehnatini tashkil qila bilish, turli ommaviy tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazish (turli bayram tadbirlari, adabiyot kechalari va b.);

Pedagogik yo'nalganlik (kommunikativ qobiliyatlar: mazkur ta'lim oluvchilar guruhi uchun qulay bo'lgan shaklda ma'lumotlar taqdim yetish qobiliyati, vaziyatga qarab ma'lumotlar berishning vosita va usullarini tuzatish, ishontirish qobiliyati, kasbiy muloqotni “pedagog-pedagog”, “pedagog-ota-onalar”, “pedagog-menejer”, “pedagog-bola” darajalarida savodli olib borish, bolalar jamoasida sog'lom psixologik mikroiklim yaratish va b.)

Kasbiy tayyorgarlik: pedagogik takt (intellektual mehnatda loyihalashtirish qobiliyati: hal qilishning oddiy standart va metodlaridan voz kechish, yangi o'ziga xos usullar qidirish; bor narsadan uzoqni ko'rish; muammolarni asosiy bir-biriga bog'lanish mazmunini qamrab olish; yechimning bir necha turli yo'llarini aniq tasavvur qilib, fikran yeng samarali bo'lganini tanlash; barcha narsa hal bo'lgan joyda muammoni yuzaga kelishi va uni his qilish; g'oyalarni ko'pligi;

o'z faoliyatini, o'qitish jarayonini, bolalarni individual rivojlanishini, innovasion o'qitish jarayonini, dasturlarni loyihalashtirish).

Refleksiv tayyorgarlik: pedagogik refleksiya (refleksiv qobiliyatga uch turdagi sezgirlik kiradi: obyektни his qilish pedagogni o'ziga xos maxsus sezgirligi – bolalar real haqiqatga qanday qarashda, ularning qiziqish va yehtiyojlari qay darajada namoyon bo'ladi, "ular pedagogik tizim talablariga mos keladimi"; me'yor va taktni his qilish – bola shaxsi va faoliyatida turli pedagogik ta'sirlar natijasida kelib chiqadigan o'zgarishlar me'yoriga nisbatan maxsus sezgirlik, qanday o'zgarishlar ro'y beradi, ular ijobiy yoki salbiymi, qaysi belgilar yordamida ular haqida xulosa qilish mumkin; aloqadorlik hissi – pedagogni o'z faoliyatining kamchiliklariga nisbatan bo'lgan sezgirligi, pedagogik jarayonga tanqidiy va javobgarlik hissiyotlari).

Yuqorida qayd yetilganlar shuni ko'rsatadiki, shaxsiy yondashuvni amalga oshirishda faqat bola shaxsini yoki faqat pedagog shaxsini rivojlanishi yemas, balki ta'lim jarayonining bir butun subyektini rivojlanishi ko'zda tutiladi. Yaxlit subyektни rivojlanish ko'rsatkichlari ma'no (mazmun) tizimi bo'lib hisoblanadi: bola ongidagi shaxsiy fikrlar tizimi va pedagog shaxsining shaxsiy, hayotiy mazmun va mazmunlar tuzilishi tizimi.

Maktabgacha ta'lim tizimining tuzilish tavsifi. Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish – bu yeng avvalo, maktabgacha muassasaga to'g'ri keladigan tartib yaratishdir. Bundan kelib chiqqan holda, maktabgacha tarbiya muassasasiga bolalar tarbiya va ta'limiga davlat qo'ygan talablarga javob beradigan muassasa deb qarash kerak.

Ota-onalar yehtiyojlariga mos holda ularga maktabgacha tarbiya muassasasini - turi, xili va sohasiga qarab tanlash huquqiga yegalgini ta'minlash.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida turli maktabgacha tarbiya muassasalar tizimi tashkil yetilgan: turlari bo'yicha – maktabgacha muassasalar, "maktabgacha ta'lim muassasasi – boshlang'ich maktab" komplekslari, "Mehribonlik" uylari, "bolalar qishlog'i"; xususiylik shakli bo'yicha – davlat va nodavlat; bolalar bilan ishlash yo'nalishi bo'yicha: umumiy, maxsus va sanator.

Maktabgacha ta'lim tizimi murakkab tuzilishga yega. Maktabgacha ta'lim tuzilishi 2 tarkibga yega – maktabgacha ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'limni ishlashi va rivojlanishini ta'minlovchi xizmatlar.

Maktabgacha ta'lim muammolariga qaratilgan asosiy halqa maktabgacha tarbiya muassasasi bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda hududning asosiy muammolaridan biri guruhlarining to'lish normalarini, aholining turli maktabgacha muassasalarga bo'lgan yehtiyojlarini, yekologik sharoitni hisobga olgan holda qishloq, hudud va shaharlarda loyihalar bo'yicha maktabgacha muassasalar qurish. Loyihalar musiqa va jismoniy tarbiya zallari, tasviriy san'at studiyalari, basseynlar, o'yin xonalari, har bir guruh uchun alohida yotoqxona va o'yin xonalari, o'g'il va qiz bolalar uchun alohida xojatxonalar, tarbiyachilarga psixologik yordam xonalari qurishni ko'zda tutishi lozim. Ma'muriy xo'jalik xonalari rejalashtirilganda, xodimlar ishlashi uchun qulay shart-sharoit yaratish kerak.

Yangi binolar qurish va yeski binolarni ta'mirlash individual loyihalar bo'yicha amalga oshirilganda maqsadga muvofiqdir. Bu binolarda 6ta guruhdan ko'proq guruhlarни joylashtirish mumkin yemas. Bolalar uchun mo'ljallangan xonalarda ularni turli faoliyati uchun qulaylik yaratish kerak. Guruh xonalarini funksional o'zgaruvchan jihozlar bilan jihozlash. Ular joylashishini o'zgartirish oson bo'lib, guruh xonasini turli variantlar bo'yicha fazoviy bezatish mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalari rivojlanuvchi predmetlar muhitini tashkil qilishga, ya'ni bolaning ma'naviy, jismoniy va psixik ko'rinishi rivojlanish mazmunini funksional modellashtiruvchi, bola faoliyatini material obyektни tizimiga alohida ye'tibor qaratishi kerak.

Bolalikni rivojlantiruvchi predmet muhiti – bola shaxsi va faoliyati to'liq rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlar tizimidir. U bolaning to'laqonli jismoniy, yestetik, bilish va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur bir qator tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Ularga: tabiat muhiti va obyektlari, madaniy landshaftlar (ko'rinishlar), jismoniy o'yinlar va sog'lomlashtiruvchi inshootlar, predmet-o'yin muhiti, bolalar kutubxonasi, o'yingoh, videoteka, dizayn studiyasi, muzey, musiqa-teatr muhiti, mashg'ulotlarni predmet-rivojlantiruvchi muhiti, kompyuter o'yingohlari kiradi.

Predmetli muhitga boshlang'ich talab – uni rivojlantiruvchi xarakteridir. U o'zining mazmun va jihatlarini orqali obyektiv holda har bir bolaning ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratishi kerak; dolzarb, jismoniy, psixik rivojlanishi va takomillashish maqsadiga xizmat qilishi, yaqin rivojlanish zonasini ta'minlashi kerak.

Bola shaxsi rivojlanishining turli bosqichlarida ma'lumot olish muhitini kerakli turli mavzular majmui, materiallar xilma-xilligini ta'minlash kerak. Maktabgacha muassasalarni predmet-o'yin muhitini zamonaviy, arxaik (qadimgi) va yetnik (O'zbekistonda yashovchi turli yetnik guruhlariga tegishli) o'yinchoqlar bilan ta'minlashni ko'zda tutish kerak. Birinchisi bola psixikasini umuminsoniy sifatlarini saqlash va qayta tiklash uchun kerak, ikkinchisi yesa madaniy-ahloqiy va yestetik qadriyatlarni avloddan-avlodga saqlash uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bolani ijodiy rivojlanishi uchun katta zahira yangi axborot texnologiyalarini qo'llash bo'lib, bular maktabgacha yosh davriga o'yin orqali va ramziy-modellashtirish faoliyatining boshqa turlari orqali kirishi mumkin. Yangi axborot texnologiyalari bolada informasion jamiyatdagi hayotga motivasion, intellektual va operasional (oldinlab boruvchi) tayyorlikni shakllantiradi.

Ta'lim tizimining tuzilish birligi bo'lib, psixologik va ijtimoiylar xizmatlar hisoblanadi.

Psixologik xizmatning asosiy maqsadi – bolani to'laqonli psixik va shaxsiy rivojlanishiga yordam beruvchi muhit bilan ta'minlash.

Ijtimoiy xizmat tevarak-atrofdagi muhit doirasida – ta'lim muassasasida, oilada, bolalar uyushmalarida va boshqalarda bola shaxsini to'laqonli ijtimoiylashuvi, rivojlanishi va tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Bolalar psixologi faoliyatining asosiy turlari: psixologik maorif, psixoprofilaktika faoliyati, psixologik tashxis, psixologik maslahat berish, rivojlantiruvchi va korreksion faoliyat.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining asosiy turlari – ijtimoiy ta'lim bo'yicha regional dasturlar tuzish va ularni amalga oshirishda ishtirok yetish, bolalar haq-huquqlarini himoya qilish, bola rivojlanishi va tarbiyasida oilaga ijtimoiy-pedagogik qo'llashni ta'minlash, buni amalga oshirish uchun boshqa mutaxassislarni jalb yetish, ijtimoiy xavf-xatarga moyil oilalar bilan ishlash, ijtimoiylashuvda qiyinchilik sezgan bolalarni, vasiylikka muhtojlarni hisobga olish, yekstremal vaziyatdagilarga ijtimoiy-pedagogik yordam berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va uni bolalar, ularning oilalarida qo'llash, ijtimoiy-psixologik muammolarni yechishda boshqaruv organlari, ijtimoiy muassasalar bilan birgalikda harakat qilish.

Maktabgacha ta'limni isloh qilish (o'zgartirish), boshqarish tizimida o'zgartirish kiritishni talab qiladi. Qishloq, viloyat, shaharda region xususiyatlarini hisobga olgan holda haqiqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishning turli o'zgaruvchan shakllarini yaratish maqadga muvofiq.

Maktabgacha muassasalar ishini qayta qurish muassasadagi o'zgarishlar va ish mazmuni bilan bir qatorda yuqori turuvchi muassasalar bilan munosabatlardagi o'zgarishlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Maktabgacha muassasa mudir va pedagogik kengash bilan hamkorlikda boshqariladi. Bu kengash doimiy faoliyat ko'rsatuvchi, pedagogik xodimlarni o'z-o'zini boshqaruvchi kollegial organ bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh yetish pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarda maxsus pedagogik ma'lumotga yega bo'lgan yoki pedagogik ma'lumotga yega bo'lib, qayta tayyorlashni o'taganlar ishlashlari zarur.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachisi mehnatining ijtimoiy ahamiyati, samaraliligi va obro'si uning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bu jarayonda kasbiy tayyorgarlikni differensiasiya tamoyilini tatbiq yetish alohida ahamiyatga yega.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalar tarbiyachisini tayyorlash huquqi pedagogik kollej va oliy o'quv yurtlariga berilgan.

Kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish abituriyentlarni o'quv ta'lim muassasalariga kirishda kasbiy yaroqlilikni aniqlash muhim omil bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun malakali kadrlar tayyorlashni differensiasiyalashtirish ular malakasini oshirish va qayta tayyorlashni differensiasiya jarayoniga imkon yaratadi.

Malaka oshirish kurslari o'z ishini shunday tuzishi kerakki, tinglovchilar faqat ta'lim jarayonining zamonaviy usul va uslublari bilangina tanishmay, balki ularni qobiliyat va qiziqishlariga qarab qo'shimcha mutaxassislik bo'yicha bilim olishlari lozim. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim Konsepsiyasining asosiy qoidalarini tatbiq yetish maktabgacha ta'lim muammolarini hal qiluvchi barcha muassasalar harakatlarining o'zaro muvofiqligi va ular orasida bog'lanish va hamkorlik zarurligini ko'zda tutadi.

Qo'yilgan vazifalarni hal yetish Respublika maktabgacha ta'lim ilmiy-uslubiy markazi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Markaz faoliyatiga quyidagi xizmatlar kirishi lozim: ilmiy, uslubiy, psixologik-pedagogik, shuningdek, ilg'or ta'lim texnologiyasi va o'quv-ko'rgazmali qurollar laboratoriyasi, tajriba-yeksperimental maktabgacha ta'lim muassasalari. Markaz faoliyat doirasida O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim yo'nalishlarini rivojlantirish, istiqbolli dasturlar tuzish uchun vaqtinchalik ijodiy ilmiy-uslubiy jamoalar tuzish ko'zda tutilishi kerak.

Ilmiy xizmat - O'zbekistonda maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan umumiy va ustuvor regional muammolar bo'yicha tadqiqotlar bilan shug'ullanishi kerak. Bunga maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon mazmun va shaklini ishlab chiqish, o'zbek-rus – ikki tillilik (ko'p tillilik - bilingvizm) muammosi, bolalarning rivojlanish darajasini psixologik, pedagogik va ijtimoiy tashxis qilish usullari, pedagoglarni kasbiy darajasi, oilaviy, maktabgacha va boshlang'ich ta'limning o'zaro munosabati, ta'limning shaxsiy-yo'naltiruvchi ustuvor modeli mazmuni, usuli va texnologiyalari va bir qator boshqa dolzarb masalalar kiradi.

Uslubiy xizmat (fan yutuqlari va ilg'or tajriba asosida) uslubiy materiallar, o'quv-ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish; yeksperimental maktabgacha muassasalar asosida yangi pedagogik texnologiyalar aprobeptiyasini o'tkazish va ularni ommaviy amaliyotga tatbiq yetish; pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va keng tarqatish; pedagogik jamoalar va alohida tarbiyachilarning yangi g'oyalarini, pedagogik jarayonni tashkil yetishda yangi shakllarni qidirishda ularni qo'llash va yordam berish; mualliflik maktabgacha ta'lim muassasalarini ochishga yordam berish, tarbiyachilar ijodiy uyushmalarini tashkil yetish va boshqalardan iborat.

Psixologik-pedagogik maslahat xizmati bolalar va ota-onalar bilan muloqotda qiyinchilik sezadigan pedagoglarga maslahat berish; tarbiyachilarni kasbiy shaxsiy-ahamiyatli sifatlarini tashxis qilishda yordam berish; o'qitish, pedagog va psixologga yordam beruvchi materiallar uslubini psixokorreksiya qilish; bolalarni tekshirish bo'yicha tezkor qabul qilish va ularni alohida maktabgacha muassasalarga yuborish ishlarini amalga oshiradi.

Yeksperimental maktabgacha muassasalar asosida tajriba-yeksperimental ishlarni, yangi dastur, qo'llanma, maktabgacha yoshdagilarni tarbiyalash va o'qitish usullarini aprobeptiya qilishni, pedagogik yangiliklarni tatbiq yetishni tashkil yetish kerak.

Yeksperimental maktabgacha ta'lim muassasalar tarbiyachilari o'rindosh sifatida ilmiy xodim bo'lib ishlashlari va ilmiy ishlar olib borishlari mumkin.

Markaz qoshida psixologiya, pedagogika, maktabgacha va oila ta'limi metodikasi kafedralari, maktabgacha tarbiya muassasalarda malaka oshirish va qayta tayyorlash Markazi, soha mutaxassislarini malaka oshirish oliy o'quv yurtlari va Markaz vakillari olib borayotgan ilmiy-uslubiy ishlar koordinasiyasi bo'yicha Kengash tashkil qilish zarur.

Maktabgacha yoshdagilarning ta'lim ishlariga keng jamoatchilikni jalb qilish va harakatlarni tekshirish maqsadida Markaz O'zbekiston Respublikasining turli ijodiy birlashma, uyushmalar, chet yel bilan aloqalar o'rnatish kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini dasturiy-uslubiy ta'minlash. Maktabgacha ta'lim muassasalariga ta'limiy jarayon mazmunini tanlashda ijtimoiy muhim yondashuvga amal qilish mavjud bo'lgan "Uchinchi ming yillik bolasi" dasturini qaytadan ko'rib chiqishni, jamoatchilik hayotidagi hodisalar, milliy o'z-o'zini anglash, milliy istiqlool g'oyasi haqidagi tasavvurlarni bola ongida shakllantirish uslublarini shiddatli ishlab chiqishni talab qiladi.

Milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishi – bu bolalar tomonidan ona tili, tarix, madaniyat, qadriyat va urf-odatlarini, "Vatan" tushunchasini yegallash muammosidir. Bu maktabgacha yoshdagilarning ahloqiy rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni hal qilishga katta ahamiyat qaratadi.

Maktabgacha yoshdagilarni o'qitish va ta'lim jarayonini amalga oshirish ko'p jihatdan ta'limni dasturlar, uslubiy qo'llanmalar, ta'lim va tarbiya berish vositalari bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

Rivojlantiruvchi predmetli-o'yin muhiti – bola faoliyati material obyekti tizimining yelementlaridan biri bo'lib, o'yin faoliyatini tashkil yetish uchun o'yin materiallari bilan to'yingan. U quyidagi tarkibiy qismga yega:

- tashkil yetilgan katta o'yin maydoni;
- o'yinchoqlar;
- o'yin anjomlari;
- har xil turdagi o'yinlar, o'yin materiallari (o'rindosh-predmetlar va boshqalar).

Maktabgacha ta'lim muassasasining muayyan guruhida predmetli-o'yin rivojlantiruvchi muhitni loyihalashtirganda, uni tuzishdagi asosiy tamoyillariga amal qilish zarur:

- bola tomonidan o'yin mavzusini, o'yin syujeti, u yoki bu o'yinchoqlarni, o'yin joyi va vaqtini tanlash huquqida namoyon bo'luvchi yerkinlikni ta'minlash tamoyili;
- universallik, yegiluvchanlik, harakatchanlik tamoyili bolalarga mustaqil va pedagog bilan birgalikda o'yin turi va mazmuniga mos ravishda uning muhitini yaratish va o'zgartirishga; mustaqil o'yin faoliyati uchun turli shakllarini tashkil qilishda undan foydalanishga imkon beradi;
- turg'un va dinamiklik tamoyili: muhit qotib qolgan, yakunlangan bo'lishi kerak yemas, uni davriy ravishda o'zgartirib turish kerak, "bolalarni o'zgarib turuvchi imkoniyatlari, kayfiyati, didi"ga mos holda, bola qabul qilishining o'ziga xosligini hisobga olib yangilab turish kerak;
- tizimlilik tamoyili: o'yin maydonining bir butunligini tashkil yetuvchi muhitni alohida yelementlari va boshqa predmetlarni bir miqyosdaligi;
- badiiy muhandislik (dizaynerlik) loyihalashtirish tamoyilining asosiy qismi - bolaning o'yin faoliyatini funksional antropometrik va yergonomik (predmetli o'yin muhitida muskul ishini va umumiy charchashni yo'qligi) ko'rsatkichlarini inobatga olish.

Rivojlantiruvchi predmetli-o'yin muhitini tavsiflashda uning dominant sifatlarini ajratish lozim:

- rivojlantiruvchi xarakteri: u o'zining mazmun va xususiyatlari orqali obyektiv holda har bir bolani ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratishi kerak, dolzarb jismoniy va psixik rivojlanish maqsadlariga xizmat qilishi kerak, "yaqin rivojlanish" zonasini ta'minlashi kerak;
- bolalar yoshini psixofizik o'ziga xos xususiyatlariga mosligi;
- jamiyatda qabul qilingan yerkaklik va ayollik xususiyatlar (jinsiy farqlarni hisobga olish) namunasiga mos holda qiz va o'g'il bolalarga o'z mayillarini namoyon yetish uchun imkon berish;
- o'yin materiallari tarkibiga kiruvchi yestetik va gigiyenik ko'rsatkichlarning ilmiy asoslanganligi;
- predmetli-o'yin muhitning tarkibiy qismlarini va intererining boshqa predmetlariga miqyosiy jihatdan bir-biriga mos kelishi: intererda ortiqcha predmetlar bo'lmasligi kerak, u o'yin vositalari bilan yestetik tomondan uyg'unlashuvi;
- muhitning funksional ishonchlilik va xavfsizlik darajadagi qulayligi;
- tabiiy yestetik muhit foni sifatida milliy sayqallikni (kolorit) tashkil yetish;
- ochiqlik va hammaboplik – predmetli-o'yin muhit materiallari bolani ko'z ostida bo'lishi yoki ular yaqin joylarda bo'lib, kattalar yordamisiz bola ularni olishi mumkin bo'lishi kerak.

Rivojlantiruvchi predmetli-o'yin muhitini yaratishda bolalarni faol ishtirok yettirish kerak, bunda ularni individual xususiyatlari, moyilliklarini hisobga olish kerak. Bunday amaliyot bolani muhitga ongli munosabatini shakllanishiga, muhit tarkibiy qismlarini bir-biriga bog'liqligini tushunishga, o'z xohishlarini boshqalar bilan kelishgan holda hal yetish va ko'nikmalarini anglashga yordam beradi.

Maktabgacha yoshi davrida o'yin va o'yinchoqlarga alohida ahamiyat qaratiladi. O'yinchoq har doim ma'lumot beruvchi bo'lib, predmetlar va insonlar munosabatlarini

anglashga, bolani yestetik, intellektual, ahloqiy rivojlanishiga yordam beradi. O'yinchoq sifatining alohida ahamiyatiga bog'liq ravishda uni yekspertizadan o'tkazish mexanizmini ishlab chiqish va tatbiq yetish, unga qo'yiladigan psixologik-pedagogik va tibbiy talablarni qonuniy tasdiqlash zarur.

Ta'lim vositalari orasida kattalar va bolalar o'zaro ta'sirining shaxsiy yo'nalganligini ta'minlovchi qo'llanmalar asos qilib olinishi kerak (shaxsiy daftarlar, albomlar, flomasterlar, qalamlar, bo'yoqlar va b.).

Yaratilayotgan dasturiy-uslubiy majmua maktabgacha ta'lim bo'yicha davlat talablarini amalga oshirishni, bolalar bilan ishlash, ular rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini ta'minlashi lozim. Bu majmuada tarbiyachilar va maktabgacha ta'limning boshqa mutaxassisleri uchun yaratilgan yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalari alohida o'rin yegallashi kerak.

Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha tarbiya muassasalarida amaliy yoki aqliy vazifalarni hal qilishda umum qabul qilingan usullaridan foydalanishni taxmin qiluvchi pedagogik texnologiyalarni shiddatli izlash va mavjud an'anaviy "Men kabi bajar" texnologiyalarini rivojlantirish – qayta tiklash (reproduktiv) olib borilmoqda.

Pedagogik texnologiya deganda, ta'limiy maqsadlarni samarali amalga oshirishga imkon beruvchi ta'lim va tarbiya jarayonining nazariy asoslangan vosita va usullari majmuini amalga oshirish tushuniladi.

Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyadan foydalanishda ta'limiy maqsadlar bir xil berilib, obyektiv bosqichma-bosqich o'zgarishlar va yerishilgan natijalarni yakuniy baholash imkoniyatining saqlanishiga mos holda ilmiy loyihalashni mo'ljallaydi.

Zamonaviy rivojlanuvchi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga, shuningdek, bola psixik jarayonlari taraqqiyotiga, uning shaxsiy sifatleri, intellektual-ijodiy qobiliyatlari, jismoniy rivojlanishi shakllanishiga yo'naltirilgan.

Ta'limni insonparvarlashtirish sharoitlarida pedagogik texnologiyalar pedagog tomonidan bolani ijobiy idrok qilishga, ya'ni uni qanday bo'lsa, shundayligicha idrok qilish; shaxs ichki dunyosiga yo'nalganlik, bolaga tabiat tomonidan in'om yetilgan xususiyatlarni aniqlash va ochish; yaqin kelajak rivojlanish zonasida o'qitish; ixtiyoriy ravishda tarbiyalash; pedagogik qo'llab-quvvatlash pozisiyalarida; yerkinlik va ijod pozisiyalarida; maktabgacha yoshi davrining asosiy yetakchi faoliyati – o'yin imkoniyatlaridan (pedagogik va psixologik) foydalanish; ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish hamma vaqt baholashni, tahlilni va bu jarayon natijalarini hisobga olishni talab qilganligi sababli turli pedagogik texnologiyalarni diagnostik asosda yaratish lozim. Ta'lim samaradorligi bolaning ilm olish ta'siriga qanchalik berilganligiga bog'liq. Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyati bolaga oliy ne'mat deb qarash, unga ishonish, hammuallif sifatida uni tan olish, uning barcha haq-huquqlarini saqlash munosabatlari bilan ta'minlanishi zarur. Maktabgacha ta'lim samaradorligini boshqarish algoritmini, ya'ni qo'yilgan o'quv yoki tarbiyaviy maqsadlarga yerishishda bola bilish faoliyatini nazorat qilish va koreksiyalashning qoidalar tizimi bilan aniqlash zarur.

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1. Isloh qilingan ta'lim texnologiyasining didaktik modeli to'g'risida fikringiz?.
2. Pedagogni maktabgacha ta'limda shaxsiy yondashuvni amalga oshirishga tayyorlik ko'rsatkichlari qaysilar?
3. Maktabgacha ta'lim tizimining tuzilish tavsifi to'g'risida ma'lumot bering?

3-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQ TA'LIMI TIZIMI VA UNING TURLARI. 2soat

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida bo'lgan islohatlar, qonun, dasturlar va ta'limni tashkil etish turlari to'g'risida bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish.

Asosiy savollar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni mazmuni.
2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari mazmuni.
3. Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»ni Qonunining 4-moddasi “Bilim olish” huquqining mohiyati.

Tayanch so'zlar va iboralar: ta'lim tizimi, tamoyil, “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, uzluksiz ta'lim, Milliy dastur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1998.
4. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi (maktabi)ning muvaqqat namunaviy Ustavi //Xalq ta'limi j., № 1. 1999.
5. «O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi Nizom //Xalq ta'limi j., № 6. 1999.
6. 6.Yo'ldoshev J./. Xorijda ta'lim. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1995.

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limi tizimini takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati, yo'nalishlari, ta'lim mazmuni, ta'limning huquqiy asoslari batafsil ochib berilgan. Mazkur me'yoriy hujjat mazmunida quyidagilar ifodasini topgan:

- fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari;
- ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari;
- har kimning bilim olishdan iborat konsitutsiyaviy huquqi;
- pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi;
- ta'lim muassasasining huquqiy maqomi;
- ta'lim tizimi va turlari;
- ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish;
- ta'lim tizimini boshqarish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida alohida urg'u berilganidek, ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi – jamiyatda intellektual va ilmiy potentsialni rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi burchi, javobgarligini anglaydigan barkamol va musaqil fikrli shaxsni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- ta'lim-tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lishi,
- ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining yo'nalishlarini tanlashning ixtiyorligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim sandarti doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

- ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;
- bilimli bo'lishni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ta'lim va tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lishi ko'rsatilgan. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarlashuvi insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Ta'limni insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida uning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-isaklari va hiziqlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashga yo'naltiriladi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirishning mazmuni shundan iboratki, ta'lim-tarbiya mazmunining ochiqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy va hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, hammaning va har kimning madaniy jihatdan yuksak natijalarga erishishini ta'minlashga imkon beradi. Mazkur tamoyilga amal qilish o'quvchilarning xohishlariga ko'ra o'quv jadvalidan qo'shimcha fanlarning o'rin olishi, yuqori sinflarda muayyan fanlarning chuqurlashtirilib o'rgatilishi, fakultativ mashg'ulotlar hajmining kengaytirish, turli yo'nalishlarda to'garaklarni tashkil etish, darslarning yakka va guruh asosida o'tkazilishiga e'tibor berilishini anglatadi.

Ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi tamoyili respublikada uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik asosida faoliyat yuritishlarini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning, o'z navbatida ularning o'quv dasturlari oliy o'quv yurti o'quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, biri o'zidan avvalgi bosqichda o'zlashtirilgan ma'lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

Shuningdek, davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq faoliyat olib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimi mazmuniga ko'ra bir tipdagi o'quv yurtlarining biridan ikkinchisiga o'tib o'qish imkoniyati mavjud. Chunonchi, ta'lim oluvchilar bir maktabdan ikkinchi maktabga, bir akademik litseydan ikkinchi akademik litseyga bir shaharda faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurtidan ikkinchi shaharda joylashgan oliy o'quv yurtiga o'tib ta'limni davom ettirish huquqiga egalar.

Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi tamoyili o'zida, birinchidan, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlari, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash va kasb tanlash ko'nikmalari shakllantirish; ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, sohashtirilgan, tabahalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlash; uchinchidan, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining ixtiyoriyligi tamoyilining asosiy mohiyati o'quvchilarning yangi turdagi o'quv muassasalarida ta'lim olish yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega ekanliklarini anglatadi. Bu iki turdagi uch yillik maxsus ta'lim yo'nalishlarini o'quvchilar o'z iqtidorlari va xohish-isaklariga tayangan holda tanlaydilar. Ana shu tarzda o'quvchilarning biron bir shaklda bilimlarini takomillashtirish, muayyan kasb-hunar egasi bo'lib yetishishlari uchun sharoit yaratiladi.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yuksala borishi bilan chambarchas holda rivojlanib borishini nazarda tutadi.

Insoniyat mavjud ekan, har doim taraqqiyot sari intiladi va yangidan-yangi fan yutuqlarini qo'lga kiritib boradi. Ta'lim tizimi esa ana shu fan yangiliklarini kelajak avlodga yetkazib berishni ta'minlaydi. Shu bois ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda bo'lishi talab

etiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning ushbu yutuqlardan oqilona foydalangan holda ulardan to'g'ri xulosalar chiqarib, kelajakda o'zlarining munosib o'rinlarini topishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»ni Qonunining 4-moddasida belgilab qo'yilganidek, fuqarolar millati, tili, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeyi, xizmat turi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasida hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga egalar. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi tamoyili aynan mana shu holatni yoritishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan moddada, yana shuningdek, chet ellik fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaliklari ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida isiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar esa bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega ekanligi bu tamoyilning inson va uning manfaatlariga xizmat qilishini bildiradi.

Respublikamizda ta'lim, o'zbek, rus, qozoq, qirg'iz va tojik tillarida olib borilayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, bunday yo'l bilan barcha millatlarning tenglik asosida bilim olishiga sharoit yaratilgan. Bundan tashqari mamlakatning barcha hududlarida «yakshanbalik maktablari» tashkil qilingan bo'lib, har bir millat vakillari dam olish kuni ixtiyoriy ravishda o'z ona tilida ta'lim olish imkoniyatiga egalar.

Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 7-moddasida o'z ifodasini topgan. Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Buning ma'nosi shuki, har bir ta'lim turi uchun alohida davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi, ularda ko'zda tutilgan talablarga amal qilish esa mazkur bosqichdagi ta'lim muassasalaridan birday talab etiladi. Ammo davlat ta'lim sandarti asosida ta'lim muassasalari o'zlarining o'quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin. Bu ta'lim olish maqsadi yagona bo'lgani holda, unga erishish yo'llari turlicha ekanligini ko'rsatadi.

Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanalib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu tamoyilga to'la amal qilinadi. Ta'lim oluvchilarning iste'dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib boriladi. Bunday rag'batlantirishlar sirasiga iste'dodli o'quvchilarni faxriy yorliqlar, stipendiyalar hamda mukofotlar bilan taqdirlashni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 25 martdagi «O'zbekiston o'quvchi-yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida»gi Qarorining qabul qilinishi ushbu tamoyilni huquqiy jihatdan kafolatlanishini ta'minladi. Mazkur qarorga muvofiq har yili o'quvchi va talabalar o'rtasida fan olimpiadalari o'tkazilib, g'oliblar turli imtiyozlarni qo'lga kiritmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 5 fevralda qabul qilingan «O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmoniga binoan ilmiy salohiyat, iqtidorga ega talabalar (bakalavr va magistratura yo'nalishlari bo'yicha) hamda tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan aspirantlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari ta'sis etildi va har yili o'n bir ta'lim yo'nalishi (texnika va informatika, tibbiyot, fizika-matematika, iqtisodiyot, jurnalisika, gumanitar, huquq va xalqaro munosabatlar, pedagogika, madaniyat va san'at, chet tillar, qishloq xo'jaligi) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi uchun tanlovlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, iqtidorli talabalar uchun «Beruniy», «Ulug'bek» hamda «Navoiy» nomidagi stipendiyalar joriy etilgan bo'lib, ularning sovrindorlari bo'lgan talabalarning faoliyati moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bundan tashqari iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Umid», «Ise'dod», «Respublika bolalar fondi», «Sog'lom avlod uchun», «Ulug'bek» va boshqa jamg'armalar tashkil etilgan. Ayni vaqtda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy yordam tufayli 2000 nafardan ortiq talabalar xorijiy mamlakatlarda tahsil olib, o'z bilimlarini oshirishga muvaffaq bo'ldilar. Yuqorida

bildirilgan fikrlar respublikada bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish tamoyilining to'laqonli ravishda amaliyotga tatbiq etilayotganligining yorqin isbotidir.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili ta'limni tashkil etish va uning sifatini oshirishda davlat va jamiyatning ta'lim muassasalarini boshqarishda hamkorlikka erishishni nazarda tutadi. Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvi ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun necha bo'lim va moddadan iborat?
2. Ta'lim sohasidagi Davlat siyosatining asosiy tamoyillari mohiyatini izohlab bering?
3. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirishga jamiyatimizda qanday e'tibor qaratilgan fikringiz?

4-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQ TA'LIMI TIZIMI VA UNING TURLARI. 2soat

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida bo'lgan islohatlar, qonun, dasturlar va ta'limni tashkil etish turlari to'g'risida bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish.

Asosiy savollar:

1. Ta'lim tizimi va turlari.
2. O'zbekistonda maktabgacha ta'limda olib borilgan islohatlar.
3. Hozirgi davrda jahonda ta'lim tizimining ahvoli.

Tayanch so'zlar va iboralar: ta'lim tizimi, tamoyil, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, uzluksiz ta'lim, Milliy dastur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1998.
4. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi (maktabi)ning muvaqqat namunaviy Ustavi //Xalq ta'limi j., № 1. 1999.
5. «O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi Nizom //Xalq ta'limi j., № 6. 1999.
6. 6.Yo'ldoshev J./. Xorijda ta'lim. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1995.

Mavzuning qisqacha bayoni. Ta'lim tizimi va turlari. Ta'lim tizimi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui demakdir. Har bir mamlakatning ta'lim tizimi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini boshqaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Respublikaning ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Respublika «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ular quyidagilardir:

boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar);

umumiy o'rta ta'lim (1-9-sinflar).

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid daslabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish1 bosqichi. Umumiy o'rta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshirilib, o'quvchilarga I-IX sinflar hajmida davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq fan asoslari bo'yicha majburiy ta'lim beriladi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilishi esa ularning isiqbollarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi amalga oshiriladi. Mazkur ta'lim uzluksiz ta'lim tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan musaqil tur hisoblanadi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi – umumiy o'rta ta'lim negizida majburiy-ixtiyoriy ravishda tashkil etilib, o'quvchilarga ularning imkoniyatlari va qiziqishlari asosida tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslik asoslariga oid bilimlarni berish bosqichi. Mazkur muassasalarda ta'lim olish o'quvchilar tomonidan majburiy-ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom hamda o'rta ma'lumotga ega bo'lganlik to'g'risidagi guvohnomalar beriladi. Ular bitiruvchilarga ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisoslik va kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Oliy ta'lim - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta'lim bosqichi.

Bakalavriyat – mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. Bakalavrlik dasturi tugatilgandan so'ng bitiruvchilarga «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi diplom topshiriladi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

«Magistr» darajasini beradigan davlat malaka attesatsiyasi magistraturaning intihosidir. Magistrarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta'lim bosqichi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlarida tahsil olish (aspirantura, doktorantura) muayyan ilmiy daraja (fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi)ni olishga imkon beruvchi dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi. Yakuniy davlat attesatsiyasi natijalariga ko'ra tegishli mutaxassislik yo'nalishlarida fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma va sertifikat topshiriladi.

Maktabdan tashqari ta'lim madaniy-yesetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-yehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Maktabdan tashqari ta'lim davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Hozirgi davrda jahonda ta'lim tizimining ahvoli. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimini o'rganish maqsadida AQSh, Frantsiya, Yaponiya davlatlarining ta'lim tizimi tarkibini yoritmoqchimiz.

I. Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha tarbiya muassasalari – 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi;
- boshlang'ich maktablar (1-8-sinflar) – 6 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar;
- o'rta maktablar (9-12-sinflar) – 14 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratadi. O'rta maktab quyi va yuqori bosqichdan iborat.
- oliy ta'lim - 2 yoki 4 yil mobaynida kollejlarda hamda universitetlarda amalga oshiriladi.
- universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etiladigan aspirantura va doktoranturadir.

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan o'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy tasarruflar hamda diniy muassasalarga tegishli bo'lishi mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlarining maktablari uchun yagona o'quv rejasi yo'q. Har bir shtat o'z o'quv rejasiga ega. Shunga ko'ra Shtatlarda boshlang'ich ta'lim 4, 5, 6 va 8 yillik bo'lishi mumkin.

Yaponiya ta'lim tizimi o'z ichiga maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang'ich maktablar, yuqori o'rta maktablar hamda oliy ta'lim beradigan universitetlarni oladi.

Bolalar bog'chalariga bolalar 3-5 yoshlarida boradilar va 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar.

Boshlang'ich maktabga bolalar 6 yoshdan boradilar va 6 yil o'qiydi. Boshlang'ich maktabni tugatgandan keyin kichik o'rta maktabda 3 yil ta'lim oladilar. Yaponiyada 9 yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladi, ular tekin darsliklardan foydalanadilar.

Yuqori bosqich o'rta maktab Yaponiyada ixtiyoriy bo'lib, uning kunduzgi, kechki va sirtqi turlari mavjud. O'qish muddati 3 yil.

Oliy ta'limga yuqori bosqich o'rta maktablarni tugatgan bitiruvchilar qabul qilinadilar. Oliy ta'limni universitetlarda olish mumkin. Oliy ta'lim tizimiga kirgan bo'lsada, o'rta maxsus ta'lim beradigan kichik kollej, texnik kollej, maxsus tayyorgarlikdan o'tish imkonini beruvchi kollejlarda ham mavjud. Yaponiyada faoliyat olib borayotgan 460 ta universitetning yarmidan ko'pi xususiydir.

Frantsiyada ta'lim tizimi quyidagi bosqichlar asosida shakllangan:

Maktabgacha tarbiya – 2 yoshdan 6 yoshgacha bolalarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich ta'lim – 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarning 3 bosqichda ta'lim olishlariga imkon beradi. Tayyorlov bosqichi uchun 1 yil, elementar kurslar uchun 2 yil ta'lim muddati belgilangan. Boshlang'ich ta'limning 3-bosqichi 2 yillik chuqurlashtirilgan bosqichdir.

O'rta ta'lim ikki bosqichda beriladi. O'rta ta'limning birinchi bosqichi 4 yillik ta'lim beruvchi kollejlarda, ikkinchi bosqich esa 3 yillik ta'lim beruvchi litseylarda amalga oshiriladi. 3 yillik litseyni tugatgan bitiruvchilar «Bakalavr» darajasini olish uchun imtixon topshiradilar. Oliy ta'lim universitetlar va oliy ixtisoslik maktablarida olib boriladi.

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1. Ta'lim tizimi deb nimaga aytiladi?
2. Uzlüksiz ta'lim tizimi bosqichlarini sanab bering.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Oliy ta'lim bosqichlari, ularning mohiyatini yoritib bering.
5. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidan farq qiladimi? Farqli jihatlarni ko'rsating.

5-MAVZU: MAKTABGACHA YO'SHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI. 2SOAT

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari to'g'risida bilimlar berish.

Asosiy savollar:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining yuzaga kelish tarixi.
2. Bolalarning jismoniy rivojlanishi, o'z-o'ziga xizmat va gigiyenasiga qo'yiladigan talablar.
3. Bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi.
4. Bolalarni nutq, o'qish va savodga o'rgatishga qo'yiladigan talablar.

Tayanch so'zlar va iboralar: davlat talablari, ta'lim tizimi, tamoyil, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, uzluksiz ta'lim, Milliy dastur.

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari aniq bir yoshdagi bolaning rivojlanish standartlarini va bolaning yutuqlari va rivojlanish darajasini baholash imkoniyatini beruvchi indikatorlarni belgilaydi. Ushbu xujjat, birinchi navbatda, oilalarga bolaning to'laqonli rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasida, uni maktabda ta'lim olishga samarli tayyorlashda yordam berishni nazarda tutadi.

U maktabgacha ta'limning mazmunini belgilaydi va mulk shaklidan qat'iy nazar, maktabgacha ta'lim muassasalarini bolalikning qadr-qimmatini saqlab qolgan xolda barcha bolalarning tenghuquqligini va har bir bolaning individual rivojlanishini tadbiq etishga yo'naltirilgan.


Ushbu xujjat O'zbekiston Respublikasi territoriyasida, mulk shaklidan va qaysi tashkilot tasarrufida ekanligidan qat'iy nazar, quyidagi ta'lim muassasalarida qo'llanilishi majburiydir:


- umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida;
- maktabgacha yoshdagi guruhlar mavjud bo'lgan «Mexribonlik» uylarida, kichkintoylar uylarida;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o'rta-maxsus va oliy ta'lim muassasalarida;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim turlari bo'yicha pedagogik kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tadbiq etuvchi muassasalarda.

Davlat talablarini ishlab chiqish asosida bola shaxsi rivojlanishining 4 ta yo'nalishi olingan (jismoniy rivojlanish, o'z o'ziga xizmat va gigiyena; ijtimoiy - hissiy rivojlanish; nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik; bilish jarayoni, atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash). Bu 4 ta yo'nalish bo'limlarga bo'linib, birgalikda bola rivojlanishining yaxlitligini tashkil etadi.

Qayta ishlangan talablar jamiyatning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi haqidagi bilimlarini yaxshilashga, tarbiya sohasida ota-onalarning ko'nikmalarini musahkamlashga, shuningdek muassasalarda ta'lim dasturlari va metodikalarini baholashga qaratilgan.

Ushbu xujjat bolalarga "tamg'a osish" vositasi sifatida emas, balki bolalar sharoitini yaxshilash, ularning bolalik xuquqini ta'minlash sifatida qo'llanilishi lozim.





BILISH JARAYONI, ATROF OLAM TO'G'RISIDAGI
BILIMGA EGA BO'LISH VA UNI ANGLASH

ELEMENTAR MATEMATIK
TASAVVURLAR

ATROF OLAM TO'G'RISIDAGI
BILIMGA EGA BO'LISH VA UNI
ANGLASH

ELEMENTAR MATEMATIK BILIM
VA MALAKALAR (SON, SANO?,
KATTALIK, SHAKL, MASOFA VA
VAQT TO'G'RISIDA TASAVVURGA
EGA BO'LISH, QURISH- YASASH)

ATROF OLAM TO'G'RISIDAGI
MALAKAGA EGA BO'LISH (TIRIK
JONZOT, ER KURRASI
TO'G'RISIDA TASAVVURGA EGA
BO'LISH)

MAKTABGACHA YOShDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ko'rsatkichlar	Yosh guruhlari					
	0-2	2-3	3-4	4-5	5-6	6-7
Tafakkur	Ko'rgazmali- harakatli tafakkur shakllanadi	Ko'rgazmali - harakatli tafakkur shakllanadi	Ko'rgazmali - obrazli tafakkur shakllanadi	Ko'rgazmali - obrazli tafakkur shakllanadi	Ko'rgazmali- obrazli, boshlang'ich sxemali obrazli tafakkur shakllanadi	Ko'rgazmali- obrazli tafakkur asosida mantiqiy tafakkur eleyemiyentlari shakllanadi
Nutq	Nutqni tushunadi, tovush bo'linib chiqadi, gugulaydi, shivirlaydi	So'z birikmalarini, fye'lni tushunadi	Bog'lanma nutq shakllana boshlaydi, sifatlarni tushuna boshlaydi	Faol nutq shakllanishi tugallanadi, o'z fikrini bildirib boshlaydi	Nutq faoliyati shakllanadi	Ichki nutq shakllana boshlaydi
Ixtiyoriy bilish jarayoni	Byeixtiyoriy diqqat va hotira shakllanadi	Byeixtiyoriy diqqat va hotira shakllanadi	Byeixtiyoriy diqqat va hotira shakllanadi	Byeixtiyoriy diqqat va hotira: o'yin jarayonida ixtiyoriy esda saqlash shakllanadi	Maqsadga yo'naltirilgan esda saqlash shakllanadi	O'zlashtirish jarayonida ixtiyoriy ravishda o'z fikrini jamlashga kirishadi
Jismoniy his etish	Kattalarning xatti-harakatini yuqori darajada his etadi	Jismoniy noqulaylikni yuqori darajada his etadi	Noqulaylikni yuqori darajada his etadi	Noqulaylikni kamroq his etadi	Noqulaylikni kamroq his etadi	Shaxsiy, ko'pchilikda his etish kuchsiz kyechedi

Bilish ob'yekti	Atrof-muhit-pryedmyetlar, kattalarni biladi	Byevosita atrof-muhit, pryedmyetlar, ularning ichki muhitini bila boshlaydi	Byevosita atrof- muhit, pryedmyetlar, ularning xususiyatlar i va nimaga mo'ljallangan- ligini bila boshlaydi	O'ziga jalb eta olmaydigan pryedmyetlar va hodisalarni anglay boshlaydi	O'ziga jalb eta olmaydigan pryedmyetlar va hodisalar, ahloqiy mye'yorlar ga ega	Pryedmyet va xodisalar o'rtasidagi sabab-oqibatlar ni anglay boshlaydi
Bilish usuli	His etish (tyeginish, ko'rish, eshitish, ta'm bilish)	Pryedmyetlar bilan byevosita ishlash, ularni ajratish va yig'ish	Tajriba o'tkazish, qurish- yasash	Kattalar hikoyalari, tajriba o'tkazish	Kattalar , tyengdosh lari bilan muloqotda bo'lish mustaqil faoliyat, tajriba O'tkazish	Mustaqil faoliyat, kattalar, tyengdoshlari bilan ongli muloqot da bo'lish
Muvafaqiyatli o'zlash ti-rish shartlari	Bolaganisbatan muloyimlik bilan muloqotda bo'lish	Rivojlantiruvchi muhitning turli-tumanliligi	Rivojlantiruvchi muhit va kattalar bilan hamkorlik munosabatlarida bo'lish	Kattalarning dunyoqarashi va mye'yoridashakllangan nutq	O'zining kyeng dunyoqarashi, mye'yoridashakllangan nutq	O'zining dunyoqarashi, har bir ishda uddabur onlik
Muloqot shakllari	Byevosita hissiy muloqot	Vaziyatli – shaxsiy muloqot	Vaziyatli – ishbilarmonlik	Vaziyatdan tashqari muloqot	Vaziyatdan tashqari- ishbilarmonlik vaziyatdan tashqari- shaxsiy	Vaziyatdan tashqari - shaxsiy muloqot

Tyeng dosh- lariga bo'lgan munosabatlar	-	Qiziqarsiz	Qiziqarsiz	Voqyeaband- ijroli o'yinlarda hamkor sifatida qiziqarli kyechadi	O'yinlarda hamkorga nisbatan qiziqishning chuqurlas huvi, muloqotga moyillik syeziladi	Hamsuh bat, faoliyat jarayonida hamkorlik munosabatlari o'rnatilaboshlaydi
Kattalar-ga bo'lgan munosabat	Jismoniy ehtiyojni qondirish manbai, himoyalani sh, erkalanish va yordam olish manbai sifatida shakllanadi	Himoyalani sh, erkalanish va yordam olish manbai sifatida shakllanadi	Faoliyat usullarini tanlashga yordam byerish manbai, o'yinda, ijodda hamkor sifatida shakllanadi	Ma'lumot olish manbai sifatida shakllanadi	Ma'lumot olish manbai sifatida shakllanadi	Hissiy ko'mak manbai sifatida shakllanadi
Kyeli shmovchilik kyelib chiqish sabablari	-	Kattalar bilan muloqotda ("Myen o'zim" kontsyepsiyasi)	Kattalar bilan ("Myen o'zim" kontsyepsiyasi)	-	-	7 yoshga borib inqiroz vujudga kyeladi, ijtimoiy rol almashinishi
His – tuyg'ular	Ekspressiv - imo- ishora shakllanadi	Kuchli his- tuyg'uli, kyeskin o'zgarishlar kyechadi	Kuchli his- tuyg'uli, kyeskin vaziyatli o'zgarishlar kyechadi	Nisbatan tyekis, o'zini nazorat qila boshlaydi	Yuqori darajadagi his- tuyg'uga ega	Yuqori darajadagi his – tuyg'uga ega

O'yin faoliyati	Pryedmyetlar bilan o'ynaydi	Pryedmyetlar bilan o'ynaydi, tyengdoshlari bilan "birgalikda" o'ynaydi	Kattalar bilan hamkorlikda o'ynaydi. o'yinchoqlar bilan mustaqil o'ynaydi, o'yin o'ynaydi	Jamoaviy va tyengdoshlari bilan o'ynaydi, ijroli dialoglar, o'yin vaziyatlari ni ijro etadi	O'yin haqida fikrlari shakllanadi, uzoq muddat davom etuvchi guruhlar hosil bo'ladi	O'yin birlashmalari hosil bo'ladi, o'ziga yuklatilgan rolga asosan harakatlarni bajaradi
-----------------	-----------------------------	--	---	---	---	--

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

- 1.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining yuzaga kelish tarixi to'g'risida ma'lumot bering?
- 2.Bolalarning jismoniy rivojlanishi, o'z-o'ziga xizmat va gigiyenasiga qo'yiladigan talablar qaysilar?
- 3.Bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanish to'g'risida ma'lumot bering?
- 4.Bolalarni nutq, o'qish va savodga o'rgatishga qo'yiladigan talablarni keltiring?

Adabiyotlar:

- 1.Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim –tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent-2008.
- 2.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
- 3.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni G'G'Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydeyevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsyerni, 1998.
- 4.O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» G'G'Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydeyevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsyerni, 1998.
- 5.Umumiy o'rta ta'lim muassasasi (maktabi)ning muvaqqat namunaviy Ustavi G'G'Xalq ta'limi j., № 1. 1999.
- 6.«O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi Nizom G'G'Xalq ta'limi j., № 6. 1999.
- 7.Yo'ldoshev J.G'. Xorijda ta'lim. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsyerni, 1995.

6- MAVZU:MAKTABGACHA PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI VAZIFALARI . **2SOAT**

Dars o'quv maqsadi: Talabalarda maktabgacha pedagogika faning yuzaga kelish tarixi, dolzarib muammolari, mavzu, baxsi to'g'risida bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish.

Asosiy savollar:

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining mavzusi va baxsi.
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining maqsadi va vazifasi.
3. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy tushuncha (ketegoriya) lari

Tayanch so'zlar va iboralar: Maktabgacha ta'lim pedagogika, ta'lim, tarbiya, ma'lumot, Muhammad al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Abdulla Avloniy.

ADABIYOTLAR.

1. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «Ukituvchi», 2002
2. Z. O.Xasanboyeva. Pedagogika tarixidan xresomatiya. -T., «O'qituvchi», 1993.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri osida. -T., «Ukituvchi», 1997.
4. B.Ziyamuxdmedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
5. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
6. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
7. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni. Inson tarbiyasi insonning o'zi kabi qadimiy va keng qamronlidir. Shu sababli insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni yosh avlodga o'rgatish, ularni kamollikka yetaklash yo'llari, qonun – qoidalarini izlaganlar. Darhaqiqat, insonning ma'rifatligi va ma'naviy komilligiga erishish ishlari pedagogika fani yetakchiligida amalga oshiriladi.

Demak, pedagogika fani kishiga har tomonlama tarbiya berish, har bir shaxsni hamma yosh tomonlama tarbiya rivojlantirish qonuniyatlari to'g'risidagi fandir. Shu bois, pedagogika fani insonni har tomonlama tarbiyalash haqidagi fan bo'lib, tarbiya sohasidagi jamiyat talablarini amalga oshirish yo'lida hizmat qiladi.

Maktabgacha pedagogika esta bolaga tug'ilganidan to yetti yoshigacha har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi va bogcha sharoitda ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, metodi va shakllarini ishlab chiqadi.

Inson tarbiyasiga oid qonunlar daslab xalq og'zaki ijodida: ertak, qissa, pandnoma, maqol va matal kabilarda, keyinroq yozma yodgorliklarda, hadislarda asoslab berilgan.

Ta'lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida Sharq va g'arbning qomusiy olim va pedagoglarining o'rni kattadir. Markaziy Osiyolik mashhur allomalar: Muhammad al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o'zlarining qator asarlarida ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor bilan qaraganlar.

Faylasuf olim Forobiy o'zining "Fozil shahar kishilarining qarashlari" asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi.

Abdulla Avloniy esta, tarbiya haqida g'oyat ibratli fikrlarni bildiradi. "Pedagogika, - Abdulla Avloniyning yozishicha – bola tarbiyasining fani, demakdir". "Dars ila tarbiya, ikkisi jon ila tan kabi", "Dars oluvchi-biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchidir". Bu yerda pedagogika faniga qisqa va lo'nda ta'rif berib, ta'lim bilan tarbiyani esta jon bilan tanga o'xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergan. Avloniyning ta'kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug'ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi.

Demak, pedagogikaning bosh masalasi tarbiya sanaladi. Tarbiya jarayonida esta bolaning ongi, his – tuyg'ulari shakllanadi. Eng muhimi ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy munosabatlarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bolalarning, yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari ham bolalarni har tomonlama tarbiyalaydi. Bola hayotidagi ilk yosh eng muhim davr bo'lib, huddi mana shu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, mehnat, estetik rivojlanishiga poydevor bo'ladi.

“Maktabgacha ta'lim pedagogikasi” fani “Pedagogika” fanining bir qismi bo'lib, o'zining nazariy, ilmiy va amaliy asoslariga ega.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining nazariy asoslari: yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan, ta'lim-tarbiya borasida yaratilgan tajribalarga, nazariy va metodik manbalarga, O'rta Osiyo va jahon tan olgan buyuk mutafakkir olimlarning asarlari va ta'lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining milliy asoslari: ta'lim-tarbiya muammolarini, muayyan millatning milliy qadriyatlarini umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lagan holda hal etish, har bir millatning ma'naviy merosi va milliy qadriyatlariga tayangan holda milliy tarbiya masalalarini yosh avlod ongiga yetkazish mazmuni, usul, metod va tamoyillarini milliyantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining maqsad va vazifalari. O'sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o'sirish, xulq – atvorini tarkib toptirish maktabgacha pedagogika fanining dolzarb muammolaridan sanaladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o'zida mujassalashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining maqsadi tarbiyachi murabbiylarning o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish uchun yetuk shaxs qilib tarbiyalash uchun o'z usida ishlashi, intilishi, izlanishi, ayollarni zamon talablari asosida tarbiyalash uchun tarbiyaning yangi usul va vositalaridan keng foydalana olish kabi tarbiyachilik mahoratini shakllantirishga qaratiladi.

O'sib kelayotgan va avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta'lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining qoida va qonunlarini halqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Shuningdek, mustaqillik sharoitida uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal etish maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani oldiga qator vazifalarni qo'ymoqda:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari esta shaxsini tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir.

- Bu sohada Sharq va g'arb halqlari yaratgan og'zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog va olimlarning ta'lim-tarbiyaga doir ilg'or fikrlarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish biz uchun juda qimmatlidir;

- Ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog'chalari amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak tarbiyachi-o'quvchilarga o'rgatish hamda xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'lajak tarbiyachilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish;

- Maktabgacha tarbiya muassasalarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish;

Bunday vazifalarda tadqiq etish;

- birinchidan bolalar sog'ligini saqlaydi va musahkamlaydi, jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi;

- ikkinchidan ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantiradi;

- uchinchidan Vatanga, tabiatga, jonajon o'lkaga muhabbat, kattalarga xurmatni, o'rtoqlik va jamoatchilik, hayrihohlik, xulq, madaniyati, mustaqillik, uyushqoqlik va intizom, mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlarini tarbiyalaydi;

- to'rtinchidan estetik tarbiyani amalga oshiradi.

Keyingi yillarda jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bo'yicha olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalarini ularning psixik-fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilash zarurligini ko'rsatib berdi. Ular bolalar bog'chasining "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasurida o'z aksini topgan.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy tushuncha (ketegoriya) lari. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanida bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi tushunchalar mavjud tarbiya ta'lim, ma'lumot.

Tarbiya – kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib, o'sib, avloddan- avlodga vorislik vazifasini bajarib kelgan bo'lsada, ammo har bir jamiyatda tarbiyaning mazmuni maqsadi, vazifalari, o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur hodisa bo'lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarini maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib berish hamda yosh aalodni har tomonlama shakllangan yetuk inson qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash muammolari daslab xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi yozma yodgorliklarda, pandnomalarda mutafakkir hamda ma'rifatparvarlar asarlarining bosh mavzusini tashkil etgan.

Abdulla Avloniy tarbiya haqida gapirar ekan, hakli ravishda shunday degan edi: "tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo sadoqat – yo falokat masalasidir".

Demak, tarbiya va odob Vatanga cheksiz muhabbat iymon – e'tiqod, mehr – muruvvat, rosgo'ylik, adolatgo'ylik, samimiylilik, mehnatsevarlik va bilimdonlik kabi g'oyalar vositasida shakllanib boradi.

Ta'lim – u bolalarga bilimni tartibli bayon qilish jarayoni bo'lib, muayyan ko'nikma va malalarni singdirish, ularning ongi va xulqiga ta'sir etish, aqlini, ongini idrokini, dunyoqarashini e'tiqodini va bilish faolligini rivojlantirishdir.

Ta'lim berish jarayonida tarbiya va ma'lumotning maqsadi amalga oshiriladi.

Ta'lim ikki tomonlama jarayon bo'lib va o'qitishni o'z ichiga oladi.

O'qitish – pedagogik faoliyat bo'lib, bilim malaka, ko'nikmalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir.

O'qish – o'quvchining bilim, malaka ko'nikmalarini egallashdagi amaliy faoliyatidir. U o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

Ma'lumot – asosiy pedagogik tushuncha bo'lib, u ijtimoiy hayot voqyealarni obyektiv aks ettiradi. Bu jarayon kishining tabiat, jamiyat va kishi tafakkuri to'g'risidagi umumlashtirgan ijtimoiy zarur bilim, malaka, ko'nikmalar tizimining egallab olinishi natijasidir.

Ma'lumot kishining bilishga bo'lgan talabini ta'minlab, undagi qobiliyatlarni ma'lum darajaga ko'taradi va amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

MUSTAHHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining yaratilishi to'g'risida ma'lumot bering?
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining maqsad va vazifalarini izohlang?
3. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy tushunchalari va ularning mohiyati nimada?

7- MAVZU:MAKTABGACHA PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI VAZIFALARI . 2SOAT

Dars o'quv maqsadi: Talabalarda maktabgacha pedagogika faning ilmiy tadqiqot metodlari mazmuni va boshqa fanlar bilan bog'liqlikda rivojlanishi to'g'risida bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish.

Asosiy savollar:

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining ilmiy tadqiqot metodlari mazmuni .
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda boshqa fanlar bilan bog'liqligining ahamiyati.

Tayanch so'zlar va iboralar: Maktabgacha ta'lim pedagogikasi uning maqsadi va vazifasi metodologik asosi, tushunchalari va ilmiy tadqiqot metodlari.

ADABIYOTLAR.

1. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002
2. Z. O.Xasanboyeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T., «Ukituvchi», 1993.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri osida. -T., «O'qituvchi», 1997.
4. B.Ziyamuxdmedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
5. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
6. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
7. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni. *Maktabgacha ta'lim pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari.* Ilmiy tadqiqot ishlari ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan bog'liq vazifalarni xalq ta'limining hamma bo'g'inlaridagi o'quv – tarbiyaviy ishlarni kelgusida yanada yaxshilash yo'llarini topish uchun amalga oshiriladi.

Ilmiy tadqiqot metodlari (metod- lotincha yo'l degan ma'noni anglatadi) orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqot ishida, olimlar pedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiya fanining vakillari, maktab o'qituvchilari, bolalar bog'chalari tarbiyachilari va shuningdek, tarbiya berish amaliyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan kishilar qatnashadilar.

Pedagogika voqyea – hodisalarning qonuniyatlarini ochish har xil yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tadqiqotning empirik darajasida har xil faktik materiallar yig'iladi, ular to'liq yoritib boriladi, shuningdek, voqyealar o'rtasidagi obektiv bohliqliklar aniqlanadi, tadqiq etilayotgan voqyea har tomonlama puxta o'rganiladi.

Tadqiqotning nazariy darajasi o'rganilayotgan voqyeaning mohiyatini aniqlashga yo'naltirilgan maxsus tizimlashtirish va tahlil usulidir.

Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda qo'llaniladigan maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining rivojlanishini ta'minlaydigan ilmiy – tadqiqot metodlariga quyidagilar kiradi.

1.Adabiyotlarni o'rganish metodi. Adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi buyuk mutafakkir pedagogik olimlarning asarlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari ta'lim – tarbiya borasida qabul qilingan qarorlar tadqiqot mavzusiga oid darslik, risola va maqolalar, pedagogik, psixologik, tadqiqotlar, dissertatsiyalar o'rganiladi.

2.Kuzatish metodi. Kuzatish – adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadigan jarayon. Kuzatishda tadqiqotchi ma'lum pedagogik hodisani, maqsadni ko'zlab tashkil etadi.

Tadqiqotchi kuzatishga oldindan puxta tayyorlanadi, kuzatishdan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlaydi, uning dasuri rejalari tuziladi, kuzatish manzili, muddati belgilanadi.

Kuzatish ikki turga ajratiladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish.

qisqa kuzatish deganda – obyektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlardan ma'lum xulosaga kelish tushuniladi.

Uzoq muddatli kuzatish esta – maqsad – reja va dasur asosida olib boriladi va ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelish tushuniladi. Kuzatish yakunlarini qayd qilishda kino, video yozuvi, televideniye va boshqa texnikaviy vositalardan foydalanish mumkin.

3.Suhbat metodi. Suhbat aniqlanishi kerak bo'lgan masalalarni oydinlashtirib olish maqsadida, oldindan tuzilgan reja asosida o'tkaziladi. Suhbat yakka tartibda hamda tarzida olib boriladi. Suhbat bolalar hayotining u yoki bu voqyea – hodisalari to'g'risidagi qiziqishlari,

tasavvurlari, mulohaza va muhokamalarni aniqlab olishga bevosita yordam beradi. Suhbatdan metod sifatida foydalanishda albatta uning maqsadi va rejasini aniqlab olish kerak. Bo'ladi. Suhbat metodi jarayonida interv'yu olish ham muhim sanaladi. O'rinli mantiqan yuksak janoblar yoki noaniq javoblar magnit tasmasiga yozib olinadi va tahlil etiladi.

4. Hujjatlarni va bolalarning ishlarini o'rganish.

Bolalar ishlarini o'rganish ilmiy tadqiqotning asosini tashkil etadi.

Tadqiqotchi pedagogika hujjatlarni o'rganish orqali o'rganilayotgan obyekt to'g'risidagi har xil ma'lumotlarni bilib oladi. Bunga maktabgacha tarbiya muassasalari mudirlari, tarbiyachilarning rejalari va hisobotlari, bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilarning rasmlari, loy va plasilindan yasalgan buyumlar va shu kabilar kiradi.

Masalan, bolalar ancha ilgari chizgan rasmlarini qarab chiqish, tahlil qilish, bolalarga berilgan topshiriqlarning qay darajada murakkablashib borganini aniqlash hamda ular bilan keyingi olib boriladigan ishlarni belgilashga yordam beradi.

5. Pedagogik eksperiment. Pedagogika eksperiment ta'lim jarayoniga pedagogika yangiliklarni kiritishdir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarning ishonchligi tekshiriladi. Tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti pedagogik eksperimentning asosiy turlari bo'lib, ular ko'pgina ishlarni o'z ichiga oladi.

Tabiiy eksperiment sharoitda yangi ish rejalari, dasurlari, darsliklar adabiyotlar va odatdagi ish rejalarini buzmay turib tekshiriladi. Pedagogik eksperiment – bu ham kuzatish, lekin u pedagogik jarayonning o'tish sharoitlarini muntazam o'zgartirish munosabati bilan maxsus tashkil etiladi.

Laboratoriya ishi ham ilmiy tadqiqotning ancha qat'iy shakli hisoblanadi. quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperimentni rejalashtirish eksperiment o'tkazish va natijalarni sharhlash.

Yeksperiment tashkil etish va o'tkazish tartibi belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi.

6. Tajriba o'rganish va umumlashtirish metodi. Pedagogik tajriba tushunchasi ko'p qirralidir. Pedagogik tajribaning keng ma'nosi ta'lim va tarbiya, amaliyotidir.

Pedagogik tajribaning asosiy maqsadi – maktabgacha muassasalarda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari qay darajada amalga oshirilayotganini o'rganishdir.

Pedagogikadagi mavjud muammolarni hal etish uchun ta'lim: tarbiya jarayoninin o'rganish, amaliy xodimlarning ijodiy nashrlarini nazariy asosda idrok etish va qayta ishlab chiqish ya'ni ilg'or tajribani umumlashtirish, yoyish katta ahamiyatga egadir. Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur hodisa bo'lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarini maxsus metod va vositalar orhali rejali ravishda singdirib berish hamda yosh aalodni har tomonlama shakllangan yetuk inson qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasining boshka fanlar bilan bog'likligi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi jamiyat va insonni urganuvchi faktlar bilan chambarchas bog'langan. Pedagogika ijtimoiy xodisa sifatida tarbiyani urganar ekan, sosiologiya, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, umumiy pedagogika fanlari falsafa bilan chambarchas bog'likdir. Chunki mazkur fanlar tarbiyaning maksadi va vazifalarini urganish metodologiyasini belgilaydi. Jamiyat tug'risidagi materialistik falsafa tarbiya masalasiga asoslangan holda yondashish imkonini beradi. Tarixiy materializm pedagogika tarbiyaning sinfiy mohiyatini ochib berish, uning paydo bulishi va rivojlanishi ijtimoiy xodisa ekanligini, jamiyat hayotida va kishi shaxsining rivojlanishida tarbiyaning rolini baholashga yordam beradi. Didaktik masalalarni ishlab chikishda pedagogika bilish nazariyasiga suyanadi, axlokiy tarbiya masalalarini urgatishda pedagogika etikaning axlok tug'risidagi ta'limotiga, estetik tarbiyaning maksadini, yullarini, metodlarini belgilashda etika fapiga asoslanadi. Etika ahlokni nazariy jihatdan asoslab, yosh avlodni, uning axlokiy tarbyasi muammolarini, inson shaxsini shakllantirishda axlokiy g'oyalar rolini tushunishni chukurlashtiradi.

Estetika – insonlarni vokelikka, san'atga estetik munosabatlarni rivojlanishining umumiy konuniyatlarini urganadi, nafosat tarbiyasining ilmiy asosi bulib xizmat kiladi. Fiziologiya pedagogikaning tabiiy-ilmiy bazasi bulib, u birinchi navbatda inson oliy nerv faoliyatining rivojlanishi, nerv sistemasining xususiyatlari, sezgi organlari, tayanch-xarakat apparati, yurak-tomir va nafas olish sistemalari va shu kabilarning rivojlanishi hakidagi ma'lumotlarga tayanadi.

Hozirgi zamon fiziologiyasi eng muhim pedagogik muammolarni tug'ri hal etishda: bola rivojlanishiga, uning kobiliyatlarini shakllantirishga muhit, irsiyat va tarbiyaning ta'siri va shu singarilarni begilashda pedagogikaga yordam beradi. O'sib borayotgan roganizm tuzilishining va xarakat kilish konuniyatlarining asosiy tamoyillarini ochib beruvchi yosh fiziologiyasi ta'lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chikish uchun katta ahamiyatga ega. Bu xususiyatlarni bilmay turib, tarbiyalanuvchilarning u yoki bu mashg'ulotlari shakllarini tug'ri belgilab bulmaydi. Fiziologiyaning oliy nerv faoliyati, nerf sistemasining tipologik xususiyatlari tug'rischidagi xulosalarni pedagogikaga ukuv-tarbiya jarayoni metodikasini ishlab chikishda, bolalar faoliyatlari uchun yaxshirok sharoitlar yaratishda yordam beradi.

Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda utadigan psixik jarayonlarining konuniyatlari hakidagi ma'lumotlar muhimdir. Shunga kura pedagogikaning psixologik fani bilan bog'likligi an'anaviy tu solgan.

Hozirgi zamon pedagogikasi kup tarmokli Fan bulib, avvalo u tarbiya ijtimoiy xodisa ekanligi jihatidan pedagogika tarixi bilan bog'lanadi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanish tizimida etnografiya, xalk pedagogikasi kabi alohida urin tutadi.

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1. Ilmiy tadqiqot metodlari va ularning ahamiyati to'g'risida ma'lumot bering?
2. Kuzatish va pedagogik eksprement metodlarining ahamiyati.
3. Maktabgacha ta'lim pedagogikasiga doir adabiyotlar ro'yxatini tuzing?
4. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining boshqa fanlar bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib bering?

8-MAVZU: O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida bola shaxsini shakllantirishga oid g'oyalari.2-soat

Dars o'quv maqsadi: Talabalarda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishga oid mutafakkirlarning qarashlari to'g'risida bilimlar berish.

Asosiy savollar:

1. Bola shaxsi kamolotida ta'lim –tarbiyaning o'rni.
2. Sharq mutafakkirlarining bola shaxsini shakllantirishga oid fikrlari.
3. Abdulla Avloniy asarlarida aqliy tarbiya masalasi.

Tayanch so'zlar va iboralar: Aqliy tarbiya, Abu Nasr Farobiy, Maxmud Qoshg'ariy, Abu Ray-xon Berunpy, Abduraxmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abu Abdullo Rudakiy, Abu Shukur Balxiy, Ishoxon Ibrat, Siddiqiy Ajziy, Saidrasul Aziziy, Muxammad sharif So'fizoda, Abdulqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidov, Toshmuxammad qori Niyoziy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirtursunov Z. O'zbek xalq pedagogikasi. T., 1973
2. O'zbekiston pedagogikasi antologiyasi. T., O'qituvchi., 1995
3. Yusupova S. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O'quv qo'llanma. T., O'qituvchi. 1993.
4. Rajabov S. Pedagogika fanininng allomalari. T., 1991.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. O'qituvchi. 1993.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. O'qituvchi. 1993.

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni.

Ta'lim — maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatlarini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi tarbiya dasurida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi, chunki ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sisemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim jismoniy, esetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun xam zarurdir. Bog'chada bolalarga madaniy-gigiyenik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy axloq qoidalarini o'zlashtirib oladilar, ularda axloqiy sifatlar, mehnat, tasviriy, konsruktiv, musiqa faoliyatiga oid malaka va ko'nikmalar tarkib toptiriladi.

Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muviffaqiyatli o'qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi.

Hayot ta'limning ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishini gaqozo etmoqda.

Birinchi yo'l — bolalarning bilim, malaka, ko'nikmalarni kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orhali egallab bo zishidi!r. Bu muomala, mehnat faoliyati va shu kabilar bilan egallaniladi. Ammo bu yo'l bilan egallangan bilim va malakalar bolalarning hayotining har xil soxalarida musaqil qatnasha olishi uchun imkoniyat yaratmaydi.

Ta'limning ikkinchi yo'li — maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan rejali ravishda xabardor qilib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Oллоh taolo oyati karimasida: «Bilgil, Ollox yakkayu yagonadir», — degan so'zini «bil» degan so'z bilan boshlagan.

Muxammad payg'ambar o'z xadislari «Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu xunar Xitoydan bo'lsa ham o'rganinglar... Ilm egallang!— Ilm sahroda do's, xayot yo'llarida — tayanch, yolg'iz damlarda—yo'ldosh, baxtiyor daqihalarda— rahbar, qayg'uli onlarda —

madadkor, odamlar orasida — zebu ziynat, dushmanlarga harshi kurashda — quroldir», deganlar.

Qur'oni karim oyatlaridan birida: «Yo rabbiy, ilmimni ziyoda kilgaysan, deb ayt!»— deyiladi.

Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar ichidan yetishib chiqqan barcha ulamoyu-fuzalolar, olimu fozillar, shoiru yozuvchilarning barchasi o'z davrining nufuzli, hurmatli, e'tiborli kishilari darajasiga mukammal ilm egallash orhali erishganlar. Abu Nasr Farobiy, Maxmud qoshg'ariy, Abu Rayxon Berunpy, Abduraxmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abu Abdullo Rudakiy, Abu Shukur Balxiy, Isohkon Ibrat, Siddiktsh Ajziy, Saidrasul Aziziy, Muxammad sharif So'fizoda, Abdulqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidov, Toshmuxammad qori Niyoziy va boshhalar mukammal ilm egallash orhali fanning barcha soxalarida buyuk kashfiyotlar va yangiliklar ya.ratganla.r, shu bilan bir qatorda boshkalarni ham ilm egallashga chaqirganlar.

Amir Temur ota sifatida farzandlarni, go'daklik chog'idan mehribonlik bilan tarbiyalashni talab etgan: "U chaqaloqlarni yig'latmangiz, bu gunohi azimdir, bu gunohni Olloh ham kechirmaydi", - deydi. Amir Temur va uning davrida farzandlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. "Amir Temur saroyidagi bolalar – shaxzodalar to'rt yoshidan boshlab o'qitilgan. Daslab savod o'rgatilgan, keyin 4-8 yosh orasida ularga maxsus qissaxonlar... xalq qissalarini, dosonlarini aytib berganlar, bolalar qahramonlik, botirlik, poklik ruhida tarbiyalanganlar", ularning zehni, idrokining shakllanishiga e'tibor qilganlar.

Bundan tashqari, saroyda bolalarga "davlatni idora qilish sanati o'rgatilgan, ular turli lavozim egalarini tayinlashda, soliq to'plash, ruhoniylar, mansabdorlar hamda boshqa yurtidan kelgan elchilarni qabul qilish, xayru sadaqa berish kabi tartib-qoidalar bo'yicha ko'nikma egallaganlar"

Alisher Navoiy ijodida farzand tarbiyasi muhim o'rin egallaydi, ota-ona o'z farzandining tarbiyasiga mas'ul bo'lishi, farzandlarini odobli, axloqli, aqlli, ilimli qilib tarbiyalashlarini, bolalarning esa ota -ona oldidagi burchlarini, ota-onani hurmat qila bilishlarini, ota-onani ezoqlash, hurmatlash, ular xizmatini doim bajo keltirishlari zarurligini ta'kidlaydi, uning fikricha:

Onalarning oyog'i ostindadir

Ravzai jannatu jinon bog'i.

Ravza bog'i visolini isar ersang,

Bo'l anoning oyog'in tuprog'i

Sadiy Sheroziy kishilarni halol mehnat qilishga undaydi:

O'z mehnatidin non yegan kishi.

Xotam minnatidan ozod yod-kishi.

Sadiy Sheroziy "Bo'ston" asarida insonlarni shirinso'z bo'lish bilan birga o'zgalarning ishiga bevaqt aralashmaslikka chaqiradi, buning yomon odatligini aytadi:

So'z garchi dilkash va shirin bo'lur,

Mukofoti tasdig'u, tahsin bo'lur.

Yey oqil, so'zning ham bosh- oyog'i bor

O'zga so'zga so'zin qistirma zinhor.

Buyuk alloma rostgo'ylik, to'g'ri so'zlik kishiga lutfu karam keltiradi, deb hisoblaydi, hamisha rost so'zlashga undaydi.

Gaping chinligini yaxshi bilmasdan,

Og'zing ochib, aslo so'zga urma dam.

Yolg'on seni band qilsa ham xolis,

Ros gapirgil, agar bandda qolsang ham.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, buyuk ajdodlarimizning ta'lim-tarbiyaga doir fikrlari, o'gitlarini maktabgacha ta'limdan boshlab o'rgatish ular nutqini o'stirish bilan birga bolalarning odob-ahloqli etib tarbiyalashga yordam beradi.

Uzbek yozuvchisi, dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziy barchani ilm egallashga chaqiradi:

Har murodu maqsadingga yetmoq, isarsan murod. Ko'z ochib bedor bul, darkor ilm, darkor ilm.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Abdullo Rudakiy, Abu Shu-kur Balxiylar ham xalkni ilm olishga chakirganlar, jumla-dan Rudakiy ilmning buyuk kuchini shunday ta'riflagan:

Odamlar aqlining charog'i ilm, Balodan saklanish yarog'i bilim.

Abu Shukur Balxiy esa bilim egallashning zarurligini quyidagi she'riy misra bilan shunday ta'riflaydi:

Xayotdan o'rganib saboq,

Ustod xam, shogird ham hyech bulmas nunoq,

To'qish-yigirish ham bilim birladir,

Dunyoni topish ham bilim birladir.

O'z zamonasining bilimdon kishilaridan bo'lgan Sandrasul Aziziy butun kuch-g'anratini yoshlarga dunyoviy bilimlar berishga bag'ishladi. U o'zining «Ustozi avval» (darslik tar-zida tuzilgan) asarida yoshlarni ilm egallashga, odob, axloq egasi bulishga, mehnatga chakiruvchi ko'plab hikoyalar, maqol, matallarida keltirib o'tadi. Kitobdagi xikoyalar, makol, matal va she'rlarning ko'pchiligini Aziziy o'zi yaratadi, ular yoshlarni ilm olishga chakiradi.

Kitobga kiritilgan «Ko'p bil, oz so'zla», «Ilmsiz aql, yengsiz kiyim», «Xat yozmoq — yarim ilm» kabi maqollar shular jumlasidandir.

O'z davriiing yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan **Abdulla Avloniy** ham yoshlarni ilmi bo'lishga chaqiradi. Abdulla Avloniy tarbiya qaqida gapirar ekan, haqli ravishda shunday degan edi: "tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo sadoqat – yo falokat masalasidir".

Demak, tarbiya va odob Vatanga cheksiz muqabbat iymon – e'tiqod, meqr – muruvvat, rostgo'ylik, adolatgo'ylik, samimiylik, mehnatsevarlik va bilimdonlik kabi qoyalar vositasida shakllanib boradi. U aql va ilmni ulug'laydi xamda «Aql insonlarni piri komili, murshidi yagonasidir. Rux ishlovchi, aql boshlovchidir...» deb yozadi.

Muallif o'z fikrini yanada aniqroq va ravshanroq angla-tish uchun shunday muhoyasa keltiradi:

«Hayvonlar o'zlaripa bo'laklar tarafidan qiladurg'on zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuk va tirnoqlari nla qayta-rurlar. Lekin inson... aql va idroki soyasida o'ziga keladur-gots zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asr qilub bo'ynkdan boylab iplari(ning) uchini ko'llariga bergan insonlarning aqlidur» «Hukamolardan biri: «har narsa ko'paysa, arzon bo'lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur»,— dermish.

Avloniy ilm insonlarning madrri, hayoti, rahbari, halsoti, deydi. Shu bilan ,birga u anashu shu fazilatlarini shunchaki qayd etmaydi, uning aniq hayotiy, amaliy ahamiyati ustida xam to'xtalib o'tadi. Uning insonni kamolotga yetkazishda bosh omil ekanligiga dalillar ksltiradi. Olimnig fikricha, ilm olish riyezat chekishni, sa'y-g'ayratni talab etadi.

«Inson ibrat nazari ila bokub, dunyo kitobindan o'z qadr hissasini bilib olmog'i lozimdur. Ma'rifat sohibi bo'lmak uchun axvoli olamdan xabardor bo'lmoq kerak. Shuning uchun aql soxiblari, fatonat egalari o'zlariga foydasi bo'lsa-bo'l-masa sinchiklab karag'on narsalaridan bilr xissa olmay qo'y-maslar»,— deb yozadi Avloniy. Dono xalqimiz o'z maqol va matallarida ham aqli, ilmi bo'lishga chaqirgan:

Ilm — aql bulog'i,

Aql — yashash chirog'i.

Ilm baxt keltirar,

Bilim taxt keltirar.

Shu bilan birga dono xalqimiz har bir narsaga, shuningdek ilmga ham yoshlikdan o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi va yoshlikda egallangan bilim toshga bitgan bilan barobardir, deydi.

Mustahkamlovchi savollar:

1. Amir Temur va Alisher Navoiy qarashlarida ta'lim tarbiya masalalarining yoritilishi to'g'risida fikringiz?
2. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish deganda nimani tushunasiz?
3. Bolalarni tarbiyalashga doir A.Avloniyning qanday asarlari bor?
4. H.H.Niyoziyning qarashlarida aqliy tarbiya qanday aks etirilgan?

9-MAVZU: Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ekanligi.2-soat

Dars o'quv maqsadi: Talabalarda tarbiyaning inson rivojlanishidagi o'rni, uning mazmuni biologik, ijtimoiy omillarning ta'siri to'g'risida bilimlar berish.

Asosiy savollar:

1. Shaxs va uning rivojlanishi haqida tushuncha.
2. Shaxsning shakllanishiga biologik (irsiy) ijtimoiy va tarbiya omillarining ta'siri.
3. Tarbiyada bolalarning psixologik va fiziologik davrlarga bo'linishini hisobga olish.
4. Tarbiyaning mazmuni va shakli.
5. Komil insonning ma'naviy sifatлари.

Tayanch so'zlar va iboralar:

Ma'naviy kamol, avlod, biologik omil, psixologik asoslar ta'lim-tarbiya, jismopiy, kamol topish, sog'lom sotsial omil, biologik, shaxs rivoji, kamtarlik, axloq, ma'naviyat, mushohada, madaniyat, xulq, sifat, inson komilligining mezon, manmanlik, anglash (fikir), tafakkur, fazilat, amaliyotda qo'llash.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1998.
2. Karimov I.A. Sog'lom avlod - xalqimiz kelajagi. (Konsultatsiya kuni munosabati bilan so'zlagan nutq). "Xalk so'zi" gazetasi. 8 dekabr, 1999.
3. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika. T. 1996. o' Z.Goziyev E. Psixologiya. (O'quv qo'llanma) T. 1994.
4. A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq". Toshkent. 1992 yi.
5. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. Toshkent. 1994 yil.
6. U.Maxkamov "Axloq odob saboqlari". Toshkent. 1994 y.
7. I.A.Karimov, Barkamol avlod-O'zbekiston kelajainig poydevori. T, 1998.
8. O'zbekiton Respublikasiniig Konsultatsiyasi. T., 1992.
9. Yusulov E. Manaviyat asoslari. T., 1998.
10. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., o'qituvchi. 1992. 160 b.
11. Ibroximov A. (muallifdosh) Vatan tuyg'usi. T., 1997.
12. Musurmonova O. o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T., fan. 1993., 105 6.

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni. Shaxs va uning rivojlanishi haqida tushuncha.Shaxs deganda muayyan jamiyatning aniq a'zosi tushuniladi. Inson bolasi shaxs bo'lmog'i uchun ruhiy jihatdan rivojlangan, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan o'zgalardan farq qilmog'i, o'zini to'laqonli inson deb his qilmog'i, ya'ni o'zligini anglab yetmog'i shart.

Har bir odam shaxs sifatida o'zining xarakteri, qiziqishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji, e'tiqodi va mehnatga munosabati bilan boshqalardan farq qiladi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, shu ruhiy xususiyatlar rivojlanib, yuqori darajaga ko'tarilsa, u mukammal, komil inson bo'ladi.

Odamning shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak. Shuning uchun pedagogika fani bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, har tomonlama kamolga yetish qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni, rivojlanish davrlarini aniqlash kerak. Shunga ko'ra, pedagogika fani shaxsning rivojlanishda ta'lim, tarbiya, bola faolligi, o'z-o'zini tarbiyalash bosqichlarini aniqlash kerak.

Pedagogikada rivojlanish va tarbiyanikg o'zaro bog'liqligi muhim muammolardan bo'lib, u ko'p munozaralarga sabab bo'ladi. Shaxsning rivojlaniti qiyin, murakkab jarayon, u ko'plab ichki va tashqi ta'sirlar va omillar orqali ro'yobga chiqadi.

Inson hayot ekan, butun umri davomida o'sib, rivojlanib, o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlanish deganda biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma'naviy kamol topish jarayonini tushunamiz. Pedagogika va psixologiya fani rivojlaninishi biologik va sotsial xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb hisoblaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojdanishi har tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida pedagogika fani rivojlanivlining qonuniyatlarini unga ta'sir etuvchi omillarni

shuningdek, shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya hamda faoliyatning ta'siri va ahamiyatini aniqlaydi va tahlil qiladi. Ma'lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki uniig shakllanishi avvalo hayot sharoitlariga bog'liqdir. Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsiy ma'lum ijtimoiy tuzumniig mahsuli deb tushunishimiz lozim.

Prezident I.Karimovning 2000 yil "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilishda so'zlagan nutqida: "Bizning ezgu niyatimiz - kelajagi buyuk davlat va erkin jamiyat qurish. Bizning taraqqiyot, strategiyamiz sog'lom avlod tarbiyasiga tayanadi va uni rivojlantirishga qaratilgan», deb ta'kidlaydi.

Har bir jamiyatda shaxsning shakllanishi, kamol topishi muhim muammolardan hisoblanadi. Shu sababli shaxsning shakllanishi masalalaraga to'g'ri yondashish uchun shaxsning tabiatini, tuzulishini, uniig xulq-atvorini va unga ta'sir sabab va vositalarini bilish zarur.

Shaxsning rivojlanishi jarayoni bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bular irsiyat, ya'ni biologik omil hamda muhit, ta'lim va tarbiya, shaxs faolligi (ijtimoiy omil) shaxsiy shakllantirishning asosiy omillari deb tushuniladi.

Ma'lumki, shaxs, inson tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga buysunadi.

Shaxsning, ayniqsa bolaning jismoniy rivojlanishi, sog'ligi biologik omilga bolg'liqdir. Biologiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan irsiyatning, ya'ni bolaning nasl-nasabining roliga olimlarimiz alohida e'tibor bermoqda. Har bir bola insonlarga xos tug'ma xususiyatlar bilan dunyoga keladi. Shunday ekan, odam bolasi tug'ilgandan so'ng unda shaxs bo'lib shakllanishi, yetuk inson bo'lib voyaga yetishi imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola o'zining avlod-ajdodlaridan ko'pgina biologik belgilarni meros sifatida qabul qilib oladi, hatto ayrim kasalliklar ham nasldan naslga o'tadi. Biologik omillar shaxsning jismoniy rivojlanishiga kam ta'sir ko'rsagadi. Shunday ekan, sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga kelishini unutmashimiz lozim.

Prezidentimiz "Sog'lom avlod yili»ni e'lon qilar ekan: "Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, iymon-ye'tiqodi butun bilimi, ma'naviyati yuksak mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman, deb ta'kidladi.

Sog'lom avlod tarbiyasi oson ish emas, u har bir inson, har bir oila, butun jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. Prezidentimiz fikrlarini davom ettirar ekanlar: "...hyech shubha yo'q, sog'lom avlod orzusi ajdodlarmizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir. Agar ota-bobolarimizning turmush tarziga, tafakkuriga nazar solsak, ular nasl-nasab, yetti pushtining tozaligiga, avlodning sog'ligiga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz. Sog'lom bolaniig tug'ilishi, eng avvalo, onaning sog'ligiga bog'liq", deb ta'kidlaydi yurtboshimiz. Xudo taolo yaratgan tabiatning buyuk mo'jizasi bo'lmish ayol dilbandini to'qqiz oy o'z bag'ryada, yurak osida avaylab dunyoga keltirali. Uni voyaga yetkazish uchun o'zini ayamassan, butun hayotini baxshida etadi.

Ana shu jarayonda ayol neki yaxshilik yoki yomonlik ko'rsa, ona vujudi orqali homilaga o'tadi. Sog'ligi nochor, xo'rlangan, iztirob chekkan onadan sog'lom farzand tug'ilmaydi. Sog'lom bolaniig dunyoga kelishida otaning ham qoni toza, tani va ruhi sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, sog'lom farzand faqat sog'lom oilada tug'iladi. Oilaning sog'lomligini, undagi muhit, ota-onaning totuvligi, bir-birini tushunishi, qullab-quvvatlashi o'zaro izzat-hurmati belgilaydi.

Prezidentimiz ta'qidlaganidek, shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u albatta bolani o'rab olgan muhit ta'sirida rivojlanadi. Shaxsning hayoti faoliyati davomida muhit unga yo yajobiy yo salbiy ta'sirlar krsatishi, rivojlanyaish imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Muhit – bu shaxsga ta'sir etuvchi tashqi voqyea va hodisalar kompleksidir. Bular: tabiiy muhit (geografik, ekologik) ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat) oila muhiti va boshqalar kiradi. Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaralgan imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Mustaqil O'zbekistonimizda ta'lim tizimini islohotlar, kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qilinishi barkamol avlodni yaratishdagi qadamlardir. Shaxs rivojlanishmga erishish har bir jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir

etiladi. Buning natijasida muhitdagi voqyealarning to'g'ri ijobiy ta'sirini amalga oshirish imkoni tug'iladi. Muhit beraolmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, xatto tarbiya tufayli shaxsda tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartiryab shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Bundan tashqari muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbkisi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uniig rivojlanishiga asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa fasl turlari ham o'zgarib boradi. Shu sababli bola hayotida o'yin, o'quvchi hayotda o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir.

O'quvchi va talabalarining rivojlanishida o'quv jarayonlarining ahamiyati va ta'siri beqiyos kattadir. Bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkurini o'stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijgimoiy xulq normalari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda bo'lishmdan qat'iy nazar, ularning rivojlanishida mehnat faoliyatiniig ahamiyati kattadir. Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma'naviy kamol topishida muhim hisoblanadi. Mehnat jarayonida uniig ishtirokchilari bir-birlari bilan aloqada bo'ladi? O'zlarining nimaga qodir ekanliklarini ko'rsatishga harakat qiladilar. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatleri tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas'uliyat, intizomlilik, faollik oshadi. Ular o'z-o'zini tarbiyalashga asoydil kirishadilar. O'z-o'zini tarbiyallashga ota-ona, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri yanada samarali bo'ladi. Tarbiya bilan rivojlanishning o'zaro bir-biriga ta'siri va munosabatlari mavjud, chunki qayerda tarbiya jarayoni muammolari to'g'ri hal etilsa, u shaxs kamolotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Kamol togan shaxs tarbiyaning roli va imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydi.

Tarbiya shaxsni rivojlanishini ta'minlashi uchun boladagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlash zarur. Tarbiya haqiqatan rivojlantirunchi omil bo'lmog'i uchun tarbiyalanunchi jamiyatniig tarbiya oldiga qo'ygan talablarini, shaxsning o'ziga xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagogika fani shaxs rivojlanishida tarbiyaning yetakchilikni e'tirof etish bilan birga ularniig o'zaro bir-biriga ta'sirini tan oladi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari tajribalariga qarab har xil bo'ladi. Tarbiya jarayonida o'sayotgan avlodniig yoshi va o'ziga husiyatlarini bilish va hisobga olish juda zarur. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-talabalarining har birini o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud.

Bu o'ziga xosli rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Yosh xususiyatlarini hisobga olish, bola xususiyatiga moslashish emas, balki shu yosh davrda bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish demakdir. Shundagina shaxs rivojlanishiga tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarni o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyati o'qituvchining har xil yoshdagi bolalar o'rtasidagi tafovutlarni qay darajada hisobga olishiga bog'liqdir. Shunda ekan, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi va maktab hamda o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan o'quvchi talabalarining yosh davrlari bilan xususiyatlarini hisobga olmoqlari lozim. Shuning uchun xarakteri, xulq-atvori, umuman jismoniy va manaviy taraqqiiyotini o'rganish, shuni ko'rsatadiki, bu jarayon murakkab va ziddiyatlidir. Shu sababli rivojlanish jarayoni bir tekisda bormaydi, balki bunda sakrashlar, notekisliklar ham sodir bo'ladi.

Shunday ekan o'qituvchi va tarbiyachilar bolaning yoshi oshgan sari uning etiyojlarida, intilish va qiziqishlarida qanday sifat o'zgarishlari sodir bo'layotganini muntazam kuzatib bori lozim.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek, pedagogika fanining eng muhim vazifasi shaxs rivojlanishini har jihatdan o'rganishdir va o'qituvchining ishda muvaffaqiyat qozonish sharti o'z o'quvlarining xislat va xususiyatlarini bilishidir.

Kishi tug'ilgan kunidan boshlab sotsial mavjudot bo'lib qoladi. Uning xarakteri, xulq-atvori, shaxsi barcha ijtimoiy omillar yig'indisi ya'ni tevarak-atrofdagi odamlarniig unga munosabati, namuna ko'rsatishlari, mafkuralari, o'z faoliyatida hosil qilgan tajribasi ta'sirida shakllanadi. Albatga, ijtimoiy omillar inson shaxsining har tomonlama shakllanishi samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagog bolaning muayyan rivojlanish davridagi xususiyatlari, xarakteri va fe'l-atvorini belgilovchi omillarning hammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi lozim.

Xullas, irsiyat deganda bolagan ota-ona, yaqin qarindoshlari, ya'ni nasldan-naslga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi. Odob, axloq xulqiy sifatlar esabarcha ruhiy ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyatrivojlanishiga ta'sir etadi, ammo hal qiluvchi omil bo'la olmaydi.

Jamiyatning bola ongiga ta'siri asosan ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bola dastlab oilada, atrofidagi kishilar bilan muloqotda, maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktabda ta'lim-tarbiya oladi. Bundan tashqari ijtimoiy faoliyatda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etadi. Ya'ni ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya-shaxsning o'zi faol ishtirok etsagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, ise'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, intilsa, uning shu sohadagi ise'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqib boshlaydi. qobiliyat va ise'dodning ro'yobga chiqishida faqat qiziqish emas, shaxsning o'z ustida ishlashi ham muhim ahamiyatga ega.

Masalan, mashhur grek notig'i Demosfen duduq, ovozi xasta, qisqa-qisqa nafas oladigan kishi edi. U doimo bir yelkasini uchirib turardi. Lekin u o'z ustida tinmay mashq qiladi, ishlaydi. U kamchiliklarini yo'qotish uchun iroda va qat'iyat bilan ishga kirishadi-og'ziga mayda toshlar solib, so'zlarni talaffuz qiladi, dengiz bo'yida nutq so'zladi, qoyalarga chiqib, baland ovoz bilan she'r o'qidi, oyna oldida turib, yuz xarakterlarini bir maromga keltirdi. Uy shiftiga qilichni osib qo'yib, yelkasini har uchirganda, qilich sanchilardi. Demosfen haftalab uydan chiqmay notiqlikni o'rgandi. Uydan chiqmaslik uchun sochini yarmini qirdirib tashlar.

O'quvchilarning o'z baxtlariga erishish uchun maktabda olgan bilim, ko'nikma va malakalari kamlik qiladi. Ular oliy maqsad yo'lida o'z ustlarida tinmay ishlashlari, kishilar bilan muloqotda bo'lishlari, hayot ma'nosini tushunish ko'proq o'qishlari, mashq qilishlari kerak.

Bolalarning o'sishi, rivojlanishi, ruhiy jihatdan taraqqiyot etishi turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Tibbiyot, bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, psixologiyasi, pedagogika fanlari yutuqlari va tavsiyasiga ko'ra bolalarning yosh davrlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: Go'daklik davri—chaqaloq davri (tug'ilgan 1 yoshgacha bo'lgan davr).

Yasli davri (1-3 yosh).

Maktabgacha tarbiya yoshi (3-7 yoshgacha).

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (7-12 yosh).

Katta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar- 12-15-16 yoshgacha).

Katta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'spirinlar) 16-18 yoshgacha.

Ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va ruhiy xususiyatlar yosh xusustlari deb ataladi.

1. Go'daklik davri.

Yangi tug'ilgan bola jismoniy jihatdan tez o'sadi, asab tizimi tez takomillashadi. Bola tug'ilganda faqat ta'mni sezadi, issiq-sovuqni sezadi. 3 oylik bo'lganda buyumlarni fahmlaydi, yaqin qishilarni ko'rsa xursand bo'ladi, ayrim tovushlar chiqaradi.

6-8 oylik bo'lganda buyumlarning rangi va shaklini farqlaydi. Sog'lom bola 11-12 oyligida kishilarni taniyda, ayrim so'zlarni talaffuz qiladi, nutqi o'sadi.

2. Yasli davri. (1-3 yosh)

Bu davr jismoniy o'sish, yo'lga kirish-yurish davri deb ham ataladi. O'ynay boshlaydi. 2 yoshdan ancha murakkab o'yinlarni qiziqib kuzatadi. Bolalar o'yin orqali bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar, tasavvur, fikrlash jarayoni kuchayadi, nutqi o'sadi. Gap tuzadi, talaffuz qiladi. Kattalarning yuri-turishi va odobi bolalar ruhiyatiga ta'sir qiladi.

3. Maktabgacha tarbiya yoshi (3-7 yoshgacha)

Bu davr bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o'sishi, dunyoni bilish, atrof-muhittga o'z munosabatini bildirish isagi kuchayib borayotgan davr. Shuning uchun ham ota-ona, tarbiyachilar bolalarning to'g'ri o'sishlari, aqliy, ahloqiy, esetik jihatdan tarbiyalashga jiddiy e'tibor berishlari lozim:

a) sog'ligi haqida, tartib va gigiyena talablariga,

b) o'yin mashg'ulotlari, so'z, musiqa, ekskurtsiya, badiiy va jismoniy tarbiya;

v) o'zini tuta bilish, do'stlik, birodarlikni o'rniga qo'yish;

Bu davrda bolalarning bo'yi har yili o'rtacha 6 sm, og'irligi esa 1-2 kg o'sadi. O'yinlar rang-barang va maqsadga muvofiq bo'lishi kerak.

4. Maktab yoshidagi kichik o'quvchilar.

Agar bolaning sog'ligi, qobiliyati, aqliy rivojlanish darajasi talabga javob bersa, 6-7 yoshdan maktabga bergan ma'qul. Endi o'yin faoliyatining o'rnini tizimli majburiy o'qish faoliyati egallaydi. Bu yoshda bolalar nisbatan tekis o'sadilar. O'g'il va qiz bolalar tashqi ko'rinishdan bir-birlaridan farq qilmaydilar. Bo'yicha o'rtacha 120 sm, og'irgili 25 kg atrofida bo'ladi. Suyaklari qotmagan, suyak va muskullari tez o'sadi. Bosh miya og'irligi kattalarnikiga teng bo'lsa ham, tuzilishi farq qiladi. Yurak urishi minutiga 90-92 martaga to'g'ri keladi. Ularda ixtiyorsiz diqqat, mexanik xotira bo'ladi.

5. Maktab yoshidagi o'rta o'quvchilar (o'smirlar) davri

Bu davrga 12-13 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalar kiradi. Bu davrda bolaning jismoniy va ruhiy taraqqiyotida keskin o'zgarishlar ro'y berishi sababli, bu davr o'tish davri deb ataladi. Bu davr balog'atga yetish davri deb ataladi. qizlar 13-15 yoshda, o'g'il bolalar 16-17 yoshda bolag'atga yetadilar. Bu davrda bolalar juda tez gurkirab o'sadilar, jismoniy jihatdan. Bu o'sish tezligi ularning ruhiyatiga ham ta'sir etadi. Ularning kayfiyati tez o'zgaradi. Ular o'zlarini katta odam deb hisoblaydilar. Ota-onalar va o'qituvchilar buni tushunmayotganidan xafa bo'ladi. Ular yarim bora, yarim katta odam. Ularda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Ularda erkaklik va ayollikning tashqi belgilari paydo bo'la boshlaydi. Ular o'rtoqlaridan ajralib qolishdan qo'rqadilar. Taqlid qiladilar. O'zlarini qaxramonlardek tutadilar. Pedagoglar buni hisobga olishlari kerak. Bu eng murakkab davr.

6. Maktab yoshidagi katta o'quvchilar (o'spirinlar)

Bu davr 16-18, 22-23 yoshlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda fikrlash, tanqidiy fikrlash rivojlanadi, intellektual qiziqish o'sadi, dunyoqarash shakllangan bo'ladi. U tasavvur va tafakkur doirasiga deyarli nihoyasiga yetar va ijtimoiy hayotning biror sohasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Endi bu davrga kelib gavda, qomatlari to'lishib, go'zallashib boradi. Jinsiy yetilish asosan tugaydi. Jismoniy rivojlanishda tinch davr boshlanadi. O'spirin mantiqiy fikrlaydi. O'ziga o'zi baho beradi.

Umuman olgan, o'qituvchi-tarbiyachilar o'quvchilarning barcha yosh davrlari, jismoniy va ruhiy taraqqiyotidagi o'zgarishlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Bu ularga o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda asqotadi. Biz yosh avlodni to'g'ri, Vatan uchun fidoyi, yaroqli inson qilib tarbiyalashimiz kerak. Tarbiyaning mazmuni va shakli. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi tarbiya jarayoni va uning milliy shakllarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya etika, esetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalaniladi. Tarbiya nazariyasi pedagogikasining boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog'langandir.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyaan qonuniyalarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Tarbiya jarayonida kishini turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, esetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni oila davlat oldidagi mas'uliyatini anglab yetadigan har tomonlama yetuk shaxsni shakllantiruvchi, intellektual va ilmiy kuchlarni taraqqiyot ettirishda yuksak madaniyatlarni belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII-sessiyasida Ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish, intellektual va ma'naviy kuchlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga molikligi qayd etib o'tildi.

Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z ise'dodi bilan ajralib turuvchi, ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon talabidir.

Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash uchun o'quvchilarga har tomonlama tarbiyaviy ta'sir o'tkazish talab etiladi. Bugungi kun yoshlari ham jismoniy, ham ma'naviy, ruhiy, ham aqliy jihatdan barkamol bo'lib o'sishlari lozim. Buning uchun ularga fuqarolik tarbiyasi, huquqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya beri va ularda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, vatanga, xalqiga muhabbat hissini uyg'otish komil insonga xos axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, mehnatga mustaqil hayotga layoqatli qilib tarbiyalash ta'lim tarbiya muassasalarining va pedagoglarning kasbiy va fuqarolik burchidir.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat-ma'rifat keng quloch yoygai, ilm-urfon taraqqiy ettan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish za unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratunchilik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli bo'ladi. Bunday jamiyat fuqolarida sog'lom fiqr, aql-idrok har doim ustuvor bo'ladi. qayta qurish, oshkoralik za milliy mafkura siyosati mahsulidan baxramand bo'lgan Respublikamiz xalqi chuqur bilim va yuksak tafakkurga asoslangan ana vijdon adolatli, huquqiy jamiyat qurish yo'lidan dadil olga bormoqda. Prezidentimiye o'zining "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat» asarida bunday deydi: «Biz shunchaki demokratik davlat emas, balki adolatparvar demokratik davlat qurishga intilayapmiz. Adolatga intilish xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim hususiyatdir. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib keladi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishi kerak".

Prezidentimiz o'zining uzoqni ko'ra oladigan dono siyosati tufayli Respublikamizni turg'unlikdan, ma'naviy za iqtisodiy, qaramlikdan ozod qilib, yagona mustaqil jamiyat qura oldi. Bu jamiyatning asosini nima tashkil qiladi? Uning kuchi qayerda?

O'z mustaqil yo'lini tanlagan Respublikamizda Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan milliy mafkura asosida quyidagi besh tamoyil yotadi:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi.
2. qonunniig ustuvorligi.
3. Davlat bosh islohoti.
4. Kuchli ijtimoiy siyosat.
5. Islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi.

Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat qariyalar, nogironlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikda, yoshlarning bilim olishlari uchun doimiy ravishda ko'rilayotgan chora-tadbirdarda o'z aksini topmoqda.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: «Xalq ochlikka, yo'qchilikka, qimmatchilikka chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi".

qomusimizda, har bir fuqaro dinidan, irqidan, millitidan, kelib chiqishidan, amalidan qat'iy nazar qonun oldida barobardir", deyiladi.

Respublikamizda amalga kiritilgan va ishlab chiqilayotgan qonunlarda quyidagi kafolatlar ta'minlangan:

- aholi turli tabaqalarining o'zaro uyg'un bo'lishni ta'minlangan;
- barchaning tengligini, farovonligini himoya qilish bilan birga bu farovonlikni yuzaga keltirishdagi xizmati va huquqga qarab har bir inson o'z ulushini olishga imkon yaratilgan.

Yurtboshiimiz haqiqat, adolat kabi insoniyat abadul-abad intilgan sifatlarni o'z timsollarida ko'rsatib berayotgan chinakam rahbar sifatida tobora xalqning, qalbiga singib bormoqda. U isagan adolat dunyosi isiqloldan so'ng yurtimiz uzra bosh ko'tardi. Mustaqillik bizga ma'rifiy, madaniy, adolatli va insonparvar jamiyat qurish imkonkyatini berdi. Endi bu jamiyatga har bir inson o'z o'rni, mavqyeiga yarasha vijdonan hissa qo'shmog'i lozim. Biz pedagoglar, ota-onalar, tarbiyachilar ham talaba yoshlarda adolatparvarlik, vatanparvarlik, teran aql-idroklilik kabi ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda o'z mehnatimizni ayamasligimiz, butuv kuch-quvvatimizni ishga solishimiz kerak.

Buning uchun eng avvalo inson fazilatlariniig o'zaro munosabatlarini va o'rnini aniqlab olmog'imiz lozim. Insonniig ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib kelali. Fazilatlar insonning ijobiy sifatlari majmuidan iborat.

Sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalonchi axloqiy kategoriyadir.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui.

O'qib-uqqan chuqur ma'naviyatli, adolatli va adolatsizlikning farqiga tushungan inson qaysi yo'ldan borayotganligini tushunib yetadi. Yurtiga nisbatan mehr, g'urur paydo bo'ladi. Natijada u ham Vatanining ravnaqiga munosib farzand sifatida o'z hissiyotini qo'shadi. Ajdodlarimiz yashab o'tgan, meni o'z bag'riga olib ulg'aytirayotgan Vatan uchun men nima qila oldim, meni go'dakdigimdan yedirib-ichirgan ota-onam, ona zamin, onlari tomirimda jo'sh urayotgan ajdodlarimiz sha'niga munosib ishlar qilayapmanmi?- degan savollarni o'z vijdoni oldiga ko'ndalang qo'yadi.

Biz pedagoglar va ota-onalarning burchi farzandarimizni va talabalarimizni Vatanga muhabbatli, imonli, e'tiqodli, adodatparvar qilib tarbiyalash, shakllantirishdan iboratdir. Bunday fazilatlarni o'zida kasb etgan yoshlarimiz, qanday vaziyatda bo'lmasin, hamma vaqt o'ziga to'g'ri yo'l tanlay oladi.

O'zlarini chuqur bilimlari va adolatli xatt-harakatlarini ko'nikmaga aylantirgan bunday nufuzli talaba yoshlarimiz mustaqil jamiyatimizga tamal toshini qo'yguvchi fidoyi insonlar bo'lib yetishishlari muqarrardir.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, manaviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarni mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.

Odob - har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish turishida o'zini tuga bilishidir.

Xulq - odobniyag ichki tuyik ko'nikmaga aylangan ko'rinishi.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat – “jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida foydalangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi».

Ma'naviyat - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan, chizgilardan ko'rinib turibdiki, inson ma'naviyatli bo'lishi uchun juda ko'p insoniylik bilimlari sarchashmasidan baxramand bo'lishi, o'z ustida tinmay izlanishi va hayotni kuzatib, undan saboq chiqarib borishi lozim.

Hayotni kuzatar ekanmiz, har bir insonning jismoniy, intellektual va ma'naviy jihatdan yagona bo'lishini, unga har tomonlama aynan bo'lgan ikkinchi bir insonning yo'qligini va tarixda ham bo'lmaganligini ko'ramiz, tabiatning jassosligiga, betakrorligiga tasannolar o'qiymiz. Insonlar bir-birlariga aynan bo'lmasalar-da, ular bir jamiyatda yashab, o'zaro hamkorlikda hamjihatlik bilan bunyodkorlik, yaratunchilik bilan shug'ullanmoqdalar, ezgulik urug'ini sochmoqdalar, bu urug'larning hosilidan bahramand bo'lib yashamoqdalar. Bunday insonlar ham aqliy, ham axloqiy bilimlarni puxta egallagan, har narsaga qodir, yuzidan nur balqiydigan, tilidan bol tomadigan, xushxulq xushfe'l insonlardir. Ular jamiyatning, xalqning sevimli farzandlaridir. Shu bois ularga havas qilsa, taklif qilsa, ulardan namuna olsa arziydi.

Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ana shunday insonlar hakida bunday deydi: “Yaxshi fazilatlarni o'ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur. Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, sahiy, mehnatkash, mehr-shafqatli, bilimdon, o'zgalar uchun qayg'uradigan, mard insonlarni ko'zda tutsa, «Yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlari yaxshi fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi, deydi. Muallif yomon insonlar deganda xasis, baxil, birovlarining yutug'ini ko'ra olmaydigan hasadgo'y, faqat o'zim deydigan xudbin kishilarni nazarda tutadi. Avloniy kishilarni o'zida yaxshi fazilatlarni to'llagan, el nazariga tushgan, yaxshilikka intiluvchi, o'zini tarbiyalab borishga o'rgangan insonlar bo'lishga undaydi.

Moziyga bir nazar tashlaylik. Erkaklarimizdan ularga xos marddik, jasurlik, g'urur kabi xislatlar meros bo'lib kelayotgan bo'lsa, momolarimizdan or-nomus, iffatlilik, nazokatlik, sharm-hayo, shirinzaonlik kabi xislatlar asrlardan-asrlarga meros bo'lib o'tib kelmoqda. Demakki, bu xususiyatlar elimiz, yurtimiz, millatimizning qondosh va jondosh ajralmas bir ma'naviy qiyofasidir. Endilikda zamondosh yigit-qizlarimiz yurish-turishlari, xatti-harakatlari, kiyinishlari bilan o'zlarini qanchalik o'ta taraqqiylashgan shahar fuqarolari kabi ko'rsatmasinlar, baribir ular qalban shu ma'naviy merosning egasidirlar.

Merosiy manbalarimizning yana biri Abu Rayhon Beruniyni “Hindiston” asaridir. Alloma bu asarida qizlarga shunday murojaat qiladi: qizim, sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish bir xonadonga kelin bo'lib tushmoqdasan... Ering osmon bo'lsa, sen yer bo'l, Osmon o'zining shifoli yomg'iri bilan yerni ko'kartirganidek ering kam o'z mehri bilan seni asrab avaylaydi Eringning ko'ziga pala-partish ko'rinma, o'zingga oro ber, suv va surma hamisha hamrohing bo'lsin. Ering kuchi yetmagan narsalarni olib ber deb xarxasha qilaverishni man qilaman...

Abu Rayhon Beruniy bu fikrlarini xuddi bugun qizlarimiz va ayollarimizning quloqlariga shivirlayotgaktek, nazarimizda. Beruniyning ijodiga razm solsak, ul zoti sharifning nihoyatda ko'p mutolaa qilganini, izlanganini, o'ziga nisbatan nihoyatda talabchan bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Beruniy faqat hayitlardagina dam olganlar. Ular hayitning birinchi kuni xastalarni, ko'ngil yakinlarini, yoshi ulug'larni ziyorat qilganlar. Ikkinchi kuni marhumlar xonadoniga tashrif buyurib, ularni yod aylaganlar. Uchinchi kuni esa keyingi hayitga yetgulik ozuqa va kiyimbosh, kerakli uy-ro'zgor buyumlari, asboblarni xarid qilish uchun vaqt ajratganlar.

Beruniy 76 yoshda xastalanib yotib qoladi. Anchadan beri to'shakka mixlanib qolgan Beruniyning holidan shogirdlari kirib-chiqib, dam-badam xabar olib turadilar. Shunday kunlarning birida Beruniydan hol so'rash uchun qozi Valvalujiy tashrif buyuradi. Beruniy qozining meros taqsimotiga yangi sharhlar kiritganini eshitgan, lekin qozi bilan bu hakda bamaylixtir suhbatlasha olmagan edi, o'sha sharhni qozidan aytib berishini iltimos qiladi. qozi: "Ma'qul, ammo sal kuch yig'ib olganingizdan so'ng bafurja gallasharmiz»,-deydi. Beruniy: "Yey qozi, men shu meros taqsimoti haqidagi sharhingizni bilmay bu dunyodan ko'z yumib ketganimdan ko'ra bilib, xotirjam ketganim afzal emasmi"-deyli. Noiloj qolgan qozi meros taqsimoti sharhini bayon qiladi. Beruniy bor vujudi bilan ko'zi yumilgan holda tinglar, ayrim joylariki ma'qullar, ayrim joylariga o'z fikrini va takliflarini bildirar edi. So'zini tugatgan Valvalujiy Beruniyning og'ir nafas olishiga qarab, bugun shu suhbat shart emasmi, ul zotni toliqtiri qo'ydim, deb hijolat bo'ladi va ketishga ruxsat so'raydi. U hali mahalla boshidagi uyiga yetib ham kelmagan ediki, Beruniyniig hovlisidan yig'i ovozi eshitiladi. Valvalujiy orqasiga qaytadi. Davr ilmiga tashna, fan fidoyisi Beruniydan shu tarzda judo bo'lgan edi. Ul tabarruk zot o'zidan bir qancha noyob asarlar oldirdikk, mana necha asrlardan buyon uning avlodlari bu bebaho manbalardan o'zlari uchun boy ma'naviy ozuqa olib kelmoqdalar. Ularning adolatli, oqil fikrlari hanuzgacha ma'naviy dunyomizni ma'sha kabi yoritib kelmoqda.

Ul zot ulkan kashfiyotlar, chuqur bilim egasi bo'lishlariga qaramasdan o'zining hyech narsa bilmasligini, bundan ham ko'proq bilish mumkinligini aytib, o'ziga nisbatan norozilik bildirmoqda. Bundan ham ortiq kamtarlik va bundan ham ortiq o'ziga talabchanlik bo'lmasa kerak. Beruniyning bu fikrlari tolibi ilm yo'li uchun katta hayotiy saboq, vaqtiniig har bir daqiqasi katta takrorlanmas ekanligini tushunish, uni bexuda sarflamaslik, qadriga yetishning amaliy namunasidir.

Talabalarda kamtarlik, ilmga intilish, o'ziga nisbatan talabchanlik, tabiat tomonidan berilgan umr kabi betakror imtiyozdan unumli foydalanish kabi xislatlarni tarbiyalashda Beruniyning yuqortsaagi kabi ma'naviy merosidan ijodiy foydalanib borish katga samara beradi.

Inson qadri umrida qancha yil yashagani bilan emas, balki bu fursatdan qanday foydalanganligi, el va jamiyat manfaati yo'lida nima ishlar qilganligi bilan o'lchanadi. Bir asr umr ko'rib, nom-nishonsiz o'tganlar ham bor, oz umr ko'rib, abadiy nom qoldirganlar ham bor. Insonlar el nazarida uy-joy, molu mulklari bilan yashamaydilar, balki xalq uchun qilgan sharaflari bilan barhayot yashaydi. Tarixga nazar solsak, necha-necha asrlar davomida shohlar, boylar, darveshlar, xullas qancha-qancha insonlar bu hayotdan o'tishgan. Ammo xalqi uchun, uning ma'naviy kamoloti yo'lida riyozat chekkan Forobiy, al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Lutfiy, Alisher Navoiy, Binoiy, Koshifiy kabi allomalarimiye insoniyat kamolotining yo'lchi yulduzlari bo'lganliklari uchun mana necha asrlar o'tibdiki, biz bilan yonma-yon yashayotgandek ishimizga, o'ylarimizga, orzularimiyega hamkor, hamnafas, ruhi-poklari xotiramizda abadiydir.

Yaxshi fazilatlar qalbida makon qurgan va ularni hayoti davomida yanada sayqallab, takomillashtirib borgan inson kamolotga erishib boraveradi. Aqliy, axloqiy, huquqiy va kasbiy bilimlari sarchashmasini to'latib, kamolotga intila borgan inson jamiyatda quyosh kabi nur sochib turadi. quyosh o'z nuri bilan ham isitib, ham shifo berganidek, komil inson ham yurtiga, Vataniga faqat yaxshilik keltiradi, unga ma'naviy ozuqa va ezigulik beradi. Insonning tarbiyalangailigini qanday baholash mumkin? Uning mezoni nimadan iborat?

Inson komilligining mezoni uning o'qib-uqqanligi, aqliy va axloqiy bilimlari saviyasi va ularni hayotda qo'llay bilish ko'nikmasini hosil qilganligi bilan belgilanadi.

Ongi bilimlar ummoniga aylangan, o'kib-uqqan tolibi ili ahllarimizning tafakkuri boy, til-zaboni shirin, kamtar bo'lib, qo'llagan bilim zahiralarmdan o'zgalarni ham baxramaka eta bilmoqlari zarur. Shunday insonlar borki, aqliy bilimi chuqur, ammo axloqiy bilimi sayoz.

Aksincha axloqiy bilimi yetarli, lekin aqliy bilimi qoniqarli emas. Agar inson aqliy va axloqiy bilimlarini puxta egallab, uni chuqur tafakkur qo'lsa va til dasturxoniga solib, uni xaridorlariga chiroyli qilib, mehrli uzata olsa-ayni muddao. Jamiyatimizning ravnaqi shundan, yoshlarimiz kamoloti shundandir.

Respublika Oliy Majdisining 12-sessiyasida Prezidentimiz tomonidan «Kuch-bilim va tafakkurda» degan teran bir fikr ilgari surildi. Tafakkur-insonning bugun hayotiy va ijodiy faoliyatini idora qiluvchi ongiy kamolot o'lchovidir. Unga faqat bilim olish, hayotni kuzatish, uni o'qish va ukish, yaxshi va yomonni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish orqali erishiladi. Tafakkur aql tarozisi bo'lgan til orqali namoyon bo'ladi. Sizning so'zlagan so'zingiz, aytgan fikringiz tafakkuringizning, aql-idrokingizning, ongingizning oyinasidir.

Haqiqatda ham odobli, ilmi, madaniyatli inson bilan suhbatdashganimizda ularning ovozi ohangidagi munglilik, samimiylik, inson dilini yorituvchi yoqimli sehr o'ziga maftun qilib ko'ydi. Ularning suhbatidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz, charchoqlarimiz chiqadi, qalbimiz yayraydi. Demak inson bunday darajaga yetishish uchun kundalik hayot mashaqqatlarini sabr-toqat bilan yengib, ko'p o'qishi, hayotni kuzatib undan saboq ila bilishi zarur. Mehnat qilish, mashaqqat, riyozat chekish, hayotni o'qib, undan oqilona saboq chiqara olish evaziga insonning ongi, tafakkuri sayqallanib boradi.

So'z mulkiniig sultoni Mir Alisher Navoiy o'zining «Mabub ul-qulub» asarida bunday yozadi: Urug'ni qara. Oldin uning hamma yog'i loyga, changga belandi. So'ng u yerga qadalgandan keyin qattiq yerni yorib, qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan qidab, yuzaga-yerga chiqadi. U zabardas daraxt bo'ladi, meva tugadi, qancha-qancha odamlarning hojatini chiqaradi. Har qanday ishning, har qanday yutuqning qiyinchiligi bo'ladi. Unga sabr-toqat qilgan inson keyin rohat-farog'atda yashaydi».

Ibn Sino o'zining «Xindiston» asarida: «Kamtarlik-bu xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch, - deydi. Ha, xalqimiz: «Kamtarga kamol-manmanga zavol», deb mashaqqatli hayot saboqlarining xulosasini bizga meros qilib qoldirgan.

Haqiqatdan, hayotni kuzatsangiz, ko'p o'qigan, hayotni ko'p kuzatgan, teran ma'naviyatli insonlar fahm-farosatli, har bir narsaga jiddiy qaraydigan, mulohazali, oqil insonlar bo'ladilar. Bunday insonlar teran, sokin daryoga o'xshaydi: ular shovin-suronsiz oqadi. Ammo bilimi sayoz, hayot saboqlaridan yetarli xulosa chiqara olmagan, o'qib-uqmagan, hammaning aqli mening cho'ktagimda deb o'ylaydigan, salga o'zining yo'q aqlini peshlayveradigan kimsalar esa shaldirab oqayotgan jilgaga o'xshaydi-suvi kam-u, vahimasi bir jahon. Bunday odamlarda manmanlik kasali doimo xuruj qilib turadi.

Manmanlik - bu o'z kamchiligini va o'zgalarni tan olmaslik, o'zgalar fikri bilan hisoblashmaslik, takabburlik, xudbinlikdir. Manmanlik illati u makon qurgan kishilarni sog'lom fikr yuritishdan, o'zini takomillashtirib borishdan mahrum etadi. Natijada bunday odamlarda jaholat illati, ya'ni bilimsizlik paydo bo'ladi.

Kamtarlik va manmanlik bir-biriga qarama-qarshi ikki yo'ldir: ularning biri sizni kishilarga yaqinlashtiradi, ikkinchisi esa yiroqlashtiradi.

Bir insonning ikkinchi bir insonga intilishi, uni dil qumsab, sog'inishi zamirida muomala madaniyati yotadi. Jamiyatning rivojlangailigi, uning madaniyatlilik darajasi, ravnaqi ko'p jihatda unda yashaydigan kishilarning muomala madaniyati bilan belgilanadi. Aqli teran, fikri ummon, haqiqiy ma'naviyatli inson muomala jarayonida o'z fikrini tafakkur doshqozonida qaynatib, so'ng til dasturxoniga uzatadilar. Insonning til-zabonidan uning qanchalik fahm-farosatga ega ekanligini bilib olasiz.

Xalqimiz «So'z - aql tarozi» degan maqoli bilan ming karra haqiqatni aytgan. Inson martabasi uning so'zidan bilinadi, lekin so'zining martabasi kishi bilan belgilanmaydi. Nodir maibalardan biri «qobusnoma»da Kaykovus o'g'li Gilonshohga bunday deydi: Kishi suxandon, suhango'y (notiq) bo'lishi kerak.... Suhango'y shul kishi bo'lgayki, ul har so'zni desa, xalqqa ma'qul bo'lgay... Bunday kishidar oqillar qatoriga kirgay.

Bu manbada bo'lar-bo'lmasga vaxz qilavermaslik, so'zni ulug' bilish, u osmondan kelmasligi va uni xor qilmaslik haqida nasihatlar beriladi. Xorazm elining kuragi yerga tegmagan polvoni, ko'li gul po'stindo'z, marifatparvar, xassos shoir Pahlavon Mahmud o'zining quyidagi sherida aql-idrok, fahm-farosat har qanday qalbdam ham makon quravermaslini, uni juda noyob xislat ekanligini, o'qib-uqqan qalblardagina qaror topishini chiroyli ifoda qiladi.

Uch yuz Ko'hi qofni kelida tuymoq,

Dil konidan bermoq falakka buyon,
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidin ko'ra yaxshiroq.

Mazmuni: qof tog'ining kamida uch yuztasini yanchishga tayyorman yoki ko'kragimga xanjar urib, dil koni bilan falakni buyashdek mushkul ishni bajarishim mumkin yoxud bir umr vijdonga tashlashlariga roziman. Ammo nodonning bir daqiqa suhbatiga dosh berishim mushkul. So'z so'zlaganda uning manosi va mang'itiga e'tibor bermay so'zlaydigan insonlarni tinglab, dilni yaralagandan ko'ra, og'ir mehnat qilgan osonroq, tana charchog'i dam olinsa chiqib ketadi. Biroq mazamtrasiz, fahm-farosatsiz suhbatni tinglab orttirilgan qalb charchog'i, dil yarasi chiqib ketishi, tuzilishi qiyinir.

Ha, bildirmoqchi bo'lgan fikrning obdon puxtalanishi, sayqallanishi, lo'ndalanishi va keyingina tilga chiqarilishi insonni yuksaklikka ko'taradi, unga latofat bag'ishlaydi. Buning uchun ham inson qalbdan chiqqan samimiy, go'zal so'zlarga va shirin muomalaga o'zida ehtiyoj sezadi.

Inson eng avvalo har tomonlama bilimdon bo'lmog'i lozim. Bilimdon bo'lmoqlik, bu o'z kasbini puxta egallash, el-yurt, Vatan manfaatlari yo'litsda sidqidildan mehnat qilish, unga sadoqatli bo'lish, uni e'zozlash, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy bilimlarni doimiy ravishda yetarli darajada egallab borish, ma'rifatli bo'lish, ma'naviy kamolot sari intilish, xalqning, insonlarning g'am-tashvishlari, quvonchlarida hamdard, hamkor, yelkadosh bo'lish, umumiy qilib aytganda jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etish, uning isiqboli uchun qayg'urish, doimo ezgu ishlar, orzu-umidlar, niyatlar bilan yo'ldosh bo'lib yurish demakdir.

Buning uchun inson har doim o'z mustaqil fikrini qobiliyatini shakllantirib, sayqallab bormog'i kerak.

I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod orzusi" kitobida, "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "Kuch bilim va tafakkurda" degan g'oyalarni ilgari surib, yoshlarni shunday bo'lishiga undayotganligi bejiz emas. Chunki bugungi yoshlar ertangi yurt egalaridir. Shuningdek, yurtboshimiz komil inson deganda biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz, deydilar.

Demak, Prezidentimiz orzu qilgan jamiyatimizning tamal toshini quyuvchi Barkamol avlod komilining asosiy mezon, yoshlarning mustaqil fikrlay olish va o'rgangan bilim va tajribalarinki amaliyotla qo'llay bilishidir.

Xo'sh, yoshlarda mustaqil fikrlay olish va o'zining shaxsiy, to'g'ri xulosasini chiqara oladigan fazilatni qanday tarbiyalash mumkin?

Mustaqil fikrlash komillikning asosiy belgisidir. Komillik uch bosqichdan iborat:

1. jismoniy salomatlik
2. Axloqiy poklik
3. Aqliy yetuklik.

Bu bosqichlarni shakllantirishda mustaqil fikrlash yetakchi ustuvor o'rin egallaydi. Talaba yoshlar tarbiyalanishni qalban xohlab intilsalar, jismoniy va axloqiy komillik darajasiga osonlik bilan erishsa bo'ladi.

Ammo aqliy kamolotga erishish esa, asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo'riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy xatgi-harakatlar uzluksiz faollik, fidoiylilik, bilimga chanqoqlik namunalari evaziga bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Mustaqil fikrlash sarchashmasi fahmlash, yani anglashdan, fiqr yuritishdan boshlanadi.

- o Anglash - biror bir g'oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib yetish.
- o Mushojahda - shu g'oya (fikrni)ni mantiqan talqin qilish.
- o Tafakkur - inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash.

Amaliyotda (praktikada) qo'llash - hayotda bir necha bor qo'llanilgan o'zining ijobiy hosilasini bergan, ishonchli muammolar yechimi bilan solishtirib, xulosa qilish, so'ng tafakkur saviyasiga tayanib, yagona yechimni tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir.

Mustaqil fikr yuritish jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi hamda ular uzluksiz tarzda bir-birini taqozo etadi. Xuddi shu boisdan inson o'zining mustaqil

fikrlashi, muomalasi (muloqoti), nutqi haqida ongli xulq-atvori tufayli borlikdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi.

Inson mustaqil fikr yuritish faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, xotirlab qolgan narsa va hodisalar to'g'ridagi, aniqligi, haqiqiyligi yoki ularning voqyelikka mos tushishini aniqlaydi. Borliqni bilish jarayonida hosil qilingan xukmlar, tushunchalar, xulosalar, farazlar (taxminlar) chiqarilgan qarorlar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson mustaqil fikrlash orali voqyelikni umumlashtirib, bilvosita va bevosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalar, xususiyat hamda mexanizmlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda tabiiy, ijtimoiy hodisa va voqyealarning vujudga kelishi, kechihi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rib turish imkoniyatiga egadirlar.

Odatda fikr yuritish voqyelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, obyektning subyekt uchun yangiligi, shaxsning faollik ko'rsatkichiga ko'ra bir necha turlarga ajratilib tadqiq qilinadi. Mustaqil fikrlash aqliy faoliyat sifatida olib qaralganda, inson tomonidan masalalar, topshiriqlar yechish nazarda tutiladi. Ularning shartlari, mojiiyati. Tuzilishi, shakllari va shaxsning anglash imkoniyatlari kuzatiladi.

Masala, muammo, topshiriqlarni yechish shaxsning ehgiyoji, qiziqishi, mayli, qobiliyati, ise'dodi, salohiyati bilan bog'liq ravishda olib qaraladi, ularning talablarni qabul qilish, muayyan qarorga kelish, vositalar qidirish mustaqil fikr yuritishning mustajkam negizini tashkil qiladi.

Mustaqil fikr yuritish faoliyatda muammo yechimini qidirishni boshqarishda, borlikni inikos qilishda insonning his-tuyg'ulari, kechinmalari, favquloddagi vaziyatlar, obyektiv va subyektiv sharoitlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayonida va ishlab chiqarishda shaxslararo (obyektiv va subyektiv) munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi akliy va jismoniy mehnat ma'suli, muomala me'yori, mustaqil fikrlash majmuasi tariqasida yuzaga keladi. Jamoada tanqid, o'zini-o'zi tanqid qilish, o'zini-o'zi bilish, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi tekshirish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi namoyon qilishi, o'ziga-o'zi buyruq berish, gurujiy mulojaza, mushoxadadan iborat mustaqil fikr yuritish sifatleri shakllanadi.

Insonni inson tomonidan idrok qilinishi, ya'ni notanish shaxsning ruhiy xolatini aniqldash, taxmin qilish eng zarur alomat va belgilarni to'plash ham mustaqil fikrlash masulidir. Mazkur murakkab bosqichli bilish jarayoni insondan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, ongli munosabatni, barqaror vaziyatni, qulay shart-sharoitni talab qiladi, muayyan xulosaga kelinadi.

Mustaqil fikr yuritish jarayoni, muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi. Lekin mazkur vaziyat tug'ilishi, yechimi bu bilan tugallanmaydi. Insonda bilishga nisbatan moyillik, ixtiyorsiz xatti-harakat muammoli vaziyatgacha yorokin bo'lmagan, noaniqliklarni izlab topish kabi holatlar yuzaga keladi, so'ng tub ma'nodagi yechimga muhtoj muammoli vaziyat yaraladi va nijoyat uning yechimi topilsa-da, lekin bilishning muammodan keyingi bosqichi fikrning o'z yo'nalishida ixtiyorsiz davom etaveradi.

O'kuv faoliyatida fikr yuritishnint, tafakkur qilishning o'zaro mustahkam bog'langan berk zanjiri vujudga keladi.

Mustaqil fikr yuritish jarayoni quyidagi bosqichlardan tarkib topgan.

1. Mustaqil fikr yuritish faoliyatida eng avvalo hal qilinishi zarur bo'lgan muammo inson tomonidan yaxshilab anglab (tushunib) olinishi kerak. Agarda inson oldida hyech qanday masala yoki muammo vujudga keltirilmagan bo'lsa, u holda u biron-bir narsa to'g'risida fikr ham yuritmaydi. Mushohada ham qilmaydi. Inson tanballikka moyildir. Mabodo shaxs hal qilinishi shart bo'lgan masala yuzasidan qanchalik aniq va to'laroq ma'lumotga ega bo'lsa, uni oqilona yechish yo'l va vositalarini shunchadik yengillik bilan topadi.

2. Muammo yoki masalani hal qilish uchun eng zarur bo'lgan barcha bilimlarni, muhim munosabatlar, urf-odatlar, bog'lanishlarni yaxshi bilishi va uni tadbiq qila olishi zarur. Buning uchun shaxsiy tajribada uchragan holatdan, usullarlan xolatlarni xotirada saqlash va uni o'xshash muammolarni yechishda qo'llash jarayoni amalga oshiriladi.

3. Masala yoki muammoga taalluqli faraz ilgari suriladi, bosqichlar tahlil qilinadi, yechish to'g'risida mulohazalar bildiriladi. Turli variantlar hakida fikr yuritmladi, ular o'zaro qiyoslanadi va eng samaradi variantlar ajratiladi.

4. Muammo oldiga qo'yilgan gipotezani muayyan mezonlar yordami bilan tekshirish zaruriyati tug'iladi. Uni tekshirish uchun o'zaro o'xshash holatlar ma'noviy, shakliy, tuzilmaviy jihatdan taqqoslanadi. Bu o'rinda ijodiy hayol materiallaridan atroflicha foydalaniladi, ya'ni ijodiy rejalar tuzish, umumlashma obrazdar yaratish, maqsad natijalarini ko'z oldisha keltirish, taxminiy munosabatlarni idrok qilish amalga oshiriladi. Uning haqqoniy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aqliy xatti-harakatlar tizimini tadbiiq qilib ko'riladi va ayrim o'zgartirishlar kiritish mo'ljali oydinlashtiriladi. Gittoteza mantiqiy usullar yordamida fikran analiz va sintez qilinadi, muhim alomatlar ajratiladi, uniig to'g'riligi, hakkoniyiligi bo'yicha tezkor hukm va xulosalar chiqariladi.

5. Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza to'g'ridagi yoki noto'g'ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish obyektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o'ylar, taxminlar qabul qilinali yoki o'ylab topiladi. Yangi amaliy gipoteza fikran bir necha marta tekshiriladi va undan so'ng amaliyotga joriy qilish uchun sinashga tavsiya qilinadi. Ta'kidlab o'tilgan mulohazalarning aksariyati konsruktiv texnik masaladarni hal qilishda, kashfiyotlarni yaratisha, ixtirochilik takliflarida, ratsionalizatorlikda, texnologik qurilmalarni joriy qilishda turli-tuman vaziyatlar, texnologik kartalar va boshqa modellar fikran tahlil qilinadi. So'ngra ulardan eng ma'quli, omilkori, eng maqsadga muvofiqi tanlanadi va uning ustida bosh qotiriladi.

6. Muammo va masalani hal qilish, yechish, olingan natijalarni to'g'riligiga ishonch, qanoat hosil qilish uchun yechuvchi shaxs uni tekshirish bilan mustaqil fikr yuritish xatti-harakatlarini yakunlaydi. Ana shu fikriy operatsiyalar, mulohazalash shakllaridan so'ng masala (topshiriq) batamom hal qilinali va bu muammo to'g'risyada o'ylash nisbiy jihatdan vaqtincha to'xtatiladi. Erishilgan muvaffaqiyat hayotga joriy qilinadi. Boshqacha aytgatsda bu muammo va uning yechimini topish uchul qilingan harakatlar va yechimlar kelgusi muammochi vaziyatni hal qilish uchun kerak bo'ladi. Bu tajribalar ongning xotirasida saqlab qo'yiladi va navbatdagi hayotiy muammolarni yechishda chuqur o'ylab, mushohada qilish, tafakkur saviyasiga mos, hayotiy tajribaga tayanib yechim izlash va uni orttirgan hayotiy tajribalar bilan qiyoslash, undan keyingina yagona oxirgi xulosaga kelish va uni hayotda qo'llash kabi berk aylayama tizim (sistema, mexanizm) hosil bo'ladi. Bu tizim cheksiz davom etaveradi.

Har bir shaxs o'z aql-idroki, tafakkurning terandigi, intellektual shakllanganligiga xos va mos holda muammolarni yechadi va hayotga joriy etadi. Inson hayotga joriy etgan muammolar yechimining saviyasiga qarab, kishilar orasida o'z o'rni va mavqeini egallab boradi. Shu yo'sinda shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati sayqallanib boraveradi.

Hamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Ulug'bek, A.Navoiy, Zavqiy, Furqat, Hamza, A.Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiya deb bildilar.

Zero, ilm-tarbiya bo'lgan joyda odob, tarbiya ham bo'lishi muqarrar.

Masalan: A.Avloniy axloqni shunday ta'riflaydi: "Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur".

Yoki A.Navoiyning odob haqidagi quyidagi baytini tahlil qilaylik. "Oldiga kelganni yemoq hayvonni ishi, og'ziga kelganni demak axmoqni ishi".

Yoki qanoat to'g'risida "qanoat buloqdir suvi olingan bilan qurimaydi".

Yoki Ibn Sino: Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit tarbiya ozatlanish natijasida vujudga keladi – deydi.

M.qoshg'ariy esa: O'g'lim senga meros qilib ezgu xulq odobni qoldiraman-deydi.

B.Naqshbandiy xazratlari esa "Kam yenglar, ocharchilik ko'rmasdan boy badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar, mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar dono bo'lasiz.

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1. Tarbiya jarayonini qisqacha tavsiflang.
2. Tarbiya maqsadi nimadan iborat?
3. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
4. Sharq allomalari tarbiya xususida qaysi asarlarida to'xtalib o'tgan?
5. "Individ", "Shaxs", "Shakllanishi" tushunchalari mazmunini izog'lab bering?
6. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
7. Kichik maktab yoshi, o'smir va o'spirinlarning yosh xususiyatlariga tavsif bering?

8. Shaxsiy kuzatishlar asosida muayyan o'quvchining individual xususiyatlarini aniqlang, uning yosh va psixologik xususiyatlari yuzasidan tavsifnoma tayyorlashga o'rinib ko'ring.

10- MAVZU: O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizom.

2soat.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizomda etirof etilgan umumiy qoidalar, maktabgacha ta'limning maqsad vazifalari, uni tashkil etish va boshqarish to'g'risida bilim berish.

Asosiy savollar:

1. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizomning umumiy qoidalari.
2. Maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifalari
3. Maktabgacha ta'limni tashkil etish
4. Maktabgacha ta'limni boshqarish
5. Mablag' bilan ta'minlash va moddiy texnika ta'minoti

Tayanch so'zlar va iboralar: Maktabgacha ta'lim, Ta'lim to'g'risidagi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, milliy, madaniy- tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar, attesasiya, pedagogika kengash.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Konsepsiyasi. Toshkent 1992 y.
3. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
4. «Bolalar bog'chasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
5. Pedagogika. Munavvarov taxriri osida. -T., «O'qituvchi», 1997.
6. B.ziyamammedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
7. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
8. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
9. Yu.I.Fausiyek. Montessori bolalar bog'chasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nash. 2008 y.

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizomning umumiy qoidalari.

1.1. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" qonunlari talablari asosida tashkil etiladi.

1.2. Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim, bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshiriladi.

Davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasalari faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Ustavi bilan belgilanadi.

1.5. Maktabgacha ta'lim muassasasi yuridik shaxs hisoblanadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

1.6. Maktabgacha ta'lim muassasasining Ustavi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-son qaroriga, mazkur Nizomga muvofiq ishlab chiqiladi, tuman(shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan tasdikdanadi va ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organida ro'yxatdan o'tkaziladi.

II. Maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifalari.

2.1. Maktabgacha ta'lim, bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ta'lim sandartlari to'g'risida Nizom"ga muvofiq belgilanadi. Davlat talablari asosida barcha turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari va oilada qo'llash uchun tavsiya etiladigan tayanch dastur ishlab chiqiladi.

2.2. Maktabgacha ta'limning vazifalari:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy- tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
 - bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlash.

III. Maktabgacha ta'limni tashkil etish

Maktabgacha ta'lim muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va tugatish qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari ularning yo'nalishlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- bolalar yaslisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli-bog'chasi, xonadon bolalar bog'chasi (ham mustaqil muassasa sifatida, ham filial sifatida);
- bog'cha-maktab majmuasi;
- tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir necha ustuvor yo'nalishlarda rivojlantiradigan (til o'rganish, badiiy-yesetik, sport va boshqa yo'nalishlar bo'yicha) maktabgacha ta'lim muassasasi;
- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarini bartaraf etishni ustuvor ravishda amalga oshiruvchi maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi;
- sanitariya-gigiyena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlari va muolajalari ustuvor ravishda amalga oshiriladigan sog'lomlashtiruvchi bolalar bog'chasi;
- aralash turdagi maktabgacha ta'lim muassasasi (aralash turdagi muassasa tarkibiga umumiy rivojlantiruvchi, maxsus va sog'lomlashtiruvchi guruhlar turlicha miqdorda mujassam bo'lishi mumkin).

Maktabgacha ta'limning turlari ota-onalar (ularni o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan tanlanadi.

3.3. Maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni qabul qilish tartibi, ularni bir muassasadan ikkinchisiga ko'chirish, muassasadan chiqarish davlat muassasalarida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasalarida esa, muassasaning Ustavi bilan belgilanadi.

3.4. Maktabgacha ta'lim muassasalarining yasli va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar guruhlariga bir xil yoshdagi, shuningdek turli yoshdagi bolalar qabul qilinishi mumkin.

Guruhlardagi bolalar soni quyidagicha belgilanadi:

- 1 yoshdan 2 yoshgacha - 10 ta;
 - 2 yoshdan 3 yoshgacha - 15 ta;
 - 3 yoshdan 6-7 yoshgacha - 20 ta;
- turli yoshdagi guruhlarda 15 ta.

3.5. Aqliy va jismoniy rivojlanishida nuqsonlari mavjud bo'lgan yoki salomatligi zaiflashgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari yoki guruhlar tashkil etiladi. Bu muassasalarga bolalar tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tuzilmasida tashkil etilgan o'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari tomonidan berilgan xulosa asosida qabul qilinadi.

Kasallik turi	Guruhlar	
	3 yoshgacha	3 yoshdan 7 yoshgacha
	bolalar soni	
Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar uchun	-	10

Nutqida fonetik-fonematik kamchiliklari bo'lgan bolalar uchun	-	12
Kar bolalar uchun	6	6
Zaif eshituvchi bolalar uchun	6	8
Ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun	6	6
Zaif ko'ruvchi, ambleopiya va g'ilay bolalar uchun	6	10
Tayanch-harakat a'zolari shikastlangan bolalar uchun	6	8
Aqli zaif bolalar uchun	6	10
Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun	6	10
Sil bilan zararlangan bolalar uchun sanatoriy guruhlar	15	20
Tez-tez kasallanadigan bolalar uchun	15	20
Virusli gepatit bilan kasallangan bolalar uchun	15	20
Murakkab nuqsonli bolalar uchun	6	6

Mazkur muassasalardagi guruhlarda bolalar soni yuqoridagi jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlardan ortiq bo'lmasligi kerak.

3.6. Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va unda bolalarning bo'lish vaqti muassasaning me'yoriy hujjatlari hamda muassasa va ota-onalar o'rtasida tuziladigan shartnoma bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari kunduzi 2-3 soatdan 10,5-12 soatgacha, kechayu-kunduz, dam olish va bayram kunlari ishlashiga, shuningdek bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga haftasiga 2-3 marta erkin qatnashishlariga yo'l qo'yiladi.

3.7. Oiladagi maktabgacha ta'limni:

— oila sharoitida mustaqil yoki qarindoshlar yordamida, maxsus tayyorlangan repititorlar, tarbiyachilarni jalb etish yo'li bilan;

— bir yoki bir necha davlat va davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim muassasalari igu jumladan, maxsus yo'nalishli ta'lim muassasalari(guruhlar)ga bolaning mavsumiy qatnashishi yo'li bilan amalga oshirish mumkin.

3.8. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, tayanch davlat dasturi bilan belgilanadi. Shu bilan birgalikda, muassasalar Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ dasturlardan birini tanlab olishlari yoki tayanch dastur bajarilishi sharti bilan uning asosida o'zlarining mualliflik dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin.

3.9. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning hamma turlari bilan mustahkam aloqada olib boriladi.

3.10. Amaldagi me'yoriy hujjatlariga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish, shtatdagi yoki maxsus birlashtirilgan tibbiyot xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiyot xodimlarining maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlarining o'tkazilishi, sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya qilinishiga, tarbiyalanuvchilarning ovqatlanish sifati va tartibiga javob beradilar.

Tibbiyot xodimlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish mahalliy sog'liqni sakdash bo'limlari zimmasiga yuklanadi.

3.11. Maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanish, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdikdangan tibbiyot, sanitariya va gigiyena normalari hamda talablariga binoan tashkil etiladi.

3.12. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalardan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim muassasalarida esa, shartnomaga muvofiq haq olinadi.

3.13. Ota-onalar(ular o'rnini bosuvchi shaxslar)ning huquq va majburiyatlari maktabgacha ta'lim muassasasining Ustavi hamda muassasa bilan ota-onalar o'rtasida tuziladigan shartnoma bilan belgilanadi.

3.14. Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning o'z Vataniga va xalqiga bo'lgan muhabbatini o'stirish muassasalarning ota-onalar, oilalar, mahalla qo'mitalari, Respublika ma'naviyat va ma'rifat Kengashi, jamoat tashkilotlari va jamg'armalar bilan mustahkam o'zaro hamkorligida amalga oshiriladi.

3.15. Hokimliklar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida
xalqning milliy an'analari, urf-odatlar va
qadriyatlariga asoslangan ma'naviy-axloqiy
sharoit yaratilishiga ko'maklashadilar;

kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatadilar, joylarda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun imtiyozlarni belgilaydilar;

o'z hududlarida bolalar va maktabgacha ta'lim muassasalari uchun zarur ashyolarni

4.2. Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarning o'quv pedagogik vazifasi maktabgacha ta'lim turiga davlat talablaridan kelib chiqqan holda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

4.3. Maktabgacha ta'lim muassasalari ma'muriyati pedagogik kadrlar obro'-ye'tiborini va ijtimoiy maqomini, ularning mas'uliyati va kasb mahoratini oshirish bo'yicha aniq yo'nalishli ishlarni amalga oshiradi. Ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni, mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan yangi (shu jumladan mualliflik) dasturlar, metodik qo'llanmalar, didaktik materiallarni joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Pedagogik kadrlarning o'zaro munosabatlari hamkorlik, demokratiya, hurmat, shaxsning o'z qadr-qimmatini bilishini e'tirof etish pedagogikasi asosida quriladi.

V. Maktabgacha ta'limni boshqarish

5.1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyat va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalari, tuman(shahar) xalq ta'limi tegishli bo'limlari maktabgacha ta'limni boshqarishning vakolatli organlari hisoblanadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyat va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalari, tuman(shahar)

xalq ta'limi tegishli bo'limlari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, tuman(shahar) hokimliklariga ikki tomonlama bo'ysunadilar.

5.2. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga ta'limni boshqarish organi tomonidan tayinlanadigan maxsus oliy ma'lumotga va besh yildan kam bo'lmagan pedagogik ish sajga ega bo'lgan mudir(a), davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasasiga esa bevosita muassislar tomonidan tayinlanadigan maxsus oliy malumotga va besh yildan kam bo'lmagan pedagogik ish sajga ega bo'lgan shaxs rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta'lim qatnashchilarining lavozim huquqlari va majburiyatlari, ularning boshqaruv vakolatlari va vazifalari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, tegishli me'yoriy hujjatlar, ta'lim muassasasi Ustavi bilan belgilanadi.

5.3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va maktabgacha ta'lim muassasasi Nizomiga muvofiq ish olib boruvchi vasiylik, ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari, ishbilarmon doiralar, jamoat tashkilotlari, jamg'armalarning vakillari va homiylarni o'z ichiga oluvchi jamoatchilik boshqaruvi organlari(vasiylik kengashlari) tuzilishi mumkin.

5.4. Maktabgacha ta'lim muassasasida

pedagogika kengashi tashkil etiladi, u pedagogik xodimlar, ota-onalar, homiylarni birlashtiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va uning takomillashuviga ko'maklashuvchi maslahat organi hisoblanadi. Pedagogika kengashining faoliyati muassasa Ustavi bilan belgilanadi.

Davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasasi O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda lisenziya olgan kundan boshlab ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Mulkchilik shakllaridan va idoraviy bo'ysunishidan qat'iy nazar, maktabgacha ta'lim muassasalarini attesasiyadan o'tkazish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyati attesasiya natijalariga ko'ra to'xtatilishi mumkin.

VI. Mablag' bilan ta'minlash va moddiy texnika ta'minoti

6.1. Davlat maktabgacha ta'lim muassasa-larining moliyaviy va moddiy-texnika ta'minoti mavjud me'yorlarga muvofiq davlat byudjeti hisobiga va ota-onalar to'laydigan haq hisobiga amalga oshiriladi, davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim muassasalarida esa, xususiy mablag'lar (muassislar) va ota-onalarning shartnoma asosidagi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va muassasa Ustavi bilan ta'qiqlanmagan shartnomalarni bajarishdan va boshqa xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan mablag'lar, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ehsonlari va maqsadli badallari hisobiga ham mablag' bilan ta'minlash amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari o'zlariga biriktirilgan mulk va mablag'larga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ravishda egalik qiladi va undan foydalanadi.

6.4. Maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va kadrlar bilan ta'minlanishi belgilangan me'yorlarga muvofiq, ehtiyojlar asosida amalga oshiriladi.

VII.Xalqaro hamkorlik

Maktabgacha ta'lim boshqaruv organlari va ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagogik xodimlarning tajriba o'rganishi va malaka oshirishi, hukumatlararo va idoralararo bitimlar hamda shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1.O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizomning umumiy qoidalarito'g'risida tushuncha bering?

2. Maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifalari?

3.Maktabgacha ta'limni tashkil etish qanday amalga oshiriladi?

4.Maktabgacha ta'limni boshqarish qanday yo'lga qo'yiladi?

11 –MAVZU: BIR YOSHLI BOLALARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

2-SOAT

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga bir yoshi bolalarning rivojlanishi va bu rivojlanish bosqichining tug'ilganda ikki yarim- uch oylikgacha, uch oylikdan –olti oylikgacha, olti oylikdan –to'qqiz oylikgacha hamda to'qqiz oylikdan – bir yoshgacha bo'lgan davrlarga bo'lib, uning rivojlanishi xususiyatlarini o'ziga xosligi haqida, shunga xos holda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish to'g'risidagi ma'lumotlarni berish.

Asosiy savollar:

1. Bir yoshli bolalarning rivojlanish bosqichlari, ularni tarbiyalash vazifalari.
2. Bola rivojlanishida psixologik taraqqiyotni hisobga olish.
3. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni rivojlanish ko'rsatkichlari.
4. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni kun tartibini tashkil etish.
5. Kun tartibini amalga oshirishda bolalarning yakka xususiyatlarini, sog'ligini hisobga olish.

Tayanch so'zlar va iboralar: vazn, og'irlik, kut tartibi, siyak elaslighi, uyqu, ovqatlanish, emaklash, o'tirish, turush, gu-gulash, tovush.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Isroilova M.N. "Bolalar va o'smirlar gigiyenasi". Tibbiyot nashri., 1994
2. V. I. Loginova va P.G. Samorukovalar tahriri osida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti. 1992 yil.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri osida. -T., «O'qituvchi», 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
6. «Bolalar bog'chasida ta'lim dasturi»- Toshkent. 1993, 1999, 2000y
7. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
8. Sh.Shodmonova, «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» Toshkent-2003

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni. Hayotining dastlabki yilida bolaning jismoniy rivojlanishida katta o'zgarishlar ruy beradi. To'g'ri parvarish qilish, ratsional boqish va tarbiyalash bo'lsa, u intensiv o'sadi. Dastlabki yarim yil ichida chaqaloqning vazni xar oyda 600-700 gramm, ikkinchi yarim yillikda oyiga 400-500 gramm oshadi. Bola hayotining har bir oyida 2-3 sm o'sadi. Bir yoshligida uning vazni 10-10.5 kg, bo'yi esa 44-45 sm bo'ladi. Normal rivojlanayotgan bolaning 7-8 oyligida sut tishlari chiqa boshlaydi, bir yoshga yetganda sakkizta tish paydo bo'ladi. Dastlabki, yil mobaynida nerv sistemasining ish qobiliyati ancha kuchayadi. Bu narsa bolaning aktiv bedorlik vaqti dastlabki oylari 20-30 minutdan yilning oxirigacha borib, 3,5 soatgacha uzayganligida namoyon bo'ladi.

Intensiv o'sayotgan chaqaloqni muvofaqqiyatli tarbiyalash uchun hayotning dastlabki yili shartli ravishda bir biridan sifat jihatidan farq qiladigan davrlarga bo'linadi: tug'ilgan kundan 2,5-3 oylikkacha (dastlabki 3-4 hafta orasidagi chilla davri ham shu jumlagi kiradi); 2,5-3 oylikdan 5-6 oylikkacha, 5-6 oylikdan 9-10 oylikkacha va 9-10 oylikdan 1 yashargacha bo'lgan davr.

Bola rivojlanishining har bir davri navbatdagi davr uchun poydevor bo'lib, yetakchi reaksiyalari va o'zgarishlari bilan farqlanadi. Bola reaksiyasi va ko'nikmasidagi uning mazkur yosh bosqichida rivojlanishini belgilaydigan hamda bundan keyingi o'sishi uchun qulay shart-sharoit bo'ladigan reaksiya va ko'nikmalar yetakchi deb ataladi.

Tug'ilgandan 2,5 –3 oylikgacha bo'lgan davr. Hayotining dastlabki uch oyi mobaynida bola rivojlanishidagi yetakchi, belgilovchi jihatlar – ko'rish, eshitish va emotsional reaksiyalardir. Ular aktiv bedor bo'lishini shakllantirish imkonini beradi, bolaning sensor o'sishini ta'minlaydi, uning atrofdagilarni tanish doirasini kengaytiradi, qo'l xarakatlarining, keyinchalik esa umumiy harakatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Ijobiy emotsional holat tufayli fiziologik protsesslar (nafas olish, qon aylanishi, ovqat hazm bo'lishi) yaxshilanadi, umumiy aktivlik oshadi.

Bola shartsiz refleksning tayyor sistemasi bilan tug'iladi va qisman bolaning tashqi muhitga moslashuvini ta'minlaydi. Bu – muljallash, ovqatlanish, ko'rish, eshitish, va shu singari reflekslardir. Ovqatlanish shartsiz reflekslari labi, va og'iz bo'shlig'ida emish harakatlarning

bo'lishida sutni yuta olishi va shu singarilarda namoyon bo'ladi. Ko'rish va eshitish yumishda, qattiq ovoz eshitilganida cho'chib tushishida namoyon bo'ladi. Vesibulyar apparatning muayyan reflekslari ham tug'ma bo'ladi, masalan, tebranganda bola jim bo'ladi, tinchlanadi. Yangi dunyoga kelgan bolaning uxlagan va bedorlik vaqti o'rtasida keskin farq bo'lmaydi: u sutkaning 80 protsenti mobaynida uxlaydi, uyg'onadi, bezovta bo'ladi. Yangi hayotga kelgan bolaning harakatlari taribsiz bo'ladi. Hatto uhlab qolganida ham uning ayrim a'zolari harakatga kelib turadi. Yangi tug'ilgan bolaning qo'li va oyog'i yig'iq, ko'kragiga yopishgan bo'ladi, chunki, qo'l-oyoqni yozuvchi mushaklar ham yetarli rivojlanmagan bo'ladi.

Chaqaloqlik davrida ko'rish va eshitish analizatolarining rivojlanishi ancha muhimdir. Bu paytda bola predmetlarga uzoq vaqt qarab tura olmaydi. Binobarin uning ko'z o'ngida boshqa qo'zg'atuvchilar bo'lmasa predmetni osonroq payqab oladi. Shu sabali dastlabki oylarda bolaga bitta yorqin bo'yalgan o'yinchoqni ko'rsatish kerak, rang-barang o'yinchoqlarni ko'rsatish maqsadiga muvofiq emas.

To'g'ri tarbiyalansa chillaning oxiriga borib bolada predmetga e'tibor bilan qarash, unga diqqat qilish, ovozlarga quloq solish qobiliyati rivojlana boshlaydi. Ayni vaqtda konvergentsiya – predmetga ikkala ko'zining ko'rish o'qini to'g'rilash qobiliyati shakllanadi. 2-3 oylik bo'lganida bolalar xarakatidagi predmet va ularning ko'z o'ngida ruy beradigan hamma narsalarni kuzatishga o'rganadilar. Ko'zga ko'rinmaydigan joydan kelayotgan ovozga quloq solib, ovoz kelgan tomonga boshlarini buradilar.

Bolada hayotining dastlabki uch oyi mobaynida ko'rish va eshitish reaksiyalarini rivojlantirish maqsadida ularni erkalatib gaplashish, katta kishining yuziga termulib qarashiga erishish kerak; yorqin bo'yalgan o'yinchoqlarni ko'rsatib, uni bolaning ko'z oldida asta-sekin harakatga keltirish va predmetning xarakatini kuzatishga da'vat etish kerak. Bolalar odatda bedor vaqtlarida belanchakda bo'ladilar.; belanchakning iplari bog'langan joydan pasga osiltirib (bola ko'zidan 40 – 60 sm nariga) yirik yorqin shiqildoqlar osib qo'yiladi. Vaqti – vaqtda o'yinchoqni harakatlantirib bolani uni kuzatishga o'rgatish lozim.

Ko'rish va eshitish e'tiborini bir joyga to'plashni rivojlantirish bolalarda ijobiy emotsiyalarni vujudga kelishiga yordam beradi. Katta yoshdagi kishining erkalangan ovoziga bir oylik paytidayoq bola jilmayish bilan javob beradi. Avvaliga bu xol ahyon-ahyonda, qiyinroq vujudga keladi. 2,5 oyligid bola tez-tez kuladigan katta yoshdagi kishini va o'yinchoqlarni ko'rganda quvonadigan bo'lib qoladi .Bu paytga kelib bolada quvonch ifodasi jonlanish qampleksi tarzida bo'ladi . Jonbiy kompleksi tarkibida bir qator reaksiyalar:yemotsional-jilmayish, tovush – ovoz chiqarish , xarakat – qul va oyoq xarakatlari kiradi. Jonlanish kompleksiga kiruvchi bolaning ovoz reaksiyalari undosh tovushlarini uzib-yulqib aytish shaklida namoyon bo'ladi. Ijobiy imotsional holatda vujudga keladigan nutq rivojlanishidagi tayyorgarlik bosqichi bo'lib hizmat qiladi.

Dastlabki 2,5-3 oylik bolada harakatlar rivojlana boshlaydi. 4-6 haftalik bolani tinch bedor vaqtda qo'lga olib, orqasidan va boshidan ushlab turgan holda vertikal holatda tutish mumkin bo'lsa, 2 oyligida u ana shu holatda tutish va atrofdagilarga nazar tashlay boshlaydi.

1,5 oyligidan boshlab bolani qorni bilan yotishga o'rgatish kerak. Shu maqsadda bolani emish oldidan yoki uyg'onganidan keyin qorni bilan yotqizib, orqasini avaylab silash kerak. 3 oyligida u bilagiga tayanib va boshini baland ko'ratib qorni bilan bemalol yota oladigan bo'ladi. Bu holat nafas olish harakatlarini qon aylanishi rivojlanishi uchun, shuningdek, emaklashga tayyorlanish uchun foydalidir. Boshini to'g'ri tuta oladigan bolada oyoqqa turishni rivojlantirish kerak: bolaning oyog'ini maneja yoki yo'rgak soliga tekizib-tekizmay uni tik holda tutib, oyoqlarini bemalol qimirlatishiga erishish kerak. Ammo hali uni oyoqqa turg'izish yaramaydi.

2,5 – 3 oylikdan 5 – 6 oylikkacha bo'lgan davr . Bu davrdagi bolalarga ko'rish, eshitish va ovozlarga e'tibor berish takomillashadi. Qo'li bilan birorta narsani tutish harakatlari vujudga keladi va rivojlanadi, emaklashga tayyorgarlik harakatlari boshlanadi. Buning hammasi barkaror emotsiyaonal ijobiy holatning vujudga kelishi kattalarga o'rganish, bundan buyongi hilma-hil predmet harakatlari va asosiy harakatlarning nakllanishi uchun shart-sharoit bo'lib hizmat qiladi.

Bu davrda bolaning psixik rivojlanishida muhim o'zgarishlar ruy beradi: ovozlari, rang va predmet shaklini ajrata bilish qobiliyati rivojlanadi. Tashqi muhitdagi predmet va hodisalarni ajrata bilish kattalarga tanlab munosabatda bo'lishda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Bolaning sezgi organlari aktiv rivojlantirilsa 3 oylik chaqaloq o'z onasini taniy boshlaydi, 6

oyligida esa tanish kishini ko'rganida quvonadi. Notanish odamni ko'rsa qovog'ini solib boshini boshqa yoqqa burib oladi, ba'zan yig'lab yuboradi. Bola 5 – 6 oyligida kattalar nutqining ohangni ajratadi, jiddiy yoki erkalagan ovozga har xil munosabatda bo'ladi. Masalan: bolaga keskin ohangda gapirilsa yig'lab yuborishi mumkin. Bolalarda tashqi muhit qo'zg'atkichlarini ajratish qobiliyatini rivojlantirish uchun turli rang va tusdagi shakldagi va har xil ovoz chiqaradigan o'yinchoqlarni tanlash kerak. Kattalar bolani ana shunday o'yinchoqlarga qarashga, ularning ovoziga quloq solishga da'vat etib, uning sensor rivojlanishiga yordam beradilar.

Bola predmetlarni o'ylash, kattalar bilan emotsional munosabatda bo'lash jarayonida uning ko'rish va eshitish analizxatorlari faoliyati yanada rivojlanadi. Ammo, uning eshitish qobiliyati normal rivojlanishi uchun bola bedor vaqtida bo'ladigan xonada qulay akustik vaziyat yaratish zarur. Qattiq ovoz bilan gaplashish, boshqa bolalar baqir-chaqirlari, domo ishlab turadigan radiopriyomnik – bularning hammaksi eshitish qobiliyatining rivojlanishiga halaqit beribgina qolmay, nutqning o'sishiga ham to'siq bo'ladi, nerv sistemasining faoliyatini buzadi. Dastlabki, oylardan oq, kattalarning mayin ovozini eshitishga o'rganmagan bola faqat qattiq ovozlarga qo'pol ohanglargagina javob beradigan bo'lib qoladi.

Bola eshitishni, ijobiy emotsiyalari, artikulyatsion apparatining (qisqa bo'g'in tovushlar chiqarish. Gu-gulash vaqtida) rivojlanishi 4- 5 oyligida ohangli tovush vujudga kelishiga (unli a-a-a tovushi cho'zib va a-gu tovushi aytiladi), 6 -7 oyligida esa takroriy bo'g'inlar – bir bo'g'inni bir necha bor takrorlash – ba-ba-ba degan tovush aytilishiga ko'maklashadi.

Ohangli tovushlar uzoq nafas chiqarishda vujudga keladi, bu esa nutq vaqtida nafas olib- nafas chiqarishni shakllanishida yordam beradi. Gu-gulash odatda eshitish kontroli osida vujudga keladi, shu sababli tug'ma garang bolalarda gu-gulash bo'lmaydi. Bolalarda gu-gulash va joy-jovlash tovushlari vujudga kelishining muhim sharti – kattalarning ular bilan emotsional-nutqiy muomalasidir. 3-4 oylik bolalar bilan gaplashganda ohangli tovushlardan, 5-6 oylik bolalar bilan esa bo'g'inlardan foydalanish kerak. Guruh xonasida tinchlik bo'lsa, tarbiyachining bola bilan bir maqsadga qaratilgan nutqiy muomalasiga gruppadagi barcha bolalarning tovush chiqarish aktivligini oshiradi, ularda nutq tovushiga tahlidning vujudga kelishiga yordam beradi.

Bola nutqiy muomalaga talabning shakllantirilishi nutqning o'z vaqtida rivojlanishi uchun asos bo'ladi. 4-6 oyligidayoq bolalar kattalarning e'tiborini tortish uchun ovoz chiqarish ko'nikmalaridan foydalanadilar.

Ovoz reaksiyalarini rivojlantirish mashqlarini alohida-alohida o'tkazish kerak, ammo rivojlanishi bir hil darajada bo'lgan 2-3 bolani birlashtirish ham mumkin. Mashqlarda ketma-ket turli usullardan: emotsional-nutq muomalasi, o'yinchoqni ko'rsatib erkalash, katta kishining indamay turishi, takroriy ravishda emotsiyaonal-nutqiy muomaladan foydalaniladi. Har bir usuldan foydalanish orasida taxminan 30 sekund uzulish bo'lishi kerak, bu esa bolaga e'tiborini to'plash imkonini beradi. Bunday mashq 6 minutgacha davom ettirilishi mumkin. Tarbiyachi mashqda faqat erkalash bilangina cheklansa, bu mashq 3 minutdan oshmasligi kerak, chunki bola tassurotlaning bir xilligidan charchab qoladi.

3-6 oylik bolalar qo'l harakatlari asta-sekin rivojlana boradi. 3-3,5 oylik bola odatda uning tepasiga osib qo'yilgan o'yinchoqqa favqulotda tegib ketadi, 3,5-4 oyligida qo'l yetadigan masofada osib qo'yilgan o'yinchoqni qo'lga olib, ushlab ko'radi. 4,5-5 oyligida o'yinchoqni kattalar qo'lidan oladigan bo'ladi. 6 oylik bola esa o'zi o'yinchoqni bemalol olib o'ynaydi.

Bolalar predmetni qo'lga olish va ushlab turishni shakllantirish uchun avval uning tepasiga qo'lga ilinishi oson bo'lgan kichikroq o'yinchoqlarni: sharg o'xshash shiqildoqlarni osib qo'yishadi. 4-4,5 oyligida bolaga kattalar o'yinchoqni qo'lga olishni o'rgatadilar. Buning uchun tarbiyachi bolaga shiqildoq bermoqchi bo'lib, bola ko'zini unga qaraishga majbur etadi, so'ngra o'yinchoq qo'lga tekkiziladi va shu yo'l bilan unda o'yinchoqni olish ishtiyoqini tug'diriladi. Bolani aktiv harakatga undaganda shiqildoqni uning kaftiga qo'yish kerak emas. Bolani yon tomonda, ko'z o'ngida bo'lgan o'yinchoqni olishga, bir yo'la ikkita predmetni ushlab o'rgatadigan mashq o'tkazish kerak.

O'yinchoqlar bilan harakat qilishga o'rgatish bolada ayrim umumiy harakatlarni: chalqancha yotganidan yonboshlab olish (4 oyligida), qorni bilan yotish (5 oyligida), qornida yotishdan chalqatchasiga aylanib olish (6 oyligida) harakatlarining rivojlanishiga ta'sir etadi. Masalan: bola yon tomondagi o'yinchoqni olish uchun u tomonga cho'ziladi va ko'pincha kattalarning yordamisiz yoki ozgina ko'magi bilan ko'pincha o'zi yonboshiga yoki qorniga o'girilib oladi.

O'girilib olish ko'nikmasi – bola kattalarning yordamisiz mustaqil ravishda o'z holatini o'zgartirishiga yordam beradigan dastlabki harakatdir. Bu ko'nikma, shuningdek, to'g'rilangan qo'li kaftlariga tayanib qorinda yotish ko'nikma (5 oylikgida) emaklashga tayyorgarlik ko'nikmasidir. Yarim yoshga kirgan bola qo'ltig'idan ushlab turgan paytda tik, barqaror tura oladi, bu esa mustaqil yurish uchun asosdir.

Dastlabki yarim yil mobaynida bolalarning o'z vaqtida rivojlanishiga kattalarning bevosita ta'siri bilan bir qatorda bedorlik vaqtidagi sharoitlarni to'g'ri tashkil etish ham yordam beradi. Bu davrda bolalar 1,5 soatdan 2 soatgacha bedor bo'ladilar. Tarbiyachi mana shu bugun vaqt mobaynida bolalar aktiv, faol holatda bo'lishlari hakida g'amxo'rlik qiladi. Bedor vaqtlarida bolalarni albatta maneja joylashtirish kerak, bu yerda 5 oylikkacha bo'lgan bolalar uchun hilma-hil shiqildoqlar osib qo'yiladi, so'ngra esa mayda selluoid va rezina o'yinchoqlar maneja u yer, bu yeriga tashlab qo'yiladi. Bedor vaqtida manejdagi o'yinchoqlarni bir necha marta almashtirish kerak.

5 – 6 oylikdan, 9 – 10 oylikkacha bo'lgan davr. Bu davrda bola emaklashni o'rganadi, jovdirab qaray yuboshlaydi, atrofdagi katta yoshdagilarning nutqiga e'tibori rivojlanadi. Bolaning aktiv harakatidagi dastlabki tur bo'lgan emaklash keyinchalik o'tirish, o'rnidan turish, xatlab o'tish, ko'nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi. Ma'nosiz gu-gulashlardan tevarak atrofdagilarning nutqini anglash negizida dastlabki ma'noli so'zlar vujudga keladi.

6,5 – 7 oylik bolalar harakat rivojlanishi uchun qulay sharoitlar bo'lsa, sudralib yoki qo'l-oyoqlariga tayanib emaklay boshlaydilar. Emaklash bola uchun juda foydalidir, bu narsa uning suyak-mushak sistemasini rivojlantiradi va mustahkamlaydi, bolaning tevarak atrofdagi narsalar bilan tanishishini kengaytiradi, bolani mustaqilroq qiladi.

Bola olti oylikdan oshganidan keyin emaklashga o'rgatish uchun unga erkin harakat qilish imkonini yaratish ya'ni uni maneja joylashtirish kerak. Emaklashni o'rgangan bolalar uchun gruppaga xonasining bir qismini to'siq bilan ajratib berish, polni issiq qilish kerak.

Bolani emaklashga o'rgatayotgan katta kishi uni bu harakatga qiziqarli o'yinchoq bilan rag'batlantiradi. Agar bolaning olg'a harakat yo'lidagi urinishi muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqsa, uning oyoqlari uchun tayanch yaratish, masalan, bola oyoqlarini tirab olg'a intilishi uchun kaftni tutish kerak. Emaklashni o'rgangan bolaga kattalar olg'a harakat qilishda ko'maklashmasalar, u orqaga qarab emaklay boshlashi mumkin, bunda u predmetga yaqinlashish u yoqda tursin, balki undan uzoqlashib qoladi.

Yemaklashni o'rgangan bolaning o'zi o'tirib oladigan va tezda bemalol o'tiradigan bo'lib qoladi. Bolani 8 – 9 oylikdan ilgari o'tirishga o'rgatish zararlidir, chunki bu narsa umurtqasining qiyshayib qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday tashqari barvaqt o'tirish passiv bedorlikka, katalarga umuman qaram bo'lishga o'rgatadi, chunki bu holatda bola dumalab ketgan o'yinchoqni o'zi olishga, gavdasining holatini o'zgartirishga qiynaladi va h.zo.

Dastlabki yoshning ikkinchi yarmida bolaning psixik rivojlanishi predmetlar bilan bir maqsadni ko'zlab harakat qilish shart-sharoitlarining shakllanishi bilan bog'liqdir. Avvaliga bolada kattalarning harakatini takrorlash: predmetlarni qo'li bilan urish, o'yinchoqni bir qo'lidan ikkin chisiga olish isagi paydo bo'ladi. Bunday harakatlarga qiziqish 5 – 6 oylikdagi predmetlarni ko'rish, ulaning rangi, shakli va ular chiqaradigan ovozlar va xokazolarni ajratishga o'rgangan bolaning qiziqish 5 – 6 oylikdagi predmetlarni ko'rish, ulaning rangi, shakli va ular chiqaradigan ovozlar va xokazolarni ajratishga o'rgangan bolaning mo'ljallash faoliyati kuchayishi bilan bog'langan.

Bolani turli harakatlarga o'rgatishning eng samarali usullari – bu harakatlarni bola uchun qiziqarli bo'lgan boshqa qo'zg'atuvchilar bilan mustahkamlashdir. Masalan, tarbiyachi bolaga sharikni qutichaga solib qo'yishni ko'rsatar ekan, bu sharni qutichaga taqillatib tashlashi kerak.

Bir maqsadga qaratilgan nitidjali harakatlarni egallash bolani predmetlar bilan murakkabroq manipulyatsiyalarni bajarishga tayyorlaydi, uning e'tibori, xotirasi, konkret tafakkurini rivojlantiradi, uni aktiv va mustaqil qiladi.

Dastlabki yoshning ikkinchi yarmi boshlarida harakatlarga taqlit qilish bilan bir qatorda bolada ba'zi tovushlarni ko'p marta takrorlab aytishga intilish paydo bo'ladi. Bu holatning negiza – o'z ovozi tovushlariga qiziqishning rivojlanishidir. Emotsional ijobiy holatda bo'lgan 5 -6 oylik bola, masalan, ta-ta-ta singari takrorlanadigan bo'g'inlarni aytishni o'rganadi.

Tovushlarni takrorlab aytish negizida o'z-o'ziga taqlidning, keyinchalik esa kattalar ovozigga taqlitning rivojlanishi yotadi.

Bolani gapirishga o'rgatayotganda uni avvaliga o'zi ilgari ayta olgan tanish bo'g'inlarni, so'ngra esa uning uchun yangi bo'lgan notanish bo'g'inlarni taqlit qilib aytishga o'rgatish lozim. Bolalar bilan gaplashganda tovushlarni aniq aytish hamda bola katta kishining bu ovozni qanday aytayotganligini ko'rib turishiga erishish kerak. Bolalar tinmay bidirlashga o'rganganlaridan keyin jo'rovoz bo'lish o'yinini uyushtirish, ya'ni ayrim bolalarning bidirlashlarini qo'llab-quvvatlash, ular aytgan so'z va tovushlarni takrorlash mumkin.

Dastlabki yoshning ikkinchi yarmidagi bolaning tarbiyachi bilan yaqin aloqasi kattalar nutqini tushunishga rivojlantirishga olib keladi. Kattalar so'zini tushunishning ko'rsatkichi bolaning gapga quloq solishidir: u aytilgan predmet tomoniga qaraydi, predmetni ko'rsatish uchun imo qiladi, kattaning harakatini bajaradi, masalan, chapak chaladi. Bu davrning boshlarida bola so'zni qandaydir bitta konkret predmet bilan bog'laydi. Masalan, "lyalya" so'zini har qanday qo'g'irchoq bilan emas, balki, bitta muayyan qo'g'irchoq bilan bog'laydi. Buning ma'nosi shuki, so'z hali umumlashma funktsiyani olmagan bo'ladi. Bola o'zi qiziqadigan predmetlar nomini tezroq tushuna boshlaydi, shu sababli uni nutqni dastlabki tushunishga o'rgatayotganda ovoz chiqaradigan, chiroyli katta o'yinchoqlardan foydalanish - o'yinchoqlarni bekitib qo'yish va topib berishni qo'llash darkor.

6 – 7 oylik bolalar "qani?" (qo'ng'iroq, soat, xo'rozcha) degan savolga javoban aytilgan predmet tomonga boshlarini buradilar. Predmetni joyi o'zgarib qolsa, bola uni topolmaydi, chunki so'z uning uchun bir predmet bilangina emas, balki u turadigan muayyan joy bilan ham bog'langandir.

9 -10 oylik bolalar predmetlar nomi aytilganida ular qayerda turganidan qat'i nazar topa oladilar. Shu sababli predmetlar hamisha muayyan joylarda: jovonlarda, deraza tagida va xokazolarda turishi kerak. Kattalar bolaga predmetlar nomini aytganda u ularga qarabgina qolmay balki, ushlab ko'rishi, ularning ovozigga quloq solishi haqida ham hamxo'rlik qilishlari kerak. O'yinchoqni idrok etishga qancha ko'p analizator jalb etilsa, bola uning nomini shunchalik tezroq eslab qoladi.

Bidirlash, shuningdek, so'zlarnipredmet va xarakatlar bilan bog'lay olish - keyinchalik butun nutq rivojlanishidan iborat protsess asoslanadigan negizdir.

9 – 10 oylikdan bir yoshgacha bo'gan davr. Yilning so'ngi choragida shakllanadigan ko'nikmalar bolaning psixik rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Mustaqil yurish, o'yinlar iblan bir maqsadni ko'zlab shug'ullanish, kattalar harakati va nutqiga taqlit qilish anashu ko'nikmalar jumlasiga kiradi

Yemaklash jarayonida suyak-mushak sistemasining mustahkamlanishi, bardyor yonida turish, hyech narsani ushlab turish, manej panjarasidan ushlab hatlab o'tish ko'nikmalarining rivojlanishi yurishga o'tishning shart-sharoitidir. 9 -10 oylik bolalar to'siq oldida o'rinlaridan turishni o'rganib, uning artofidan yura boshlaydilar, panjarani ushlab tepalikka ko'tariladilar; o'n bir oylikda ko'pgina bolalar tarbiyachi ularning bir qo'lini tutgan holda mustaqil turadilar, yuradilar, bir yoshga yetganida esa mustaqil yura boshlaydilar. Mustaqil yurish bolaning qo'lini bo'shatadi, bu esa predmetlar bilan mustaqil harakat qilish faoliyatini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi, atrofdagi narsalar bilan tanishish imkoniyatini oshiradi. Bolaning normal jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun uni yurishga o'z vaqtida o'rgatish zarur. Kattalar bolalarni yurishga o'rgatar ekanlar, bu ko'nikmani rivojlantirishga yordam beradigan sharoitlarni yaratishlari kerak. Manej bareri chetidagi javonlarga yorqin o'yinchoqlar qo'yiladi, bu esa bolalarni o'rinlaridan turishga undaydi. Tarbiyachi o'yinchoqni barer cheti bo'ylab joyini o'zgartirib, bolani uning ketidan ergashishga rag'batlantiradi. Yaxshi emaklashni, o'rnidan turishni va barer cheti bo'ylab yurishni o'rganib olgan bolalarni xonaning ajratilgan qismiga joylashtiradilar. Bu yerda xarakatlarni rivojlantirish uchun zarur narsalar: sirg'anchilik narvoncha, skameyka, sol-barer joylashtiriladi. Mebel shunday joylashtiriladiki, bunda bola qo'lini bir predmetdan olib, bir qadam tashlashi bilan boshqasini ushlab oladigan bo'lsin.

Mustaqil yurishga o'rgatishning samarali usuli - kattalarning bolani dastlabki mustaqil qadamni tashlashga majbur etadigan vaziyatni yaratishlaridir. Masalan, tarbiyachi bolaga chiroyli o'yinchoqni ko'rsatib o'zi tomonga kelishga undaydi, bola unga intilib, dastlabki qadamlarni qo'yadi. Bunda bolalarni yiqilishdan saqlash kerak, chunki, yiqilishdan qo'rqib qolgan bolada yurishning rivojlanishi to'xtab qolishi mumkin.

9 – 10 oylikdan bir yashargacha bo'lgan davrda bolalarning predmetlar bilan faolitada sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bolalarning qo'l va ko'zlari koordinatsiyasi murakkablashuvi munosabati bilan predmetlarni bir – biriga moslashtirish; halqalarni tayoqchaga taxlashsh, turli teshiklarga muayyan predmetlarni joylash, sakanni qo'g'irchoq og'ziga olib borish va shu singari harakatlarni bajarish qobiliyati paydo bo'ladi.

Birinchidan, muvofiqlashgan harakatlarni egallash jarayonida qo'l barmoqlarining mayda muskullari rivojlanadi. Ikkinchidan, ko'z va qo'l harakatlarining aniq moslashuvi vujudga keladi. Uchinchidan, kattalar maxsus tashkil etadigan bolaning predmetlar bilan faoliyati ko'rgazmali-xarakatli tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Bola avvaliga halqalarnim yog'ochga ilintirishni, keyinchalik peramida halqalarini to'g'ri joylashtirishni, qo'g'irchoqnigina emas, balki, quyonni ham, ayiqni ham “boqish” ni o'rganadi. To'rtinchilan, muayyan natijaga erishish yo'lidagi harakat ularning mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Nihoyat predmetlar bilan harakatlarni ko'plab o'rganilishi hayotning ikkinchi yilida o'yin faoliyatiga asos bo'lib hizmat qiladi.

Dastlabki yoshning oxirida tarbiyachi bolaning bodorlik vaqtini tashkil etar ekan, o'yinchoq va qo'llanmalardan to'g'ri foydalanish ustidan qattiq nazorat qilib turishi, ular bilan oddiy manipulyatsiya harakatlari: ta'killatish, predmetlarni behuda uloqtirish va shu singari harakatlar paydo bo'lishining oldini olishi lozim. Katta yoshdagi kishi bola o'yinchoq bilan shug'ullanishdan charchaganini ko'rsa, uning e'tiborini boshqa turiga qaratishi, masalan: yangi o'yinchoqni ko'rsatishi kerak. Bolalarning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan o'yinchoq va qo'llanmalarga qiziqishni doimo saqlab turish uchun vaqti-vaqti bilan ularni muayyan davr ichida ko'rsatmay olib qo'yish zarur.

Bu davrdagi bolalarning o'ynashi uchun hilma-xil narsalar, chashkalar, qumdan shakllar yasash uchun qolibchalar kubiklar, vtulkalar, sharlar, plasmassa kubiklar, bir-birini ustiga tahlanadigan g'ishtchalar, shuningdek, qo'g'irchoq va boshqa obrazli o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlarni o'rash uchun lahtaklar berish mumkin. Piramidalar, kubik va boshqa o'yin qo'llanmalari bolalar ana shu predmetlar bilan tarbiyachi rahbarligida mashg'ulot jarayonida to'g'ri muimilada bo'lishni o'rganganlaridan keyingina berish lozim. Aks holda bolalar ulardan noto'g'ri foydalanishga o'rganib qoladilar.

Bu yoshda shakllanadigan kattalarga tahlid qilish qobiliyati o'yinchoqlar bilan bir maqsadni ko'zlab harakat qilishni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. N. K. Krupskaya bolalarning bu qobiliyatini yuksak qadrlab, buni bolavlarining bilimlarini egallash usuli deb hisoblagan edi.

Bolalarga xarakatlarni bajarishga o'rgatish bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Avvalisiga passiv xarakatlar metodidan foydalaniladi. Tarbiyachi bola qo'lini o'z qo'lga olib, u bilan o'rganiladigan xarakatlarni bajaradi, masalan, matryoshkani ochish vayopishni o'rgatadi. So'ngra katta yoshdagi kishi qanday xarakat qilishni aytib va ko'rsatib turgan xolda bolani anashu xarakatini bajarishga da'vat etadi. Nihoyat, bola xarakatini faqat so'z bilan aytilgan ko'rsatma bo'yicha: matryoshkani och, matryoshkani yop degan so'zlar bo'yichagina bajara boshlaydi. Xuddi shu usulda bolalar chapak chalishni, xayrlashishni, o'z tanasi xamda qo'hirchoq tanasidagi ayrim qismlarni ko'rsatishni va shu singarilarni o'rganadilar.

Tarbiyachining bolalar bilan sistematik individual muomalasi bolalar ishlatadigan so'zlar boyligani kengaytiradi. Hayotning dastlabki yilida bola tushunadigan lug'at aktiv nutqda foydalanadiganiga qaraganda kengroq. Biryoshli bolaning passiv lug'atida 20-30 so'z bo'ladi. Bular –tananing qismlari (ko'z, burun, quloq) va hokazolardir. Predmetlar nomini tushinishni rivojlantirish uchun xaltachadan olinadigan o'yinchoqlarni ko'rsatish va yashirish tipidagi mashg'ulotlarni o'tkazish kerak. Oti o'rganiladigan o'yinchoq “sehrli xaltacha”dan, yorqin ro'molichidan balalar uchun daf'atan paydo bo'ladi. O'yinchoq bilan bir-ikki xal xarakatlar bajariladi kuchukcha yuguradi, vovullaydi va xokazo), shunday keyin uyashirib qo'yiladi., bolalar esa uni chaqirishga undaladi. Kichkintoylarda ularni qiziqtirib qo'ygan o'yinchoqqa oriyentatsiya qila bilish reaksiyasi yaqqol ko'rinadi. Bolalar ayni vaqtda ko'rin va uning nomini aytishga qodir bo'lmaydilar, shu sababli ularni o'yinchoq yashirib qo'yilganida uning nomini aytishga undash kerak. Bunday mashg'ulotlarni kichkina gruppada (3-4 bola bilan) o'tkazish mumkin.

Bolalarning ismini, shuningdek, o'yinchoqlarning nomini o'rgatish maqsadida yashirib qo'yish o'yinini o'tkazish mumkin. Chiroyli yutqa rimolni (undan bola ko'rinib turishi

kerak) biron bolaning boshiga yopib qo'yiladi. "Alyosha qani?" – deb so'raydi tarbiyachi. Bolalar rimolni uning boshidan tortib olishadi va bola paydo bo'lganida quvonib ketishadi. O'yinchoqlar bilan ham shunday o'yin o'tkazish va ularning nomini o'rgatish mumkin.

Nutqni tushinishni shakllantirish uchun mashg'ulotlardangina emas, balki, kundalik xayotdan ham foydalanish kerak. Lampochka yonsa, chiroq qani deb so'rash, o'yinchoq tushib ketsa: "yiqilib tushdimi" deb so'rash, biror kishi ketayotgan bo'lsa, "xayr-xayr qil" deb aytish kerak va hokazo.

Bir yoshning oxirida bolalarni o'yinchoqlarning muhim belgilariga qarab dastlabki umumlashtirishga da'vat etish kerak. Shu maqsadda tashqi ko'rinishida tafovuti bo'lgan bir xil o'yinchoqlarni tanlab olish kerak. 10-11 oylik bola lyalya - jovondagi qo'g'irchoqnigina emas, balki, masalan, kichkina rezina qo'g'irchoq va tarbiyachi mashqlar vaqtida ko'rsatadigan katta qo'g'irchoq ham lyalya ekanligini bildiradi. Tarbiyachining "lyalyaga, kuchukchaga, o'rdakchaga ovqat ber", degan topshiriqlari harakatlarni umumlashtirishga o'rgatishda ko'maklashadi. Turli o'yinchoqlarga nisbatan bola bir xil xarakatni bajarishi ko'plab predmetlar bilan bo'ladigan harakatni bildiruvchi so'zni anglashni rivojlantiradi.

Bir yoshning oxirida bolalar tushunadigan tushlar orasida "mayli", "unaqa qilma" degan so'zlar ham bo'ladi. Katta yoshdagi kishi noma'qul harakatlarni to'htatishni buyurib, jiddiy ohangda "undaqa qilma" desa, yoki aksincha hayrihohlil ohangida "mayli" deb aytsa bola bu so'zlarning ma'nosini tushuna boshlaydi.

Shu tarzda mazkur davridayoq nutq yordamida bolalarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Bir yoshning so'ngi choragida bolada ovozga e'tibor berish ja'dal rivojlanadi, bolalar ko'p va hilma-xil tarzda bidirlaydigan bo'ladilar, bir yoshga yetganda takrorlanadigan bo'g'inlardan iborat va aytish oson bo'lgan dastlabki, so'zlarni: ma-ma, ba-ba, av-av, bax, ber va shu singari so'zlarni ayta boshlaydilar. Bu paytda bolalarning aktiv lug'utida 12 tagacha so'z bo'ladi.

Dastlabki aytiladigan so'zlar tushuniladigan mavjud zapas tovush va taqlitlarni takrorlay olish qobiliyati asosida vujudga keladi. Bu davrda bolalar kattalar aytadigan tovushlarga osonlik bilan taqlid qilishga o'rgatish muhimdir. Taqlid qilishga o'rgatish mashqlarini individual o'tkazish lozim, 9-10 oylik bola kombinatsiyalashtirilgan sol yoniga o'tkaziladi. Mashqlarda (1-yarim yilda bo'lganidek,) orasida 30-sekunt tanafus bo'lgan 1-1,5 minutli bir necha usullardan foydalaniladi. Mashqlarni o'rgatiladigan tovushlarni aytib emotsional nutq aloqasidan boshlash mumkin. Bu paytdagi bolalarning orintrlash reyaktsiyalari kuchli bo'lgani sababli, e'tiborlari tez chalg'iydigan bo'ldai. Shu sababli ularning e'tiborini tarbiyachining chehrasiga, artikulyatsiyasiga jalb qilish uchun hilma-xil usullardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shu maqsadda bir hil tushning o'zini goh qattiq ovozda (turli ohangda), goh pichirlar, goh unsiz qilish aytish kerak. So'ngra tarbiyachi o'yinchoqni ko'rsatib, uning nomini aytadi, yashirib qo'yadi, yana ko'rsatadi va yana nomini aytadi. Bu paytda predmetning nomini aniq aytish qiyin, shu sababli so'zlar o'rniga yengil tovush birikmalaridan foydalanishga yo'l quyiladi. Tarbiyachi esma to'la oson aytiladigan so'zlardan foydalanishi lozim. Bir mashqda bir-biridan farq qiladigan ikkita nomi oson o'yinchoqni ko'rsatish mumkin: masalan, kuchukcha (av-av), va qo'g'irchoq (lya-lya) yoki o'rdak (g'a-g'a) va mashina (bi-bi). Odatda ikkinchi o'yinchoq ko'rsatilganida bolalarning ovozi aktivligi oshadi. Mashqning anashu qismida bolaga "top", "ko'rsat", "chaqir" degan topshiriqlar beriladi, kattaga taqlid qilib o'yinchoqning va u bilan bo'ladigan harakatning nomini takrorlash taklif etiladi: lya-lya, bax, ma, ber, ket, mashq o'yinchoqlarsiz emotsional nutq aloqasini takrorlash bilan tugallanadi. Bolalarning tovushlarni talaffuz qilishlari oson bo'lmaydi

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1. Bir yoshli bolalarning rivojlanish bosqichlari, ularni tarbiyalash vazifalari to'g'risida ma'lumot bering?.
2. Bola rivojlanishida psixologik taraqqiyotni hisobga olish deganda nimalarni bilib oldingiz?
3. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni rivojlanish ko'rsatkichlarini keltirib o'ting?
4. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni kun tartibini tashkil etish qanday yo'lga qo'yiladi?

12-MAVZU: IKKI YoShLI BOLALAR HAYoTINI RIVOJLANTIRISH VA TARBIYALASH VAZIFALARI. 2-SOAT

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga ikki yoshli bolalar hayotini rivojlantirishda ularga jismoniy tomonidan va ruhiy tomonidan yondashish va ularni bir necha bo'limlarga bo'lib rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarni berish

Asosiy savollar:

1. Ikki yoshli bolalar hayotini rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari.
2. Ikki yoshli bolalar kun tartibini tashkil etish.
3. Ikki yoshli bolalarda ma'daniy gigiyenik ko'nikmalarni hosil qilish.
4. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.
5. Ikki yoshli bolalarda jismoniy ma'naviy-axloqiy odatlarni shakllantirish .

Tayanch so'zlar va iboralar: turish, yugirish, tayanch harakatlari, nerv sistemasi, nafas olish, nutq, o'sishi, og'irligi, lug'at boyligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Uzbekistan Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
2. Xalk pedagogikasi. -T., «Universitet», 1993.
3. O.Xasanboyeva. Pedagogika tarixidan xresomatiya. -T., «Ukituvchi», 1993.
4. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «Ukituvchi», 2002.
5. Pedagogika. Munavvarov taxriri osida. -T., «Ukituvchi», 1997.
6. B.Ziyamuhammedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
7. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
8. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
9. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Konsepsiyasi. Toshkent 1992 y.
10. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
11. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
12. Maktabgacha tarbiya spravochnigi.- Fan. Toshkent.1972y
13. Yu.I.Fausiyek. Montessori bolalar bog'chasi.Toshkent.“Yangi asr avlodi”nash.2008 y.

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni. Ikki yoshga qadam qo'ygan bolalarning o'sishi va tarbiyasi. To'g'ri gigiyenik parvarish, ovqatlantirish va tarbiya tadbirlari sharoitida bir yoshdan oshgan bolalar vazni har oyda 170-190 gr oshadi, bo'yi 1sm o'sadi. Ikki yoshga yetganda bolaning vazni o'rta hisobda 12-12,7 kilogrammga, bo'yi 85-86 smga yetadi. Ikki yoshli bolada 20 ta sut tishi chiqqan bo'ladi. Nerv sistemasining ish qobiliyati oshadi: yilning birinchi yarmida bolalar 3-4 soat, ikkinchi yarmida 4-5 soat aktiv bedor bo'la oladilar. Shunga muvofiq bir kecha kunduzda uxlash davri 14 soat emas balki, endi 12,5 soat bo'ladi.

Hayotning ikkinchi yilidagi dastlabki 2-3 oy mobaynida bundan ilgarigi bosqich uchun harakterli bo'lgan jismoniy va psixik rivojlanish xususiyatlari saqlanadi. Bola o'rganib olgan harakatlar, predmetlar bilan harakatlar, nutqqa e'tibor berish takomillashadi. Bu davrda asosiy hayotning birinchi yili oxirida bolalar bilan boshlangan pedagogik ish davom ettiriladi.

Hayotning ikkinchi yilida bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish surati dastlabki yildagiga qaraganda sustroq bo'ladi. Shu sababli “Bolalar bog'chasida tarbiya programmasi” kunlik rejimini, tarbiya vazifa va metodlarini kvartal bo'yicha (Har 3 oyda) emas, balki har yarim yilda o'zgartirishni ko'zda tutadi.

Ikkinchi yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish. Bir yoshdan oshgan bolalar gruppasi 1yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalardan tashkil qilinadi. 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalar ro'yhatidagi sosavning uchdan bir qismidan oshmasligi kerak: agar gruppada 18 ta kichikintoy bo'lsa bir yarim yoshdagilari taxminan 6 ta, bir yarim yoshdan oshganlari 12ta bo'lishi lozim.

Bu yoshda bolalarda bedor bo'lish payti uzayadi. 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalar 3-3,5 soat, bir yarim yoshdan oshgan bolalar 5 soatgacha bedor bo'la oladilar. Bir yarim yoshgacha bolalar kunduzi ikki marta: 2-2,5 soat va 1-1,5 soat; bir yarim yoshdan oshgandan keyin bir marta 2,5 -3 soat uxlaydigan bo'ladilar.

Bolalarni kunduzi bir marta uxlaydigan rejimga o'tkazish asta-sekin bir necha oy mobaynida amalgam oshiriladi. Avvaliga 1 yosh-u 3 oylikdan 1 yosh-u 5 oylikgacha bo'lgan

davrda dastlabki uyquga yotqizish payti bir oz kechiktiriladi-soat 9.30 minut o'rniga soat 10da o'tkaziladi.Ikkinchi marta kunduzgi uyquga yotqizilgan bolalar uzoq vaqt uxlamay yotishsa 1 yosh-u, 5-8 oyligida (individual xususiyatlari va sog'liq holatiga qarab) bir marta uzoqroq davom etadigan kunduzgi uyquga o'tkaziladi.Avvaliga kunduzgi uyquning bu rejimiga o'tkazilgan bolalar o'zlarini yaxshi his qiladilar; lekin ularda bedorlik vaqtining ko'payishi tufayli charchoq asta sekin to'planib boradi.Ular tushgi ovqat vaqtida ishtahalari bo'lmaydi, ba'zi sol yonida uxlab qolishadi, serjahlroq bo'lib qolishadi.Bunday holda bolalarning vaqtincha kunduzgi ikki marta uxlatish rejimiga qaytarish, taxminan ikki hafta o'tganidan keyin esa yana kunduzgi bir marta uxlatishga o'tkazish lozim.

1,5 yoshgacha va undan oshgan bolalar gruppasini tashkil qilish, uni ikkita kichik gruppaga taqsimlash imkonini beradi, birinchi kichik gruppada bedor bo'lganidan ikkinchi kichik gruppaga uxlab yotadi.Bu esa hali kattalarning yordamiga juda muhtoj bo'lgan bolalarga ko'proq e'tibor bilan qarash imkonini beradi.

Ikkinchi yoshdagi gruppada rejimining bajarilishi o'z qiyinchiliklariga ega, shu sababli murabbiy bilan enaga o'rtasida vazifalari aniq taqsimlab olish g'oyat muhimdir.

Rejimda ko'zda tutilgan hamma jarayonlar tadrjiiylik prinsipi asosida o'tkazilishi kerak.Buning ma'nosi shuki, murabbiy yoki enaga muayyan jarayonda qancha bolaga xizmat ko'rsata olsalar, shuncha bolani jalb qiladilar, har bir bola esa rejimda ko'zda tutilgan jarayonda (bolalarning butun gruppasi uchun emas) o'zi uchun qancha vaqt talab qilinsa, shuncha vaqt sarflashi lozim.qolgan vaqtida u o'yin bilan mashg'ul bo'lishi kerak.

1,5 yoshgacha kichkintoylarni uyg'onishiga qarab, 3-4 tadan turg'iziladi va boqiladi.1,5 yoshdan keyin bolalar birgalikda nonushta qilishadi, tushgi ovqatni yeyishadi va kechki ovqatga o'tirishadi.

Ovqatlanish, kiyinish tuvalet vaqtida bolalar mumkin qadar mustaqilikka jalb etiladi.1 yosh-u 3 oylikda ular qoshiqdan foydalana boshlaydilar 1,5 yoshligida mustaqil ovqatlanadilar, tarbiyachi aytsa og'izlarini sochiq bilan artishadi, stulni surib qo'yib sol yonidan o'zlari chiqishadi va hokazo. Yuvinish vaqtida bolalarni suv tushayotgan joyga qo'lni to'g'rilashga, yuz-qo'lini artishda qatnashishiga, kiyinish va yechinish vaqtida aktivlik ko'rsatishga o'rgatiladi.

Ikki yoshga yetganda bolalar hamma ovqatlarni o'zlari mustaqil yeya olishlari, sol yonidagi o'z joylarini bilishlari, sochiqdan to'g'ri foydalanishlari, sol yonidan turayotganda sukni orqaga surib yana o'z joyiga qo'ya olishlari kerak. Qayta qiyinayotganda bolalar kolgotka, shim botinkalarini o'zlari yechadilar. Bu harakatlarni ular kattalarning raxbarligi va yordamida bajaradilar.

Birinchi yoshning oxirida bola yurishni, gapirishni, predmetlar bilan harakat qilishni boshlaydi. Bu shart-sharoitlar uning hayotidagi ikkinchi yilda rivojlanishini belgilab beradi. Shu sababli yurishni takomillashtirish, predmetlar bilan harakatni rivojlantirish, syujetli o'yinning vujudga kelishi, nutqning o'sishi va shu asosda kattalar bilan, so'ngra esa tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarning shakillanishi yetakchi ko'nikmalar bo'ladi.

Harakatlar. Hayotining ikkinchi yilida bedorlikning maxsus sharoitlarni tashkil etish, harakatli o'yinlar, gimnastika mashg'ulotlari o'tkazish bolalar harakatini rivojlantirishda muxim rol o'ynaydi.

Bu davrda harakatlarining yetakchi turi-mustaqil yurishdir. Bola yurishga juda intiladi shu sababli bu harakat unda ijobiy emosinlarni keltirib chiqaradi. Yurish kichkintoyda predmetlar olamida yaxshiroq oriyentasiya qila bilish ularning xususiyatlarini, o'zaro aloqalari va shu singarilarni bilib olish imkonini beradi.

Bolaning atrofdagi narsalar haqidagi tushunchasini kengaytiruvchi aktiv harakatlar psixik funksiyalarning (xis qilish, idrok etish, xotira, e'tibor, ko'rgazmali-harakatli tafakkur) rivojlanishini rag'batlantirish.

Bolaning yurishi tobora avtomatlashib borgan sari qo'larning aktiv faolyati uchun shart-sharoit vujudga keladi. U muvofaqiyatni yo'qotib yiqilib tushushdan qo'rqmasdan qo'lida predmetlarni ushlab yura oladi. Ikkinchi yilning oxirida yurish shu qadar avtomatlashib qoladiki, bola qadamini tezashtiradi, yo'lida uchraydigan to'siqlardan bemalol o'tadi, yugura boshlaydi.

Ammo yurishning avtomatlashuvi hamda qo'l va oyoq harakatlarining muvofiqlashuvi kattalar yaratadigan maxsus sharoitlar bilan belgilanadi. Mebel, yordamchi qo'llanmalar devor chetiga shunday teriladiki, bunda gruppaga xonasining o'rtasi holi bo'ladi. Xolidagi gilamlar,

gilam poyondozlar yig'ib qo'yilishi kerak. Bolalarning lat yeyishiga yo'l qo'ymaslik uchun gruppa xonasidagi bir qator predmet va joylar (batarialar, idish qo'yilgan shkaflar, tualet va hokazolar) bolalar bora olmaydigan joyda bo'lishi kerak.

Hovli joyni taminlash bilan bir qatorda bolalarda harakat aktivligining har xil turlarini shakllantirish uchun maxsus uskunalar (narvonli, maydonchali va sirg'alib tushadigan moslamada tepalik bo'lib, ular bu tepalikka chiqa oladigan va qaytib sirg'alib tusha oladigan bo'lishlari kerak) zarur. Tepalikni deraza yoniga qo'yish maqsadga muvofiqdir, shunday qilinsa, maydonchaga chiqib olgan bolalar derazaning narigi yog'ida bo'layotgan voqealarni kuzata oladilar. Bundan tashqari gruppalarda ularning bo'yiga yarasha sol va sulchalar; divanchalar, harakatlarni rivojlantirish uchun oshib o'tish, ustiga chiqish uchun predmetlar (yashiklar, g'o'la va shu singarilar) bo'lishi lozim.

Oyoq va qo'l harakatlarning muvofiqligini rivojlantirish uchun bolalar qo'llarida olib yura oladigan o'yinchoqlar (yirik-yumshoq o'yinchoq, hayvonlar, qo'g'irchoqlar, koptoklar, korzinkalar, chelak va haltachalar), ipidan tortib yurg'iziladigan o'yinchoqlar (mashinalar, kolyaska va xokazolar), oldinga itarib yuriladigan o'yinchoqlar (zambilg'altak, g'ildirakli katta o'yinchoq va shu singarilar) bo'lishi zarur.

Tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatiga raxbarlik qilar ekan, ularning hammasi aktiv, faol bo'lishini kuzatib turishi zarur. Bolalar bajaradigan harakatlar almashib turishini taminlab, bir xil harakat vaqtida charchab qolishlarining oldini olish muhimdir. Harakat aktivligini yo'lga solib turush bolalar shunchaki yuribgina qolmay, balki boshqa harakatlarni ham bajarishlari (o'tirish, tepalikka chiqish va shu singarilar) ga undash-ularning jismoniy rivojlanishi uchun muxim shartdir. Yugurishga berilib ketgan bolalarning charchab qolishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularning ayrimlarini tinch o'tirib o'ynash uchun sol yoniga o'tkazib qo'yish lozim.

Katta pedagogik axamyatga ega bo'lgan harakatli o'yinlarni o'tkazish majburiydir. Bolalar harakatli o'yinlar vaqtida boshdan kechiradigan hayratlanish, quvonish emosiyalari harakatlarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, bekinmachoq o'yinida bolalar yashirib qo'yilgan o'yinchoqlarni qidirib topishda hilma-xil harakatlarni bajaradilar: devorga osig'lik jovonga qarash uchun oyoq uchiga ko'tariladilar, engashib mebel osiga qaraydilar va hokazo. Harakatli o'yinlarni tashkil etish vaqtida bolalarning juft bo'lib yurish yoki safda yurishga majbur etish kerak emas.

Hali ularning erkin harakatlarni uncha rivojlangan bo'lmaydi, shuning uchun ham ular uyushqoqlik bilan, masalan, qo'lni-qo'lga berib bir yo'nalishda harakat qila olmaydilar.

Muzika jo'rligidagi harakatli o'yinlar bolaning umumiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega:muzika maromiga qarab depsinish, cho'nqayishi va hokazolar ritm, harakat garmoniyasi tuyg'ularini tarbiyalashga yordam beradi.

Hayotining ikkinchi yilida bola harakat aktivligini shakllantirishda gimnastika mashqlari muhim rol o'ynaydi.Bu mashqlar maxsus uskunalar (yurib chiqish uchun narvonchalar, ustida yurish uchun skameyka va shu singarilar)dan foydalanilgan holda o'tkaziladi.Bu uskunalardan faqat mashq bajarish vaqtida foydalaniladi va ular bolalarga mustaqil foydalanish uchun berib qo'yilmaydi.

Gimnastika mashqlarining ahamiyati shundaki, ularni bajarish jarayonida bola mustaqil egallashi mumkin bo'lmagan harakat turlari va uningayrim elementlari (qiya taxta ustidan yurish, polda yotgan yoki poldan 5-15 santimetr baland qilib ko'tarilgan arqondan hatlab o'tish va shu singarilar)ni egallaydi.

Sayrlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish esa puxta harakatlar va muvozanatli yurishni shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega.Kuz – qish faslida va ilk bahorda kunlar sovuq bo'lganida yaxshi yurishga o'rgangan bolalargina sayrga olib chiqiladi.Issiq kiyimda (piyma, reytuz, po'stin, shapka, sharf bilan) yaxshi yurolmaydigan va kunduzi ikki marta uxlash rejimiga o'rgangan bolalar sayrga chiqish o'rniga ularni ochiq havoda (ayvonda yoki sayr xonasida) uxlatish tavsiya qilinadi.

Yilning iliq kunlarida bolalar xonadan tashqarida yengil kiyimda yurishlari mumkin bo'lgan paytda endigina yura boshlagan bolalar uchun ham sayr tashkil etish mumkin. Masalan, notekis yerdan yurish:to'siqlar (do'ng, chuqurcha, o't qalin o'sgan va shu singarilar)dan o'tish harakatlar koordinasiasini rivojlantirishga yordam beradi, bolalarning yurish

vaqtidagi ishonch tuyg'usini mustahkamlaydi. Kun issiq bo'lganda uchaskada barcha bolalar bilan harakatli o'yinva gimnastika mashqlarini tashkil etish mumkin.

Xayotining ikkinchi yilida bolalarning harakatga ehtiyoji katta ekanligini hisobga olib va buning uchun mahsus vaziyat tashkil etib shuni esda tutish kerakki, bunda harakat aktivligi diqqatini bir joyga to'plash va o'yinchoqlar bilan bamaylihotir shug'illanish ko'nikmasini shakillantirishga halaqt bermasligi lozim. Harakat vat inch mashqlarning to'g'ri navbatlanib turishini kuzatish muhimdir. Bolalarning harakatlariga bo'lgan talabini qondirish kerak, lekin bu narsa ular faoliyatining boshqa turlariga zara yetkazmasligi lozim.

Predmetlar bilan bajariladigan harakatlar. Hayotining ikkinchi yilida bola kattalar yordamida bir qator ashyolar predmetlardan foydalanish usullarini o'zlashtiradi. Turmush faoliyati bilan bog'liq predmetli harakatlardan tashqari bu davrda bolalarni didaktik o'yinchoqlar(peramidalar, kubiklar, vkladishlar) bilan munosabatda bo'lishga, shuningdek uncha murakkab bo'lmagan predmet-qurollardan foydalanishga: nariroqdagi predmetni o'ziga yaqinlashtirish uchun tayoqchadan, suzib yurgan o'yinchoqni tutib olish uchun sachqoq(matran) dan qum yoki qor o'ynayotganda kurakcha va belkurakdan foydalanishga o'rgatish katta o'rin egallaydi.

Bolalarning psixik-jismoniy rivojlanishi uchun bu harakatlarning egallanishi katta ahamiyatini hisobga olib, "Bolalar bog'chasida tarbiya programmasi"da ularni ochib berishga maxsus bo'lim bag'ishlangan.

Predmetlar bilan harakatni egallash jarayonida bolalarning sensor rivojlanishi ro'y beradi, predmetlar va ularning xususiyatlarni (shakli, kattaligi, rangi, fazodagi holati) idrok etish takomillashadi. Bola avvalgi namunaga qarab, so'ngra esa so'zga qarab ikkita-uchta rangli sharlardan aytilgan rangdavisini tanlay oladi yoki turli kattalikdagi (keskin tafovutli) ikkita-uchta matryoshkadan eng kichkinasini tanlab bera oladi. Atrofdagi narsalarni idrok etish aniqroq tus oladi. Masalan, bir yosh-u 6-7 oylik bola masofani to'g'ri mo'ljalay oladi, u endi baland joydagi o'yinchoqqa ilgariidek intilmaydi, balki tarbiyachidan uni olib berishini so'raydi. Kattalarning taklifi bilan u haltachani tanish predmetini paypaslab topib ola biladi.

Sensor rivojlanish vazifasini hal teishda rangi, shakli, material turlicha bo'lgan o'yinchoq va qo'llanmalarni tanlash muhim ro'l o'ynaydi. Belgilardan biri qarama-qarshi bo'lgan, boshqa belgilari esa o'xshash bo'lgan predmetlarni(masalan, rangi bir-xil, lekin katta kichikligi xar hil bo'lgan shariklar, kubiklar) tanlash lozim. Predmetlar yoki ular xossalarning xilma-xilligi bolalarning etiborini jalb qiladi, belgilar tafobuti va o'xshashligidagi katta farq esa idrokni chuqurlashtiradi, aniqlashtiradi.

Bolalar bedor vaqtida didaktik o'yinchoqlarni joylashtirishda har bir solda sidaktik o'yinlarning bir turi bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Stollar yonida ikki-uch boladan iborat kichkina gruppaga o'ynashini nazorat qilish kerak, bunda bolalardan har biri didaktik o'yinchoqlarning o'xshash komplektini berish darkor. Bolalarning bu yoshda birgalikda o'ynay olmasligi va yangilikka juda qiziqishi oqibatida o'ychanligini hisobga olish lozim, chunki o'yin vaziyati tarbiyachi tomonidan puxta o'ylanmasa, nizolar kelib chiqishi mumkin.

Bolalarning predmet faoliyatini tashkil etganda didaktik qo'llanmaning har bir turidan bola o'z o'rnida foydalanishi ustidan ham nazorat qilib turish kerak; u o'yinchoq bilan nima qilishni bilmasa, tarbiyachi passiv harakat metodidan foydalanib unga o'rgatadi. Bir xil o'yinchoq bilan uzoq vaqt shug'ullanayotgan va bunda ilgari o'rgangan bir xil harakatlarni takrorlayotgan bolalarning charchab qolishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ular faoliyatini boshqa o'yinchoqlar bilan boshlashga o'tkazish lozim.

Yangi harakatlarga o'rgatish, ularni murakkablashtirish faoliyatining boshqa turlariga o'tkazish bolalarning predmet faoliyatini tarbiyachi tomonidan tashkil etishning asosiy jihatlaridir.

Nutq. Bola hayotining ikkinchi yili nutq rivojlanishining ma'suliyatli davridir. Ta'lim va tarbiya jarayonida bir yoshli bolada nutq ko'nikmasi bazasida kattalar nutqini tushunish hamda aktiv nutq rivojlanadi. Nutq faoliyati bu jihatlarining rivojlanish surati turlichadir. Yilning birinchi yarmida nutqni tushunish ikkinchi yarmida (aniqrog'I yilning so'ngi choragida) aktiv nutq intensivroq rivojlanadi.

Atrofdagilarning nutqini tushunish ancha yengil rivojlanadi. Predmet yoki harakatni so'z yordamida bir necha marta atash bilan bola ularning nomini eslab qoladi. Bu narsa uning faollashgan harakat aktivligi bilan bog'liqdir: u xonada yoki uchaskada yaxshi harakat

qiladi, ko'plab miqdordagi predmet va ashyolarga duch keladi, ularni diqqat bilan ko'zdan kechirib hohlaganlarini tanlab oladi. Tarbiyachining nutqni va bolaning atrofidagi voqyealarni tushunishini rivojlantirish sohasidagi ishi bir vaqtda o'tkazilishi lozim. Buning uchun kattalarning hatti- harakatlaridan honadagi turli jihozlardan, ovqatlanish, tualet va shu singari jarayonlardan foydalanish zarur. Bola bilan muomala qilayotganda uning atrofidagi va uni qiziqtirayotgan tushunishi mumkin hamma narsalarning nomini aytishi kerak. Ovqatlanish vaqtida ovqat to'g'risida gapirishi, qiynayotganda ta'na a'zolari va kiyimlarining nomini aytib turishi kerak. Bolaga aytilgan so'zlarning hammasi uning his tuyg'usi, idroki, harakatlari bilan mustahkamlanishi muhimdir.

Hayotining ikkinchi yilida bolalarning o'zlariga kerakli predmetlarni qidirib topishga o'rgatish lozim. Buning uchun mashqlar vaqtida bir necha predmet orasidan nomi aytilgan predmetni tanlab olishga o'rgatish kerak: "Men yashiraman sen esa qidirib top". Vazifani murakkablashtirish – predmetlar sonini ko'paytirib, shular orasidan kerakligini qidirib topishni talab qilish; biror jihati; nomi, aytilishi jihatidan o'xshashligi (shar, sharf), tashqi ko'rinishi (o'rdak, tovuq) o'xshash predmetlarni farqlash, tanish; bir xil nomdagi, lekin tashqi belgilari har xil bo'lgan predmetlarni (katta, kichik, yashil, qizil mashinalar) tanlash va guruhlashdan iborat bo'ladi. Bu topshiriqlar murakkabligiga qarab bolalarga butun ikkinchi yil davomida beriladi.

Bir yosh-u olti oylikdan keyin bolalar syujetni yoki bir-biri bilan bog'liq bir necha harakatni tushuna oladigan bo'la boshlaydilar. Bunga o'rgatish uchun ko'rgazmali inssenirovkalardan foydalaniladi. Bolalar bilan ular ko'rib turgan narsalar haqidagina emas, balki ilgari tajribaga ko'ra yaxshi tanish bo'lgan narsalar haqida masalan, sayr vaqtida ular ko'rgan narsalar haqida ham gaplashish lozim. So'zlarni turli birikmalar va aloqalarda ishlatishi zarur. "Mushuk uxlaydi va qiz uxlaydi. Mushuk gilamchada uxlaydi, qiz esa kravotda uxlaydi". Bu esa so'zlarning mazmunini boyitadi, qiyoslash va umumlashtirishda yordam beradi.

Shuningdek bu yoshda bolalarni kattalarning topshirig'ini bajarishga o'rgatish muhimdir. Kattalarning nutqi sekin asta bolalar hatti- harakatini yo'lga solib turuvchi omil bo'lib qolishi kerak.

Hayotining ikkinchi yilida bolalarda umumlashtirish qobiliyati shakllana boshlaydi. Bu narsa voqyeilikdagi predmet va hodisalarning umumiy jihatlarini fikran ajratib, shu asosda ularni fikran birlashtirishdan iboratdir. Avval bolalar predmetlarni tashqi yorqin belgilariga qarab umumlashtiradilar: ular mushukni, har qanday yumshoq o'yinchoqni va hamma junli narsalar (pustin, shapka)ni miyov deb ataydilar. Asa-sekin faoliyat jarayonida va kattalarning tushuntirishi ta'siri osida umumlashtirish qobiliyati rivojlana boradi: hayotining ikkinchi yili oxirida bolar predmetlarni tashqi belgilarigagina qarab emas, balki ularning vazifasiga qarab , shuningdek, bu predmetlarning aksi tushirilgan suratlariga qarab umumlashtiradilar. Ko'pgina harakatlarning nomi ham umumlashtirila boshlaydi. Muhim belgilariga qarab predmet va harakatlarni umumlashtirish qobiliyati bolalarda takakkur rivojlanishining belgisidir.

Guruhda rangi, kattaligi, materialiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan bir xil o'yinchoqlar: gazlamadan, selluloid, har xil kattalikdagi o'yinchoqlar: katta- kichik va har xil rangdagi, tashqi ko'rinishida farq qiladigan mashina va hokazolarning bo'lishi umumlashtirish funksiyasini rivojlantirishda ko'maklashadi.

Bola bilan gaplashayotganda kattalar predmet va ular bilan bo'ladigan harakatlarning harakterli belgilarini takidlashlari lozim: qush uchadi, koptok dumalaydi, kuchuk vovullaydi va hokazo. Agar bola predmet yoki harakatning nomini eshitayotganda ayni vaqtda ularni turli analizatorlar bilan idrok etsa: ko'rsa, eshitsa, silab tursa, ozi u bilan har xil harakatlar qilsa umumlashtirish qobiliyati tezroq shakllanadi.

Aktiv nutq. Hayotning ikkinchi yili boshlarida bolalar ko'p bidirlaydilar. Ularning bidirlashi xilma hil emotsional jihatdan yorqin bo'lib, deyarli hamma harakatlarga hamroh bo'ladilar. Bu yoshda ular tovushlar va tovush birikmalariga taqlid qilish takomillashadi, bu esa lug'atning asta sekin boyib borishiga yordam beradi. Mamlakatimizda bolalar rivojlanishi qabul qilingan ko'rsatkichlariga binoan 1,5 yoshda aktiv lug'at 30 so'zdan 2yoshda 200-300 so'zdan iborat bo'ladi. Aktiv lug'atning rivojlanishiga individual xususiyatlar hamda tarbiya sharoitlari ta'sir qiladi.

Ikki yoshdan yengillashtirilgan so'zlar o'rnini oddiy so'zlar egallaydi. Bolalar nutqida predmet va harakatni bildiruvchi so'zlar emas, balki ular anglay oladigan sifatlar va predmetlar

o'rtasidagi munosabatlarni bildiruvchi so'zlar (Masalan: ravishlar) paydo bo'ladi. Ikkinchi yilning oxiriga borib bola olmoshlardan uncha qiynalmay foydalanadigan bo'ladi.

Bolaning dastlabki gaplari odatda bitta so'zdan iborat bo'ladi. Bu so'z muayyan vaziyatda har hil gaplarni bildiradi."Ona " degan so'z bir holda " Meni qo'linga ol " degan ma'noni anglatadi, ikkinchi bir vaziyatda "Koptokni ber" degan ma'noni bildiradi."Nan" so'zi bilan bola o'yinchoqning tushib ketganini bildiradi va o'zi yiqilganda kattalarga murojat qilib og'rigan joyini ko'rsatadi. Ikkinchi yilning oxirida gaplari 3-4 so'zdan iborat bo'la boshlaydi. Bolalar so'zlarni ko'plikda ba'zi kelishiklarda ishlata boshlaydilar, lekin juda ko'p hatolarga yo'l qo'yadilar. Aktiv nutqni rivojlantirish uchun bolada eshitiladigan tovush va so'zlarga taqlid qilish qobiliyatini takomillashtirish zarur. Unda eshitilayotgan so'zni tinglash va takrorlash ko'nikmasini tarbiyalash kerak. Buning uchun dastlabki yilda bo'lganidek bolaning bidirlashini qo'llab quvvatlash, u aytgan tovushlarni takrorlash, uni yengil so'z birikmalariga ("Top-top") va "gusi-gusi ga,ga,ga" singari so'z birikmalariga taqlid qilishga undash, uni kattalarning soatni ovozi qanaqa? Chiq-chiq, "chiq-chiq",-deb ayt,deb so'rashlariga undash kerak. Bolada so'zlarga taqlid qilishda qiziqishni uyg'otish uchun unga yengilroq so'z na'munalarini berish mumkin, lekin bu so'zlarning to'g'ri ifodasini ham aytish kerak. Bolaning aktiv nutqi unda kattalar bilan muomala qilish talabi vujudga kelgan taqdirda tez rivojlanadi. Kattalar tez va turli vajlar bilan bolaga murojat qilib u bilan gaplashib tursalar ana shunday talab vujudga keladi. Bu holda bolada emotsional aloqa boshlanadi. Bu aloqani o'rnatishda qo'shiq o'yinlar hazil o'yinlar yordam beradi. Ammo hamma ishini emotsional muomala bilangina cheklab qo'yish yaramaydi, faoliyatga asoslangan muomala: o'yin vaqtida predmetlarni o'ylab ko'rib o'yinni yoki atrofdagi narsalarni kuzatish foydalidir. Bolaning kattalarga har bir galgi so'z bilan murojat qilishni qo'llab quvvatlash muhimdir, uning iltimosini tushunishga qondirishga harakat qilish kerak. Bolaning murojatiga imo ishora bilan javob berish yaramaydi. Bu holda : nimani olib beray mana shunimi? "Mashina", deb ayt,-deb iltimos qilish kerak. Bolani biror so'zni aytishga majbur qiladigan holatga solib qo'yish kerak.

Mashg'ulotlar. Bolalar muassasi sharoitida gruppadagi barcha bolalarning har tomonlama rivojlanishini ularni mustaqil faoliyati jarayonida individual muomaladan foydalanish orqaligina ta'minlash mumkin emas. Bu holda shunday bo'lishi mumkin, aktivroq bolalar ko'pincha o'z tashabbuslari bilan kattalarga murojat qilib ko'proq narsa bilib oladilar, aktiv bo'lmaganlari va ko'pincha e'tiborda muhtoj bo'lganlari esa chetda qolishlari mumkin. Shu sababli bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun uyushtirilgan mashg'ulotlar o'tkazish lozim. Bu mashg'ulotlar o'rgatishning tejimli bir necha bola birlashgan bo'ladi va samarali formasidir. Ona yoshning ikkinchi gruppasida (1 yoshdan 2 yoshgacha) mashg'ulotlar 2 ta yosh gruppasi uchun alohida alohida planlashtiriladi. Birinchi yarim yillikda mashg'ulot har kuni bittadan va asosan individual yoki ozroq sonli bolalar (5-6 kishi) bilan o'tkaziladi ikkinchi yarim yillikda mashg'ulotlar besh kunlik haftani hisobga olgan holda kuniga ikkitadan planlashtiriladi. Mashg'ulotda qatnashuvchi bolalar soni bir qator shart- sharoitlarga bog'liq. Mashg'ulotni tashkil qilishning bimalol formasidan foydalanilganda (gruppasi bilan ekkskursiyaga chiqilganda) bolalarning butun yosh gruppasi (6-12 kishi) qatnashishi mumkin; bolalarning harakatlari taqlid qilishga asoslanganda (muzika mashg'ulotlarida), shuningdek, yetakchi faoliyat ko'rib turishdan iborat bo'lsa ham (o'yinchoqlar bilan insseniroykalar, atrofidagi narsalarni uyushqoqlik bilan kuzatish) shunday qilishga yo'l qo'yiladi. Bolalarning predmetli faoliyatiga o'rgatish, nutq mashg'ulotlari (kartinkalarni ko'rish), jismoniy tarbiya asboblari bilan foydalanib o'tkaziladigan mashg'ulotlarda kutib turish momentlari bo'lgani uchun mashg'ulot har bir yosh gruppasining yarmi bilan (3-6 bola) o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarning davomiyligi ularning mazmuniga ham bog'liq. Faoliyat turlari o'zgarib turadigan mashg'ulotlar 10-15 minutgacha davom etishi mumkin; diqqatni bir yilga to'plashni talab qiladigan mashg'ulotlar 5 minutdan 8 minutgacha davom etadi. Bitta kichik gruppaga birlashtirilgan bolalarning rivojlanish darajasi taxminan bir xil bo'lishi kerak. Yangi kelgan bolalar mashg'ulotlarga asta sekin jalb qilinadilar. Mashg'ulotlarning barcha turlarida o'ziga xos vazifalardan tashqari bolalarni shug'ullanishga o'rgatadigan tinglash, javob berish, gavgani ishchan holatda bo'lishga o'rgatish maqsadlari qo'yiladi.

Didaktik o'yinchoq va qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar. Didaktik o'yinchoqlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda motorli va sensor harakterdagi

vazifalar hal etiladi.1 yosh-u 3 oylik bolalar bilan ishlashda avvalo motorli harakterdagi vazifalar: bolalarni plasilindan sharik yasash, halqalarni tayoqchaga tizish g'ishtchalarni bir-birining ustiga va qator qilib qo'yish, predmetlarni chelakga, idishlarga solish, qutichalarni singari ishlarni o'rgatish vazifasi qo'yiladi (yig'ma o'yinchoqlardan oson ochiladigan bo'lishi; ularning hajmi bola bemalol ushlay oladigan bo'lishi lozim).

Bolalar rivojlanib borgan sari mashg'ulotlarga sensor, predmet- qurol harakterdagi vazifalar kiritilib ular asta sekin murakkablashtirib boriladi. Avval bolalar ikki xil hajmdagi halqalarni: oldin hamma kattalarni, so'ngra hamma kichiklarni aytishni o'rganadilar, keyin ularga o'rta hajmdagi halqalar qo'shiladi, nihoyat bolalar har hil hajmdagi 5-6 ta halqadan piramidani yig'ishni o'rganadilar.

Mashg'ulotlarni o'tkazishda kattalarning izohi, ularning predmetlar harakatlarining nomini, ularning sifati munosabatlarini aytishi, passiv harakatlar metodidan foydalanib ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega.

Bolalarni ranglar bilan tanishtirishda ham vazifalarni asta sekin murakkablashtirib borishga rioya qilinadi. Avval bolalarga bir xil rangli predmetlar beriladi, keyin ikki xil rangdan birini tanlash (qizil tayoqchalarni qizil sakanga, ko'k tayoqchalarni ko'k sakanga solish) vazifasi qo'yiladi. So'ngra 3 xil rangli predmetlar beriladi. Bolalar 2 yoshga yetganlarida esa 4 xil: qizil, ko'k, sariq, yashil rangdagi predmetlar orasidan kerakli rangdagi predmetni ajrata olishlari lozim.

Qurilish materiali bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolalar kubiklarni, g'ishchalarni birini ustiga qo'yish (minora) so'ngra yonma yon (yo'l, poyezd, devor) terishni o'rganadilar. Bolalar kubiklarni, g'ishchalarni bir biridan muayyan masofaga qo'yishga o'rgatiladi (narvon, karavot, divan).

Nutqni rivojlantirish va atrofdagi voqyealarni to'g'ri tushunishni rivojlantirish mashg'ulotlari.

Mashg'ulotlarni bu turi bola hayotining ikkinchi yili birinchi va ikkinchi yarmida ulardagi nutqni anglash va aktiv nutq rivojlantirishning turli suratlari hisobga olingan holda planlashtiriladi. Birinchi yarim yilda mashg'ulotlarning mazmuni ko'proq passiv lug'atni rivojlantirishga, ikkinchi yarim yillikda esa bolalar o'z nutqini murakkablashtirishga qaratilishi lozim.

Bolalar nutqini tushunishni rivojlantirish maqsadida predmetlar nomini aytib ko'rsatishdan paydo bo'lib qolgan o'yinchoqni ko'rsatishdan foydalaniladi. Bolalar real predmetlarni o'yinchoqlarni ajrata olishni o'rgangalaridan keyin ularning o'rniga rasmlardagi tasvirlar ko'rsatiladi. O'yinchoqlarni namoyish qilishda bo'lganidek rasmlarni ko'rsatishda ham har bir mashg'ulotda ular murakkablashtirib boriladi.

Bolalarning nutqi taqlid usullari bilan aktivlashtiriladi ("Xo'roz qanday qichqiradi, kuchuk qanday vovullaydi") . Ular mashg'ulotlarning hamma turlariga jalb qilinadilar. Ko'pincha bolalar ko'rgan narsalariga maxliyo bo'lib tarbiyachini gapini eshitmaydilar, uning biror so'zini aytish haqidagi iltimosiga qiloq solmaydilar-bu yoshda ularning ayni vaqtda eshitishi va gapirishi qiyin bo'ladi. O'yinchoq ko'rinmay turganida u haqida gapirish yaxshi natija beradi. Bolani gapirishga majbur etish kerak. Masalan bolalarga chiroyli qo'g'irchoq ko'rsatiladi, bolalar unng kiyimlarini ko'zdan kechirib u bilan bir nafas o'ynaydilar so'ngra qo'g'irchoq yashirib qo'yiladi. Bolalar uni yana ko'rishni isaydilar.

Ikkinchi yarim yillikda tushuniladigan so'zlar zapasini kengaytirish bilan bir qatorda bolalar lug'atini aktivlashtirishga katta e'tibor berish lozim. Shu maqsadda ularga savollar beriladi. Avvaliga ular bir so'z bialn javob qaytarishadi.

Tarbiyachi savollarni shunday tuzishi keraki, bolalar bu savollarga javob qaytarganda turli vaziyatlarda tanish so'zlardan foydalana olsinlar: " kim o'tiribdi, kimning karovati, ko'ylak qani" va hokazo.

Nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari bir haftaga mo'ljalab planlashtiriladi. Oy mobaynida har bir mashg'ulot murakkablashtirilgan holda 4-6 marta takrorlanadi. Har qanday yangilikni oldingi yaxshi o'zlashtirilganga qaraganda ko'proq takirorlash kerak. Bu yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish vazifalari maxsus nutq mashg'ulotlaridagina emas, balki mashg'ulotlarning boshqa barcha turlarida ham hal etiladi.

Bolalar o'yini va mustaqil faolyatini boshqa turlaini tashkil etish. Hayotining ikkinchi yilida bolalarning mustaqil faolyati hilma xilroq bo'lib qoladi; predmet va qurilish materiallari bilan ishlash harakatlar, kuzatishlar, syujitli o'yinchoqlarni o'ynash shular jumlasidandir. Tarbiyachi bu faolyatni tashkil etar ekan, bolalarning turli hil faolyatiga qiziqishlarini qondirishi

uchun zarur bo'lgan tegishli o'yinchoq va qo'llanmalar bo'lishi haqida g'amhurlik qilishi kerak. Syujitli o'yinlar uchun qo'g'irchoq va o'rta kattalikdagi boshqa obrazli o'yinchoqlar, yirik idishlar to'plami, qo'g'irchoq mebilining ayrim predmetlari (sol sul, karovat) zarur bo'ladi. Mebel yirik va pishiq bo'lishi lozim. O'yinchoqlar faoliyat turlariga qarab xonaning turli qismlarida joylashtiriladi. O'yinchoqlarning muayyan joyda saqlanishi bolalarni tartibga o'rgatadi, uyushqoqlik va mustaqilikni tarbiyalaydi. Bolalarning o'zlari o'yini davom etirish uchun zarur predmetni topa oladilar. O'yinchoqlarni kapiliklari bilan joylashtirish : qo'g'irchoqning yoniga ko'rpachasini qo'yish, aravachaga g'ishchalarni tahlash o'yinchoqni o'tkazib qo'yish yaxshi natija beradi. Bolalar hayotining ikkinchi yili mobaynida bolalarning o'yin harakatlari ancha murakkablashadi. Yilning boshida ular o'rgangan harakatlarnigina takrorlaydilar, bunda asosan tarbiyachi qaysi o'yinchoqni ko'rsatgan bo'lsa shu bilan o'ynaydilar keyinchalik u asta- sekin harakatlarni bir o'yinchoqdan ikkinchisiga o'tkazishni o'rganadi. Bir yarim yoshdan keyin bolalar taqlid qila olishlari tufayli o'yinga hayotda o'zlari ilg'ab olgan harakatlarni kirita boshlaydilar.

Hayotining ikkinchi yili oxirida bolalarning harakatlarida syujetli o'yin elementlarini ko'rish mumkin. Ular o'yin harakatlarini mantiqiy izchilikda bajaradilar; bir birlari bilan munosabatda bo'lib odatda kattalar ular bilan qiladigan harakatlarini taqlididan aks etiradilar: ular bolalarni boqadilar, davolaydilar, sochni taraydilar. O'yinda o'yinchoqlardangina emas balki real predmetlar o'rnini bosadigan narsalardan foydalana boshlaydilar.

Bolalarning mustaqil faoliyatiga raxbarlik qilganda ularda turli vajlar bilan tarbiyachiga murojat qilishni : o'yinda yordam so'rash, kerakli o'yinchoqni berishni so'rash, birir qiziq narsaga e'tiborni jalb qilishni shakillantirishni intilish kerak. Bundan tashqari bolalarni kattalarning talablarini, yurish-turish qoidalarini bajarishga : boshqa boladan o'yinchoqni tortib olmaslikka, boshqa bola o'ynayotganda kutib tura olishga o'rgatish lozim.

Hayotining ikkinchi nyilida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlar shakllanishda davom etadi. Ularda bir birlariga ijobiy munosabatni vujudga keltirish uchun nizolarning kelib chiqishi yo'l qo'ymaslik kerak. Bolalar o'rtasidagi nizolar ko'pincha shundan kelib chiqadiki ularda hali nutq yaxshi rivojlanmagan bo'lib ular o'z isaklarini ayta olmaydilar, boshqa bolaning qo'lidagi o'yinchoq esa hamisha jozibali bo'ladi. Ba'zan tengdoshini faoliyatiga qiziqish va ayni vaqtida u bilan birga harakat qila olmaslik oqibatida sherigiga salbiy munosabat vujudga keladi.

A.P.Usova 1,5-2 yoshli bolalarning yonma-yon o'tirib o'yin o'ynashlaridagi o'zaro munosabatlarining bir necha formasini ko'rsatadi. Masalan, bolalar individual o'ynagan holda bir birlari bilan mehanik tarzida munosabatda bo'lganlaridagina harakatlarni hilma xil takrorlaydilar. Bir biriga, o'yin mazmuniga qiziqish negizida ham o'zaro munosabatlar o'rnatilishi mumkin.

Tarbiyachi buni hisobga olib bolalar o'z harakatlarini o'zaro moslashtirishga o'rgatish kerak. Tarbiyachi o'yini tashkil etib va kuzatib borib, bolalar o'z navbatini kutib turishga to'g'ri keladigan vaziyatni vujudga keltiradi; har bir bolaga biror topshiriqni bajarishni: biriga kubiklarni mashinaga solish, ikkinchisiga mashinani yurgizish, uchinchisiga kubiklarni mashinadan olish vazifasini taklif qiladi; topshiriqlar beradi: "Koptokni Oliyaga olib borib ber" va hokazo.

Bu yoshda bolalar "Unaqa qilma", "Mayli" degan so'zlarining (ba'zi narsalarni o'ynama, o'yinchoqni sindirma, uni tortib olma, baqirma va hokazo) ma'nosini yaxshi tushunishlari kerak. Bolalarning talabi yoki isagini bajarish mumkin bo'lmasa, uning talabi nima uchun rad etilganligini hali tushuna olmasa uni ovutish, e'tiborini boshqa narsaga qaratish kerak.

MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR.

1. Ikki yoshli bolalar hayotini rivojlantirish va tarbiyalash vazifalarini aytib bering?
2. Ikki yoshli bolalar kun tartibini tashkil etish qanday olib boriladi?
3. Ikki yoshli bolalarda ma'daniy gigiyenik ko'nikmalarni hosil qilishoilada qanday yo'lga qo'yilishi lozim?
4. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish to'g'risida o'z fikringizni bildiring?
5. Ikki yoshli bolalarda jismoniy ma'naviy-axloqiy odatlarni shakllantirish qanday olib borilishi lozim?

13-MAVZU:IKKINCHI KICHIK YoSh VA O'RTA GURUHLARDAGI BOLALAR HAYOTINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

2-SOAT

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar hayotini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va ta'limiy – tarbiyaviy ishlarni tashkil etish haqida bilimlarni hosil qilish.

Asosiy savollar:

1. Ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Bog'chada ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar xonalarining jihozlanishi va kun tartibini tashkil etish.
3. Bolalarda o'z –o'ziga xizmat qilish va xo'jalik turmush mehnat ko'nikmalarini tarbiyalash.
4. O'yin va mashg'ulotlarning bolalar hayotini tashkil etishdagi o'rni.

Tayanch so'zlar va iboralar: guruh jihozlari, kun tartibi, bolalarning uyqusi, o'z-o'ziga xizmat, mehnat, ko'nikma, o'yin faoliyati, mashg'ulotlar, muloqot.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Isroilova M.N. "Bolalar va o'smirlar gigiyenasi". Tibbiyot nashri., 1994
2. V. I. Loginova va P.G. Samorukovalar tahriri osida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti.1992 yil.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri osida. -T., «O'qituvchi», 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
6. «Bolalar bog'chasida ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y
7. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
8. 8.Sh.Shodmonova, «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» Toshkent-2003

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni. Bog'chada ikkinchi kichik yosh guruhiga 3dan 4yoshgacha, o'rta guruhda 4dan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanadi. Ulardan ayrimlari bolalar bog'chasiga ikki va uch yildan beri qatnashgan, ayrimlari esa birinchi bor kelishgan bo'ladi. Ular uchun guruhdagi muhit g'ayri tabiiy, birgalikdagi turmush tarsi esa noodatiydir. Ilgaridan bolalar bog'chasiga qatnagan to'rt yoshli bolalar guruhning pas balandini yaxshi biladilar, xatti-harakatda ayrim mustaqillikni namoyon qiladilar, ko'pincha kundalik hayot buyumlari bilan muloqotda bo'lish usullaridan xabardor, madaniy-gigiyenik malakalarga ega bo'ladilar, har xil faoliyat turlari, tengqurlari va tarbiyachilarga qiziqish bildiradilar. Guruhda bolalar hayotini tashkil etishda etakchi o'rin tarbiyachilarga taaluqlidir. Tarbiyachilar o'z faoliyatlarini dastur va rejalariga asoslanib tashkil etadilar. Ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar hayotini tashkil etishning asosiy vositalari o'yin, mashg'ulot, mehnat, harakat foyiati, bolalarning bir-birlari va tarbiyachi bilan muloqotlaridir.

Guruhlarning jixozlari. Bolalar sol va sullari, o'yinchoq va qo'llanmalar uchun shkaflar bo'y- yosh normativlariga ko'ra tanlanadi va ularga kelish bolalar uchun qulay bo'lgan qilib joylashtiriladi. kichik guruhlarning o'yin xonasida o'yin uchun bir necha burchaklar jixozlanadi, yirik o'yin qo'llanmalari – qo'g'irchoqlarning kiyimlari uchun shkaflar, plita, dazmollash taxtasi ularga ikki, uch bola bir vaqtda kela oladigan qilib joylashtiriladi. O'rta guruhning o'yin qoidasida asosiysi bir necha zonalar bo'lishdir: masalan, birinchi o'yin zonasida tokchali shkaflar qo'yilib, unga qo'g'irchoq bilan o'ynashda kerak bo'ladigan hamma narsa joylashtiriladi, Ikkinchi o'yin zonasi qurilish materiallari uchun. Bu yerga qurilish materiallari uchun shkaflar joylashtirilib, qurilish uchun joy ajratiladi. Kitoblar va sol- bosma o'yinli mashg'ulotlar uchun esa o'yin zonasidan chetqatda, osoyishtaroq joy ajratiladi. Shundan so'ng bolalarning mustaqil, badiiy faoliyatlariga mo'ljallangan materiallar joylashtiriladi. Xilma xil bo'lish faoliyatini uyushtirish shuningdek, bolalarni mehnatga odatlantirish maqsadlarida tabiat burchagi jixozlanadi: bunda baliqli akvarium, qushlar solingan qafas va mayda jonivorlar qo'yilgan jixoz va turli o'simliklar joylashtiriladi. Sayr vaqtida chiqish va yosh o'rta guruh bolalari tomorqada bo'ladilar. Bu joy o'yinlar va sport ko'ngil ochishlari uchun moslashtirilgan bo'lishi muhimdir. Olib chiqadigan o'yinchoqlarni joylashtirish uchun tol, o'rindiqli qo'yiladi, suv va qum o'yinlari uchun qumxona, rezervuar va shu kabilar qilinadi.

Kun tartibini uyushtirish. Guruhdagi to'g'ri kun tartibi to'rt va besh yoshli bolalar hayotining rejimi bilan belgilanadi. Har bir rejim jarayoni bolaning yosh imkoniyatlaridan kelib chiquvchi ma'lum davomiylikka egadur.

Kichik yosh guruh bolalari turmush faoliyatida unchalik mustaqil emasliklari uchun barcha rejim jarayonini o'tkazish qoidasi bir faoliyat turidan ikkinchisiga o'tishni tarbiyachi bolalar bilan birga uyushtiradi va o'tkazadi. U navbatdagi jarayonga bolaning kichik yosh guruhi (3,4 kishidan) doimo jalb qiladi, qolgan bolalar bu vaqtda o'yin bilan band bo'ladilar. Tarbiyachi sayrga chiqish uchun kiyinish va ovqatlanishga tayyorlanishdagi yuvinishga ko'pincha malakalarini yaxshi egallanmagan hamda bu ishlarga boshqalarga nisbatan ko'proq vaqtini sarflaydigan bolalarni, shuningdek shu vaqtda band bo'lmagan, berilib o'ynaydigan bolalarni jalb qiladi.

O'rta yosh guruh bolalari ancha mustaqil bo'ladilar, ularda rejim jarayonining izchilligi hamda tasavvurga ega bo'ladilar, shu tufayli tarbiyachiga bolalar Ushbu jarayonni o'tkazishga erkin hamda birin ketin kirishishlari uchun bo'lajak jarayonini aytishi va eslatishi kifoyadir. Odatda, tarbiyachi guruh xonaning hammaga yaxshi ko'rinadigan joyda to'xtab turib: <<Xozir bolalar, hammamiz mashg'ulot o'tkazamiz>> - deydi, aniq qilib. Harakat va maqsad aytilgach, pedagog tarbiyalanuvchilarga uni bajarish uchun kirishishlariga yordam beradi. 4 yoshli bolalar mashg'ulot, o'yin, mehnat uchun zarur harakatlarning ayrim usullarini egallaganliklari va ularni birlashtira bilmasliklari tufayli ularga ko'maklashadi, o'zaro yordamga jalb qiladi.

Ertalabki qabulni to'g'ri uyushtirish muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarni qabul qilar ekan, umumiy qoidalarga rioya qiladi, bolalar bog'chasiga qatnashish, o'ziga yaqinlar bilan ajralish bolani xafa qilmasin. Bolada qiziqish uyg'otish maqsadida tarbiyachi o'yinchoqlar taklif etadi, osoyishta o'yinlarga jalb qiladi. Nonushtadan oldin jismoniy rivojlantirish va tetik kayfiyatni yaratishda juda muhim bo'lgan ertalabki gimnastika va mahalliy sharoitdan boshqa chiniqtiruvchi tadbirlar (oyoqlarga suv quyish, xo'llab artish) o'tkaziladi. Nonushta vaqtida tarbiyachi bolalarning ishtaxa va tartibli ovqatlanishlarini kuzatib boradi. U har bir bolaning tajribasini nazarda tutib, beshbarmoq, qo'shiqlardan qanday foydalanish kerakligini tushuntiradi va ko'rsatadi.

Nonushtadan so'ng kichik yosh guruhida bitta mashg'ulot, o'rta guruhda esa orasida qisqa tanaffusli ikita mashg'ulot so'ngra sayr o'tkaziladi.

Bolalar bog'chada 12 soatga cho'zaldigan yoz davrida kun tartii biroz o'zgartiriladi: davomiyligi 15 daqiqa bo'lgan bitta mashg'ulot o'tkaziladi, kunduzgi sayr vaqtida esa (u 15 daqiqaga qisqartiriladi) havo, quyosh tadbirlari, sayrdan keyin esa suv tadbirlari o'tkaziladi.

Sayr vaqtida tarbiyachi atrof- tabiat yoki kattalar mehnatini kuzatishni, harakatli o'yinni uyushtiradi, bolalarga mustaqil o'yinni taklif etadi. Sayr boshida, o'rtasida yoki sayr tugashidan yarim soat oldin harakatli o'yinlar o'tkaziladi. Sayr vaqtida bolalar qo'llaridan keladigan mehnat topshiriqlari: kuzda barg to'plash, qishda yo'lkani qordan tozalash ishlarini bajradilar.

Sayr tugashiga yarim soat qolganda tarbiyachi yechinish xonasiga kirishni bolalar bir varakiyga to'planmaydigan qilib uyushtiradi. Enaga bolalarni kutib olib, ularni qanday yechinayotganliklarini kuzatib boradi, mustaqil harakat uchun sharoit yaratadi, bolalarning bir-birlariga yordamlarini uyushtiradi.

Kichik yosh guruhda bolalar hayotini rejim asosida tashkil etish murakkab vazifa: bolalar hali zarur malakalarga ega emaslar, har bir bola pedagogning yordami, ishtirokiga muhtoj. Pedagog bolaga ham jilmayishi, ham iliq so'zi, ham qarshi, ham savoli bilan e'tibor bildiradi. O'rta guruhda bolalar mustaqildirlar.

Rejimni tashqi jihatdan uyushtirish tarbiyaviy vazifalarning hal etilishi bilan biriktirilishlari muhimdir.

To'rt yoshli bolalarga qilinajak harakatlarning maqsadlarini ko'rsatish, ularni e'tiborini jalb etish hamda uni shunday yo'llash kerakki kichkintoylar faqat harakatlarni bajarishi emas, balki bir faoliyatni ikkinchisidan farqlashni ham o'rganib olsinlar.

Tarbiyachi, shuningdek, bolalarga bir rejim jarayonidan ikkinchisiga o'tishlari va ularni bajarishlarida yordam beradi. Bunda tarbiyachining bolalar bilan to'g'ri mashg'ulot shakli, o'yin usullari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyachining so'zlaridan bolalar hayrixoxlikni va zarur narsani to'g'ri bajara olishlariga ishonchni xis qilishlari zarur. Tarbiyachi ovozining ohangi

hyech qachon bolalarning ruhini tushirmasligi, tashabbuslarini bo'g'masliklari kerak, bolalar tarbiyachining iltifotiga va qo'llab- quvvatlashiga ishonishlari kerak.

Hayotni to'g'ri tashkil etilishi bolalarni intizomli qiladi, faoillik va mustaqillikka odatlantiradi, busizesa o'z- o'zini tartibli qilib bo'lmaydi, shuning uchun talabchanlikni bolaga e'tibor bilan singrishi lozim. Rejim jarayonning har kuni takrorlanishi ,kichkintoy uchun qulay hayot maromi bolalarda harakatlarni amalgam tez kirishib ketish ko'nikmasini tarbiyalaydi, yaxshi kayfiyatning yuzaga kelishiga yordam beradi.

O'z- o'ziga xizmata qilish va xo'jalik turmushi mehnati, ularni guruh hayotini tashkil etishdagi o'rni. Bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish, ularni bir butun tarzda tarbiyalashni tashkil etish maqsadlarida har ikkala guruh bolalarin turmush mehnatiga , o'z- o'ziga xizmat ko'rsatish mehnatiga jalb qiliandi. Kichik yoshdagi bolalarni mustaqilliklarini umumiy suratda harakat qila bilishlarini aynan o'z- o'ziga xizmat qilishlarini tashkil etish tarbiyachidan doimiy e'tiborni va turli metodlardan foydalanishni talab etadi. Bolalarga rejim bo'yicha yashash, bir rejim jarayonidan ikkinchisiga osoyishta o'tish odatlantirilar ekan, tarbiyachi bolalarning mustaqilliklarini harakatlarni ko'rsatish va tushuntirish orqali rag'batlantiradi. O'- O'ziga xizmatni uyushtiradi, u bolalarga mehnatni o'yindan farqlashni o'rgatadi. Pedagog eng avvalo mehnatning maqsadini bolalarga uqib oladigan tarzda tushuntiradi, ularning maqsadga muvofiq ish tutishlariga erishishlariga harakat qialdi. Ertalabki qabul, nonushtaga tayyorlanish, nonushta vaqtida va barcha rejim jarayonlari davomida tarbiyachi hamda enaga harakat usullarini ko'rsatadilar va aytadilar, bunda ular harakatlarni bajarishga yo barcha bolalarni, yo faqat bu harakatlarni bajara olmaydiganlari jalb qilinadi. Tarbiyachi ko'pincha ayrim bolalarga ularning Ushbu ishlaridagi mavjud tajribalarini nazarda tutib, yuvinishlariga, yechinib- kiyinishlariga va shu kabilarga yordam beradi.

Bolalarga mustaqil kiyinishi, yuvinishnim mashq qildirish, ularni qo'llaridan kelgancha mustaqillikka undash, kun davomida tashkil etiladi, tarbiyachi va enaga bolalarga harakatlarning izchil tartibini o'rgatadilar, agarda kichkintoylar unutilib qo'ysalar, uni eslatib turadilar.

O'z- o'ziga xizmat o'rta gruppadagi barcha rejim jarayonlarida, ayniqsa bolalarni ertalab bog'chaga kelishlarida, sayrga , kunduzgi uyquga tayyorlanishlarida katta o'rinni egallaydi. Besh yoshli bolalar yetarlicha murakkab harakatlar (tugmachalarni taqish, oyoq kiyimi iplarini boylash)ni bajarishlari va mustaqil yuvinishalri, kiyinishlari, yechinishlari mumkin.

Garchi bolalar xarakat usullarini asosan egallab olgan bo'lsalar-da, tarbiyachi tomonidan nima qilish kerakligini eslatib turilishi, kp'pincha qanday qilsa, yaxshiroq bo'lishini ko'rsatish xali xam zarurdir. Tarbiyachi, shuningdek, bolalarga xatti-xarakatshning qaror topgan qoidalarini buzmaslikni o'rgatib, o'zaro yordamga xam jalb qiladi. Bundan tashqari, xarakat usullarini yangi kelgan bolalarga ko'rsatishga, ularni tushuntirishga xam to'g'ri keladi.

Shunday qilib, tarbiyachilar bolalarga o'z-o'ziga xizmatni xar kuni mashq. qildirib, bir bolada mexnatning bu turdagi mustaqilligini tarkib toptiradilar.

Bolalar xayotini tashkil etishda topshiriqlar muxim o'rinni egallaydi. Bolalarga topshiriqni to'g'ri bajarishni o'rgatish uchun tarbiyachi bolalarga beradigan topshiriqlarni oldindan tanlab ajratadi. Kun davomida tarbiyachi bolalarga topshiradigan jamoa va ayrim bolalar uchun zarur xamda foydali bo'lgan ko'plab ishlar topiladi.

Topshiriqlarni tashkil etishda ularning mazmunini, mumkin bo'lgan bajarish usullarini, ularni kichkina bolalar uchun tushunarligini to'g'ri aniqlash kerak.

Kunning birinchi va ikkinchi yarmida tarbiyachi taxminan quyidagi topshiriqlarni beradi: xona o'simliklariga suv quyish, o'yinchoqlarni yig'ishtirish va joy-joyiga qo'yish, qurilish materiallarini to'g'rilash, taxlash, baliqchalarni oziqlantirish, loy va plasilindan narsalar yasash uchun taxtachalar tarqatish, non idishlarni qo'yib chiqish, sollarga qo'l sochiqlarni tarqatib, tokchalar changini artish va shu kabilar. Topshiriqlarni bajarishga u yo bir bolani, yo birgalikda ishlash uchun ikkita bolani jalb qiladi.

Bolalarga topshiriq berar ekan, tarbiyachi ularning tajribasini xisobga oladi. Ayrim bolalarga topshirilgan ishni yetarlicha tez bajarish lozimligini eslatish, ba'zan esa boladan uni vijdonan bajarishni talab qilish mumkin. Kichik guruxga qiyosan o'rta guruxda topshiriqlar mazmuni murakkablashadi: tarbiyachi ayrim bolalarga xona yig'ishtirishda, ya'ni, o'yinchoqlarni, qo'g'irchoq kiyimlarini yuvish va shu kabilarga qatnashishini topshirishi mumkin. Topshiriqlar bolalarga ertalabki soatlarda xam, kunning ikkinchi yarmida xam berilishi mumkin.

Bolalarning qo'llaridan keladigan mexnatlarini tashkil etishda o'rta guruxda, navbatchiliklarga katta o'rin beriladi. Yil boshida tarbiyachilar oshxona bo'yicha navbatchilarning ishini, yilning ikkinchi yarmidan esa mashg'ulotlarga tayyorlanishga oid ishlarini tashkil etadilar. Avval tarbiyachi bolalarga navbatchilarning vazifalarini tushuntiradi, ularni ish usullariga o'rgatadi (ayniqsa dasturxon yozishda), so'ngra tarbiyalanuvchilar xarakat izchilligi.

Navbatchilar ishini tashkil qilar ekan, tarbiyachi qolgan bolalarni uni baxolashga jalb qiladi. O'rta guruxda tarbiyachi vaqti-vaqtida ertalabki yoki kechki sayr davomida uchaskada xamkorlikdagi mexnatni uyushtiradi (kuzda to'kilgan barglar yig'ib olinadi, qortepa qilishda yordamlashadi). Jamoa mexnatda bolalarning aniq faoliyatlari va xar bir bola tomonidan mexnatning umumiy natijasini anglashi muhimdir.

Kun tartibida o'yinlarga ajratiladigan o'yinlar va ularning tutgan muxim o'rni, ularning bolalar haayotini tashkil etishdagi o'rni, har tomonlama tarbiyalash, bolalar jamoasini tarkib toptirishdagi o'rnidan kelib chiqadi. O'yinlarda bolalar faoliyat va muloqotga bo'lgan extiyojlarini oshdiradilar.

Bolalar xayotini to'g'ri tashkil etish uchun:

- 1) kun tartibida ko'rsatilgan vaqtda o'yinni avj oldirish uchun sharoit yaratish, bolalarning o'yin faoliyatlarini rag'batlantirish va rivojlantirish;
- 2) bolalarning o'yinlariga xilma-xil metod, usullarni qo'llanib, bolalarning yosh va yakka xususiyatlarini xisobga olib rahbarlik qilish kerak.

Bolalar ertalab bog'chaga kelishlari bilanoq o'yinni boshlaydilar.

Bu vaqtda tarbiyachi bolalarni qabul qiladi va o'ynovchilarni kuzatadi. Bu o'rinda maktabgacha bolalar o'z ehtiyojlarini mumkin qadar to'liq ifodalay oladigan o'yinlarga alohida e'tibor berish kerak. Chunki bolalarda hali murakkab o'zaro munosabatlar paydo bo'lmaydi. O'yin yakka tabiatiga ega bulishi mumkin. Yaxshi o'zlashtirilgan o'yinchokqar bilan ikki-uch bola birga o'ynaydi.

O'rta guruh tarbiyachisi ertalab kelgan bolalarda yuzaga keluvchi o'yin fikrini rivojlantiradi, bolalarni qiziqtirayotgan o'yinlar bilan, bu yerda bo'lajak mashg'ulotning tabiatini nazarda tutib, shug'ullanish imkonini beradi. Masalan, musiqa yoki jismoniy tarbiya mashg'ulotidan oldin qurilish materiallaridan iborat o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan tinch o'yinlar tavsiya etiladi.

Kichik gurux. bolalari qugirchoq, ayiqcha, quyonchalar bilan syujetli-rolli o'yinlarni boshlar ekanlar, ko'p xollarda syu-jetni rivojlantirishni, o'yinga yangi harakatlarni kiritishni bilmaydilar. Tarbiyachi bolalarning bu xususiyatlarini hisobga olib, o'yinlarda faol rolni o'zi bajaradi: o'yin harakatlarini ko'rsatadi, ularni tushuntiradi, aytadi, syu-jetning rivojlanishiga o'z munosabatini ifodali, ko'tarinki kayfiyatni namoyon qiladi. U bolalarda taqlidni keltirib chiqaradi, ular ham tarbiyachining ko'tarinki ruhini ilib olib, uyinga faolroq kirishadilar. Tarbiyachi va bolalar (3—4 bola bir bulib) ertak, hikoyalar syujetlarini o'ynaydilar.

Ma'lumki, kichkintoylar yakka-yakka o'ynaydilar, garchi ularda birga o'ynash yoki biror narsani birgalikda qilish extiyoji tug'ilsada, ular tasodifan birlashadilar. Bunday ehtiyojni o'stirish uchun tarbiyachi o'yin shartlarini yaratadi. Tarbiyaviy o'yinga ham bir bolani asta-sekin o'rgatish kerak. Masalan, ertalab, qabuldan keyingi vaqtda ikki-uch bolani hamkorlikdagi syujetli uyinga biriktirishning hamma sharoitlari buladi. O'yinda eng avvalo bolalarni muloqotga undovchi o'zaro aloq yuzaga keladi, bir-birlari o'rtasida munosabat o'rnatiladi. Uch-turt bola birlashtirilgan ekan, ular o'ynaydigan joy va o'yin anjomlari ularning birikishlariga yordam berishi, hamkorlikdagi o'yin bolalarga ko'nikish, quvonch baxsh etishi nazarda tutilishi lozim. Tarbiyachi bolalarda yaxshi umumiy o'yindan yuzaga keluvchi hamkorlik hissiyotini qayd etadi, ma'qullaydi va shu yo'sinda bolalardagi iliq o'zaro munosabatlarni mustahkamlaydi.

Kun davomida tarbiyachi o'yin vaziyatini yaratadi: didaktik o'yinchoqlar va mayda qurilish materiallarini bu maqsadlarda alohida ajratilgan sollarga joylashtiriladi, syujetli-rolli o'yinlar uchun o'yinchoqlarni, yirik qurish-yasash o'yinchoqlarni polga qo'yadi. Nonushta va mashg'ulot oralig'idagi qisqa vaqt bo'laklarida u harakatli yoki didaktik o'yinlarni tashkil etadi. harakatli uyinlar tatqiqod tusida bo'ladi: bolalar o'zlariga tanish jonivorlarning bir-ikki

harakatini qayta ifodalab beradilar. Tarbiyachi bolalarga harakatni bir vaqda ishoraga ko'ra bajarishni odatlantiradi.

Sayr vaqtida pedagog syujetli-rolli va harakatli o'yinlarni uyushtirib, bolalarga bu o'yin turlarini farqlashni va ularni mustahkam tashkil etishni asta-sekin o'rgatib boradi.

Kunduzgi uyqu va kech-tushki ovqatdan keyingi vaqt syujetli rolli va qurilish o'yinlarini tashkil etish uchun juda qulaydir. Bolalar tarbiyachi rahbarligi osida qurilmalar qurishi va ularni syujetli o'yinlar uchun moslashtirishni o'rganadilar.

Yilning iliq davrlarida uchaskada suv va qum bilan o'yinlar tashkil etiladi. Bu maqsadlarda damlab shishirilgan hovuzlar va plasmassa o'yinchoqlardan foydalaniladi, chetlari ko'tarilgan xamda skameykali qum qutildan foydalaniladi. Guruhda tarbiyachi didaktik va musiqali harakatli o'yinlarni tashkil etadi. Tarbiyachi matryoshka,, kesma rasmlari, sharli didaktik o'yinlar taklif qiladi. Aynan tarbiyachi piramidadan xalqalarni olish, o'ngra xalqalarni piramidaga bir tekis bo'lib chiqadigan qilib qadashni taklif qiladi.

Yil oxiriga kelib, o'rta guruhda do'stona o'zaro munosabatlarni o'zlashtirishga katta e'tibor beriladigan << Bolalar bo'g'chasi», «Magazin» kabi jamoa syujetli-rolli o'yinlar uyushtiriladi.

« Bolalar bog'chasi ta'lim-tarbiya dasturiga muvofiq tarbiyachi nutqni rivojlantirish, bolalarni atrofdagi hayot bilan tanishtirish, oddiy matematik tasavvurlarni, tasviriyl faoliyat va qurish-yasash, harakat faoliyati ko'nikma hamda malakalarni tarkib toptirish maqsadlarida har xil turdagi mashg'ulotlarni o'tkazadi. Buning uchun guruhlarda tegishli muxit yaratiladi, qo'llanmalar tayyorlanadi.

Ikkinchi kichik yosh guruxida birinchi umumiy guruh mashg'uloti ertalab soat 9.20 daqiqadan soat 9.35 daqiqagacha, ikkinchisi soat 16.15 daqiqadan 16.30 daqiqagacha o'tkaziladi. Agarda mo'ljallangan mashg'ulot diqqat, xotirani zo'rikdiradigan, harakatsiz turib tinglash lozim bo'lsa, mashg'ulotdan oldingisi harakatli o'yin bo'lishi kerak.

O'yindan mashg'ulotga o'tishni tarbiyachi uyushtiradi. Bolalarni faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'z vaqtida va osoyishta o'tkazish uchun bolalar o'ynayotgan chog'ida ayrim tarbiyalanuvchilarni jalb qilib, mashg'ulot boshlanishiga hamma narsani tayyorlab qo'yish kerak. Stol va sullarni qo'yib, bolalar qo'llanmalar, kurgazmali materiallarni qanday qo'yib chiqqanlarini tekshirib, tarbiyachi o'ynayotgan bolalarga iltifotli murojaat qiladi, «Yendi, bolalar hammamiz mashg'ulot o'tamiz»—, Olya x,am, Alyosha ham, Anton ham». Tarbiyalanuvchilar oldiga maqsadni qo'ygan pedagog, o'z xatti-xarakati bilan ularni osoyishta joy-joylariga o'tirish va mashg'ulotga tayyorlanishga undaydi. Bolalar agarda qulay o'tirgan, barchata kerakli joy ajratilgan bo'lsa, birgalikda, bir-birlariga xalaqit bermay ishg'a kirishadilar.

Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalarning harakat va xilma-xil ko'tarinki xisssiyotlarga extiyojlari kattaligini hisobga olib, ta'limning o'yin namoyish qilish, amaliy metodlaridan foydalanadi. U qo'yilgan vazifani bajarish uchun har (5ir bolaning o'z diqqatini mashg'ulot mazmuniga qaratishga, o'z ishini oxiriga yetkazishga erishishga harakat qiladi. Bolalar mashg'ulotlarda tarbiyachilarni tinglashni, savollarini tushunishni, so'ralganda javob berishni, umumiy ishd'a qatnashishni o'rganadilar.

Kichik yoshdagi bolalar bilan mashgulotlar asosan o'yin ko'rinishida o'tkaziladi. Bu xolatda ta'lim vazifalarini tarbiyachi to'g'ridan-to'g'ri qo'ymaydi, balki ular o'yin davomida (pedagog quyonchaga o'yinchoqlarni ko'rsatishni va ularning nomini aytishni taklif qiladi) kelib chiqadi. Ta'lim vazifasi o'yin harakatlari jarayonida bajariladi.

O'rta guruHda kichik guruxdan farq qilib, ertalab ikkita mashg'ulot o'tkaziladi: birinchisining doimiyligi 20 daqiqa, ikkinchisining 15 daqiqa. Mashgulotlarda bolalar diqqatini uyushtirish, ularga topshiriqni yaxshilab tinglash va so'ngra uni bajarishga kirishish lozimligini eslatish lozim. Mashg'ulot jarayonida bolalarga boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishlari, bir-birlariga xalaqit bermasliklari, navbati bilan yoki talab qqilinsa xor bo'lib gapirishlari, shuningdek butun guruxga berilgan savollarga bittadan javob berishlarida yordam berish lozim.

Birinchi mashg'ulotdan so'ng qisqa tanaffus tavsiya etiladi, bu vaqtda tarbiyachi harakatli o'yinlarni uyushtiradi yoki bolalarga bir necha jismoniy mashqlarni bajarishni topshiradi. Tanaffusdan so'ng ikkinchi mashgulot boshlanadi. Bu mashg'ulot faoliyat turiga ko'ra birinchisidan farqlanishi lozim.

Ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlarda mashg'ulotlar barcha bolalar bilan bir vaqtda o'tkaziladi: bolalarni ikkinchi kichik guruhlariga ajratish kichik guruxda ishning dastlabki

oylarida va bolalarning asosiy ko'pchiligi bolalar muassasasiga shu yildan boshlab qatnayotgan hamda birgalikda shug'ullanish tajribasiga ega bo'lmagan hollarda maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyachining bolalar bilan bolalarning o'zaro muloqotlarining ijobiy tabiati bolani ma'naviy rivojlantirish va uni tengqurlari bilan to'g'ri o'zaro munosabatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Ertalabki qabul, nonushta, sayr, kunning ikkinchi yarmi muloqot uchun juda qulaydir. Bu vaqtda tarbiyachining bolalar bilan muloqotining asosiy vazifasi eng avvalo tashkiliydir: tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qiladi va ularning xatti-harakatlarini boshqaradi. Muloqotning ushbu tashkiliy vazifasi mashg'ulotlarda ham namoyon bo'ladi. Ammo pedagogning bolalar bilan muloqoti faqat tashkiliy vazifa bilangina cheklanib qolmaydi: kichik va o'rta guruhlar bolalari doimo pedagogga o'sha xilma-xil savollariga va murojaatlariga javob berib, guruxdagi xatti-harakat qoidalarini, tengqurlari bilan muloqot usullarini tushuntiradi, ularning xatti-harakatlarini baxolaydi, qiynalib qolganlarida qumaklashadi.

Katta yoshli kishilar tomonidan qilingan murojaatdagi xayrixoxlik, g'amxo'rlik, achinish, yordamga xozirlik bolalarning bir-birlari bilan muloqotlarida taqlid namunasi xizmatini o'taydi.

Tarbiyachining bolalar bilan muloqoti va bolalarning o'zaro muloqotlari faoliyatning barcha turlarida sodir bo'lishi tufayli, bunda quvvat oxangning saqlanishi muximdir.

Avvaliga bolalar o'rtasidagi muloqot negatoy, masalan, o'yinchoq bahonasida yuzaga keladi. Bolalarda umumiy maqsad, hamkorlikdagi faoliyat paydo bo'lganidan keyin, ularda kelishib olish zaruriyati yuzaga keladi. Tarbiyachi bolalar muloqotidagi xayrixoxlik, muloyimlikni qo'llab-quvvatlaydi, birgalikda o'ynash qanday yaxshiligiga e'tiborni qaratadi. Aynan kichik guruxda oiladan bog'chaga birinchi bor kelayotgan bolalar muloqotda xudbinlikka moyil bo'ladilar, o'zlariga yoqqan o'yinchoqni birovga bergilari kelmaydi, faqat o'zlarigagina e'tibor berilishini talab qiladilar. Tarbiyachi asta-sekin barcha bolalarni xushmuomala bo'lishga, bir-birlariga xayrixox bo'lishga o'rgatadi.

O'rta guruxda katta yoshlilar va tengqurlar madaniy muloqot ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish davom ettiriladi. Bolalarga katta yoshlilarga iltifotli munosabatda bo'lish, hamkorlikdagi o'yin-mashg'ulotda, mehnatda bir-birlariga izin berish ko'nikmasi singdiriladi. Tarbiyachi bolalarda muloqot davomida ijobiy tajriba jamg'arilishini turli tarbiyaviy vositalar ko'magida rag'batlantiradi. Masalan, tarbiyachi bolalar e'tiborini xayrixoxlik va g'amxo'rlikni namoyish qilish zarur bo'lgan vaziyatlarga jalb qiladi, ular oldiga muloqot jarayonida yechimni o'zlari qabul qiladigan (o'yin, mehnat boshlanishidan oldin) sharoitlarni ko'ndalang qilib quyadi. O'rta guruh bolalarida o'zaro mayl kuzatiladi. Bolalar buni do'stlik deb hisoblaydilar. Muloqot shaxslararo muloqotga aylanib boradi. Bunday muloqotda bolalarning o'zlarini o'zlari uyushtirishlari ortib boradi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR.

1. Ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar to'g'risida umumiy tushunchangizni bildiring?
2. Bog'chada ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar xonalarining jihozlanishi to'g'risida nimalarni bilib oldingiz?
3. Bolalar kun tartibini tashkil etishda nimalarga asosiy e'tibor berish lozim?
4. Bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish va xo'jalik turmush mehnat ko'nikmalarini tarbiyalash qanday olib boriladi?
5. O'yin va mashg'ulotlarning bolalar hayotini tashkil etishdagi o'rni to'g'risida fikringiz?

14-MAVZU: Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini barkamol qilib tarbiyalash 2-SOAT

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar hayotini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va ta'limiy – tarbiyaviy ishlarni tashkil etish haqida bilimlarni hosil qilish.

Asosiy savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining umumiy masalalari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanayotgan xonaning jihozlanishi va kun tartibi.

3. O'yin va uning bola rivojlanishidagi o'rni.

Tayanch so'zlar va iboralar: guruh jihozlari, kun tartibi, bolalarning uyqusi, o'z-o'ziga xizmat, mehnat, ko'nikma, o'yin faoliyati, mashg'ulotlar, muloqot.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Isroilova M.N. "Bolalar va o'smirlar gigiyenasi". Tibbiyot nashri., 1994
2. V. I. Loginova va P.G. Samorukovalar tahriri ostida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti. 1992 yil.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
6. «Bolalar bog'chasida ta'lim dasturi»- Toshkent. 1993, 1999, 2000y
7. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
8. Sh.Shodmonova, «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» Toshkent-2003

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar (katta va tayyorlov guruxlari) hayotini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.

Katta va tayyorlov guruhlari bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish bolalar hayoti, faoliyati va munosabatlariga tarbiyaviy ta'sirning butun majmuidan maqsadga muvofiq hamda muntazam tarzda foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bolalar bog'chasiga bir necha yildan beri qatnayotgan olti yoshli bolalar katta guruhlarda tarbiyalanadi. Ular guruxdagi xatti-harakat qoidalarni bilishadi, tarbiyachilarga ishonch bilan qarashadi, tengqurlari bilan birgalikda o'ynashni yoqtirishadi. Bu yoshdagi bolalar kundalik turmush tadbirlariga mustaqil kirishishiga, tartibli kiyinish, yuvinish, va ovqatlanishga, bir-birlariga yordam berishga qodirdirlar. Ammo bolalar guruhidagi jamoa, uyushgan xatti-harakatlari uncha shakllanmagan bo'ladi va har bir bolaning xatti-harakati yetarlicha barqaror emas.

Bolalarning guruxdagi hayotlari, faoliyatlari va o'zaro munosabatlarini tashkil etishdagi yetakchi o'rin xanuzgacha tarbiyachiga tegishlidir. U bolalarning o'sgan mustaqilliklari va ko'nikmalariga tayanib kundalik tarbiyaviy ishlar mazmuni hamda uni tashkil etish shakllarini rivojlantiradi. Guruxda osoyishtalik va xayrixoxlik muhitini yaratishini nazarda tutadi.

Tayyorlov guruhida olti yoshdan yetti yoshgacha bolalar tarbiyalanadi. Ular jamoa turmush tarziga ko'nikkan bo'ladi, kun tartibini biladilar, nima bilan shug'ullanishlari, qanday o'yinlar o'ynashlarini tasavvur qila oladilar. Har birining do'sti bor, birga o'ynash, mehnat qilish, shug'ullanishni yaxshi ko'rishadi. Ular gigiyenik va madaniy malakalarni yaxshi egallab olganlar, tarbiyachi talablarini bajarishda uyushganlik va intizomlilikni namoyon qiladilar, o'yin, mashg'ulot hamda faoliyatning boshq turlarida o'z-o'zini uyushtirish ko'nikmasiga egadirlar.

Tarbiyachilar bolalar faoliyati va o'zaro munosabatlarini tarbiyachi tomonidan uyushtiriladigan tadbirlar bolalarning mustaqil o'yin va mashg'ulotlari bilan o'yin birikadigan qilib rivojlantiriladi.

Tarbiyachining bolalar guruhidagi hayotlarini tashkil etish ishining xususiyatini bolalarni maktabga tayyorlashning yakunlanishi belgilaydi.

Guruh jihozlari . Katta guruh bolalarining guruh xonalarini rangi ham, mebellarning tanlanishi, joylashtirilishi, interyerning bezalishi, har xil faoliyat turlari uchun asboblarni xam farqlab turadi. Katta guruh bolalarining guruh xonasida mashg'ulotlar zonasini ajratish va jixozlash lozim. Bu maqsadda mebel komplekti; tarbiyachi stoli, kombinatsiya qilingan taxta, ekran, shkafdan foydalaniladi. Mustaqil faoliyat uchun bolalar material va qo'llanmalarni bemalol olishlari kerak: bu o'yinchoqli qutilar quyilgan uzun stol, namoyish shkaf, tokchalar va shu kabilar bo'lishi mumkin. Guruh xonasida tabiat burchagi, qo'l mehnati, kitoblar ko'rish, mustaqil musiqa va tasviriy faoliyat uchun burchaklar ajratilishi lozim. Stollar, bo'linmali shkaf, o'yinchoqlar, o'quv qullanmalari, bolalar o'quv va o'yin materiallarini mustaqil oladigan va joyiga qo'yadigan qilibgina emas, balki zaruriyat tug'ilganda uskunalarining bir qismini surish hamda guruh xonasining ma'lum qismini qurilish materiallari yoki boshqa o'yinchoqlar, qo'llanmalar bilan bo'ladigan birgalikdagi o'yinlar uchun bo'shatish imkonini beradigan qilib joylashtiriladi.

Uchastkada xilma-xil o'yinlar va sport ko'ngil ochishlari uchun joy ajratiladi, gulxona va ekinzor qilinadi, bu yerda bolalar sabzavot va gullarni mustaqil o'stiradilar.

Katta va tayyorlov guruxdarida o'rta guruxga nisbatan ayrim rejim jarayonlarining davomiyligi qisqartiriladi va ayrimlari uzaytiriladi. Masalan, mashg'ulotga (tanaffusi bilan barcha katta guruxda) 1 soat 50 daqiqa, tayyorlov guruhida esa 2 soat 5 daqiqa ajratiladi. Sayrdan qaytish va tushlikka tayyorlanish vaqti qisqartiriladi, chunki bolalar endi ilgaridan tezroq yechinadilar. Kunduzgi uyqu 20—25 daqiqaga qisqartiriladi (u 1 soat 45 davom etadi). Kech-tushki ovqatga tayyorlanish 10 daqiqaga qisqarib, kech-tushlikdan keyingi o'yin yoki mehnat davomiyligi oshiriladi.

Yilning iliq davrida barcha rejim jarayonlari va ularning izchilligi asosan saqlanadi. Ammo ertalabki ikki mashg'ulot o'rniga bitta o'tkaziladi va sayrning davomiyligi 20 daqiqa ko'paytirilib, bu vaqtda o'yin, kuzatishlardan tashqari, havo, quyosh muolajalari o'tkaziladi (suv muolajasi — tushlikdan oldin buladi). Kunduzgi uyqu 15 daqiqa uzaytiriladi, tungi uyku 15 daqiqa kechroq boshlanadi.

Nonushta, tushlik, kech-tushki ovqatga tayyorlanishda katta yoshlilarga navbatchilar ko'mak beradilar. Mashg'ulotlarga tayyorlanish uchun ajratiladigan qisqa vaqt davomida navbatchilar o'rtoqlarini yordamga jalb qilib, tarbiyachi nazorati ostida stollar, stullarni qo'yib chiqadilar, material va qo'llanmalarni tarqatadilar. Mashg'ulotlardan so'ng navbatchilar qo'llanmalarni yig'ishtiradilar. Stollar va stullarni joyiga surib qo'yadilar. Bu vaqtda qolganlar kiyinadilar.

Bolalar hayotini tashkil etar ekan, tarbiyachi kun tartibi haqida eslatadi xolos. Tarbiyachi bo'lajak faoliyati maqsadini tushuntirganidan so'ng bolalar uni bajarishga asosan o'zlari kirishadilar. Ular kerakli bo'lgan barcha narsani o'zlari bajonidil va tez bajarishga harakat qiladilar. Ammo ayrimlari berilib ketib, ushlanib qolishlari, chalg'ishlari mumkin, bunday xolatlarni tarbiyachi navbatdagi jarayonga utish lozimligini yana bir marta eslatishi mumkin. «Sereja, kiyinib, sayrga chiqadigan vaqt bo'ldi». Tarbiyachining ovozidan bola bo'lajak faoliyatning zarurligini anglashi lozim.

Bevosita ko'rsatma berish va eslatish kabi usullardan tashqari bo'lajak faoliyatni o'yin asosi ham kerak.

O'yin, uning bolalar hayotini tashkil etishdagi o'rni. O'yin katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning yetakchi faoliyati xisoblanib, bola hayotini tashkil etishda katta o'rin egallaydi. Tarbiyalanuvchilar o'yin g'oyasini aniqlash, syujetini tanlash va rollarni taqsimlash ko'nikmasini namoyon qilib, o'yinni o'zlari tashkil etadilar.

Ammo ba'zan mustaqil o'yinlar jamoatchilik sifatlarini rivojlantirishni ta'minlay olmaydi. Bolalar o'yinlariga rahbarlik qilishda asosiy o'rin o'yinlarning tarbiyaviy ta'limiy samaradorligini kuchaytirish imkonini beradigan vosita hamda metodlarni rejalashtiradigan tarbiyachiga taalluqlidir.

O'yinlardan samarali foydalanish maqsadlarida:

- 1) bolalarning o'yin faoliyatlari uchun kun tartibiga ko'ra ajratilgan vaqtdan, o'yinni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib tuliq foydalanish;
- 2) o'yinga rahbarlik qilishda bolalarni har tomonlama rivojlantirishni va o'yinlarning har xil turini mustaqil tashkil etish ko'nikmasini shakllantirishni amalga oshirish;
- 3) o'yinlarni bolalarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olib tashkil etish;
- 4) o'yindan bolalar hayotini tashkil etish shaklida foydalanib, bolalarning o'yindagi hayotlari qiziqarli, mazmunli bo'lishiga, o'yinda xatti-harakatning jamoa shaklining mustahkamlanishiga erishish. Bolalarni o'yinda birlashtirishning xilma-xil ko'rinishlaridan foydalanib guruhlar, kichik guruhlar, hamkorlikdagi faoliyatni mustaqil rivojlantiruvchi o'yin jamoalarini yaratish;
- 5) o'yinlarning bolalarning jushqin faoliyatlari hamda o'yin anjomlarini tayyorlab olish ko'nikmalarini rivojlantirishiga erishishga harakat qilinadi.

Kun tartibida syujetli-rolli o'yinlar, qurilish materiallari bilan o'yinlar, harakatli va didaktik o'yinlar va o'yin-insseniroykalar uchun vaqt ajratiladi.

Ko'pchilik bolalar ertalab bog'chaga kelar ekanlar, urtoqlari bilan o'ynashni afzal ko'radilar. Bunday choqda pedagog tarbiyalanuvchilarga o'zlarini qiziqtirgan o'yinlar bilan shug'ullanish imkonini yaratishga intiladi. u o'yinning yanada rivojlanishi uchun moxirlik bilan yo'l-yo'riq beradi. Nonushtadan so'ng mashg'ulotlar bilan birikib ketadigan o'yinlar tashkil etiladi. So'ngra bolalar mashg'ulotlar orasida 10—12 daqiqa o'ynaydilar. Bu vaqtda ular to'p bilan faol harakatlarni, xorovodli o'yinlarni afzal ko'rib bajaradilar.

Sayr vaqtida tanaffusi bilan bir yoki ikkita harakatli o'yin o'tkaziladi. Ularda barcha bolalar qatnashadilar. Avval tarbiyachi ular bilan birga o'ynaydi. Agar bolalar o'yin qoidasini bilsalar, ular mustaqil o'ynaydilar. Umumiy o'yinning davomiyligi 6—10 daqiqa. yilning issiq kunlarida davomiyligi 10—30 daqiqadan iborat sport elementlari bo'lgan harakatli o'yinlar o'ynaladi. Sayrda shuningdek ertak, hikoyalar syujetlarida ijodiy o'yinlar o'ynaladi. Yilning iliq davrida ochiq havoda o'yin-inssenirovka va ko'rilish o'yinlarini ham o'tkazish mumkin. Bunda tarbiyachi bolalarning o'yindagi mustaqilliklariga, o'zaro kelisha olish qobiliyatlari va o'yin uchun guruhlariga birlashish ko'nikmalariga tayanadi. Kunduzgi uyqudan keyingi vaqt xilma-xil o'yinlar yoki mustaqil faoliyatga: badiiy, qurish-yasash va shu kabilarga keng yo'l berish uchun juda qulaydir. Ba'zan 40—50 daqiqa davom etadigan rolli va qurilish o'yinlarida bir-biriga qiziqish bildiradigan o'yinda o'zlariga xos o'yin hayoti bilan yashay oladigan, o'z munosabatlarini uyushtira oladigan 5—6 yoki 12—15 bola birlashadi.

Tarbiyachini kishilarning mehnat faoliyatini aks ettiruvchi o'yinlar «qurilish», «kutubxona», «maktab» va shu kabi o'yinlarni tashkil etishdagi o'rni muhimdir. U bolalarga «kelishuvda» yordam beradi, ular bilan birga har bir qatnashchining o'rnini nazarda tutib, o'yin mazmuni va rejasini muhokama qiladi, bolalari bilan birgalikda turli o'yin materialini tanlaydi, o'zaro munosabatlarda jamoatchilik sifatlarini qullab-quvvatlaydi, yuzaga kelgan baxslarni bolalar o'zlari rostuylik bilan hal etishlarini kuzatadi. Hamkorlikdagi o'yinda bolalar jamoadagi hayot uchun zarur o'zaro munosabatlar tajribasini o'rganadilar, oddiy axloqiy normalarni egallaydilar. Tarbiyachi o'yinlarda qatnashar ekan, rollarni, o'yin qoidasini bajarib, o'yinchoqlar va narsalar o'rniga o'rin bosuvchilardan foydalanib, syujet tuzilishining namunasini ko'rsatadi. U bevosita o'yinda qatnashmasligi, balki qanday qilib yaxshiroq tuzish, qanday uyinchoqlarni olish (yoki yangitdan yasash), qanday qilib inoq o'ynash haqida maslahatlar berishi mumkin. Bolalarning birga o'ynovchi jamoalarini shakllantirishga yordam berar ekan, tarbiyachi bolalarni yuksak ijtimoiy xatti-harakat normalarini namoyish qilishga, uchraydigan vaziyatlarni yaratishga yordam berishi kerak. Bunda syujetga doir bolalarning o'zaro munosabatlarinigina emas, balki o'yin jarayoniga ta'sir etadigan real munosabatlarni ham yaxshi bilish talab etiladi. Ko'pincha bolalar tajribalarining yetishmasligi tufayli, ayniqsa o'yin boshida, rollarni taqsimlashda bir-birlariga noxaq munosabatda buladilar. Ularga baxslarni xaqqo'ylik bilan hal etishda yordam berib, tarbiyachi sodir bo'layotganlarni faqat jamoa manfaatlari nuqtai-nazaridan baxolash lozimligini ta'kidlab, ularga bu ko'nikmani o'rgatadi.

5—7 yoshli bolalar katta yoshlilar mehnatiga zo'r qiziqishni, biror mehnat jarayonini bajarishda kattalar bilan birga qatnashish yoki biror narsani mustaqil bajarish ishtiyoqini namoyon qiladilar. Ularning faoliyatlari kichik maktab yoshdagilarga nisbatan anchagina maqsadga yo'naltirilgan, e'tiborlari ham maqsadga qaratilgandir. Bolalarda mehnat malakalari, mehnat qilish odatini shakllantirish, har bir ishni oxiriga yetkazish ko'nikmasini tarbiyalash pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etib, quyidagi qoidalarga rioya qilingandagina:

1. Katta guruhlarda o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish mehnati, xo'jalik-turmush mehnati, tabiatdagi mehnat, shuningdek, qo'l mehnatini tashkil etish.

2. Kun tartibiga kura «Bolalar bog'chasi ta'lim-tarbiya dasturi» asosida mehnat uchun nazarda tutilgan vaqtdan to'liq foydalanish. Bolalarni har xil sport turlariga muntazam jalb qilish.

3. Mehnatning har xil turlari tashkil etilar ekan, bolalar faoliyatining yakka va jamoa turlaridan foydalanish.

4. Bolalar mehnatiga rahbarlik metod va usullarini ta'lim-tarbiya vazifalariga muvofiq tanlash.

5. Xilma-xil mehnat turlarini tashkil etishda, ularni bolalar faoliyatining boshq turlari bilan oqilona biriktirish orqaligina amalga oshirish mumkin.

Har kuni kun tartibida guruxdagi barcha bolalar uchun va har bir bola uchun yakka mehnatni nazarda tutish kerak. Bolalar to'g'ri tashkil etilgan mehnatdan katta quvonchni xis qiladilar.

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning kun tartibida o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish mehnati sezilarli o'rinni egallaydi. Tarbiyachilar mustaqil yuvinish, kiyinish ko'nikmasini shakllantirishni davom ettiradilar, ular bolalardan yuvinish, yechinish, ovqatlanish tartibini . aniq bilishni, ularni o'z vaqtida va aniq bajarishlarini talab qiladilar. Tarbiyachi bu

shakllangan ko'nikmalardan bolalarning o'zaro yordamlarini tashkil etish va axloqiy normalarni tarbiyalashda foydalanadi.

O'ziga-o'zi xizmatni yaxshi tashkil etish shartlaridan biri — kun tartibi jarayonlarini izchil va bosqichma-bosqich o'tkazish va bunda barcha bolalarning ishtirok etishidir. Bolalar o'zlariga qo'yilayotgan talablarni tushunishlari va uz burchlarini muntazam tarzda bajarishlari kerak. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'ziga-o'zi xizmatlarini tashkil etishda guruh tarbiyachisi bolalardagi malakalarni xisobga olib, shunga muvofiq harakat usulinigina eslatadi va shu orqali ularning e'tiborini jalb. qiladi. Tarbiyachi shuningdek bolalarning o'ziga-o'zi xizmat kursatishiga doir ish sifatlarini hisobga olib boradi, uni baxolaydi, nima yaxshi chiqmayotgan bo'lsa, tahlil qiladi.

Katta va tayyorlov guruhidagi muhim vazifa nonushtagacha tayyorlanish, nonushtadan so'ng, shuningdek tushli va kech-tushki ovqatga tayyorlanish vaqtida navbatchilar ishini aniq tashkil etishdan iborat. Navbatchilik qilish ko'nikmasini shakllantirish ishi davom ettiriladi, chunki navbatchilarning vazifalari kengayib boradi. Navbatchilarni tayinlashda, bu ishda tajribaga ega bo'lganlar qatori yangi bolalarni tayinlash ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Yil boshida tarbiyachi navbatchilarni o'z vazifalari bilan tanishtiradi, zaruriyat bo'lganda ayrim harakatlarni ko'rsatadi, topshirilgan ish uchun jamoa oldidagi mas'uliyatni ta'kidlaydi (u vaqtida kelish, harakatlar izchilligi, hamma narsani bolalar to'planishiga tayyorlash, asbob-anjomlardan to'g'ri foydalanish va shu kabilar).

Navbatchilarning tabiat burchagidagi mehnati ham har kuni tashkil etiladi. Tabiat burchagida bo'ladigan navbatchilar ertalab baliqchalarni boqadilar, gullarga suv quyadilar, yerlarni yumshatadilar, qushlar qafaslarini tozalashda yordam beradilar, vaqt-vaqida ko'at o'tkaishda ham yordam beradilar.

Tarbiyachi va bolalar navbatchilar ishini nazorat qiladilar hamda ularni baxolaydilar.

Oshaxona bo'yicha navbatchilar nonushtaga, so'ngra tushlik va kech-tushki ovqatga tayyorlanishda qatnashadilar. Mashg'ulotlarda navbatchi bo'lganlar material va qo'llanmalarni tayyorlaydilar, mashg'ulotdan so'ng ularni joy- joyiga olib qo'yadilar.

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnati orasida alohida o'rinni guruh xonalarida doimo tozalik va tartibni saqlash ishi egallashi lozim. Tarbiyachi bolalardan qaysi biridir kiyimini shkafga tartibli qo'ymaganliklarini ko'rib, masalan, shapka qayerda turishi kerakligini yoki koftochkaning yengi nima uchun chiqarilmaganligini so'raydi. Vaqti- vaqtida bolalar tarbiyachi topshirig'iga ko'ra qo'llanmalar va o'yinchoqlarni artadilar, yuvadilar, guruh xonasini umumiy yig'ishtirishda qatnashadilar. Xo'jalik turmush mehnatini yaxshi tashkil etishda bolalarning yonma- yon ishlab, umumiy natijani tasavvur qilishlari muhimdir. Ba'zan umumiy ishni bajarish uchun tarbiyachi vazifani bolalar o'rtasida har bir bolaning tajribasiga ko'ra taqsimlaydi va u ishni oxorigacha bajaradi. Mehnat vazifalarini uyushtirishda tashabbus va mustaqillikni namoyon qilganlari rag'batlantiriladi. Tayyorlov guruhiga tarbiyachi bolalar mehnatini tashkil etishning yana bir ko'rinishi – hamkorligidagi mehnatdan foydalanadi. Bu holatda bolalardan bittasi ishning oz qismini bajaradi, ikkinchisi uni davom ettiradi. Qo'l mehnati ko'pincha mashg'ulotlarga barcha bolalar uchun bir vaqtda ulashiladi: o'yinchoqlar, qog'oz, yog'och, tabiiy materiallardan narsalarni bolalar butun guruh bo'lib yoki kichik guruhlarga bo'linib bajaradilar. Bu maqsadda alohida joy jixozlanib, u yerga material va asboblarni joylashtiriladi. Yilning issiq vaqtlaridagi sayrlarda yerni chopish va yumshatish, o'tloq qilish, hosilni yig'ishtirish bo'yicha birgalikdagi ish tashkil etiladi. Bu holatda mehnatni tashkil etishning asosiy shakli guruh (3-4 bola_ yoki zveno bo'lib bajarilasigan davomli topshiriqlar bo'ladi.

Shunday qilib, bolalar mehnatini to'g'ri tashkil etish har bir bolani har xil mehnat turlariga muntazam jalb qilishni nazarda tutadi, bunda ishning jamoa va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi, ish xajmi nazarda tutuladi, uskunalar to'g'ri tanlanadi.

Mashg'ulotlar, bolalar hayotini tashkil etishda ularning o'rni. Katta va tayyorlov guruhlarning kun tartibida mashg'ulotlar vaqti uzaytiriladi, 5-7 yoshli bolalarda bilish, qiziqish ehtiyojlari kengayib, ular o'quv faoliyatining yetakchi sabablaridan biriga aylanib boradi. Ularda boshlang'ich bilib, ko'nikma va malakalarni egallash imkoniyatlari, birgalikdagi mashg'ulotlarga intilish kuchayib boradi. Ular katta yoshlilar hikoyalarini bajonidil tinglaydilar, ko'pgina savollar beradilar, qiziquvchanlikni namoyon qiladilar. Ayrim bolalarda mashg'ulotlarning ayrim turlari: rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasash, qurish-

yasashga alohida qiziqish paydo bo'ladi. Bu ishdagi bolalar tabiat xodisalari, ijtimoiy hayot haqidagi ma'lum bilimlar doirasini egallagan, o'quv faoliyatining davomiyligini ko'paytirish imkonini beradi.

Katta guruh tarbiyachilari oldida quyidagi vazifalar turadi:

mashg'ulotni kun tartibiga ko'ra boshlash va yakunlash, ularga ajratilgan vaqtdan samarali foydalanish;

<<bolalar bog'chasi ta'lim- tarbiya dasturi>>ga amal qilib, barcha bo'limlarga doir mashg'ulotlarni ularning mazmun, usul va metodlarini rejalashtirib, hamma zarur uskuna va qo'llanmalar bilan ta'minlab o'tkazish.

Kuz- qish davrida katta guruhda har kuni ertalab uchta mashg'ulot va ikita mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotlarning davomiyligi 10 daqiqa tanaffus bilan 30 daqiqadir. Tayyorlov guruhida har kuni ertalab 10 daqiqa tanaffusi bilan 35 daqiqalik uchta mashg'ulot o'tkaziladi.

Nonushtadan so'ng mashg'ulotlarga tayyorlanishga qisqa vaqt ajratiladi. Tarbiyachi mavbatchilar ko'magida stol va stullarni qo'yib chiqadi, so'ngra navbatchilar har bir stolga zarur materiallarni qo'yib chiqadilar. Tarbiyachi navbatchilar ishini kuzatib, ularning tirishqoqliklarini qayd etadi. Hamma narsa joyida ekanligiga ishonch hosil qilgan tarbiyachi <<Navbatchilar mashg'ulot uchun hamma narsani xozirlab bo'ldilar, endi mashg'ulotni boshlaymiz>> deydi.

Ish ana shunday uyushtirilganda mashg'ulotga o'tish osoyishta va uyushgan holda bo'ladi:

Mo'ljallangan vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash uchun tarbiyachi mashg'ulot maqsadni aniqlashi va bolalar topshiriqni uddalab olishlariga ishonch xosil qilish kerak. Ishni bajarish jarayonida u bolalarning faol va muvaffaqiyatli faoliyatlari uchun sharoit yaratadi, zarur sur'atni qo'llab- quvvatlaydi, qiyinchilikni bartaraf etish va natijaga erishishda yordam beradi.

Mashg'ulotda tarbiyachining yetakchilik roli rejalashtirish, mazmun va metodlarni to'g'ri tanlash, qo'llanma va mashg'ulotlarni puxta tayyorlash orqali ta'minlanadi. Mashg'ulotlarda bolalarning uyushtirishning xilma- xil shakllaridan foydalaniladi. Bir holatlarda maktabgacha tarbiya yoshidagilar bir turli yakka- yakka topshiriqlarni bajaradilar, boshqa holatda – topshiriq bolalarning kichik guruhiga yoki butun guruhiga beriladi. Uyushtirishning har xil shakllari stollarning ma'lum tartibda qo'yilishi va bolalarni ularning bilish hamda ko'nikmalarini hisobga olib taqsimlanishini nazarda tutadi.

Topshiriqni jamoa bo'lib bajarishni tashkil etishda bolalarga , masalan, applikasiya ishiga doir hamkorlik, o'zaro yordam, o'zaro javobgarlik o'rgatiladi. Mashg'ulotlarda bolalarni uyushtirishning turli metodlaridan foydalaniladi. Mashqlarni bajarish tartibi bir vaqtda yoki navbati bilan bajariladigan bo'lishi mumkin.

O'zkazilayotgan mashg'ulotlar bolalarda topshiriqni aniq, tarbiyachi bergan ko'rsatmalarga muvofiq bajarish, ish vaqtida foydalaniladigan qo'llanma va materiallarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish odatini shakllantiradi.

Muloqot, uning bolalar hayotini tashkil etishdagi roli. Muloqot 5-7 yoshli bolalar hayotida katta o'rin egallaydi; bolaning kayfiyati , faolligi va faoliyati uning tengqurlari bilan muloqotdagi ehtiyojlar qanday qondirilishiga bog'liq bo'ladi. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun muloqotning kengligi, tashabbuskorlik, muloqotning ishiga va shaxsga oid tabiati xosdir. Ammo shu bilan birga nizolar ham bo'lib turadi. Tarbiyachi har bir bola jamoani tarkib toptirish vositalaridan biri bo'lgan muloqot ma'daniyatini egallab olishi uchun bolalarning o'zaro munosabatlariga rahbarlik qilishi kerak.

Bolalarning guruhdagi faoliyatining jamoa shaklidagi faoliyatiga aloqador hayotlarini tashkil etish muloqotning har xil ko'rinishlari ish va shaxsga oid shakllarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar suhbatga kirishadilar, taasurot va fikr almashadilar, rollarni taqsimlashni, o'yin mazmunini, ishlarini muhokama qiladilar va shu kabilar. Bolalarning katta yoshlilar bilan muloqotlari xilma-xildir.

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagilarning tarbiyaviy vazifalari quyidagi xulq madaniyatini: katta yoshlilar va tengqurlar bilan osoyishta va holisona muloqotda bo'lish, nizoli vaziyatlarda o'zini to'g'ri tutish madaniyatini shakllantirishni birinchi navbatda ilgari suradi. Tarbiyachi muloqot madaniyatini shakllantirishda yetakchi o'rinni egallaydi. U bolalarni muloqot qoidalari va hushmuomila muloqot qilish usullari bilan tanishtiradi.

Ertalab va kechki paytlarda bolalarning muloqotda bo'lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratiladi. Tarbiyachi avvalo yolg'iz o'ynayotgan bolalarga murojaat qildi va ularga nima qilish va nima deyish kerakligini aytib, birlashishni taklif etadi: <<Nigori oldiga borganda, uni o'zing bilan <<maktab- maktab>>o'yanshga taklif et, unga o'yinchoqlarni qayerdan olishni ayt>>.

Pedagog o'z guruhidagi bolalarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda, muloqotga oson kirishadigan faol bolalar ham, uyatchan bolalar ham o'zlarini yaxshi xis qiladigan bolalar jamoasini tashkil etadi. Masalan, u uyatchan va tortinchoq bolalarga ularni tengqurlari va katta yoshlilarga ko'proq murojaat qilishga undab, so'rash, tushuntirish, o'z kuzatishlarini gapirib berish qabilidagi topshiriqlarni beradi. Muloqotga rahbarlik qilishda tarbiyachi bolalarning faqat ularni o'zilarigagina xos bo'lgan xususiyatlarini ham hisobga oladi. Muloqot madaniyatini tarbiyalashning muhim vositasi katta va kichik guruh bolalari faoliyatining jamoa shakllarini tashkil etilishidir.

Katta va tayyorlov guruh bolalarining turmushini tashkil etish barqaror tabiatga egadir. U turli bayram ertaliklari, sayr- tomoshalar va yozda turistik safarlarni o'tkazishda qismangina o'zgaradi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi to'g'risida o'z fikrlaringizni bildiring?
2. Bog'chada bolalarning xonasining jixozlanishi to'g'risida nimalarni bilib oldingiz?
3. Bolalarning o'yinlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar?
4. Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash xususida o'z fikrlaringizni bildiring?
5. Bog'chada mashg'ulotlarni tashkil etish xususida nimalarni bilib oldingiz?
6. Muloqotning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishidagi o'rni to'g'risida o'z fikrlaringizni bildiring?

15-MAVZU: Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini barkamol qilib tarbiyalashda milliy udum va odatlar. 4-SOAT

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga «An'ana», «odat», «marosim» bevosita «bayram» larning maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasidagi o'zni mazmunini yoritib berish, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar hosil qilish.

Asosiy savollar:

1. An'ana, odat, marosim, bayram tushunchalarining mazmuni
2. O'zbek xalqining oilaviy marosimlari va uning tarbiyaviy ahamiyati.
3. Urf – odat va ma'rosim turlari.
4. Diniy bayramlar va ularning bolalarga tarbiyaviy ta'siri.

Tayanch so'zlar va iboralar: An'ana, odat, marosim, bayram, aqika, chilla, muchal yoshi, nikoh.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. .Isroilova M.N. "Bolalar va o'smirlar gigiyenasi". Tibbiyot nashri., 1994
2. V. I. Loginova va P.G. Samorukovalar tahriri ostida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti.1992 yil.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
6. «Bolalar bog'chasida ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y
7. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
8. Sh.Shodmonova, «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» Toshkent-2003

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni. Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an'ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o'rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzining o'ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. «An'ana», «odat», «marosim» bevosita «bayram» tushunchasi bilan bog'liq.

«An'ana» — tarixiy taraqqiyot jarayonida va ijtimoiy ehtiyojlar orasida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida majmuasi hisoblanadi. Xalq an'analari — uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati asosida, atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avloddan-avlodga o'tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu-o'ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy-madaniy merosga aylangan.

Urf-odat kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Masalan: kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tanibga keltirish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida kekxa qariyalar, kasal o'g'il, qiyinlangan kishilar holidan xabar olish, qo'ni-qo'shnilarni biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

Urf-odat degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo'lib, u ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining fe'liyatida mustahkamlanib qolgan va kiyinchalik o'z-o'zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma'nosini bildiradi.

An'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatining barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Urf-odat esa muayyan bir kishining turmush tarzi xatti-harakati, xulq-atvori, mulqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Marosim — inson hayotidagi muhim voqyealarni nishon-lashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi. Masalan: ism qo'yish, nikohdan o'tish, dam qilish, xotiralanish, urug' qadash marosimlari.

Urf-odat kundalik hayotda kuzatilsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqyealarni rasmiylashtiradi. Marosimlarni o'tkazishda avloddan-avlodga o'tadigan ramziy va-rasmiy an'analarni, qoidalarga amal qilinadi. Marosimga bo'layotgan voqyeaga «guvoh» sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g'ami yoki quvonchiga sherik bo'lishadi, kelajak uchun yaxshi

niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o'ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi bo'adi. Inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqyealarni nishonlash jarayonida an'ana ham, urf-odat ham, marosim ham mujassamlashadi.

Buni quyidagi bir misolda ko'rish mumkin: yoshlar voyaga yetganda yigitlar uylanadi, qizlar turmushga chiqadi. Bu avloddan-avlodga o'tib keladigan an'ana sanaladi. Yigit va qizning oila qurishi uchun nikoh to'yi o'tkaziladi. Nikoh to'yini o'tkazish esa insoniyat hayotiga singib ketgan qoidaga ega bo'lgan urf-odat hisoblanadi. Nikoh to'ylarining asosiy shartlaridan biri kuyov va kelinning nikohdan o'tishidir. Har bir davrda bu to'y bilan bog'liq o'ziga xos urf-odatlar vujudga keladi. Masalan: hozirgi paytda maxsus bezatilgan mashinalarda ko'chalarda yurish, guvohlar bilan baxt uyiga borish, kerakli hujjatlarga imzo chekish, nikoh uzuklarini almashish kabi odatlarga amal qilinadi. Bu rasmiy va tantanali ravishda o'tadigan marosimdir. «An'ana», «urf-odat», «marosim» bir-biri bilan bevosita bog'liq hodisa sanaladi. Shu bois an'anaming tarkibiy qismi urf-odat, urf-odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo'lishi mumkin.

Ba'zi holatlarda «an'ana», «odat» va «marosim» tushunchalari alohida ishlatilsa, ular mavhum ma'noni anglatishi ham mumkin. Bunday paytda ularga aniqlovchi so'zlar qo'shilib, masalan, «an'anaviy bayram», «mukofotlash maro-simi», «to'y marosimi», «nafaqaga kuzatish marosimi» tarzida qo'llaniladi. Marosim so'zi jamoatchilik ishtirokida o'tkazila-digan katta tadbir ma'nosini bildiradi.

Yeng qadimiy odamlarning turmushi bilan bog'liq an'analar: to'da bo'lib yashash udumlari; sardorlik, oqsoqolik uchun olishuvlar; bolalikdan o'spirinlikga; o'spirinlikdan erkaklikga o'tish marosimlari; turli ko'rinishli dafn odatlari; qurbonlik marosimlari oila va to'y marosimlarining poydevori bo'lgan pomgam, egzogam, monogam odatlari kabilar ibti-doiy jamoa taraqqiyotida jiddiy rol o'ynagan. Ular ibtidoiy odamlarning mashaqqatli hayotida erishilgan tajribalarni asrash va ko'paytirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Qadimiy odatlarni o'rganishda «Avesto» kitobi eng qadimiy manbalardan bin hisoblanadi, Zardushtiylik diniga xos odatlar hozirgi paytgacha ham saqlanib qolgan. Ular ichida eng kattasi Navro'z bayramidir. Kasallikni oldini olish yoki undan saqlanish uchun isiriq tutatish, tongda hovlini tozalash, yuvinish, o'choqqa olov yoqish kabilar zardush-tiylardan o'tib kelayotgan odatdir.

Oilaviy marosimlar oila paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Shu bilan birga o'zgargan rivoj topgan. Taraqqiyot, zamon talabiga javob bermagan odat marosimlar unitilgan. Ularning o'rnini esa oila ehtiyojlarini qoniqtiradigan yangi marosimlar egallagan.

O'zbek xalqining oilaviy marosimlari va uning tarbiyaviy ahamiyati. O'zbek xalqining oilaviy marosimlari ham tarixiy zu-ruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig'iriqlaridan o'tib, muhim ma'naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Sho'rolar davrida har bir kishi yaxshi yashay olmasa, butun jamiyat ham yaxshi yashay olmasligi uqturiladi. Bu davrda asosiy e'tibor umumdavlat ishlariga qaratildi. Shaxs, oila ehtiyojlari esa diqqat markazidan tushib qoldi. Jumladan, katta davlat bayramlari birinchi darajali, oilaviy — maishiy bayramlar ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Xalqning asrlar mobaynida to'plangan bebaho boyligi — shaxs va oila hayoti bilan bog'liq marosim va bayramlar unutila berdi.

Hozirgi paytda jamiyatimiz oldida shaxs, oila turmush tarzini yaxshilash va u bilan bog'liq oilaviy an'analar, urf-odatlar, marosimlarga e'tibor qaratish muhim muammo bo'lib turibdi. Xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan oilaviy marosimlari sho'rolar davrida jiddiy to'siqlarga uchragan bo'lsa ham mustaqillikka erishilgandan so'ng ular qayta tiklana boshladi. Bu an'ana, urf-odat va marosimlar to'g'risida qator kitoblar chop etildi. Oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jara-yonida namoyon bo'ladigan axloq-odob, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyat-ga ega. Xalq an'analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezori kishilar chiqmaydi. Shu bois xalq an'analari va oilaviy urf-odatlar yordamida yosh-larni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, jamiyat asosini oila va uning a'zolari tashkil qiladi. Jamiyatning taraqqiyoti oila, shaxs rivojlanishi bilan belgilanadi. Marosim va bayramlar inson hayotining uzviy qismi hisoblanadi. Har bir kishining shaxsiy hayotida shunday muhim voqyealar, bosqichlar mavjudki,

ular alohida e'tiborni, xursandchilik taqozo etadi. Bu hodisalar o'ziga xos tantana va bayram tarzida nishonlanadi.

Farzandning tug'ilgan kuni, unga ism qo'yish, bolaning ilk qadam bosishi, o'g'il-qizning birinchi bor maktabga borishi, maktabni bitirishi, nikoh to'yi, kumush, oltin va olmos to'ylari, nafaqaga kuzatish kabilarni tantanali tarzda nishonlash inson hayotida ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan ko'pgina hayajonli hodisalar ham yuz beradiki, ular ham bayramona yoki tantanali kayfiyat yaratadi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtiga kirib, talaba bo'lish, uni tugatish, ishga kirish, 40, 50, 60, 70, 80 yoshini nishonlash marosimlari kishi hayotida shunday voqyealar sirasiga kiradi.

Insonlarning quvonch va qayg'usini atrofdagi kishilarga ma'lum qilish insonlar o'rtasida hamjihatlik qaror topishiga sabab bo'ladi. Farzandning dunyoga kelishi har bir oila uchun quvonch bag'ishlovchi holatlardan biridir. Oila a'zo-lari chaqaloq tug'ilganini qarindosh-urug'lari, yoru-do'stla-riga xabar qilgani borishgan. Ular esa bu quvonchli xabar uchun suyunchi berishgan. Chaqaloq ota-onasi, qarindosh-urug'lari chiroyli ism tanlashadi. Chaqaloqni dunyoga kelishi tantanali va quvonchli oilaviy bayram sifatida nishonlanadi. Nikoh to'ylari kumush va oltin to'ylar va boshqa oilaviy marosimlar oilaviy bayramlar sarasiga kiradi.

Oilaviy marosimlar kishilik jamiyati madaniyatining tar-kibiy qismi sanaladi. Shu boisdan ularda insonlarga xos bo'lgan axloq me'yorlari aks etadi. Mamlakatimizda sbg'lom turmush tarzi qaror topayotgani sari shaxs va oila hayoti bilan bog'liq ilg'or an'analar shakllanib, tabora takomillashib bormoqda. Oilaviy an'analami, oila hayotidagi muhim bosqichlarni, voqyea va sanalarni bayram tarzida nishonlash muhim ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, xalq turmush tarzini takomillashtiradigan vosita hisoblanadi.

Xalq an'analari kishilar dunyo qarashini shakllanishida ta'sir etuvchi muhim omildir. O'zbek oilalarida chaqaloq tug'ilganidan to voyaga yetib, o'zi yangi oila qurguncha quyidagi urf-odat va marosimlar o'tkaziladi:

1. Homilador ayol va tug'ilajak chaqaloqni asrash bilan bog'liq urf-odat.
2. Chaqaloqni dunyoga kelishi bilan bog'liq urf-odatlar (suyunchi).
3. Chaqaloq sog'lig'ini saqlashga qaratilgan urf-odatlar (chilla davri).
4. Ism berish urf-odatlari.
5. Chaqaloqni beshikka solish marosimi (beshik to'yi).
6. Soch olish marosimi (soch to'yi).
7. Tish chiqishi bilan bog'liq urf-odatlar (tish to'yi).
8. Bolaning birinchi qadam qo'yishi bilan bog'liq urf-odatlar (ilk qadam to'yi).
9. O'qil farzandlarni sunnat qilish urf-odatlari.
10. Bolani 12 yoshga to'lishi bilan bog'liq boigan urf-odatlar (muchal to'yi).
11. Yangi oila qurish urf-odatlari (nikoh to'yi).
12. Kumush, oltin va olmos to'ylari.
13. 50, 60, 70 yoshlarni nishonlash marosimlari. Farzand tug'ilmasdan awal qilinadigan urf-odatlar. Xalqimiz homilador ayolni asrab avaylaydi. Bu ota-onalari-mizdan bizgacha yetib kelgan odat. Homilador ayolga yomon gapirish, qo'pollik qilish eng katta gunoh sanaladi. Homilador ayollarning asabiylashishi, og'ir yuk ko'tarishi, zo'riqi-shiga aslo yo'l qo'yish mumkin emas.

Qadimdan homilador ayolga murdani ko'rish, axlat tashlangan joylardan yurish, mol so'yilgan yerlardan o'tish, supurgi, tayoq, arqon, suv ustidan sakrab o'tish taqiqlangan. Homilador ayol amal qilishi kerak bo'lgan qadimiy o'gitlarda katta ma'no bor. Ularni o'ziga xos asosga ega ekanligini zamonaviy ilm-fan ham tasdiqlaydi. Xalqimizning barcha qadimiy odatlari homilador ayol va uning tug'ilajak farzandi-ning, jismoniy ruhiy xavfsizligini saqlash, chaqaloqning sog'omon tug'ilishini ta'minlashga qaratilgan. Ajdodlarimiz bola tarbiyasi ona qornida boshlanishini o'sha zamonlardayoq tushunib yetishgan.

Shunday ekan homilador ayol hayoti bilan xalq urf-odatlarini chuqur o'rganish, tahlil qilish, ulardan unumli foydalanish millatning kelgusi bo'g'ini uchun jiddiy zamin yaratadi. Chaqaloq va onasi uchun chilla davri. Xalqimizning urf-odatlari orasida farzandning dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlar mavjud, ularning har bin yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Bu chaqaloq tug'ilganda yaqin kishilardan «suyunchi olish», «kindik kesish», bolani cho'miltirish, chaqaloqqa ism qo'yish, qulog'iga azon aytish, kichik va katta chilla davrini o'tkazish, chaqaloqni beshikka solish kabi tadbirlardan iborat.

O'tmish odatlariga ko'ra chaqaloqni har tomonlama asrash taqozo etilgan. Chilla davri uchun xarakterli xusu-siyatlar: ona va bolani yolg'iz qoldirmaslik, ular yashayotgan xonaga hyech kimni kiritmaslik, chaqaloqni tuzli, tuproqli suvlarda tez-tez cho'miltirish, onaga og'ir yumushlar qildir-maslik, tunda tashqariga chiqmaslik, bolani qorung'u joyda saqlamaslik, ona-bola asabini buzmaslik, qo'rqitmaslik ular salomatligini saqlash garovidir. Sharqda qadimdan emizikli ayol toamnomasiga alohida ahamiyat berib kelingan. Yosh bo'shangan ona sut keltiruvchi kuchli toamlar iste'mol qi-lishi, sutni sifatini buzmaslik uchun piyoz, sarimsoq, garim-dori, spirtli ichimliklar iste'mol qilmasligi zarur. Bular bola tanasi uchun — og'irdir.

Toshkentda chilla davrida «aqiqa» degan marosim o'tkaziladi. Ufarzand 7, 14, 21, 28 kunlik bo'lganda qo'y so'yib, osh damlab, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar ishtirokida tashkil etiladi. U ikki jon ona va bolaning eson-omon bo'lishi niyatida, ollohga shukronalik ramzi sifatida o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, «chaqaloq chilla» davomida ona maxsus gigiyenaga rioya qilgan, u o'z bolasini kasallik, «yovuz kuchlar»dan, «yomon ko'z»lardan asrab-avaylagan. U o'z farzandini bu yorug' dunyoga moslashishi uchun zamin yaratgan. Tibbiyot xodimlari fikricha, chilla davrida kasal bo'lmagan chaqaloq ulg'ayganda ham sog'lom bo'ladi.

Ism qo'yish odatlari. Chaqaloqqa ism qo'yish inson hayotidagi eng muhim voqyealardan hisoblanadi. Qadimdan bolaga ism qo'yish mas'uliyatli ish sanalgan. Ism bola tabiatiga mos kelmasa, undan yaxshi inson chiqmaydi yoki u kasallikka chalinaveradi deyilgan. Chaqaloqqa ism qo'yish vazifasini har-kimga ham ishonilmagan. Buning uchun maxsus marosim uyushtirilib, unga eng obro'li dono qariyalar taklif etilgan. Ana shu marosimga yig'ilganlar o'zaro maslahatlashib, bolaga ism qo'yishgan. Islom diniga e'tiqodi baland kishilar mulla-yeshon chaqirib, chaqaloqning qulog'iga azon aytdirib, so'ng unga ism qo'ydirishgan.

Xalqda «ismi jismiga mos» degan ibora bor. Kishilar bolaga qo'yilgan ism ulg'ayishi jarayonida uning odobiga ta'sir qiladi, deyishgan. Kishining ismiga mos bo'lishga intilishi uning ma'naviy ulg'ayishiga samarali ta'sir qiladi.

Tug'ilgan kun. Bolalarning tug'ilgan kunini oilada nishonlash kichkintoylarning o'zi uchun ham katta bayram hisoblanadi. Bunday tantanaga bolaga uning yoshiga mos keladigan sovg'alar, shirinliklar, o'yinchoqlar berilishi sabab bo'ladi. Tug'ilgan kunga bolaning o'rtoqlari taklif etiladi. Bolalar uchun alohida dasturxon yozilib, ular mehmon qilinadi. Shu asosda bolalarning mehmon kutish va mez-bonlik malakalari shakllana beradi. Bolalarning tug'ilgan kunlarini nishonlashda turli qiziqarli o'yinlar tashkil qilish muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu o'yinlarning asosiy mazmuni bolalarda ziyraklik, nutq madaniyati kabi ijodiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Qadimda kishilarning tug'ilgan kunlarini nishonlash odati keng tarqalmagan. Ilgari ko'p sharq xalqlarida, o'zbeklarda ham «yil boshi» (navro'z)da kishining umriga yosh qo'shiladi deb hisoblangan. Shu sababli «Navro'z» tabiatning yangi-lanish bayrami bo'lib qolmay, u barcha uchun «yosh oshdi» tantanasi hisoblangan. Hozirgi paytda tug'ilgan kun bilan tabriklash oilada, do'stlar davrasida, ish joylarida ham odat tusiga kirdi. Ko'pgina muassasalarda yubileylarni nishonlash yaxshi an'ana bo'lib qolmoqda. Tug'ilgan kunni nishonlash o'zbeklar uchun yangi odat. Ammo 12 yosh — muchal to'yini, 63 yosh — «payg'ambar yoshi»ni nishonlash an'anasi qadimdan mavjud.

Beshik to'y. Qadim zamonlardan har bir oilada o'tkazib kelingani tufayli, bu marosim xalq madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Beshik to'yi haqida ma'lumot berishdan oldin beshikni o'ziga ta'rif bersak o'rinli bo'lardi. Beshik insoniyat tarixida yaratilgan buyuk kashflyotlardan biridir. Beshik bolaning 2-3 yoshgacha ulg'ayishi uchun juda foydalidir. U kichik, ixcham bo'lgani uchun istalgan joyga ko'chirib olib borish mumkin. Beshik go'dakni ovutish, erkalash, uxlatish uchun o'ta qulay tuzi-lishga ega. Beshik bolani tashqi ta'sirlardan himoya qiladi (sovuqdan, issiqdan, zaxdan). Beshik bolani qo'l-oyoq harakatlaridan bexos cho'chimay, biror narsaga urilmay, yotgan joyida ag'dailib ketmay, quruq osoyishta uxlashiga imkon beradi.

Chaqaloq tug'ulandan keyingi muhim tadbirlardan biri -bolani beshikka solish marosimi va beshik to'yidir. Tosh-kentda farzand tug'ilganiga 7 yoki 9 kun to'lganda bolani beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Go'dakning chillasi chiqgach, qudalarning kelishuvi asosida beshik to'yini o'tkazish odat tusiga kirgan. Beshik to'yidan oldin kelinning onasi o'z

nabirasi uchun sarpolar tayyorlaydi. Qarindosh urug'lar ham yoshlik to'yida chaqaloqqa atab sovg'alar keltirishadi.

Bolaning ilk tishi chiqishi ham oilada quvonchli vo-qyeaga aylanadi. Bolaning otanasi, qarindoshlari buni katta xursandchilik bilan nishonlaganlar: bug'doy qovurmoch tayyorlab, bolalarga tarqatishgan, kampirlarni chaqirishib guruchli taomlar bilan siylashgan.

O'zbeklarda soch — to'y bolaning sochini ilk bor olish ham ma'lum tartib asosida amalga oshirilgan. Bolaning sochini ilk bor buvisi yoki bobosi yaxshi niyatlar bildirib olganlar.

Birinchi qadam bayrami. O'zbek xalqining farzandlar tarbiyasiga alohida e'tibor berishi bolaning ilk bor mustaqil qadam qo'yishiga bag'ishlangan marosimda ham o'z aksini topgan. Ota-bobolarimiz bu marosimda «bolaning beli baquwat bo'lsin deb, beliga belbog' bog'lashgan», «to'qlik bo'lsin, bola ocharchilikni bilmasin!» deb mazali kulchalarni kichkintoylarga tarqatishgan, «suvdek serob bo'lsin!» deb marosim o'tkazilgan vaqtda bolaning qadam bosgan yerlariga suv sepishgan, «bolaning hayoti shirin bo'lsin!» deb bolaning boshidan shirinliklar sochishgan, «chiroyli boisin!» deb bola yura boshlaganda yo'llariga gullar sochilgan, «boy bo'lsin!» deb bolaning ustidan pullar sochilgan, «kasalga chalinmasin!» deb isiriq tutatishgan, «omon bo'lsin!» deb duolar o'qishgan. Bolani birinchi qadam qo'yishini marosim sifatida nishonlashning o'ziga xos ramziy ma'nosi ham bor. Birinchi qadam bolaning shunchaki oddiy harakati bo'lib qolmay, kelajakda qilinadigan ko'plab ishlarning debochasi deb ham qaralgan. O'zbekistonning turli hududlarida «birinchi qadam» marosimi turlicha o'tkazilib kelingan. Ayrim joylarda bu tadbir faqat ayollar va bolalar ishtirok etadigan kichik oilaviy marosim sifatida uyushtirilgan, unda erkaklar qatnashmagan. Tog'li qishloqlarda esa «Birinchi qadam» katta anjumanga aylanib ketgan.

«Birinchi qadam» marosimi madaniyat uylari, bolalar bog'chalari va oilalar bilan hamkorlikda keng doirada o'tkazilsa, yanada qiziqarli bo'ladi.

Sunnat to'yi. O'qil bolalar hayotida eng muhim marosimlardan bin sunnat to'yidir. Sunnat to'yi turli joylarda turlicha - «xatna to'yi», «qo'lni halolash», «o'g'il to'yi» kabi nomlar bilan yuritiladi. Sunnat islom dini paydo bo'lishidan ham ilgari mavjud bo'lgan. Sunnat qilish qadimiy zamonlarda o'g'il bolalarning bolalikdan o'spirinlikka o'tish davrida o'tkazilgan. Xatna paydo bo'lishi haqida «Injilda» shunday fikrlar bildirilgan: olamning paydo bo'lishi davrida Ibrohim payg'ambarga xudodan vahiy kelgan. Unga ma'naviy poklanish ramzi sifatida xatna qildirish buyurilgan ekan. 100 yoshli Ibrohim payg'ambar o'zini, uch yoshli o'g'li Ismoilni, shuningdek, qui va xizmatkorlarni xatna qildirgan. 50-70 yillarda xatna rasmiy doiralarda reaksiya odat deb qabul qilingan bo'lsada, bu xususida norasmiy tortishuvlar yaqin yillargacha davom etdi. Faqat 1988-yildan boshlab xatna foydali deb tan olinib, O'zbekiston Sog'liqni saqlash Vazirligi buyrug'i bilan shifoxonalarning jarrohlik, urologiya bo'limlari xodimlariga xatna qilishga rasmiy ruxsat berildi. Shundan so'ng xatna qilish ochiqchasiga rasmiy o'tkaziladigan bo'ldi.

Muchal yoshi. Xalqimizda muchal yoshini nishonlash an'anaviy marosimga aylangan. Muchal yoshini nishonlash umrning bir davridan ikkinchisiga o'tish — bolalikdan o'smirlikka o'tish tantanasi sifatida bayram qilingan. Chunki bu davrdan so'ng bola vujudida jiddiy tabiiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. U jisman va ma'naviy ulg'ayadi.

Inson hayotiga kun, oy, fasl, yil o'z ta'sirini ko'rsatadi. Inson vujudida ham o'n ikki yil ichida jiddiy o'zgarish sodir bo'ladi. 12 yil ichida yosh bola organizmida jiddiy o'zgarish va rivojlanish sodir bo'ladi. 13 yoshdan o'g'il bolalar organizmida erkaklik unsurlari, qizlarda esa ayollarga xos xususiyatlar faol rivojlana boshlaydi. Muchal yoshiga bag'ishlangan marosim oilada ikki quda ishtirokida karnay-surnay navolari, to'y bolaga maxsus oq liboslar kiydirish, uning bo'yi barobar oq mato o'lchash, oq toam va shirinliklar ulashish, isiriq tutatish, duolar o'qish kabi an'analar asosida o'tkazilgan. Qadimda muchal yoshiga bag'ishlangan marosim Navro'z bayrami tadbirlariga qo'shib o'tkazilgan. «Oq libos-li» muchal yoshini nishonlayotgan yoshlar Navro'z o'tkazi-layotgan joyga kirib kelishganida barcha ularni qutlashgan. Kichik yoshli bolalar ularga bahor gullarini taqdim etishgan. Muchal to'yining yakunida 7-8 muchal yoshini yashagan qariyalar (taxminan 70 yoshdan oshgan) o'smirlarni duo qilganlar.

Mustaqillikka erishilib, milliy qadriyatlar tiklana boshlagandan so'ng «Muchal yoshi» nafaqat oila a'zolari davrasida, balki maktablarda ham ota-onalarning ishtirokida Navro'z bayrami arafasida nishonlanmoqda. Bu kabi yangi tadbirlar ko'pgina maktablarning an'anaviy bayramlariga aylanib bormoqda.

O'zbek to'ylari. To'y — hayotning katta shodiyonasi, oila baxt saodati va farovon turmush ramzi, hayotning eng quvonchli damlaridir. Xalqimizda qadimdan «Beshik to'yi», «Nikoh to'yi», «Payg'ambar yoshi to'yi» kabilar boigani ma'lum. Hozirda nikoh to'ylarining yangicha, zamonaviy shakllari qaror topmoqda. To'ylarni o'ziga xos bayram tarzida tashkil etish, ularni tartibga solish, ixchamlashtirish ayniqsa badiiy jihatdan boyitish davr talabidir. Yurtboshimiz I.A.Karimovning 1998-yil 28-oktabrdagi to'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishni tar-tibga solishga bag'ishlangan farmonlari ajdodlarimizning oilaviy qadriyatlarni tiklash, mazmun va mohiyatini bozor iqtisodi talablari darajasida shakllantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Nikoh to'ylari. Har bir kishining hayotida yangi sahifa ochadigan, muhim burilish yasaydigan eng muhim vo-qyeaning tantanali nishonlanishidir. Nikoh to'yi oilaviy marosimlar ichida eng yirigi bo'lib, uni tashkil qilish va o'tkazish uzoq muddatni o'z ichiga oladi. Nikoh to'yi bilan bog'liq odatlar, irim, rasm-rusmlar ham juda ko'pdir. O'zbekistonning turli shahar qishloqlarida o'tkaziladigan nikoh to'ylarining umumiy jihatlari bo'lganidek, har bir hududdagi to'ylarning o'ziga xos tomonlari ham mavjuddir.

O'zbek nikoh to'ylari uch bosqichli jarayonni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich - kelin tanlash, unga sovchi yuborish, non sindirish fotiha qilish kabi marosimlardan iborat. Xalqimizning to'y marosimi bilan bog'liq «sovchilik» haqida ikki og'iz so'z.

Sovchilar ko'pni ko'rgan obro'-ye'tiborga sazovor boigan kishilar boiadilar. Sovchilar bo'lg'usi kelinning ota-onasini, oilaviy hayotini, hovli-joyining ozodaligini, ota-onasining muomilasini kuzatadilar. Ayniqsa, bo'yiga yetgan qizning uyiga sovchi kelganda, sovchilar birinchi navbatda shu xonadonning oshxonasiga va hojatxonasiga e'tibor berganlar. Agar oshxona sarishta boisa, hojatxona ham toza bo'lsa, sovchilar bu xonadonning qizi farosatli, mehnatsevar ekan degan tasawurga ega bo'lganlar. Ayniqsa, qizning onasiga e'tibor berganlar, «Onasini ko'rib, qizini ol» degan maqol shu ma'noda ishlatiladi. Sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida shunday vasiyat qiladi: «o'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamogga e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim» — deya farzandlarga juft tanlash masalasiga katta e'tibor bergan.

Ikkinchi bosqich - kelinni kuyovning uyiga olib kelish, nikohlash, to'y-tomosha, bazim kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich — nikoh to'yidan so'ng o'tadigan «yuz ochdi», «kelin salom», «kuyov chaqirdi» kabilardan iborat.

Nikoh to'ylarida o'zbek xalqining eng yaxshi ma'naviy fazilatlari namoyon bo'ladi; to'yga barcha oldindan tayyor-lanadi, hamma o'zining yaxshi ko'rgan liboslarini kiyadi, barchada ko'tarinki run, xursandchilik hukum suradi.

Hozirgi paytda nikoh to'ylarida ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi nikoh to'ylarida yigit-qizning roziligi, o'zaro muhabbati asosida o'tkazilmoqda. Balog'atga yetma-gan yoshlarni nikohdan o'tkazish butunlay yo'q oldi. «Qalin», «sut puli» kabi ortiqcha xarajat talab qiladigan qadimiy udumlar deyarli barham topdi. Ortiqcha xarajatlar butunlay yo'q bo'lmasada, ular o'rnini yangi oila uchun zarur bo'lgan jihozlarni olib berish an'anasi egalladi. Mustaqillik sharofati bilan yoshlarni nikoh oldidan tibbiy ko'rikdan o'tkazish yaxshi an'anaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasida ko'zda tutilgan: «Nikohlanuvchi yoshlar tibbiy ko'rikdan faqat ularning roziligi bilan o'tkaziladi» - degan qoidadan ko'tilgan maqsad muddao g'oyat qutlug'dir. Bu qoida mohiyatan jamiyatda sog'lom oilani shakllantirish, sog'lom avlodni dunyoga keltirish va ularni barkamol bo'lib tug'ilishini ta'minlashga qaratilgan an'anadir.

O'zbek nikoh to'ylari hozirgi paytda asosan uchta marosimdan iborat bo'lmoqda:

1. «Non sindirish» marosimi — kelin va kuyovning ota-onasi, qarindoshlarining nikoh to'yini o'tkazish rejasini tuzib olishlari uchun zurur bo'lgan muloqot - kengash vazifasini o'taydi.
2. Kelin-kuyovning FHDYo byurosi ro'yhatidan o'tishi. Bu an'ana oilaning huquq va majburiyatlarini qonunlashtirish vazifasini bajaradi.
3. To'y marosimi yosh yigit-qiz oila qurganligini tan-tanali nishonlash uchun xizmat qiladi.

Oilaviy marosimlarni o'tkazish jarayonida namoyon bo'ladigan insonparvarlik, mehribonlik, mehmondo'stlik kabi fazilatlar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Bu tadbirlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq odatlari, folklor janrlari, lapar, yor-yor, o'lan

marosim qo'shiqlari, o'yin-musobaqalar, duolardan foydalanish - yoshlarning ma'naviy kamol topishida katta ahamiyatga ega.

Kumush, oltin va olmos to'ylar. Hayotimiz farovonlashib bargani sari to'ylarning yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Er-xotinning 25 yil, 50 yil, 75 yil birga oilaviy hayot kechirganiga bag'ishlangan kumush, oltin va olmos to'ylarini o'tkazish bilan bog'liq yangi tantanali tadbirlar vujudga keldi. Xalqimizning yoshi kattalarni, ayniqsa, qariyalarni hurmat qilish kabi qadimiy an'analari hamda o'zbek oilalarining mustahkamligini ana shunday yubiley to'ylarini o'tkazish uchun asos bo'ldi. Shuni alohida aytish joizki, bunday yubiley to'ylarini, ayniqsa, olmos to'yini nishonlash ham-maga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun oltin to'y

kumush to'yga nisbatan tantanaliroq, olmos to'y oltin to'yga qaraganda yanada yuksak tayyorgarlik darajasida tashkil qilinishi kerak. Azaldan mustahkam an'analarga ega bo'lgan o'zbek oilalari hayotiga 60-yillardan boshlab oltin, kumush va olmos to'ylari kirib keldi.

80-yillar oxirida esa «oila bayrami» degan yangi to'y shakli paydo bo'ldi. Endigina nikohdan o'tgan yosh kelin kuyovlar ham, kumush, oltin va olmos to'y egalari ham birgalikda sharaflanadi. Ushbu to'ylar endilikda o'lkamizning turli shahar qishloqlarida ham o'tkaziladigan bo'ldi. Ular oilalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Diniy bayramlar va ularning tarbiyaviy ta'siri. Diniy bayramlar. Dunyodagi barcha dinlar o'ziga xos bayramlarga ega. Har bir dinning rivojlanib borishida bay-ramlarning ahamiyati kattadir.

Islom dinida ikki asosiy hayit «Qurbon hayiti», «Ro'za hayiti» ko'p asrlardan buyon nishonlab kelinmoqda. Ro'za hayiti. Ramazon - hijriy yil hisobining 9-oyi bo'lib, islomaq idalari bo'yicha bu oyda Olloh Muhammad alayhissalomga qur'onni vahiy qilgan ekan. Shuning uchun ham islom dunyosida ramazon muqaddas hisoblanib, bu oyda musulmonlar ro'za tutishadi. Ramazon yakunida esa islomning katta bayramlaridan biri - Ro'za hayiti boshlanadi. Qurbon hayiti. «Qurbonlik» - «yaqinlik» ma'noni bildiradi. Shuning-dek, qurbonlik Ollohning rahm-shavqatiga sazovor bo'lish, unga minnatdorchilik bildirishni ifodalovchi marosimdir. Islom dim taraqqiy etgan sari qurbon hayiti musulmonlar birlashadigan, hamdard bo'ladigan kunga ham aylana borgan. Shuning uchun musulmonlarga farz bo'lgan beshinchi rukun -hajni ado etadigan, yani Tsolomning mu-qaddas joylarini ziyorat etadigan asosiy kunga ham aylangan. Qurbon hayiti munosabati bilan 1990-yil O'zbekiston Prezidenti Farmoni «qurbon hayiti»ning birinchi kuni dam olish kuni deb e'lon qilindi.

Navro'z yangilanish bayrami. Tabiatda tun va kunning teng bo'lishi, bahorning kirib kelishi, dalalarda ish bosh-lanishidan darak beruvchi, xalq tomonidan keng nishon-lanuvchi Navro'z bayrami o'tgan davrlarda to'siqlarga duch kelsada, xalqning istagi bilan qayta tiklandi va 1990-yildan boshlab mamlakatimizda katta quvonchlar bilan o'tkazila-digan bayram sifatida nishonlanmoqda. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: «navro'z hayot abadiyligi-ning, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, shu bilan birga bizning necha ming yillik milliy qiyofamizning, urf-odatlarimizning manguilik ifodasi, tasdig'idir». «Navro'z» so'zi fors tilidan olingan bo'lib, «Nav»-yangi, «ro'z»-kun — «Yangi kun» degan ma'nolarni anglatadi. 21-mart kecha va kunduzning tenglashgan kun — yangi yil — Navro'z bayrami sifatida Sharq xalqlari tomonidan keng nishonlanadi. Navro'z juda qadimiy bayramdir. Uning juda qadimiy bayram ekanligi buyuk mutafakkir, allomalarimiz ijodlarida namoyon bo'lgan. Abu Rayxon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Umar Hayyomning «Navro'znoma», Abul-qosim Firdavsiyning «Shoxnoma», Xoja Ali Termiziy-ning «Navro'znoma», Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» asarlari Navro'z, uning paydo bo'lish tarixi u bilan bog'liq urf-odatlar haqida. muhim ma'lumotlarni beruvchi qimmatli manbalardir.

Navro'z mehr-muruwat, insonparvarlik, insonlarni uhan birlashtiruvchi bayramdir. Navro'z bayrami munosabati bilan

mamlakatlararo urush-janjallar to'xtatilgan, urushgan kishilar yarashgan, ota-onalar, qarindosh urug'lar, keksalar sovg'alar bilan yo'qlangan. Turli-tuman navro'z taomlari tayyorlangan, uy hovli, ko'chalar supurib sidirilgan, katta-katta maydonlarda o'yin-kulgular, askiyabozlik, qo'chqor, xo'roz urushtirish, kurash, teatr tomoshalari tashkil etilgan. Odamlar bir-birlarinikiga mehmonga borishgan, yerga birinchi urug' qadash marosimlari o'tkazilgan. Navro'z yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim vositadir. Navro'z yosh avlod uchun tarbiya maktabidir. Navro'z xotin-qizlarga alohida ko'rk beruvchi bayramdir. Bayram munosabati bilan

xotin-qizlar qo'llariga xina, qoshlariga o'sma qo'yadilar. Arg'im-choqlarda uchishib, she'rxonlik kechalarini o'tkazadilar.

Navro'z - tansihatlik bayramidir. Chunki bayram dasturxoni, taomnomasi inson tanasi uchun shifo man-bayidir. Navro'z munosabati bilan o'ziga xos turli taomlar, shirinliklar tayyorlanib bayram dasturxoni bezatilgan. Ya'ni, sumaiak, halim, ko'k somsa, ko'k chuchvara navro'z dasturxoni uchun asosiy taomlar hisoblangan.

Sumalak — Navro'zning shox taomi bo'lib, u ko'klam darakchisi, to'kin-sochinlik, ahillik, ezgulik timsolidir. «Sumalak sayli» o'ziga xos tarzda uyushtiriladi. Bu asosan ayollar bazmi hisoblanadi. Sumalak tayyorlanayotgan dosh-qozonlar atrofida xotin-qizlar, bolalar o'yin kulgi, aytishuv, askiya, lapar, latifalar aytishadi, childirma, dutor chalib raqsga tushishadi. Sumalak sayliga kelgan har bir inson yaxshi niyat bilan qozon kovlaydi. Balog'at yoshidagi yigit-qizlarga baxtli-saodatli, farzand ko'rmaganlarga farzandli bo'lishlari niyat qiidirib, qozon kovlatiladi. Sumalak bir kecha-kunduz davomida tayyor bo'ladi. U har bir oilan* soniga qarab taqsimlanadi. Bemorlar, yolg'iz nogironlar sumalak bilan yo'qlanadi. Sumalak bir oilada tayyorlansada, uni tayyorlash jarayonida butun qishloq yoki mahalla ahli, qarindoshlar urug'lar hamjihatlik bilan qatnashadilar.

Navro'z har bir kishini insonparvarlikga, mehr-muruv-vatga, bag'ri kenglikga, saxovatga, go'zallikka, ezgulikga da'vat etadi. Xalqni, jamiyatni poklikga, mehnatga, yaxshilikga undovchi g'oya abadiydir.

Oilaviy marosimlar tarixiy jarayonda xalq padagogikasi va donishmandligi bilan uyg'unlashib ketib, asrlar davomida yoshlarni tarbiyalashdagi asosiy shakllardan bin bo'lib kelgan. Shu sababli, hozirgi davrda ham xalq an'analarini qadrlagan, turli marosimlarni o'tkazishda ma'naviy-yestetik jihatlariga alohida e'tibor bergan oilalarda voyaga yetgan yoshlar odob-axloqli bo'lib voyaga yetadi. Ispaniyalik bir faylasuf olim butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, axloq odo-bini o'rganishga bag'ishlagan ekan. O'sha olim bizning yurtimizga tashrif buyurib, urf-odatlarmizni o'rganibdi. Yur-tiga borib: «Butun bir amalga oshirgan ishlarim va o'rgangan bilimlarimni 15 yoshli o'zbek qizalog'ining, o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yganchoy uzatishidagi odobi, nazo-katiga almashtirishga rozi edim»— degan edi. Ajdodlarmiz asrab-avaylab kelgan urf-odatlarmizni, sharqona odobimizni, naslimiz pokligini, buyukligimizni asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazish siz-u bizning qo'limizdadir.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR.

1. . An'ana, odat, marosim, bayram tushunchalarining o'zaro farqlarini tushuntirib bering?
2. O'zbek xalqining oilaviy marosimlari va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumot bering?
3. Urf – odat va ma'rosim turlariqaysilar?
4. Diniy bayramlar va ularning tarbiyaviy ta'sirito'g'risida nimalarni bilib oldingiz?

Mavzuga oid test sinovlari

1. «To'y hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni, marhumlarni xotirasiga bag'ishlangan tadbirlarni utkazishni tartibga solish to'g'risida»gi farmoni qachon qabul qilindi?

- a) 1998-yil 28-oktabr;
- b) 1997-yil 29-avgust;
- d) 1999-yil 1-aprel;
- ye) 2000-yil 3-mart.

2. Sharq xalqlarining muhim qadriyatlari hisoblangan bayramlarni ko'rsating?

- a) «Navro'z» va «Mehrijon» bayramlari;
- b) «Mustaqillik» va «Navro'z» bayramlari;
- d) «Mehrijon» va «Xalqaro xotin-qizlar» bayramlari;
- ye) «Ro'za xayiti» va «Qurbon xayiti» bayramlari.

3. «Inson ma'naviyatini, yuksak axloq va madaniyatini, o'z milliy an'analarini qayta tiklashni muazzam qatlamlari ochildi. Eng muhimi esa, inson va fuqaroni fikrlash va dunyoqarashi o'zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uni umumiy saviyasi o'sib bormoqda» kabi jumlarlar I.Karimov-ning qaysi asarida keltirib o'tilgan?

- a) «XXI asr bo'sag'asida X.T.B.Sh. va T. Kafolatlari»;
- b) «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda»;

d) Istig'lol va ma'naviyat;

ye) «Milliy istiqlol mafkurasi».

4. Badiiy ijodda o'z jozibadorligi, oxangdorligi, ravon-Hgi, chuqur g'oyaviy badiiyligi bilan insoniyat e'tiborini o'ziga qaratib kelgan asarlarni ko'rsating?

a) «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon»

b) «Kecha va kunduz», «Navoiy» romani

d) «Kecha va kunduz», «Qutlug' qon»

ye) «Qutlug' qon», «Mehrobdan chayon»

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASI
KAFEDRASI**

**MAKTABGACHA PEDAGOGIKA
FANINING**

AMALIY MASHG'ULOT

AMALIY MASHG'ULOT -1
MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MAKTABGACHA TA'LIM
KONSEPSIYASI TAHLILI. 4-SOAT
REJA:

1. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasining yaratilishining ahamiyati
2. Konsepsiyasida maktabgacha ta'limning oldiga qo'ygan maqsad vazifalarining yoritilishini o'rganish.
3. Konsepsiyada ta'lim islohatlariga yondoshuvlarning ko'rsatilishi mazmuni
4. Isloh qilingan ta'lim texnologiyasining didaktik modeli.
5. Maktabgacha ta'lim tizimining tuzilish tavsifi.
6. Konsepsiyasida maktabgacha ta'lim muassasalarini dasturiy – uslubiy ta'minlash to'g'risida.
7. Konsepsiyada maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar xususida

Darsning maqsadi: Talabalarga uyga vazifa qilib berib yuborilgan O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasining yaratilishining ahamiyati, konsepsiyasida maktabgacha ta'limning oldiga qo'ygan maqsad vazifalarining yoritilishi, konsepsiyada ta'lim islohatlariga yondoshuvlarning ko'rsatilishi mazmuni, maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi, maktabgacha ta'lim muassasalarini dasturiy – uslubiy ta'minlashga doir barcha bilim ko'nikma malakalarni takrorlash, mustahkamlash, amaldagi ahvoli to'g'risida bahs, munozara o'tkazish.

Tayanch tushunchalar:

Kontsyepsiya, maktabgacha ta'lim, uzluksiz ta'lim, ijtimoiy-pedagogik yondoshuv, gnoseologik yondoshuv, psixologik yondoshuv, akmeologik yondoshuv.

Darsning umumiy metodi: Guruh ichida munozara, Suhbat, tushuntirish, hikoya, namoyish etish, amaliy ishlar.

Talabalarga qo'yiladigan talablar: Mavzu yuzasidan darslik va qo'shimcha adabiyotlarni o'qib o'rganish, ularni tahlil qilib, kuzatilganlarni yozish, ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok etish.

O'qituvchiga qo'yiladigan talablar: Talabalar diqqatini mavzu mazmuniga jalib eta olish, ta'limiy maqsadni to'g'ri qo'ya bilish, tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, talabalar og'zaki va yozma faoliyatlarini rag'batlantirish.

Darsning borishi: Darsning tashkiliy qismida o'qituvchi guruh xonasining tozaligi, talabalabalarning davomati va o'tgan mavzuni biroz takrorlab, uyga berilgan vazifani talabalardan so'rashdan oldin talabalarni 4 guruhga bo'lib, har bir guruhga quyidagi topshiriqni beradi, har bir guruh o'ziga nom tanlaydi, guruh sardorini saylab olishlari kerakligini aytadi. Guruhlar o'zlariga nom va sardor tanlab olgach guruhlar ichida mavzu rejalarini ketma-ketligi asosida muhokamali savollar berib, javoblar berish asosida ball to'plab borishlari kerakligini aytadi.

Guruhlar ichida ishlash metodida amal qilinishi zarur bo'lgan qoidalarga to'xtaladi:

- guruhda tinchlik saqlanishi va javoblarni qaysi talaba ifoda etishini etirof etuvchi guruh sardorlari ekanligi;
- savol berish navbati soat strelkasi bo'yicha borishini;
- birinchi javobni bergan guruhda agar javoblar to'liq bo'lmasa boshqa guruhlar ham qo'shimcha qilishlari mumkinligini;
- guruh tomonidan berilgan javob to'liq bo'lmagan holda boshqa guruh aniq javob bersa ball berilishini va birinchi javob bergan guruh bali pasayib ketishi mumkinligini;
- berilgan savollarning aniqlikligiga va javob berayotgan guruh javoblari to'g'riligini tinglab, agar tuzatishlar kiritish kerak bo'lsa javoblar tinglanib bo'lgach javob berish lozimligini;
- dars so'ngida ballar yig'indisi hisoblangan chog'da, agarda guruhda nechta talaba umuman faollik ko'rsatmagan bo'lsa guruhning umumiy yiqqan balidan shuncha bal olib tashlanishi, shuning uchun guruhlardagi barcha talabalar qatnashishi lozimligini;

➤ dars oxirida a'lo ball to'plagan guruh talabalarining hammasiga "a'lo" baho, yaxshi ball to'plagan guruh talabalarining hammasiga "yaxshi", qoniqarliball to'plagan guruhga "qoniqarli" baho qo'yishini aytadi.

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasi hajmi ko'pligi va bir parali darsda o'rganish va tahlil qilish qiyinligini hisobga olib bugungi darsda asosan to'rt reja o'rganilishini o'tgan darsda aytganligini yana bir bor ta'kidlaydi sababi, guruhlardan berilgan muhokama uchun savol faqat to'rt rejadan kelib chiqishi lozimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Dars oxirigacha o'qituvchi berilgan savollar saviyasiga va javoblarning aniq va to'g'ri ekanligini nazorat qilib boradi.

Guruhlar tomonidan savollar berish boshlanadi...

Dars so'ngida o'qituvchi va talabalar bilan birgalikda dars xulosalanadi, aktiv ishtirok etgan talabalar baholanadi va uyga vazifa beriladi. Qo'llanilgan metodning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Kontsyepsiyasi. Toshkent 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
4. B.Ziyamuxdomyedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
5. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
6. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
7. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000

AMALIY MASHG'ULOT -2

MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQ TA'LIMI TIZIMI VA UNING TURLARINI O'RGANISH. 4-soat

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni mazmun mohiyati.
2. O'zbekiston respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturita'hlili.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.
4. Ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi tamoyili.
5. Ta'lim tizimi va turlari.
6. Hozirgi davrda jahonda ta'lim tizimining ahvoli.

Darsning maqsadi: Talabalar O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida bo'lgan islohatlar, qonun, ta'lim to'g'risidagi qonunning moddolari va tamoyillari dasturlar va ta'limni tashkil etish turlariga doir barcha bilim ko'nikma malakalarni takrorlash, mustahkamlash, amaldagi ahvoli to'g'risida bahs, munozara o'tkazish.

Tayanch tushunchalar: Ta'lim to'g'risida"gi qonun, uzluksiz ta'lim, Milliy dastur, ta'lim tizimi, tamoyil, izchillik, tizimlilik, sistemlilik, ta'lim-tarbiya

Darsning umumiy metodi: Guruh ichida charhpalak usuli, munozara, suhbat, tushuntirish, hikoya, namoyish etish, amaliy ishlar.

Darsda foydalaniladigan vositalar: Vatman qog'oz, marker, bo'r, skoch, magnit.

Talabalarga qo'yiladigan talablar: Mavzu yuzasidan darslik va qo'shimcha adabiyotlarni o'qib o'rganish, ularni tahlil qilib, kuzatilganlarni yozish, ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok etish.

O'qituvchiga qo'yiladigan talablar: Talabalar diqqatini mavzu mazmuniga jalb eta olishi, ta'limiy maqsadni to'g'ri qo'ya bilish, tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, talabalar og'zaki va yozma faoliyatlarini rag'batlantirish.

Darsning borishi: Darsning tashkiliy qismida o'qituvchi guruh xonasining tozaligi, talabalabalarining davomati va o'tgan mavzuni biroz takrorlab, uyga berilgan vazifani talabalardan so'rashdan oldin talabalarni 4 guruhga bo'lib, bugungi mavzu o'rganilish hajmi kengligini hisobga olib o'tgan darsda uchta rejaga tayyorlanib kelish topshirig'ini berganligini ta'kidladi va bugun mavzuni guruh ichida "Charhpalak" usuli asosida mavzu mazmunini talabalar yoritishligini etirof etadi va "Charhpalak" usulini qo'llanilishiga doir tushunchalarni talabalarga etkazadi.

“Charhpalak ” usulini qo'llash uchun zarur bo'lgan asosiy qoidalar:

- ✓ qog'ozga avvaldan o'qituvchi tomonidan eng asosiy masalalar yozilgan bo'lishi kerak va shu qog'ozlarda bugungi mavzuning mazmuni yoritilish imkoniyati bo'lishi;
- ✓ har bir guruhning o'z marker rangiga ega bo'lishi;
- ✓ guruhlarda tinchlik va o'zaro bir birini tinglashga asoslanish;
- ✓ tahlil paytida xatolarga yo'l qo'ymaslik;
- ✓ xato javoblarga guruhlarda to'g'ri belgisi qo'yilgan bo'lsa boshqa guruhlar tuzatishi ;
- ✓ har ikki minut oralig'ida muammolar almashinishini, bunda o'qituvchi chapak chalganidan so'ng soat strelkasi bo'yicha muammolarni almashinasdi va shu kabi talablarni talabalarga tushuntirdi har bir guruh o'ziga berilgan muammoni marker bilan fikrlarini qog'ozga tushira boshladi...

Vatman qog'ozlar almashinish jarayoni 60 minut davom etadi. Song tahlilga 10 minut ajratiladi.

Har bir guruh o'zlarini birinchi olgan vatman qog'ozdagi muammolarining har birining to'g'rayisiga quyidagi belgilar qo'yiladi:

✓ ---to'g'ri

X --- xato

? --- izoh so'rash

= --- **takrorlangan javob** belgilarini qo'yib doskaga chiqib guruh sardori tahlil qiladi. Izoh so'ralgan guruhlardan savolga javoblar so'raladi. Dars so'ngida aktiv ishtirok etgan talabalar baholanadi va mavzu mustahkamlanadi, uyga vazifa beriladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbyekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O'zbyekiston, 1992.
2. O'zbyekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni G'G`Barkamol avlod – O'zbyekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsyerni, 1998.
3. O'zbyekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» G'G`Barkamol avlod – O'zbyekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsyerni, 1998.
4. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi (maktabi)ning muvaqqat namunaviy Ustavi G'G`Xalq ta'limi j., № 1. 1999.
5. «O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi Nizom G'G`Xalq ta'limi j., № 6. 1999.
6. 6.Yo'ldoshyev J.G`. Xorijda ta'lim. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsyerni, 1995.

Amaliy mashg'ulot-3

MAVZU: KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI VA TA'LIM TO'G'RISIDAGI QONUNNING YARATILISHI.2S

REJA:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim to'g'risidagi qonunning yaratilishi
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining tarkibiy qismlari
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimi

Darsning maqsadi: Talabalarga O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta'lim to'g'risida”gi qonunlari haqida tushunchalar berish va ularni mustahkamlash.

Tayanch tushunchalar: Kadrlar tayyorlash, milliy dastur, ta'lim tizimi, tarkibiy qismlari.

Darsning umumiy metodi: Og'zaki tushuncha berish va bahs-munozara.

Talabalarga qo'yiladigan talablar: Adabiyotlarni tahlil qilish, ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok, bahs- munozaralarda ishtirok etish. Olgan bilimlarni maktabgacha t'lim muassasalarida kuzatish va tahlil qilish.

O'qituvchiga qo'yiladigan talablar:

- a) talabalar diqqatini jalb etish;
- b) didaktik maqsadni tushuntirish;
- v) faollashtiradigan bilim va ko'nikmalarni rag'batlantirish.

Darsning borishi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustda o'tkazilgan IX sessiyasida umumxalq muhokamasidan o'tgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalgam oshirib boriladi. Har bir bosqich muayyan vazifalarni hal etishni nazarda tutadi.

I bosqich (1997-2001) – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoit yaratish.

II bosqich (2001-2005) – milliy dasturni ro'yobga chiqarish, mehnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda aniqliklar kiritish.

III bosqich (2005-yil va undan keyingi yillar) to'plangan tajribalarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni G'G'Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsyerni, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» G'G'Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsyerni, 1998.
4. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi (maktabi)ning muvaqqat namunaviy Ustavi G'G'Xalq ta'limi j., № 1. 1999.
5. «O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi Nizom G'G'Xalq ta'limi j., № 6. 1999.
6. Yo'ldoshyev J.G'. Xorijda ta'lim. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsyerni, 1995.

AMALIY MASHG'ULOT -4

MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIM TARBIYASIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARINI O'RGANISH.2S

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan talablarning qo'llanilish qamrovi
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy –hissiy rivojlanishiga qo'yiladigan talablar tahlili
3. Bolalarning jismoniy rivojlanishi, o'z –o'ziga xizmat va gigiyenasiga qo'yiladigan talablarni o'rganish.
4. Bolalarning nutq, o'qish va savodga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish

Darsning maqsadi: Talabalarga “Uchinchi ming yillikning bolasi” dasturining yaratilishi, dastur asosida maktabgacha ta’lim muassasasi bolalarining guruhlariga bo’linishi, dasturda bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo’yiladigan talablarning yo’nalishi, dastur asosida guruh bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablari to’g’risida keng ma’lumotlar berish.

Tayanch tushunchalar: Dastur, yo’nalishlar, turli guruhlar, guruhlarda bolalar soni, tarbiyachi, nizom, qoidalar.

Darsning umumiy metodi: Suhbat, tushuntirish, hikoya, kuzatish, namoyish etish, amaliy ishlar.

Talabalarga qo’yiladigan talablar: Mavzu yuzasidan darslik va qo’shimcha adabiyotlarni o’qib o’rganish, ularni tahlil qilib, kuzatilganlarni yozish, ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok etish.

O’qituvchiga qo’yiladigan talablar: Talabalar diqqatini mavzu mazmuniga jalb eta olish, ta’limiy maqsadni to’g’ri qo’ya bilish, tegishli bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish, talabalar og’zaki va yozma faoliyatlarini rag’batlantirish.

Darsning borishi: Dasturning mazmuni quyidagi tamoyillar asosida tanlanadi:

1. Maktabgacha ta’limning davlat va jamiyat talablariga mosligi.
2. Maktabgacha ta’limning bolalarni sog’lomlashtirishga yo’naltirilganligi.
3. Bolalarning qobiliyati, ehtiyoji, imkoniyatiga mosligi.
4. Maktabgacha ta’limda o’yin faoliyatining yetakchiligi.
5. Maktabgacha ta’limning insonparvarligi.
6. Maktabgacha ta’limning ijtimoiy turmush bilan mosligi.
7. Maktabgacha ta’limning demokratiligi.
8. Maktabgacha ta’limning oila va boshlang’ich ta’lim bilan uzviyligi.

“Uchinchi ming yillikning bolasi” dasturida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tizimi quyidagi omillarga tayanadi:

- davlat va jamiyatning barkamol shaxsga bo’lgan ehtiyojining kuchayganligi;
- milliy o’zlikni anglash tuyg’usining rivojlanganligi;
- milliy umuminsoniy tarixiy an’analarga va o’zbek xalqining intellectual merosiga

bo’lgan ijobiy munosabatning shakllanganligi;

Dasturni bilish va uni guruh hayotining aniq sharoitlarini hisobga olgan holda bajarish maktabgacha tarbiya sohasidagi har bir mutaxassis uchun majburiydir.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “O’zbekiston buyuk kelajak sari” Toshkent-1998
2. P.Xasanboyeva “Maktabgacha pedagogika” Toshkent -1993
3. O.Xasanboyeva “Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi”
4. Z.Mirtursunov “O’zbek xalq pedagogikasi” Toshkent-1973
5. P. Yusupova “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” Toshkent-1993.
6. O.U. Xasanboyeva, M.X.Tojiyeva, Sh.K.Toshpo’latova, M.M.Pirmuhamedova, R.T.Akbarova, M.Sh.Nurmatova, N.M.Qayumova, N.N.Djamilova, X.Sariyev, L.A. Kulay “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” Toshkent “Ilm ziyo” – 2006

AMALIY MASHG’ULOT-5

MAVZU: BUTUN DUNYO BOLA HUQUQLARI “KONVENSIYASI”NI O’RGANISH.4S

Reja:

1. Butun dunyo bola huquqlari konvensiyasining ahamiyati
2. Butun dunyo bola huquqlari konvensiyasida bolaning huquqlari tahlili
3. Ota –ona, qarindoshlar va qonuniy vasiylarga oid moddalar tahlili

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya . unisef. 2006y

AMALIY MASHG'ULOT -6

MAVZU: MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASASI TARBIYACHISI.2S

Reja:

1. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni
2. Pedagog olimlarning tarbiyachi murabbiy shaxsi to'g'risidagi fikrlari
3. Tarbiyachi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar
4. Maktabgacha tarbiya sohasi xodimlarni tayyorlash tizimi

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002
2. Z. O.Xasanboyeva. Pedagogika tarixidan xryestomatiya. -T., «O'qituvchi», 1993.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
4. B.Ziyamuxdmmiyedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
5. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
6. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
7. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000

AMALIY MASHG'ULOT -7

MAVZU: SHAXS KAMOLOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.2S

Reja:

1. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi
2. Bola shakllanishida biogenetik omillarning roli
3. Muhitning bola rivojlanishiga ta'siri
4. Ta'lim tarbiya jarayoni va uning bola shaxsi rivojlanishidagi o'rni

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002
2. Z. O.Xasanboyeva. Pedagogika tarixidan xryestomatiya. -T., «O'qituvchi», 1993.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
4. B.Ziyamuxdmmiyedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
1. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
2. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
3. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000

Amaliy mashg'ulot-8

MAVZU: ILK YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIYASI. .2S

Reja:

1. Ilk yoshdagi bolalarning biologik va fiziologik o'sishi.
2. Ilk yoshdagi bolalarning tarbiyasining o'ziga xosligi.
3. Ilk yoshdagi bolalarning ovqatiga qo'yiladigan talablar.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- 1.. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002
2. Z. O.Xasanboyeva. Pedagogika tarixidan xryestomatiya. -T., «O'qituvchi», 1993.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
4. B.Ziyamuxammiedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
- 5.Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
6. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
7. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
“MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASI” KAFEDRASI

MAKTABGACHA PEDAGOGIKA FANINING

Seminar mashg'ulot



SEMINAR MASHG'ULOTI -1

MAVZU: MILLIY TARBIYA VA BOLA SHAXSI KAMOLOTI. 2SOAT.

Reja:

1. Milliy tarbiya tushunchasining mazmun mohiyati.
2. Urf- odatlar va an'analarining tarbiyaviy jarayondagi o'rni.
3. Xalq og'izaki ijodi janrlari vositasida bolalarni tarbiyalash.
4. Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash shakl va usullari.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
2. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
3. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
4. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
5. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Kontsyepsiyasi. Toshkent 1992 y.
6. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
7. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
8. Shodmonova Sh ., Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent. 2003yil.

SEMINAR MASHG'ULOTI -2

MAVZU: IBN SINO JISMONIY TARBIYANING MAZMUNI VA AHAMIYATI HAQIDA.

2soat.

Reja:

1. Ibn Sinoning hayot faoliyati.
2. Ibn Sinoning bola rivojlanishi to'g'risidagi qarashlari.
3. Ibn Sinoning jismoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlari.
4. Ibn Sino bolalarning jismoniy rivojlanishi to'g'risida.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
2. Oila psixologiyasi. Pr. G.B.Shoumarov taxriri ostida. Shark, nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. - T.: 2001 i. bosh taxriri.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
- 4.P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
- 5.S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
- 6.O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Kontsyepsiyasi. Toshkent 1992 y.
- 7.«Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
- 8.Shodmonova Sh ., Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent. 2003yil.

SEMINAR MASHG'ULOTI -3

MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TO'G'RISIDAGI NIZOM. 2soat.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizomning umumiy qoidalari.
2. Maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifalari.
3. Maktabgacha ta'limni tashkil etish.
4. Maktabgacha ta'limga pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
5. Maktabgacha ta'limni boshqarish.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
2. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
3. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
4. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
5. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Kontsyepsiyasi. Toshkent 1992 y.
6. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.

7. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.

SEMINAR MASHG'ULOTI -4

MAVZU: MAKTABGACHA PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA ILMIY TADQIQOT METODLARI. 4soat.

Reja:

1. Maktabgacha pedagogika fanini o'qitilishining dolzarbligi.
2. Maktabgacha pedagogika fanining maqsad va vazifalari
3. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.
4. Maktabgacha pedagogika fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
5. Maktabgacha pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekistan Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
2. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., « O'qituvchi », 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
6. Yu.I.Fausiek. Montessori bolalar bog'chasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nash. 2008 y.

SEMINAR MASHG'ULOTI -5

MAVZU: BIR YOSHGACHA BOLALARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning jismoniy rivojlanishi.
3. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning ovqatlanishiga qo'yiladigan talablar.
4. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning tarbiyasi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekistan Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., 1997.
2. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., « O'qituvchi », 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
6. Yu.I.Fausiek. Montessori bolalar bog'chasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nash. 2008 y.

SEMINAR MASHG'ULOTI -6

MAVZU: IKKI YOSHGACHA BOLALARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.

2soat

Reja:

1. Ikki yoshgacha bolalarning moddiy muhitini tashkil etish.
2. Ikki yoshgacha bolalarning kun tartibini tashkil etish.
3. Bolalar faoliyatini tashkil etish.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Loginova V.I., Smorukovalar tahriri ostida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1992.
2. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., « O'qituvchi », 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
6. Yu.I.Fausiek. Montessori bolalar bog'chasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nash. 2008 y.

SEMINAR MASHG'ULOTI -7

MAVZU: IKKI YOSHGACHA BO'LGAN BOLALAR BILAN BOG'CHA VA OILADA OLIB BORILADIGAN MASHG'ULOTLAR . 2soat

Reja:

1. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarda madaniy- gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash.
2. Ikki yoshli bolalarda ma'naviy-axloqiy odatlarni shakllantirish .
3. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar rivojlanishida mashg'ulotlarning o'rni.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Loginova V.I., Smorukovalar tahriri ostida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1992.
2. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., « O'qituvchi », 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
6. Yu.I.Fausiek. Montessori bolalar bog'chasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nash. 2008 y.

SEMINAR MASHG'ULOTI -8

MAVZU: UCH YOSHLI BOLALARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. 2soat

Reja:

1. Uch yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Uch yoshgacha bo'lgan bolalar hayotini tashkil etish.
3. O'yin faoliyati va uni bolalar hayotini tashkil etishdagi o'rni.
4. O'z-o'ziga xizmat va uning bolalar hayotini tashkil etishdagi o'rni.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Loginova V.I., Smorukovalar tahriri ostida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1992.
2. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., « O'qituvchi », 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
6. Yu.I.Fausiek. Montessori bolalar bog'chasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nash. 2008 y.

SEMINAR MASHG'ULOTI -9

MAVZU: IKKINCHI KICHIK YOSH GURUHI VA O'RTA GURUHLARDAGI BOLALAR HAYOTINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. 2soat

Reja:

1. Bog'chada uch-to'rt , to'rt – besh yoshli bolalarning guruhlarining jihozlanishi.
2. Ikkinchi kichik yosh guruhi va o'rta guruhlarda kun tartibini tashkil etish.
3. Ikkinchi kichik yosh guruhi va o'rta guruhlardagi bolalarning o'z-oziga xizmat qilish va xo'jalik turmush mehnatini amalga oshirishining ahamiyati.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Loginova V.I., Smorukovalar tahriri ostida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1992.
2. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., « O'qituvchi », 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
6. Yu.I.Fausiek. Montessori bolalar bog'chasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nash. 2008 y.
7. Lubinskaya A.A. Tarbiyachiga bolalarning rivojlanishi haqida. Toshkent. "O'qituvchi".

SEMINAR MASHG'ULOTI -10

**MAVZU: KATTA MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR HAYOTINI
TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. 2soat**

Reja:

1. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kun tartibini uyushtirish.
2. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'yini mazmuni.
3. Mehnat uning bolalar hayotini tashkil etishdagi o'rni.
4. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda mashg'ulotlarni tashkil etish.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Loginova V.I., Smorukovalar tahriri ostida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1992.
2. R.Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002.
3. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., « O'qituvchi », 1997.
4. P.Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. «Bolalar bogchasidagi ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y.
6. Yu.I.Fausiek. Montessori bolalar bog'chasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nash. 2008 y.
7. Lubinskaya A.A. Tarbiyachiga bolalarning rivojlanishi haqida. Toshkent. "O'qituvchi".

JN, ON, YAN, BO'YICHA BALLAR TAQSIMOTI

JN – 45	ON – 25	YAN-30	100 ball
25,0– 31,0 =3	14.0-17.0 =3	16,5 – 21,2 =3	55 – 70 = 3
32.0 – 38.0 =4	18.0-21.0 =4	21,3 – 25,7 =4	71 – 85 = 4
39.0-45.0 =5	21.5-25.0 =5	25,8 – 30,0 =5	86 – 100 =5
Joriy nazorat baholanishi bir juft amaliy –laboratoriya soati uchun			
”5” baho	”4” baho	”3” baho	
Yuqori – 1.0	Yuqori – 0.8	Yuqori -0.6	
Quyi – 0.9	Quyi -0.7	Quyi -0.5	
a) 86-100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: xulosa va qaror qabul qilish;			
• ijodiy fikrlay olish; • mustaqil mushohada yurita olish; • olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; • mohiyatini tushunish; • bilish, aytib berish; • tasavvurga ega bo'lish.			
b) 71-85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:			
• mustaqil mushohada yurita olish; • olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; • mohiyatini tushunish; • bilish, aytib berish; • tasavvurga ega bo'lish.			
v) 55-70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:			
• mohiyatini tushunish; • bilish, aytib berish; • tasavvurga ega bo'lish.			
Quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi g) 0-55 ball bilan baholanishi mumkin:			
• aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; • bilmaslik.			

**O'zbekiston Respublikasi OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASI
KAFEDRASI**

**MAKTABGACHA PEDAGOGIKA
FANIDAN ORALIQ NAZORAT UCHUN
TEST SAVOLLARI**

1.Maktabgacha ta'lim muassasining Nizomi nechanchi yilda qabul qilingan.

- A.1998- yil 5 yanvar
- B.1999-yil 5 yanvar
- V.1997-yil 4 fevral
- G.1996-yil 2 mart
- D.1998-yil 4 yanvar

2.Maktabgacha ta'lim pedagogikasi qaysi fanlar bilan bog'langan.

- A.Falsafa
- B.Etika
- V.Eстетika
- G.Fiziologiya
- D.Hamma javoblar to'g'ri.

3.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi nechanchi yilda qabul qilingan.

- A.1999-yil 29 avgust
- B.1997-yil 29 avgust
- V.2000-yil 28 avgust
- G.1998-yil 22 avgust
- D.To'g'ri javoblar yo'q.

4.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun necha bo'lim va moddadan iborat.

- A.4-bo'lim 33 modda
- B.5-bo'lim 30 modda
- V.5-bo'lim 34 modda
- G.4-bo'lim 35 modda
- D.2-bo'lim 34 modda

5.Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari "Ta'lim to'g'risida"gi qonuning nechanchi moddasiga berilgan.

- A.5-modda
- B.3-modda
- V.12-modda
- G.18-modda
- D.20-modda

6.Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash davrini nechta bosqichga bo'lamiz.

- A.5 ta
- B.6 ta
- V.4 ta
- G.3 ta
- D.2 ta

7.Ta'lim jarayonida tarbiyachining roli qanday bo'ladi.

- A.Ma'lumotlarni, usullarini o'rgatish
- B.Ma'lumotlarni mustahkamlash
- V.Ma'lumotlarni aniqlash
- G.Ma'lumotlarni o'zlashtirish
- D.A,B,D javoblar to'g'ri

8.Ta'lim metodini toping.

- A.Kuzatish, namoyish etish
- B.Texnik vositalarni qo'llash
- V.Himoya qilish, suhbat
- G.Amaliy o'yin
- D.Hammasi to'g'ri.

9.Maktabgacha ta'lim muassasida quyidagi metodlardan qaysi birlari keng qo'llaniladi.

- A.Ko'rgazmali,og'zaki, amaliy o'yin
- B.Kuzatish,suhbat,hikoya qilib berish

V.Mustaqil ish,tushuntirish, didaktik o'yin

G.Hamma javob to'g'ri.

10."Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " necha bosqichda amalgam oshiriladi.

A.2 bosqichda

B.3 bosqichda

V.4 bosqichda

G.5 bosqichda

D.Bir necha bosqichda

11.Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchining kun tartibini tashkil etuvchi qismlari qaysi.

A.Ovqatlanish, uyqu, o'yin

B.Mashg'ulot, sayrlar

V.Kuzatish, ekskursiya

G.O'yinlar, tajribalar

D.A,B javoblar to'g'ri.

12.Mashg'ulot nima.

A.Tevarak atrofni o'rgatish

B.Eстетikani o'rgatish

V.Tarbiya berish

G.O'ynatish

D.Ta'lim berish

13.Asosiy pedagogik tushunchalarga nimalar kiradi.

A.O'qish, o'qitish

B.Ma'lumot berish

V.Qayta tarbiyalash

G.O'z-o'zini tarbiyalash

D.Hamma javob to'g'ri.

14.O'rta guruhda kunning ikkinchi yarmida,uyqudan keyin o'yinga necha soat ajratiladi.

A.1- soat

B.45 daqiqa

V.1,5 soat

G.50 daqiqa

D. 30 daqiqa

15.Ta'limning natijasini qanday ataymiz.

A.Tarbiya

B.Ma'lumot

V.O'qitish

G.O'qish

D.O'z o'zini tarbiyalash.

16."Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar".Bu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida yozilgan.

A.67 modda

B.55 modda

V.30 modda

G.64 modda

D. 71 modda

17.Mashg'ulotning asosiy qismida qanday ish bajariladi.

A.Mashg'ulot bilan tanishtiriladi

B.Yangi bilim beriladi

V.Takrorlash mustahkamlash

G.Bolalar diqqatiga qaraladi

D.Hamma javob to'g'ri.

18.Bola shaxsining rivojlanishida ta'sir etuvchi omillar qaysi.

A.Irsiyat

B.Muhit
V.Tarbiya
G.Ta'lim
D.Hamma javob to'g'ri.

19.Amaliy metodga nimalar kiradi.

A.Kuzatish, suhbat
B.Namoyish qilish
V.Tushuntirish, baholash
G.Tarbiya vositasidan foydalanish
D.Mashq, mustaqil ish, oddiy tajriba

20.Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayonining maqsad va vazifalarini bajarishda nimaga asoslanadi.

A.Nizomga
B.Dasturga
V.Tajribaga
G.Hujjatlarga
D.Adabiyotlarga

21."Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi qachon tasdiqlandi.

A.1999 yil 25 avgust
B.2001 yil 8 may
V.2000 yil 28 iyul
G.2000 yil 4 aprel
D.2001 yil 28 iyul

22." Uchinchi ming yillikning bolasi" dasturi kimlar uchun tayyorlangan.

A.Umumta'lim maktablari uchun
B.Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun
V.Kasb hunar kollejlari uchun
G.Oliy ta'lim uchun
D.Boshlang'ich ta'lim uchun

23.Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun dasturni kim yozadi.

A.Tarbiyachilar, olimlar
B.Uslubchilar, mudira
V.Pedagoglar, psixologlar, mudiralar, uslubchilar
G.Ota –ona tarbiyachilar
D.Mudiralar, shoirlar

24."Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " qachon qabul qilingan.

A. 1997 yil 29 may
B.1997 yil 30 aprel
V.1998 yil 7 avgust
G.1997 yil 29 avgust
D. 2000 yil 3 yanvar

25.Malaka bu ...

A.U yoki bu xildagi faoliyatga kiruvchi ish harakatlar
B.Turli xildagi murakkab faoliyatni bajarishga tayyorgarlik
V.Takrorlanadigan ish harakatlar
G.Uzoq vaqt davomida takrorlash natijasida paydo bo'ladigan kishining anglangan ish harakatlarni bajarishdagi avtomatlashgan usullari
D.To'g'ri javob yo'q

26.Ko'nikma bu...

A.Ma'lum ish harakatning qanday bajarishni tushunishi va bunday harakatning bajarilish tartibi bilan tanlash
B.Ongli faoliyatni amalgam oshirishning stereotin usuli
V.Kishining bilim malakalariga asoslangan holda ma'lum faoliyatni muvafiqiyatli bajarishga tayyorligi
D.Kishining amalda qo'llashi muhim bo'lgan bilimlar
G.Hayot davomida paydo bo'ladigan faoliyat

27.Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining kategoriyalarini ko'rsating.

A.Uyqu,ovqatlanish, sayr

B.Ta'lim o'yin, sayr

V.O'qish, mehnat,sayr

10. N.Bekboyeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. Toshkent. 1991yil.
11. N.Sakulina. Bollarni Tasviriy faoliyat. Toshkent. 1976yil.
12. K.Xoshimov. Pedagogik tarixi. Toshkent.O'qituvchi.1996yil.
13. M.I.Buyanov. Bolamni psixiatr qo'rarmish. Toshkent. 1989yil.
14. G.B.Shoumarov. Muhabbat va oila. Toshkent. "Ibn Sino". 1994yil.
15. G.B.Shoumarov va boshqalar. 1001 savolga psixologining 101 – javobi. Toshkent. "Mehnat". 2000 yil.

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Ma'naviy-ma'rifiy bo'limining 2010-2011 o'quv yili davomida talabalar o'rtasida o'tkaziladigan "Muloqot soatlari" ning mavzulari

№	Muloqot soatlari mavzulari
1.	Mustakillik kuniga bag'ishlangan «Mustakillik soati»
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarini o'rganish
3.	Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturini o'rganish
4.	Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashda yoshlarning vazifalari
5.	1-oktyabr - O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalda» mavzusi
6.	Talabalarning kiyinish madaniyati. (Qizlar va yigitlarga alohida) .
7.	«Salomatlik sirlari»
8.	O'zbekiston Respublikasi Davlat tili kuniga «Til - millat bayrami» mavzusi.
9.	Giyoxvandlik - asr vabosi.
10.	Talabalarni Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasi karori bilan tanishtirish.
11.	"Yeshlar huquqlarini belgilovchi qonunlar"
12.	Xalqaro talabalar kuniga "Talabalarning ma'naviy qiyofasi" hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan «Davlat bayrog'i milliy iftixorimiz» mavzularini o'rganish
13.	Mustaqillikni mustahkamlashda talabalar va yoshlar mas'uliyati
14.	1 dekabr Jaxon SPID (OITS)ga qarshi kurash kuni
15.	8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuniga «Konstitusiya - baxtimiz komusi» mavzusi
16.	1.Uzbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun. 2. X.Olimjon tavallud topgan kuniga «Baxt va bahor kuychisi» mavzusi.
17.	Ogohlik - yuksak burch. "Odam savdosiga qarshi kurashla talaba-yoshlarning urni" mavzusi
18.	"Mahallang tinch-yurting tinch" mavzusi
19.	14 yanvar Vatan ximoyachilari kuniga bag'ishlangan "Qurolli Kuchlar - vatanparvarlik va jasorat maktabi"
20.	Kasbiy odob, turmush nafosati, muomala madaniyati

21.	«O'zbek xalqi hyech kimdan kam bo'lmagan va kam bo'lmaydi ham» mavzusi
22.	Sog'lom oila - sog'lom avlod.
23.	1 mart - Giyoxvandlik va giyoxvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi xalqaro kurash kuni.
24.	O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zoligining 19 yilligiga, «Uzbekiston va xalqaro hamjamiyat, o'zaro hamkorlik»
25.	8-mart xalqaro Xotin-qizlar kuni
26.	Navro'z- bahor va yaratuvchilik bayrami.
27.	Diniy -ekspemizm va xalkaro teppopizm
28.	Abdulla Kodiriy tavallud topgan kun
29.	9-aprel Ulug' sarkarda, davlat arbobi, buyuk soxibqiron Amir Temur tavalludining 675 yilligi
30.	«Mustaqillik va ma'naviyat».
31.	Talabalarni Prezident farmonlari va Vazirlar Maxkamasi karorlari bilan tanishtirish
32.	9-may Xotira va Qadrlash kuniga «Xalq xotirasi oldida bosh egamiz» mavzusi.
33.	"Ichkilikbozlik, chekuvchilik, giyohvandlik va jinoyatchilik" illatlari
34.	O'zbekiston - muqaddas yurt.
35.	1-iyun Xalkaro bolalarni ximoya kilish kuni
36.	"Talaba-yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish" mavzusi
37.	Yozgi tatil kunlarini mazmunli tashkil etish

MAKTABGACHA PEDAGOGIKA FANIDAN

UMUMIY SAVOLLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasi
2. Maktabgacha pedagogikaning nazariy va milliy asoslari.
3. O'zbekiston Respublikasida Xali ta'limi tizimi va uning turlari.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichida maktabgacha tarbiyaning o'rni.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari
6. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizom.
7. Maktabgacha pedagogika faning predmeti, vazifalari.
8. Maktabgacha pedagogika fanining tadqiqod metodlari.
9. Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ekanligi.
10. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini barkamol qilib tarbiyalash.
11. Shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar.
12. Maktabgacha tarbiya davrini yosh bosqichlarga bo'lish va ularni ruhiy taraqqiyotidagi roli.
13. Bolalar bog'chasida pedagoik jarayonni tashkil etish.
14. Bog'chada bolalar hayotini tashkil etish.
15. Bir yoshli bolalarning rivojlanish bosqichlari
16. Ikki yoshli bolalarhayotini rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari.
17. Ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar hayotini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
18. Bolalarni xar xil faoliyatlarida ta'lim-tarbiya vazifalari.
19. Bolalar jamoasi va har bir bolaga yondashish usullari.
20. Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish.
21. Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish va hisobga olish.
22. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari.
23. Tayyorlov guruhida olib boriladigan ishlar.
24. Bog'cha bilan maktab o'rtasidagi aloqa shakllari.

MAKTABGACHA PEDAGOGIKA FANIDAN

GLOSSARIY.

A

Avtomatlashish, xarakatlarning avtomatlashishi – ong bevosita ishtirok etmay turib, xarakatni g'ayriixtiyoriy amalga oshirish, mashinal darajaga keltirish, ta'limning so'ngi bosqichi uchun xos bo'lgan operatorning javob reaksiyasini shakllantirish usullaridan biri. Ko'nikma hosil qilishning dastlabki bosqichida xatti xarakatlar ongli ravishda, tafakkur va nutq ishtirokida boshqariladi. Ko'nikma egallangan sari ayrim xatti xarakatlar g'ayriixtiyoriy ravishda ong ishtirokisiz bajariladi, bu o'rinda idrok va xis tuyg'ular, ayniqsa kinestetik sezgilar yetakchilik qiladi.

Agressiv xulq – shaxsning ma'naviy buzuqlikka asoslangan, boshqalarning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta'sir ko'rsatib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan g'ayriinsoniy xususiyati. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq xolda yuz beradi. Shaxsning o'ziga qaratilgan tajovuzkorlik "autoagressiya" deb ataladi (bunday xolat shaxsdagi patalogik o'zgarishlarning ko'rsatgichi bo'lib xizmat qiladi).

Agressiya, bolalar agressiyasi – bolalarga xos tajovuzkorona xatti xarakat. U bolalar alam yoki g'azab tuyg'ularini boshlaridan kechirib, ularni izxor etishning ijtimoiy maqbul usullarini topa olmagan yoki kattalarga taqlidan yo'l tutgan paytlarda namoyon bo'ladi. Bola o'z qo'rquvini yashirishga intilgan xolatlarda psixologik jixatdan o'z-o'zini ximoyalash reaksiyasi xam bo'lishi mumkin.

Adaptasiya – (lotincha, adaptatio - moslashish) tabiat yoki jamiyat xayotida, insonning ma'naviy ruxiy olamida kechadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, biror bir muhit yoki sharoitga, yangilikka moslashuvni anglatadi. Inson hayotidagi adaptasiyaning samarali kechishi ko'p jixatdan uning jismoniy, ruxiy, ma'naviy xolatiga bog'liq. Ilm-fanda adaptasiyaning quyidagi turlari mavjud: sensor adaptasiya-organizmning turli xil subyektiv o'zgarishlarga moslashuvi (ko'rish, xid bilish, ta'm-maza bilish, xaroratni sezish jarayonlarida kechadi); ijtimoiy adaptasiya-insonning ijtimoiy muhit sharoitlariga uzluksiz tarzda faol moslashuvi, ayni paytda uning ushbu jarayon natijasi sifatida kamolga yetishi. Ijtimoiy adaptasiyaning muhim jixati odamning ijtimoiy talab va tartiblarni qabul qilishini anglatishdir.

Akvarium – tabiiy suv xavzasining modeli, mini ekotizm. Unda barcha tarkibiy qismlar talabdagi nisbatda bo'ladi va ekologik muvozanatni yuzaga keltiradi. Akvarium maktabgacha ta'lim muassasalar guruhlarida (kichik guruhlardan tashqari) tabiat burchagi tarkibiga kiradi.

Aksent – 1) urg'u, aksent, urg'u belgisi; 2) o'z ona tilidan boshqa tilda so'zlovchining talaffuzila sezilib turadigan boshqachalik, aksent bilan gapirmoq; 3) tinglovchi yoki ko'ruvchining diqqatini jalb qilish maqsadida biror narsaning alohida elementlarin ta'kidlamoq, ta'kidlab ko'rsatmoq, ularga alohida urg'u, e'tibor bermoq (musiqada alohida tovush yoki akkordni dinamik kuchaytirish yo'li

bilan ajratib ko'rsatish, yozuv yoki tasvirdagi biron detalni chiziqli yoki rang bilan ajtarib ko'rsatish).

Alaliya – (a inkor qo'shimchasi va yunon. laliya-nutq) – dastlabki intellekti saqlangan, eshitishi normada bo'la turib, bolada nutqning yo'qligi yoki to'liq rivojlanmaganligi. Alaliya bosh miya katta yarim sharlari nutq qismlarining tug'ilish vaqtida shikastlanishi, miya kasalliklari yoki miyaning jaroxatlanishi natijasida kelib chiqadi. Ikki turi farqlanadi: motor va sensor. Motor alaliya nutq xarakat analizatori po'stloq uchi, ya'ni Broka markazi jaroxatlanishi natijasida sodir bo'ladi.

Anemiya – kamqonlik, qoida gemogloblin xajmining kamayishi bilan bog'liq bo'lgan kasallik. Gemogloblin eritrositlar tarkibida bo'lib, kislorod bilan birikib, uni o'pkadan organizm to'qimalariga yetkazib beradi. Kelib chiqish sabablariga ko'ra anemiya turlicha bo'lishi mumkin: ko'p qon yo'qotish sababli kelib chiquvchi anemiya; surunkali qon yo'qotish sababli kelib chiquvchi yoki eritrositlarning yuqori darajada buzilishi oqibatida yuzaga keluvchi anemiya. Anemiya yuqumli kasalliklar, gijja oqibatida xam yuzaga keladi. Kasallikning eng ko'p tarqalgan turi – organizmda temir moddasining yetishmasligi natijasida yuzaga kelgan anemiya sanaladi.

Assosiasiya – psixologiyada ayrim psixik jarayonlar va xodisalar (tasavvur, fikr, sezgilar) ning bog'lanishi; bu bog'lanishlar tufayli biror-bir jarayonning paydo bo'lishi bilan shunga bog'liq bo'lgan boshqa jarayon yuzaga keladi. Assosiasianing fiziologik asosini muvaqqat nerv bog'lanishlari tashkil qiladi. Assotasiyalar xotira va tafakkur bilan bevosita bog'liq.

Ularning 3 turi farqlanadi: yondoshlikka asoslangan, o'xshashlikka asoslangan, qarama-qarshilikka asoslangan assosiasiyalar. Ta'lim berish jarayonida o'xshashlikka asoslangan assosiasiyalar katta ahamiyatga ega.

Atrof-muxitni asrash – ona tabiat oldidagi ma'naviy qarzдорlik asosida shakllanadigan tuyg'u; yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmon, xayvonot va o'simlik dunyosi xamda atmosfera xavoni muxofaza qilish, tabiatni saqlash, qayta ishlash, atrof muhitning biologik xilma xilligini asrashga qaratilgan faoliyat.

Autotrening – o'z-o'zini ishontirishga asoslangan maxsus mashqlar majmui.

Affekt- (lotin. Ruxiy to'liqlanish, kuchli ehtiros) – nisbatan tez va qisqa muddatli, kuchli ehtirosli va emosional xolat; shaxs uchun muhim xayotiy vaziyatlarning tez o'zgarish tarzida namoyon bo'ladi; muayyan kishining o'z xatti xarakatlarini nazorat qilo olmay qolishini ifoydalaydigan tushuncha. O'ta kuchli affekt xolatida shaxs fel-atvori, o'zini tutishi, muomala munosabati, obyektiv voqyelikni aks ettirishining xarakter va mazmuni o'zgaradi. Affekt tushkun va tang vaziyatlarda yuzaga keladi. Affekt xolatida kishining ong doirasi torayadi, xulqni nazorat qilish qobiliyati yo'qoladi, tibbiyot amaliyotida fiziologik patologik affekt xolati kuzatiladi. Fiziologik affektda kishi o'z xatti xarakatini idora eta olish, keyinchalik barcha voqealarni xotirasida saqlab qolishi mumkin.

Axloqiy madaniyat – jamiyatdagi axloqning yuksaklik darajasini fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha. U shaxsning jamiyatdagi asosiy axloqiy me'yorlarini egallashi va o'zgaralar bilan shu asosda munsoabatda bo'lishi, o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jixatlarni o'z ichiga oladi. Axloqiy madaniyatning eng muhim omillaridan biri –

muomala odobi. Insonlar bir biri bilan xamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan o'zaro ta'sir ko'rsatmasdan yashashi mumkin emas.

Axloqiy me'yorlar – kishilar o'z xayoti va faoliyatida amal qiladigan ijtimoiy ishlab chiqilgan xulq atvor qoidalari.

Axloqiy sifatlar – shaxsning barcha vaziyatlarda o'zini namoyon qiladigan, uning axloqiy normalariga rioya qilishga intilishi bilan bog'liq bo'lgan doimiy sifatlari.

Axloqiy tanlash shart-sharoitlari – bola xayoti va faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan bolaning o'z ijtimoiy xis tuyg'ularini namoyon etishda eng maqbul bo'lgan ijtimoiy modellashtirilgan yoki tabiiy shart sharoitlar. Axloqiy tanlash shart sharoitlari shuni taqazo etadiki, buda bola bajarilish ehtimoliga ko'ra bir xil, ammo axloqiy mazmuni bo'yicha xar xil xulq atvor turlari oldida turadi va ulardan bittasini afzal bilish talab qilinadi

Axloqiy tarbiya – jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalar va qoidalarni o'zgartirish asosida bolada yoki bolalar guruhida ijtimoiy 'ulq atvorning axloqiy asosini singdirishni ko'zlagan tarbiya.

Axloqiy o'z o'zini boshqarish – shaxsning o'z xulq atvorini umum qabul qilingan normalar, baxolar va kasbiy talablarga muvofiqlashtira olish qobiliyatini baxolash imkoniyatini beradigan jarayon.

Axloqiy fazilatlar – insonni yaxshilikka chorlaydigan, yomonlikdan qaytaradigan axloqiy qarashlarning doimiy odat, amaliy faoliyatga aylanganini bildiradigan tushuncha. U insonning o'zagini tashkil etadi.

Aqliy rivojlanish – bolaning yoshi va xayotiy tajribasining ortishi xamda tarbiyaviy ta'sirlar bilan bog'liq xolda uning fikrlash faoliyatida sodir bo'ladigan sifat va miqdor o'zgarishlari. Aqliy rivojlanish darajasi quyidagilar bilan belgilanadi: o'zlashtirilgan bilimlar, malakalar xamda ularni o'zlashtirishda shakllangan aqliy xatti xarakatlar; o'zlashtirilgan bilimlar va munosabatlardan fikrlash jarayonida erkin foydalanish va buning natijasida yangi bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirishi.

Aqliy xarakatlar – insonning biror bir tashqi vositalarga shu jumladan, ovozli nutqqa tayanmagan xolda, ichki ongda bajariladigan turli tuman xarakatlari. Aynan mana shu aqliy xarakatlar insonning boshqa turdagi xarakatlaridan farqlab turadi. Aqliy xarakatlar nazariy va amaliy masalalarni xal qilishga qaratilgan bo'ladi.

B

Beodoblik – axloq odob qoidalariga zid bo'lgan xususiyat, insonning o'z faoliyatida boshqalar bilan bo'lgan munosabatida iymon, insof, andisha, sharm xayo, insonparvarlik kabi axloqiy mezonlar chegarasidan chiqishini anglatuvchi tushunchadir. U muayyan maqsad yo'lida va maqsadsiz amalga oishirishi mumkin. Beodoblik tug'ma xususiyat emas balki tarbiyasizlik maxsulidir. Beodoblik, qo'pollik yoki xasad yuzaga keltirgan xar qanday kelishmovchilikka qarshi eng to'g'ri javob sukutdir.

Bilim – borliqni bilishning amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan natijasi, borliqning kishi ongida tasavvurlar, tushunchalar, muloxazalar, nazariyalar ko'rinishida aks etishi; kishilarning tabiat va jamiyat voqea xodisalari xaqida to'plagan ma'lumotlari. Voqyelik xaqida olingan ma'lumotlarimiz bilim darajasiga ko'tarilishi uchun birinchidan ma'lumotlarning voqyelikka mutanosibli, ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo'lishi,

uchinchidan dalillar bilan asoslanganligi xal qiluvchi axamiyat kasb etadi. Bilimlarni tadqiq etuvchi ta'limot – epistimologiyada bilimning perseptiv xayotiy va ilmiy bilim shakllari ajratib ko'rsatiladi.

Bilim ko'nikma va malakalarni mustaxkamlash – o'qituvchining o'quv materiallarini taqdim etish jarayonida mustaxkamlik tamoyilini ta'minlashga qaratilgan maxsus ishlari.

Bilimlarni o'zlashtirish – bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni mustaxkam egallashga qaratilgan bilish faoliyati.

Biologik yosh – bola organizmning individual rivojlanish sur'atlariga bog'liq bo'lgan ko'p funksiyali balohatga yetish davri. Anatomik – fiziologik belgilar majmui bo'yicha aniqlanadi, kalendar yoshga ko'pincha mos kelmaydi. Muhim mezonlari: tana proporsiyalari, skeletning qotishi, sut va doimiy tishlarning chiqish payti, jinsiy belgilarning rivojlanishi bunda bolalarda individual rivojlanish sur'ati me'yordan 1,5 yilgacha farqlanishi mumkin.

Bola (bolalar)-18 yoshga to'lgunga qadar bo'lgan shaxs.

Bola rivojining grammatikagacha bo'lgan davri – og'zaki nutqni o'zlashtirish davri bu davr nutqda grammatik tuzilmalarni yo'qligi bilan belgilanadi. Bunda bola nutqida ibora bitta yoki bir nechta amorf so'zlardan tashkil topgan bo'ladiki, ularning tushunilishi muomala qilayotgan vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Bola xuquqi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola xuquqlari Konvensiyasi tomonidan tasdiqlangan umumiy me'yoriy qonun qoidalar majmui

Bolalar do'stligi – odatda bir xil yoshda bo'lgan bolalar o'rtasida idrok etish, muloqot qilish va o'zaro munosabatlarni shakllantirish tajribasi. Bolalar do'stligi asosida bir tomondan sherikka nisbatan mayl, shu jumladan uning tashqi jozibasiga qoyil qolish va uning malakalarini tan olish xissi yotsa, ikkinchi tomondan yolg'izlikdan qochish va o'zligini namoyon qilish istagi yotadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar do'stligiga ota onalarning fikr muloxazalari va tarbiyachilarning baxolari katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bolalar inijliklari – bolalar xulq atvorining o'ziga xos ko'rinishlari, maqsadsiz va turtkisiz xatti xarakatlar kattalar talablariga asossiz qarshilik ko'rsatish, o'zining fikrini ma'qullab turib olish kabi xolatlarda o'z ifodasini topadi.

Bolalar infeksiyalari – xavo tomchi yo'li bilan o'tadigan va asosan bolalarda uchraydigan o'tkir kasalliklar guruxi: suvchechak, bo'g'ma, ko'kyo'tal, qizamiq, qizilcha, minenget, skalatina, tepki.

Bolalarning o'yin bilan bog'liq xulq atvori – bolaning o'z tengdosh sherigi bilan o'yin vositasida amalga oshirilgan o'zaro munosabatlari va o'yinchoq sherigiga nisbatan rol o'ynagandek xatti xarakati o'yin bilan bog'liq xulq atvorining ushbu ikkala shakli bolalarda 5 yoshga kelib shakllanadi.

Bolalik – insonning voyaga yetishishidan oldingi keladigan rivojlanish bosqichi organizmning jadal o'sishi va oliy psixik funksiyalarning shakllanishi bilan tavisflanadi. Xozirgi zamon psixologiyasi falsafasi va sosiologiyasida bolalik tushunchasi biologik asosga ega bo'lib, ko'plab ijtimoiy madaniy omillarga bog'liq bo'lgan murakkab ko'p o'lchovli fenomen sifatida olib qaraladi.

Bolaning g'ashini keltiradigan xulq atvori – ko'p xollarda ongli ravishda amalga oshirilgan xolat bo'lib, katta odam bilan bola o'rtasida yuzaga keladigan

psixologik xolatning natijasida namoyon bo'ladi va bolaning kattalar irodasiga qarshiligi bildiradi.

Bolaning ichki pozitsiyasi – bolaning o'z tengdoshlari guruhidagi obyektiv o'rni xamda o'zi egallagan va egallashni xoxlashgan o'rniga nisbatan munosabati.

Bolaning qonuniy vakillari – ota-ona, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, xomiylar.

Burch – ma'naviy sohada yuksak mas'uliyat, lafzi xalollik, va'daga vafo qilish; xuquqiy sohada qonun xujjatlari, shartnoma, ish bo'yicha yuklangan majburiyatlarning bajarilishiga mas'ullikni anglatuvchi burch inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, ma'naviyat falsafasining fundamental kategoriyalaridan biridir. Bu tushuncha shaxs zimmasiga yuklatilgan talablarga nisbatan ma'suliyati va majburiyatini bajarish ma'naviy zaruriyatga aylanishni ifodalaydi. Burch anglangan xolda tanlab olingan taqdirdagina ma'naviy axloqiy kategoriya sifatida amal qiladi.

Bo'g'in – nutq apparati mushaklarining bir zarb bilan xarakatlanishi natijasida yuzaga keladigan tovush yoki tovushlar birikmasi. O'zbek tilida unli tovushlar bo'g'ini xosil qiladi. Bo'g'in qanday tovush bilan tugashiga ko'ra ikki turga bo'linadi: unli tovush bilan tugaydigan bo'g'in ochiq, undosh bilan tugaydigan bo'g'in yopiq bo'g'in xisoblanadi. Bo'g'in urg'uli, nisbatan past, kuchsiz talaffuz etiladigan bo'g'in urg'usiz bo'ladi.

V

Vazn – jism o'zining erkin yiqilishiga to'sqinlik qiladigan gorizontal tayanchga ta'sir ko'rsatadigan kuch. Sensor tarbiya jarayonida bolalar bog'chasining katta guruhida vazn xissini rivojlantirishga qaratilgan ish olib boriladi. Bolalar predmetlar vaznini qo'lda chamalab, sodda tarozida tortib ko'rib qiyoslashga o'rganadilar, “yengil” va “og'ir” tushunchalarini farqlaydilar.

Vaqtни idrok etish – obyektiv voqyelik xodisalarini vaqtda va ketma ketlikda idrok etish. Maxsus, mustaqil vaqt analizatori mavjud emas. Vaqtни idrok etish asosida ta'sirlanish va tormozlanishning ritmik almashinishi, ularning dinamikasi yotadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vaqtни idrok etish boshqa idrok etish turlariga qaraganda murakkabroq kechadi. Uni o'zlashtirishda ko'rgazmali misollardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun rasmlar, didaktik o'yinlar va boshqa usullardan ko'proq foydalanish lozim.

Videoqo'llanma – bolalar uchun bilim olishga xizmat qiladigan videodastur; atrof olam, tabiatni o'rganish, atrof muxitda xavfsizlik va mustaqillik asoslari to'g'risida tasavvurlarni rivojlantirishga qaratiladi; bolalarni tasviriy san'at, xalq amaliy san'ati namunalari, ona tabiat, o'lka va mamlakat tarixi bilan tanishtirish uchun qo'llaniladi va yordamchi o'quv materiallari vazifasini o'taydi, an'anaviy ko'rgazmali ta'lim vositalariga qo'shimcha xisoblanadi. Pedagoglar va ota onalar uchun metodik qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

Vizual tafakkur – qo'yilgan masalalarni axborot jixatdan tarbiyalash va ular bo'yicha qaror qabul qilishga yo'naltirilgan bilish jarayonlaridan biri. Bu jarayon yo maqsad sari yo'naltirilgan xatti xarakatlar yoki obrazlar ustida manipulyasiyalash olib borish, ularning transformasiyasi, “aqlda aylantirish” kabi ongsiz (g'ayriixtiyoriy) operatsiyalar vositasida amalga oshiriladi. Vizual tafakkur mevalari sifatida muayyan ma'na kasb etgan yangi obrazlar tug'iladi, yangi vizual shakllar yaratiladi.

Viktorina – o'quvchilarga o'quv materialini yuzasidan jumboqli topshiriqlar berishga asoslangan mashg'ulot turi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va xuquqbuzarlik profilaktikasi – voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qarovsizligiga, ular tomonidan xuquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti xarakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart sharoitlarni aniqlash xamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, xuquqiy, tibbiy va boshqa chora tadbirlar tizimi.

G

Gegiyena – yashash tarzi va mehnat sharoitining inson sog'ligiga ta'sirini o'rganadigan, kasalliklarni profilaktika qilish, sog'liqni saqlash va xayotni uzaytirish chora tadbirlarini ishlab chiqadigan qadimiy tibbiyot sohalaridan biri. Tashqi muhitning sanitariya xolatini xamda uning inson organizmiga ta'sirini o'rganishda gegiyena fizik, kimyoviy, fiziologik, taksikologik va boshqa metodlardan foydalanadi.

Gegiyenik omillar – bolalar sog'lig'ini saqlash va mustaxkamlashga ta'sir ko'rsatadigan bosh sabablar va shart sharoitlar majmui. Gegiyenik omillarga quyidagilar kiradi: yer uchastkasini rejalashtirishga quyiladigan sanitariya – gegiyena talablari, binoga qo'yiladigan gegiyenik talablar, barcha xonlarni shamollatish, yorug'lik rejimiga rioya qilish, xarorat rejimiga rioya qilish, xonalarni tozalashga qo'yiladigan gegiyenik talablar, bolalar mebeliga qo'yiladigan talablar, moslashuvchan kun tartibi, ovqatlanish gegiyenasi, kiyinish gegiyenasi, kun, hafta davomida bolalar bilan o'tkaziladigan ta'limiy ishlarga qo'yiladigan gegiyenik talablar. Bu omillarga ayniqsa maktabgacha muassasalardan boshlab rioya qilish g'oyat muhimdir.

Gegiyenik tarbiya – maktabgacha bolalar muassasalari va umumiy ta'lim muassasalarida tibbiyot va pedagog xodimlar olib boradigan faoliyat turlaridan biri bo'lib, u tarbiyalanuvchilar va o'quvchilarda madaniy gegiyenik malakalar va ko'nikmalarni sog'lom turmush tarzi shakllantirishga qaratilgan maqsadga muvofiq va muntazam ishni tashkil qilish va olib borishdan iborat.

Gidroterapiya – suv bilan davolash

Gimnastika - sog'liqni mustaxkamlash va umumiy jismoniy rivojlanishga yordam beradigan, umumiy rivojlantiruvchi jismoniy mashqlar majmui. Amplitudasi, tezligi va su'rati belgilangan xamda muskullarga tushadigan yuklamasi o'lchangan turli xarakatlar kombinatsiyasidan iborat.

Gimnastika MTMda – ertalab bolalar bilan mashg'ulotlardan oldin o'tkaziladigan gimnastika, bolalar bog'chalari guruhlarida bolalar faoliyatini tashkil qilish tartibi. Ertalabki gimnastika bolalar bog'chasining birinchi kichik guruhdan boshlab o'tkaziladi. To'g'ri qad qomatni shakllantirish, oyoqlarni mustaxkamlashga qaratilgan mashqlar majburiy mashqlardan xisoblanadi.

Gipog'amxurlik – bolaga to'qil erkinlik berib qo'yish. Bu tarbiya turli loqayd, sovuqqon, beparvo tarbiya turi bilan qo'shilib ketadi.

Gu-gulash davri – bir yoshgacha bo'lgan bolaning nutqni egallashga tayyorgarlik davrida turli xil tovushlarni bo'g'inlarni aytishi. Masalan, olti yetti oylik bola "ba-ba-ba", "da-da-da", "ma-ma-ma", "ga-ga-ga" kabi tovushlarni chiqaradi.

Gumonsirash – xavotirli shubxalanish. Xavotirli shubxalanish - tarbiya turi xukum surgan oilalarda asabiy bolalar voyaga yetadi.

Guruh – biron maqsadga ko'ra birlashgan yoki birlashtirilganlar majmuasi. Mas; MTMda yoshiga ko'ra birlashtirilgan bolalar guruhlari, maktabda sport turlariga ko'ra birlashtirilgan bolalar guruhlari va xk.

Go'zallik – estetika kategoriyasi bo'lib, narsa xodisalarining nafisligi va nafosatini ijtimoiy ma'naviy jixatdan baxolovchi mezon, ijtimoiy xayotda birolr bir narsa yoki kishiga xos xususiyatlarning shaklan va mazmunan uyg'unligini anglatadigan, turli shakllarda namoyon bo'ladigan va insonda yoqimli tuyg'u zavq, kuchli g'ayrat xissini xosil qiladigan tushuncha.

D

Davolash pedagogikasi – kasalmand yoki davolash muassasalaridan muolaja olayotgan bolalarni o'qitish, ularga tibbiy pedagogik yordam berish masalalari bilan shug'ullanadigan pedagogika fanining aloxida tarmog'i xisoblanadi.

Dam olish vaqti – ishlovchilar mehnat majburiyatlarini bajarishdan xoli bo'lgan va o'z ixtiyorlariga ko'ra foydalana oladigan davr. Dam olish turlari: ish kuni davomida dam olish va ovqatlanish uchun ajratilgan vaqt; ish kuni tugagandan keyingi xar kunlik dam olish.

Dars – o'qitishning vazifalari, mazmuni, nizom va metodlarini o'zida mujassamlagan, ma'no jixatdan tugallangan tashkiliy va vaqt jixatdan cheklangan o'quv jarayonining asosiy shakli. Ilk bor 18 asrda xozirgi kunga xam pedagogika va didaktikada o'z axamiyatini saqlab kelayotgan "Buyuk didaktika" asarining muallifi Yan Amos Komenskiy tomonidan amaliyotga joriy qilingan.

Dastlabki xolat – biror bir mashq olidan tana, qo'l va oyoqlar xolati. Ushbu tushuncha maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda fizkultura va musiqa mashg'ulotlari keng qo'llaniladi.

Deviant xulq – shaxsning jamiyatda qabul qilingan xuquqiy yoki axloqiy normalardan chetga chiqadigan yoki ularni buzadigan xatti xarakatlari. Maktabgacha yoshdagi deviant xulqli bolalar intellekti buzilgan bolalar uchun moslashtirilgan maxsus maktabgacha bolalar muassasalariga borishlari mumkin.

Dipressiya – xaddan tashqari xayajonlanish oqibatida yuzaga keladigan sindrom, u ruhiy tushkunlik, xarakatning susayishi, loqaydlik, atrofga bo'lgan qiziqishning yo'qolishida namoyon bo'ladi.

Didaktik tamoyillar – ta'lim jarayonining amaliy jixatdan tashkil etilishiga qo'yiladigan xamd au jarayonning natijalarini ta'minlaydigan fundamental talablarning ilmiy asosga qurilishi. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, bolalarga inividual yondashuv, ta'limning ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi funksiyalarining birligi.

Duduqlanish – nutq sur'ati va ritmning buzilishi, ayrim tovush va bo'g'inlarni qayta-qayta takrorlash yoki to'xtalib talaffuz etishga asoslangan nutqning buzilishi. Ulug' rus fiziologi I.Pavlovning oliy nerv faoliyati qonuniyatlari xaqidagi ta'limotiga ko'ra duduqlanish nevroz kasalligining bir turi xisoblanadi. Duduqlanish nafas olish, tovushlarni talaffuz etishda paylarning tortishishi natijasida sodir bo'ladi.

Ye

Yetakchi faoliyat – muayya yosh davrida bolaning ruxiy rivojlanishi, yangi asosiy psixik kasalliklarning yuzaga kelishi va shakllanishini belgilab beradigan asosiy va bosh faoliyat. Go'daklik davrida bolaning kattalar bilan munosabati yetakchi faoliyatni tashkil etsa, ilk bolalik davrida predmetlar bilan faoliyat,

maktabgacha bolalikda o'yin faoliyati, maktab yoshida o'qish faoliyati va katta yoshda mehnat faoliyati yektakchilik qiladi.

Yetim bola – otasi xam onasi xam vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola.

Yo

Yomon xulq – ma'naviyat rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan, kishilarning axloqiy ideallariga, ular e'zozlaydigan qadriyatlarga zid keladigan odamlar orasidagi munosabatlarda salbiy xodisa tarzida namoyon bo'ladigan insoniyldik talablariga mos kelmaydigan xususiyatlar va xatti xarakatlarni o'zida mujassamlashtirgan salbiy xarakatlar, ya'ni odatlar, qiliqlarda namoyon bo'ladi. Yomon xulqli odam deganda, o'zining xulq atvori qilgan ishlari bilan atrofdagilarga zarar yetkazuvchi axloqan gnopok kishini tushunamiz.

Yosh – insonning jismoniy va ruhiy rivojlanishida xronologik jixatdan chegaralangan nisbiy davr. Turli davrning bir xil vaqt o'lchamlaridan insonning jismoniy va ruxiy rivojlanishida o'z sur'ati va sifati jixatidan turlicha o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Yosh bo'yicha davrlashtirish – inson xayotining davrlarini anatomik, fiziologik va ijtimoiy psixologik belgilar majmui bo'yichs ajratish.

Yosh guruxi – yosh belgisiga ko'ra birlashtiriladigan kishilarning biron bir shartli katta guruhi. Yoshni davrlashtirishga muvofiq MTMda bolalarning yoshiga ko'ra an'anaviy ajratiladigan guruhlar: yasli yoshdagi bolalar guruhi, birinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, ikkinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, o'rta guruh, katta bolalar guruhi va maktabga tayyorlov guruhi.

Yosh psixologiyasi – inson ontogenezi davomida uning ruhiy rivojlanish va shaxs sifatida shakllanish bosqiyalarining qonuniyatlarini o'rganadigan psixologiya fani xisoblanadi.

Yosh fiziologiyasi – inson ontogenezi davomida organizm xayotiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan fan

Yosh xususiyatlari – yosh jixatdan rivojlanish bosqichlarining o'zgarishi natijasida qonuniy ravishda o'zgarib boradigan individ shaxsning o'ziga xos xususiyatlari. Individual xususiyatlardan farqli o'laroq yosh bilan bog'liq o'zgarishlar shunisi bilan ajralib turadiki, ular bir xil ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarda ko'pchilik muayyan madaniyat vakillarining ruhiyatida qsoadir bo'lgan o'zgarishlarni bildiradi.

J

Jazo – pedagogik ta'sir ko'rsatishning metodlaridan biri, maqsadi nomaqbul xatti xarakatlarning oldini olish, ularga qarshilik ko'rsatish, o'z olidida va boshqa kishilar oldida aybdorlik tuyg'usini yuzaga keltirish. Xar qanday jazo pedagog tomonidan tushuntirib, asoslab berilishi va pedagogik odob va nazokat bilan ifodalanishi lozim. Jazo turlari: qo'shimcha majburiyatlar yuklash, muayyan xuquqlarni cheklash yoki ulardan butunlay maxrum etish, axloqiy tanbex berish yoki ayblash. Jazo bolani kamsitmasligi yoki katta kishining qasos olish quroli sifatida xizmat qilmasligi kerak.

Jamoaviylik (kollektivizm) – jamoa manfaatlari va maqsadalarini alohida shaxs manfaatlardan ustuvorligini qaror topitiradigan xamda jamoaviylik birdamlik, jipslilik darajasini yuqori qo'yadigan axloqiy tamoyil.

Jismoniy mashqlar texnikasi – jismoniy tarbiya mashqlarida xarakatlarni bajarishning eng rasional usullari.

Jismoniy yuklama – jismoniy mashqlarni bajarishdagi yuklanish darajasi. Jismoniy sifatlarning rivojlanishiga erishish uchun yuklanish va xordiqni oqilona galma-gal navbatlash va to'g'ri taqsimlash, jismoniy mashq bajaruvchilarning tayyorgarlik darajasi, yoshi jinsini xisobga olish, shuningdek muayyan mashg'ulot maqsadlaridan kelib chiqib ish ko'rish talab qilinadi.

Z

Zaif eshituvchilik – eshitishning me'yordagi nutqni idrok etishga to'sqinlik qilish darajasidagi turg'un pasayishi. Zaif eshituvchilik konduktiv, neyrosensor xamda aralash turlarga bo'linishi, eshitishning pasayishi esa turli ko'rinishda bo'lishi mumkin: shivirlagan nutqni idrok etishdagi kamchilikdan so'zlashuv balandligidagi nutqni idrok qilishdagi to'siqlargacha. Zaif eshituvchi bolalarning nutqi turli omillarga, ya'ni eshitishning buzulish darajasi, muammoning sodir bo'lish vaqti, bola kamol topayotgan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Zaif eshituvchi bolalar – nutqni egallashga va nutqiy muloqotga to'sqinlik qiladigan eshitishi pasaygan bolalar. Zaif eshituvchi bolalarda eshitishning pasayishi turlicha bo'lishi, ya'ni shivirlagan nutqni idrok etishdan boshlab, so'zlashuv balandligidagi nutqni idrok etishdagi qiyinchiliklar bilan ifodalanishi mumkin. Zaif eshituvchi bolalarning gutqiy xolati eshitishning pasayish darajasi va vaqti, tarbiyalash sharoiti, uning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Zararli odatlar – shaxs yoki butun bir millat, jamiyatga tegishli ma'naviy, madaniy, moddiy o'zaro munosabatlar, dunyoqarash va xk. nuqtai nazaridan g'ayriinsoniy yoki g'ayriodatiy deb bilinadigan xususiyatlarni ifodalovchi tushuncha. Zararli odatlar insonning ma'naviyat talablarini yaxshi anglamagani, ma'naviy tamoyillarga amal qilmagani, noto'g'ri tarbiyalangani oqibatida kelib chiqadi.

I

Idrok – sezgi organlariningreseptorlarga tashqi jismoniy qo'zg'atuvchilarning bevosita ta'sir ko'rsatishida yuzaga keladigan predmetlar, vaziyatlar va voqea xodisalarining bir butun yaxlit aksi. Idrok etish, sezish jarayonlari bilan birga qo'shilib, atrof muxitda sezgilar vositasida bevosita yo'nalish topish imkonini beradi.

Idrokning kontaktligi – jismoniy idrok etish shart sharoitlaridan qat'iy nazar, predmetlarni ularning rangi, shakli, katta kichikligi bo'yicha nisbatan bir xilda idrok etish qobiliyati.

Ijara – mulk shartnomasi; ushbu shartnoma bo'yicha mulk egasi ijarachiga muayyan to'lov evvaziga mustaqil ravishda xo'jalik yo boshqa faoliyat yuritish uchun vaqtinchalik foydalanishga beradi.

Ijodiy tafakkur – erkin fikrlash va ijodkorlik tamoyili ustun bo'lgan tafakkur shakli.

Ijodiy faoliyat – tubdan yangi va moddiy va ma'naviy qimmatliklar yaratishda namoyon bo'ladigan nostandart, o'ziga xos natijalarga olib keladigan o'xshashi yo'q faoliyat. Ijodiy faoliyat uchun ichki va tashqi psixologik shart sharoitlarning birikuvi zarur bo'lib, buning natijasida ijodkor shaxsning o'z-o'zini namoyon qilishga, o'zining ijodiy qobiliyatlari va intuisiyasini rivojlantirisha bo'lgan ehtiyoji faollashadi.

Ijodiy xikoya – xayoliy xikoya; u avvalgi tajribani yangi vaziyatda qo'llashga, biron voqeani xayoldan tasavvur qilishga asoslanadi yoki o'ylab topilgan, uydirma material asosida tuziladi.

Imo-ishora – nutq jarayonida ixtiyorsiz ravishda namoyon bo'ladigan qo'l va gavda xarakatlari.

Individ (individuum) – 1) alohida tirik mavjudod, alohida odamni bildiradigan tushuncha (ijtimoiy guruh, jamoa, jamiyat, sotsiumdan farqli o'laroq); 2) filogenetik va ontogenetik rivojlanish maxsuli bo'lgan odam, tug'ma va ega bo'lingan jixatlar birligi.

Innovasion jarayon – yangiliklarni yaratish (dunyoga keltirish, ishlab chiqish), o'zlashtirish, foydalanish va tarqatish bilan bog'liq kompleks faoliyat.

Iroda – insonning ongli ravishda o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari ichki psixologik to'siqlarni xam yengib o'tgan xolda amal qilish qobiliyati. Boshqacha aytganda, iroda qo'yilgan maqsadga muvofiq amal qilishga xamda bunda ushbu maqsadga erishishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan istaklar va mayllarni bostirishga qodirlikda namoyon bo'ladi.

Is'tedod – 1. Qobiliyatlar, iqtidorlarning yuqori darajada rivojlanganligi bo'lib, ijodiy faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. 2. fan, sanoat, madaniyat rivojiga katta xissa qo'shgan insonning ijtimoiy xarakteriskasi. Is'tedod ilmiy tushunchadan ko'ra, ko'proq maishiy turmush tushunchasidir, chunki is'tedod tushunchasini tashxislashning nazariyasi va metodikasi mavjud. Is'tedod darajasi to'g'risda insonning faoliyat maxsullariga qarab baxo beriladi.

Ichki nutq – nutqning bu turi ongda shakllanadi va boshqalarga bayon qilinadi. U ovozsiz, qisqa bo'ladi. Ichki nutq inson nutqiy tafakkurining muhim shaklidir, shuning uchun xam nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarda uni to'liq shakllantirish katta axamiyat kasb etadi.

Y

Yod yetishmasligi kasalliklari – organizmda yodning yetishmasligi oqibatida qalqonsimon bez kasalliklari ko'rinishida namoyon bo'ladigan kasalliklar.

Yo'riqnoma (instruksiya) – 1) qonun yoki boshqa normativ akt qoidalarini tushuntirib berish maqsadida chiqariladigan yuridik xujjat; 2) biror bir ishni bajarish, mashina, pribordan foydalanish tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalar.

K

Komenskiy Yan Amos – (1592-1670) chexiyalik mutafakkir va pedagog. G'arb pedagogikasida didaktikaning asoschisi. Birinchi bor ona tilida umumiy ta'lim g'oyasini asoslab berdi, bir butun maktab tizimini ishlab chiqdi. Asarlari: "Buyuk didaktika" (1633-38), "Tillarga ochiq eshiklar" (1631), "Onalar maktabi" (1632) va b.

Ko'nikma – ko'p martalab takrorlash yo'li bilan shakllangan, yuqori darajada o'zlashtirib olingan, ongning ishtirokini talab qilmagan xarakter. Turlari: perseptiv, intellektual, xarakterga asoslangan. Ko'nikmani shakllantirishda uchta asosiy bosqich farqlanadi: analitik (xarakterning alohida elementlarini ajratib olish va o'zlashtirish), sintetik (o'zlashtirib olingan elementlarni bir butun xarakterga birlashtirish), avtomatlashtirish (xarakterlarni ktma-ket va maqsadga muvofiq qaytarish). Bundan ko'zlangan maqsad – xarakterlarning bir maroma ravon va kerakli tezlikda bajarilishiga erishish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'nikma taqlid, ko'rsatish, tushuntirish va ularning birikmasi asosida shakllantirilishi mumkin.

Ko'rgazma – moddiy va ma'naviy sohadagi faoliyat yutuqlarini namoyish etish vositasi.

MAKTABGACHA PEDAGOGIKA FANIDAN REFERAT MAVZULARI

1. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasining asosiy mazmuni.
2. Maktabgacha ta'lim tizimining tuzilish tavsifi.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
4. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.
5. Ta'lim tizimi va turlari.
6. Hozirgi davrda jahonda ta'lim tizimining ahvoli Bola shaxsi kamolotida ta'lim – tarbiyaning o'rni.
7. Sharq mutafakkirlarining bola shaxsini shakllantirishga oid fikrlari.
8. Abdulla Avloniy asarlarida aqliy tarbiya masalasi.
9. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy tushuncha (kategoriya) lari
10. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining ilmiy tadqiqot metodlari.
11. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda boshqa fanlar bilan bog'liqligining ahamiyati.
12. O'zbekiston respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizomning umumiy qoidalari.
13. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari.
14. Maktabgacha ta'limni tashkil etish.
15. Maktabgacha ta'limni boshqarish va moddiy ta'minoti.
16. Shaxs va uning rivojlanishi haqida tushuncha.
17. Shaxsning shakllanishiga biologik (irsiy) ijtimoiy va tarbiya omillarining ta'siri.
18. Tarbiyada bolalarning psixologik va fiziologik davrlarga bo'linishini hisobga olish.
19. Tarbiyaning mazmuni va shakli.
20. Komil insonning ma'naviy sifatleri. Ikki yoshli bolalar hayotini rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari.
21. 2.Ikki yoshli bolalar kun tartibini tashkil etish.
22. 3.Ikki yoshli bolalarda ma'daniy gigienik ko'nikmalarni hosil qilish.
23. 4.Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.
24. Ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar to'g'risida umumiy tushuncha.
25. Bog'chada ikkinchi kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar xonalarining jihozlanishi va kun tartibini tashkil etish.
26. Bolalarda o'z –o'ziga xizmat qilish va xo'jalik turmush mehnat ko'nikmalarini tarbiyalash.
27. O'yin va mashg'ulotlarning bolalar hayotini tashkil etishdagi o'rni.
28. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining umumiy masalalari.
29. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanayotgan xonaning jihozlanishi va kun tartibi.
30. O'yin va uning bola rivojlanishidagi o'rni.
31. Bolalar va mehnat faoliyati.
32. Bolalar faoliyatini tashkil etishda mashg'ulotlar .
33. Muloqot va bola shaxsi komoloti.
34. An'ana, odat, marosim, bayram tushunchalarining mazmuni
35. O'zbek xalqining oilaviy marosimlari va uning tarbiyaviy ahamiyati.
36. Urf – odat va ma'rosim turlari.
37. Diniy bayramlar va ularning tarbiyaviy ta'siri.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. -T., «O'qituvchi»1993.
2. O.U.Xasanboyeva va boshqalar. «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi». T., «Ilm ziyo» 2006.
3. «Uchinchi mingyillikning bolasi». Tayanch dasturi. T., “Ma’rifat madadkor”, 2002 y.
4. «Uchinchi mingyillikning bolasi». Metodik qo'llanma. T., 2000 y.
5. V.I.Loginova, P.G.Samorukoalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» . «O'qituvchi» T., 1991 y.
6. U.Otavaliyeva.Bola tarbiyasida bog'cha va oila xamkorligi. «O'qituvchi» T.,1994 y.
7. N.U.Bikbayev, X.N.Kosimova, Z.Ibragimova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. «O'qituvchi»T., 1995 y.
8. M.Daminov, T.Adambekova. Uyin mashg'ulotlari. «O'qituvchi» T.,1993 y.
9. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim- tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. T., O'z PFITI,2000.Tuzuvchilar Rasulova.M, Abduraxmonova.X va boshqalar.
10. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston» 1998.
11. I.A.Karimov. Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha tamoyillar. T., «O'zbekiston» 2000.
12. O'zbekiston Respublikasining «Ta'limi to'g'risida»gi Qonuni. «Ma’rifat» gazetasi. 1997 yil 1 oktyabr
13. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», -T., “O'zbekiston”, 1997.
14. O.Xasanboyeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T., «O'qituvchi», 1993.
15. Pedagogika. Munavvarov taxriri ostida. -T., «O'qituvchi», 1997.
16. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Konsepsiyasi. T. 1992.
16. www.Ziyo.net
17. <http://www//uralrti.ru>.
18. .Isroilova M.N. “Bolalar va o'smirlar gigiyenasi”. Tibbiyot nashri., 1994
19. S.A.Kozlova, T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
20. «Bolalar bog'chasida ta'lim dasturi»- Toshkent.1993, 1999, 2000y
21. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
- 22.Sh.Shodmonova, «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» Toshkent-2003

